


63.3  
14-37

M. Mahmudov, U. Sheripov

# XIVA XONLIGI TARIXI



6303(54)

№. 37

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**M. Mahmudov, U. Sheripov**

## **XIVA XONLIGI TARIXI**

(Ijtimoiy-siyosiy jihatlar)

Urganch davlat universiteti ilmiy kengashining 2012-yil 2-iyuldagi (11-sonli bayonnoma) qarori asosida nashrga tavsiya qilingan.

**Urganch – 2013**

**UDK: 94(575)(09)**

**KBK: 63.3(50‘)**

**M 37**

**Mahmudov M., Sheripov U.** Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). Monografiya. Mas’ul muharrir **N. Musayev**. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2013. 136 bet.

Monografiyada o‘zbek davlatchiligining muhim tayanchlaridan biri – Xiva xonligining to‘rt asrdan ortiqroq davrni o‘z ichiga olgan ijtimoiy-siyosiy tarixi yangi ma’lumot va manbalar asosida yoritilgan. Ayniqsa, ozodlik uchun kurash jarayonida vujudga kelgan davlatni boshqarish, o‘troq turmush tarziga o‘ta boshlagan ko‘chmanchi o‘zbek urug‘-qabilalarini janubiy Orololdi hududida joylashtirish va ular orasidagi nizolarni tugatish, xonlik hududlarini kengaytirish harakatlari va chorizmga qaramlik asoratlarining og‘ir oqibatlarini haqidagi tafsilotlarning izchil yoritilishi kitobxonlarning bilim doirasini kengaytirishga bevosita yordam beradi.

Kitob Vatanimiz tarixi bilan qiziquvchi o‘qituvchi, o‘quvchilar va keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.


**Mas’ul muharrir**

**N. Musayev**, tarix fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Sh. Vohidov**, tarix fanlari doktori,

**B. Qoshanov**, tarix fanlari doktori



**ISBN 978-9943-4031-1-6**

© UrDU noshirlik bo‘limi, 2013,

© **M. Mahmudov, U. Sheripov**. Xiva xonligi tarixi: ijtimoiy-siyosiy jihatlar.



## KIRISH

Istiqlol sharofati bilan tiklanayotgan qadriyatlar va Vatanimiz tarixini xolisona o'rganish bilan bog'liq ijobiy jarayonlar milliy o'zligimizni anglash va mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga zamin yaratmoqda. "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat olgan xalqni yengib bo'lmaz ekan, – degandi Prezidentimiz I. A. Karimov, – biz tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur".<sup>1</sup>

Mustaqillik sharoitida o'tmishning barcha jabhalari bilan bir qatorda, o'zbek davlatchiligining ilk qadamlari, yuksalish va inqiroz bosqichlari, xalqimiz hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni xolisona o'rganishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Ayniqsa, Xorazmning shonli tarixi bizda o'tmish merosimiz bilan haqli ravishda faxrlanish t uyg'usini uyg'otadi, – degan edi Prezidentimiz I. A. Karimov. – Chunki Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligi tarixining uzviy qismidir, uning qudrati va qadimiyligi timsolidir. Ana shu bebaho meros bugungi avlod zimmasiga buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lishdek ulkan mas'uliyat ham yuklaydi".<sup>2</sup>

Mustaqil davlat sifatida uzoq davr davomida mavjud bo'lib turgan va o'z hujjatlarini o'zbek tilida olib borgan Xiva xonligi tarixining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini o'rganish o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishdagi muhim vazifa hisoblanadi. Holbuki, o'z davrida xonlikda davlatni boshqaruv tizimi va milliy-madaniy qadriyatlar, muayyan an'analar shakllangan.

XVI asr boshlarida vujudga kelgan Xiva xonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda, san'at, adabiyot, me'morchilik kabi sohalar ham izchil rivojlandi. Qo'li gul ustalar betakror me'moriy obidalar tikladilar, mahoratli hunarmandlar sopol, yog'och, metallardan noyob buyumlar yasadilar, adabiyot va san'at namoyandalari yirik tarixiy va badiiy asarlar, musiqa va raqs namunalarini yaratdilar. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Xorazm va Xiva tarixi xalqa-

<sup>1</sup> Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1999, 149-bet.

<sup>2</sup> Karimov I. A. Metin irodali insonlar yurtiga ehtirom. Asarlar, 8-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2000, 243-bet.



mizning yozuv, ilm-fan, san'at, madaniyat va ma'naviyatidagi yuksalish bosqichlarini o'zida mujassam etadi".<sup>1</sup>

Mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti asoslariga qaratilgan ushbu muhim fikrlar tanlangan mavzu va muammoning o'ta dolzarb ekanligini ham tasdiqlaydi. Bu davrlarda Xorazm hududidagi siyosiy birlashma goh markazlashgan qudratli davlat shaklida namoyon bo'lsa, ba'zan qo'shni davlatlarga qaram, vassal davlat sifatida mavjud bo'lib turdi.

Kitobni yozishda tadqiqotchilar tomonidan nashr etilgan bir qator noyob adabiyotlar bilan birga, istiqlol yillarida chuqur o'rganilgan va o'quvchilarga tuhfa qilingan manbalar hamda internet tarmog'i ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

Mualliflar o'z maslahati va amaliy yor-damlarini ayamagan barcha birodarlariga minnatdorchilik izhor qiladilar.

**Mualliflar**

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Asarlar, 6-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 375-bet.

## I BOB. XIVA XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA UNING MANBALARI

Xiva xonligi tarixida bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar to'rt asrdan ortiq davrni o'z ichiga oladi va uni o'rganishga, birinchi navbatda, mahalliy tarixchilar jiddiy e'tibor qaratishgan. Ular orasida xonlikdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarning shaxsan guvohi bo'lgan Abulg'oz Bahodirxon, Sher Muhammad Munis mirob, Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Sayyid Homidjon to'ra Komyob kabi davlat arboblari va muarrixlar bor.

Xiva xonligining XVII asrdagi tarixini yoritishda Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk"<sup>1</sup> va "Shajaryi tarokima"<sup>2</sup> asarlari muhim manba hisoblanadi. Ularda jamlangan ma'lumotlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va etnik jarayonlarga tegishlidir.

Abulg'ozidan keyin Xorazm tarixini xronologik asosda yozgan yirik muarrix, "Firdavs ul-iqbol" ("Baxt-u saodat jannati") asari muallifi bo'lgan Munis Xorazmiy hisoblanadi.<sup>3</sup> Uning qo'lyozmalari voqea va hodisalar bayoniga xolisona yondashilganligi hamda yoritilayotgan voqealarning haqqoniyligiga erishilganligi bilan ajralib turadi. Munis tarixiy voqealar va Xiva xonlari shajarasini 1813-yilgacha yorita olgandi. Muarrixning 1829-yilda ro'y bergan vafoti natijasida to'xtab qolgan ijodiy ishlarini jiyani – Muhammadrizo Ogahiy davom ettirgan.

Ogahiy "Firdavs ul-iqbol"ning 1825-yilgacha bo'lgan 2-qismini yakunlaganidan keyin "Riyoz ud-davla" ("Baxt saodat bog'lari")<sup>4</sup>, "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i")<sup>5</sup>, "Jomi' ul-voqeoti sultoniy" ("Sulton voqealari yig'indisi")<sup>6</sup>, "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani")<sup>1</sup>,

<sup>1</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent, "Cho'lpon", 1992; Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk va mo'g'ul. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 851, 7626, 7668, 11110, 056; Ахмедов Б. А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVII вв. Писменные памятники. Ташкент, "Фан", 1985, с. 72–78.

<sup>2</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi tarokima. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 1552/VI, 9985, 5973, 1223, 1807.

<sup>3</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010; Sher Muhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent, "O'qituvchi", 2010; История Муниса-Агехи. Рукопись ИВ РАН. Ф. Е. 6, дд. 33а, 34а, л. 54а, дд. 54\*, 63\*, 65\*, 72\*, 86\*; Munis Sher Muhammad ibn amir Avazbiy. Firdavs ul-iqbol. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 821/I, 5364/I, 9979, 5071, 7422; Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs ul-iqbal. History of Khorezm. Edited by Yuri Bregel. T. J. Brill. Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988 (Shu asarning nusxasidan foydalanish uchun inkon yaratgan Fransiyanning Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti (IG'EAC) xodimlariga minnatdorchilik izhor etiladi (mualliflar).

<sup>4</sup> Ogahiy Muhammadrizo mirob. Riyoz ud-davlat. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 821/II, 5364/II, 7474; Miyan Buzruk. O'zbek tarixiga oid to'rt muhim kitob. 57–61-betlar; Извлечения из "Рияз ал-давла" А. К. Боровкова. МИИТ. Т. II, М.–Л., 1938, с. 427–475.

<sup>5</sup> Ogahiy Muhammadrizo mirob. Zubdat ut-tavorix. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 821/III, Извлечения из "Зубдат ут-таворих" Э. Аксакова. МИИТ. Т. II, с. 477–499.

<sup>6</sup> Ogahiy Muhammadrizo mirob. Riyoz ud-davlat. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 9786; Извлечение из "Djame al-keat-i sultani". МИИТ. Т. II, с. 500–558; Ogahiy asarlarining tavsifi (kataog № 28–30).

“Shohid ul-iqbol” (“Iqbol shohidi”)<sup>2</sup> kabi tarixiy asarlar yozgan. Ularda 1813–1872-yillar oralig‘idagi xonlik hayoti, yirik siyosiy arboblarga to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tarzda mohirona joylashtirilgan.<sup>3</sup>

“Munis va Ogahiyning asarlari adabiy va tarixiy asar sifatida biroz nuqsonlari bo‘lsa-da, – deb yozgandi akademik V. V. Bartold, – bu asarlar bayonotining mukammalligi va haqiqiy materiallarning miqdori jihatidan Buxoro va Qo‘qon xonliklarining tarixiga doir bizning davrimizgacha saqlanib kelgan hamma asarlardan ustun turadi”.<sup>4</sup>

Muarrixlar Munis va Ogahiyning tarix oldidagi xizmatlarini yuqori baholash bilan bir qatorda, uzoq yillar davomida ularning qo‘lyozmalarini o‘rganish va kitob xoligiga keltirish ustida tinimsiz ishlagan va ishlab kelayotgan olimlarning xizmatlariga alohida tasanno aytish kerak. Keyingi vaqtda bunday savobli sa’y-harakatlar qatoriga deyarli bir vaqtda yangi nashrdan chiqqan “Firdavs ul-iqbol”ning<sup>5</sup> fundamental nusxasini o‘quvchilarga tuhfa qilgan Nusratulla Jumaxo‘jayev, Shodmon Vohidov, Sapparboy Ro‘zimboyev, Abdulla Ahmedov, Nematjon Polvonov kabi olimlarga minnatdorchilik bildirish lozim.

Xiva xonligi tarixini to‘laqonli yoritishga intilgan muarrixlar orasida, shubhasiz, Muhammad Yusuf Abdulkarimbek o‘g‘li Bayoniy nufuzli o‘rinlardan birini egallaydi. 1911-yilda amaldor Avazberdi eshon o‘g‘li Tolib xo‘ja tavsiyasi bilan Xiva xoni Asfandiyor to‘pa Bayoniyga buyuk Munis va Ogahiydan meros qolgan ishlarni davom ettirish hamda xonlik tarixini yangi avlod tushunadigan tilda yozishni buyuradi, natijada 1914-yilda 16 bobdan iborat “Shajarayi Xorazmshohiy” nomli katta tarixiy asar yaratiladi.<sup>6</sup> Unda bashariyat ibtidosidan to‘ XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda Xorazm zaminida ro‘y bergan voqealar aks ettiriladi. Keyinchalik, muallif o‘z izlanishlarini davom qildirgan bo‘lsa-da, 1923-yildagi vafoti oqibatida, niyatlari to‘la amalga oshmasdan qoldi.

<sup>1</sup> Ogahiy Muhammadrizo mirob. Gulshani davla. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI, № 7572; Sultonova Q. “Gulshani davlat” muhim adabiy manba. Filol. fan. nom. ... diss. Toshkent, 1993.

<sup>2</sup> Muhammadrizo Ermiyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohid ul-iqbol. Toshkent, “Muharrir”, 2009, 335-bet.

<sup>3</sup> Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent, O‘zFAN, 1960; Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. Toshkent, G‘afur G‘ulom..., 2002.

<sup>4</sup> Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927, с. 113; Yo‘ldoshev M. Xiva xonligida feodal yur egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O‘zdamnashr, 1959, 69-bet; Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен. Библиотека сайта: XIII век. WWW: Yandex.ru

<sup>5</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010; Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010.

<sup>6</sup> Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI, № 9596; Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G‘afur G‘ulom..., 1994, 104-bet.

M. Y. Bayoniyning 508 varaqdan iborat "Shajarayi Xorazmshohiy" qo'lyozmasini o'rgangan akademik Muhammadjon Yo'ldoshev shunday deb yozgandi: "Bu asar bayonotining mukammalligi va haqiqiy materiallarning ko'pligi jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomlik qo'lyozmalaridan ko'p marta ustun turadi".<sup>1</sup>

Bayoniyning zamondoshi bo'lgan Sayyid Homidjon to'ra Komyob ham o'zining "Tavorix ul-xavonin" ("Xonlar tarixi")<sup>2</sup> asarida Xiva xonligi siyosiy tarixidan o'rin olgan yirik arboblarning hayotini yoritgan.

Yuqoridagi xorazmlik solnomachilar va muarrixlar asarlarida: Xiva xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi, unvon va mansablar; yerga egalik munosabatlari; sug'orish ishlari; soliq to'plash; jug'rofiy ma'lumotlar; qo'shni davlatlar bilan elchilik va savdo-sotiq aloqalari; qoraqalpoqlar bilan munosabatlarga aniqlik kirituvchi faktlar; xonlik aholisining etnik tarkibi va etnomadaniy jarayonlar; obodonchilik masalalari; madaniy hayotga doir noyob ma'lumotlar bor.

Xiva xonligi tarixini o'rganish va yoritishga rus hamda ingliz tadqiqotchilari katta hissa qo'shganlar. Ularning ayrimlari sayyoh va diplomat sifatida xonlik hududlariga kelgan vaqtda yo'llar, quduq, manzil-makonlar, istehkomlarni sinchkovlik bilan kuzatib, barcha belgilarni eslab qolishga harakat qilganlar. Natijada Xiva xonligi haqidagi josuslik ma'lumotlari to'plana boshlangan va ulardan kelgusida amalga oshiriladigan harbiy maqsadlarda keng foydalanilgan. Bunday manbalar qatoriga inglizlarning Rossiyadagi savdo agenti A. Jenkinsonning xotiralari,<sup>3</sup> A. Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi haqidagi ma'lumotlar,<sup>4</sup> harbiy vrach Blankennagel<sup>5</sup> va kapitan N. N. Muravyevning sayohati tafsilotlari<sup>6</sup> hamda podpolkovnik G. I. Danilevskiy<sup>7</sup> va polkovnik N. P.

<sup>1</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdamnashr, 1959, 70-bet.

<sup>2</sup> Sayyid Homidjon to'ra Komyob. Tavorix ul-xavonin. Toshkent, "Akademiya", 2002, 116-bet.

<sup>3</sup> Дженкинсон А. Путешествие в Средню Азию 1558-1560 гг. В кн. Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с англ. Л. Готье. Л., 1932, с. 167-215.

<sup>4</sup> Голосов Д. Поход в Хиву 1717 г. отряда под начальством лейб-гвардии Преображенского полка, капитана, князя Александра Бековича Черкасского. Военный сборник, 1861, т., XXI, с. 303-364; Дело 1714-1718 гг. об отправлении лейб-гвардии Преображенского полка капитана-поручика, князя Александра Бековича Черкасского на Каспийское море и в Хиву. Документы и материалы Военно-ученого архива Главного штаба. Т. I, СПб., 1871, с. 197-506.

<sup>5</sup> Путевые заметки майора Блэнкенагеля в Хиву в 1793-1794 гг. "Вестник" ИРГО, Ч. 22. СПб., 1858, с. 87-116.

<sup>6</sup> Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. Т. 1, М., 1819; Т. 2, М., 1820; Записки Н. Н. Муравьева-Карского "Путешествия в Хиву". Русский архив, 1887, № 3, с. 5-42; Muravyev N. Xiva tijorati. 1819-1820-yillarda O'g'a Osiyoga sayuohat. "Hayot va iqtisod", Toshkent, 1993, 3-son, 74-75-betlar.

<sup>7</sup> Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО. Кн. 5-я. СПб., 1851. с. 62-153.

Ignatyev<sup>1</sup> ekspeditsiyalarining hisobotlari kiradi. Ularning diplomatik niqoblar ostidagi barcha harakatlarida josuslik ma'lumotlari to'plashga uringanliklari ko'rinib turadi.

Xiva xonligi tarixini o'rganishni yangi sahifasi chor Rossiyasi bosqinidan keyin boshlandi.<sup>2</sup> Ruslar bilan Xivaga kelgan sharqshunos A. L. Kun,<sup>3</sup> Y. Jelyabujskiy,<sup>4</sup> general-leytenantlar V. N. Trotskiy<sup>5</sup> va M. A. Terentyev,<sup>6</sup> polkovniklar L. F. Kostenko<sup>7</sup> va F. I. Lobisevich,<sup>8</sup> amerikalik jurnalist A. Y. Mak-Gaxan<sup>9</sup> o'zlarining taassurotlari asosida qiziqarli asarlar yozdilar.

Xiva xonligi tarixini haqqoniy yoritish ishiga taniqli rus olimlaridan akademik V. V. Bartold katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub asarlarda Xorazm tarixining ko'plab sahifalari xolisona yoritildi.<sup>10</sup> Bundan tashqari, V. V. Bartoldning Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutidagi shaxsiy hujjatlari orasida (68-fond) Xiva shahri tarixi

<sup>1</sup> Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адютанта Н. П. Игнатъева. СПб., 1897.

<sup>2</sup> *Xivaning XIX asr tarixshunosligida quyidagi mulliflarning ishlari alohida ahamiyatga ega: Ivanin M. И Сведения о Хивинском ханстве. Мануфактура и торговля. Москва, 1843, № 4; Соболев Л. Обзор доступов к Хивинскому ханству и краткие сведения о нём. Военный сборник. СПб., 1873, № 5; Костенко Л. Ф. Хива в 1873 г. СПб., 1874; Кун А. Л. Научная работа во время Хивинского похода. Туркестанские ведомости (Турк вед.). Ташкент, 1873, № 50; Кун А. Л. Доходы Хивинского ханства. Турк. вед. Ташкент, 1873, № 32; Кун А. Л. Заметки о Хивинском ханстве. Турк. вед. Ташкент, 1873, № 46; Кун А. Л. Научная работа во время Хивинского похода. Турк. вед., 1873, № 50; Кун А. Л. Культурный оазис Хивинского ханства. Турк. вед. Ташкент, 1874, № 6; Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. СПб., 1877; Поездка из Орска в Хиву и обратно, совершенная в 1740–174 г. поручиком Оренбургского драгунского полка Дмитрием Гладышевым и геодизистом Муравиним. СПб. 1851; Ханыков Н. В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства. ЗИРГО. Кн. 5 СПб., 1851; Григорьев В. В. Описание Хивинского ханства и доро-ги. ЗИРГО. Кн. 2. СПб., 1861; Вамбери X Путешествие по Средней Азии. М.: Изд. Ма-монтова, 1867; Вельяминов-Зернов В. В. Архивные монеты бухарские и хивинские. ТВОРАО. Ч. 4. Ташкент, 1859; Каульбарс А. В. Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. ЗИРГО. Кн. 9. СПб., 1881; Его же: Древнейшие русла Аму-Дарьи ЗИРГО. Кн. 4. СПб., 1887; Его же: Материалы для разрешения вопроса о повороте Аму-Дарьи в Каспийском море. Тифлис, 1887; Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье Землевание в Шураханском участке Аму-Дарьинского отдела. Ташкент, 1900; Бартольд В. В. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времен до XVIII в. ИТОРГО. Т. 4; Бартольд В. В. Научные результаты Аральской экспедиции. Вып. 2. Ташкент, 1902; Бартольд В. В. События перед Хивинском походом 1873 г., по рассказу хивинского историка. Кауфманский сборник. М., 1910, с. 35; Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана. Вып. 2. СПб., 1914; Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. ЗИРГО. № 2. Петроград, 1914; Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан ЗКВ. Т. 5. Л., 1930; Якубовский А. Ю. Развалины Ургенча. КСИИМК. Т. 6. Вып. 2. Л., 1930.*

<sup>3</sup> Кун А. Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. ЗИРГО. Т. 10. СПб., 1874, с. 47–58.

<sup>4</sup> Желябужский Е. Очерки завоевание Хивы. М., 1875. Туркестанский сборник (Турк. об.). Ташкент, т. 85.

<sup>5</sup> Хивинский поход 1873 г. по официальным источникам. Под ред. В. Н. Троцкого. СПб., 1873.

<sup>6</sup> Терентьев М. А. История завоевания Средней Азии. В 3-х томах. СПб., 1906.

<sup>7</sup> Костенко Л. Ф. Город Хива в 1873 г. СПб., 1873.

<sup>8</sup> Лобысевич Ф. И. Описание Хивинского похода 1873 года. СПб., 1898.

<sup>9</sup> Мак Гехан А. Я. Военные действие на Оксусе и падение Хивы. М., 1875; Mahmudov M. Sarguzashtla shaydosi yoxud Xorazmga kelgan birinchi amerikalik. "Xorazm tarixidan lavhalar" kitobida. Urganch, UrDU, 1998 59–65-betlar.

<sup>10</sup> Бартольд В. В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч., 10-ти томах. М., "Наука", ИРВД, 1964. Т. 2, с. 400–413.

va xonlikning hayotiga oid 200 varaqdan ko'proq noyob materiallar saqlanmoqda.<sup>1</sup>

Xiva xonligi tarixini yoritishda 1914-yildan Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir-a'zosi N. I. Veselovskiy (1848–1918)ning xizmatlari alohida tahsinga sazovordir. 1873-yilda Peterburg universitetini tugatgan tadqiqotchi uzoq yillar olib borgan izlanishlaridan keyin, magistrlik dissertatsiyasi matni asosida “Xiva xonligi haqidagi tarixiy-geografik lavhalar: qadim zamonlardan hozirgacha”<sup>2</sup> nomli kitobini nashr qildirdi. Shu bilan bir qatorda, u o'z asarida Xorazm vohasi va Xiva xonligi tarixiga oid to'plangan ma'lumotlarning yetarli darajada emasligini ta'kidlagan. Keyingi yillarda Turkiston hayoti bilan bevosita tanishgan prof. N. I. Veselovskiy o'zining bir qator chuqur tadqiqotlari natijalarini nashr qildirishga erishdi.<sup>3</sup>

Xiva xonligining Rossiya bilan olib borgan 300 yillik savdo-sotiq va diplomatik munosabatlari sahifalari prof. S. V. Jukovskiyning 1915-yilda nashr qilingan asaridan o'rin olgan.<sup>4</sup> Olimning asari biroz shovinistik qarashlardan xolis bo'lmasa-da, Xiva xonligi tarixini yoritishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Harbiylardan general-leytenantlar – V. N. Trotskiy va M. A. Terentyev, polkovniklar A. Kostenko, A. Shepelev, K. Abaza<sup>5</sup>, V. Lobachevskiy<sup>6</sup> va boshqa rus zobitlarining asarlarida ham qiziqarli tarixiy ma'lumotlar uchraydi.

Sho'rolar davrida Xiva xonligi tarixini o'rganish ishiga Y. G'. Gulomov, P. P. Ivanov, M. Yo'ldoshev, O. Sodiqov, I. V. Pogorelskiy, G'. Napesov, M. Muhammadberdiyev, N. Qalandarov, T. G. To'xtametov<sup>7</sup> kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar. O'z davrida arxivlarda saq-

<sup>1</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdamnashr, 1959, 69-bet.

<sup>2</sup> Веселовский Н. И. Очерки историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древних времен до настоящего. СПб., 1877, с. 7.

<sup>3</sup> Веселовский Н. И. Посольства И. Ф. Федотова в Хиву в 1669–1670 гг. и подробности его пребывания в ханстве. СПб., 1882; Веселовский Н. И. Прием в России и отъезд Средне-азиатских послов в XVII–XVIII столетия. СПб., 1884; Веселовский Н. И. Русские невольники в Средней Азии. СПб., 1886.

<sup>4</sup> Жукковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград, 1915, с. 42–43.

<sup>5</sup> Abaza K. Zavoievaniye Turkestana. СПб., 1902, с. 311.

<sup>6</sup> Лобачевский В. Хивинский район Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ташкент, 1912.

<sup>7</sup> Gulomov Y. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi: qadim zamonlardan hozirgi kungacha. Toshkent, O'zFAN, 1959; Ivanov P. P. Arxiv xivinskiy xanov XIX v. L., 1940; Ivanov P. P. Oчерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX вв.). М., 1958; Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdamnashr, 1959; Yuldashev M. K istorii torgovykh i posolskiykh svyazey Sredney Azii s Rossiei v XVI–XVII vv. Tashkent, 1964; Yuldashev M. Ю. К истории крестьян Хивы XIX века. Ташкент, “Fan”, 1966; Sodiqov A. Xiva va Rossiya iqtisodiy munosabatlari (XIX asr 2 yarmi – XX asr boshlari). Toshkent, “Fan”, 1968;

langan xujjatlarni o'rgangan va ularni taxlil qilish asosida ilmiy asarlar yozgan mazkur olimlar obyektiv voqelikni yoritishga deyarlik erishganlar.

Manbalar va ilmiy adabiyotlarning bir turkumi Xiva xonligining qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlari va aloqalariga bag'ishlangan. Xivaning Eron, Rossiya, Buxoro va Qo'qon xonligi bilan o'zaro aloqalarning ayrim jihatlarini aks ettirgan ilmiy adabiyotlarda<sup>1</sup> siyosiy-iqtisodiy, etnomadaniy aloqalar, karvon yo'llari tarixi yoritiladi.

Olimlardan I. P. Petrushevskiy, M. S. Ivanov, Y. G'. G'ulomov, P. P. Ivanov, M. R. Arunova va K. Z. Ashrafyan, K. M. Munirov, G. A. Agzamova, A. F. Fayziyev,<sup>2</sup> B. S. Mannonov, P. P. Bushev, O. E. Ekaev va I. K. Pavlova,<sup>3</sup> zamonaviy Eron tarixshunoslari<sup>4</sup> hamda D. V. Valiyeva, M. Y. Yo'ldoshev va Y. N. Abdullayev, R. G. Mukminova, O. Bertonlarning tadqiqotlari Xiva xonligining qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yoritishga yordam bergan adabiyotlar sifatida qayd etsa bo'ladi.<sup>5</sup>

---

Дипломатический И. В. Очерки дипломатической и политической истории Хивинского ханства конца XIX и в начале XX вв. Л., ЛГУ, 1968 в. б.

<sup>1</sup> Allayeva N. A. XVI-XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Tarix fan. normz. diss. ... avtorfe. Toshkent, 2007, 25-bet; Allayeva N. A. Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixidan (XVI-XVIII asrlar). "Xalqaro munosabatlar", Toshkent, 2005, 3-son, 85-90-betlar.

<sup>2</sup> Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. СПб., 1877, с. 364; Веселовский Н. И. Памятники дипломатических и торговых сношений Московской Руси с Персией. Т. I. СПб., 1890, с. 462; Гулимов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, 1957, с. 313; Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - сер. XIX в.). М., 1958, с. 246; Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyalarning tarixiy asarlari. Toshkent, 1960, 169-bet; Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. (XVII - XX asr boshlari). Toshkent, 2002, 190-bet; Agzamova G. A. Среднеазиатские центры торговли и пути связывающие их с Россией. Дисс. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1990, с. 195; Agzamova G. A. О караванных путях из Хивы в Оренбург. "Общественные науки в Узбекистане" (ОНУ). Ташкент, 1991, № 12, с. 43-48; Agzamova G. A. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shaharlar hayoti. Tarix fan. dokt. ... diss. Toshkent, 2000, 348-bet; Fayziyev A., Mukminova P. G. Хорезм в начале XVI - первой половине XIX в. История Узбекистана. Т. III. Ташкент, 1993, с. 249-312.

<sup>3</sup> Манганов Б. С. Отношения Ирана со среднеазиатскими ханствами во второй половине XIX века. Иранский сборник. М., 1963, с. 56-71; O'sha muallif. Lolaboshining Xorazm safari "Sharqshunoslik", Toshkent, 1997, 8-son, 69-73-betlar; O'sha muallif. Xorazm tarixnavisligida Xiva xonligi tashqi siyosati. "Sharqshunoslik", 1997, 8-son, 155-162-betlar; Бушев П. П. История посольств и дипломатических отношений русского и иранского государств в 1586 - 1612 гг. М., 1976, с. 478; O'sha muallif. Бушев П. П. История посольств и дипломатических отношений русского и иранского государств в 1613 - 1621 гг. М., 1987, с. 297; Экаев О. Туркменистан и туркмены в конце XV - первой половине XVI в. (По данным "Алам Ар-и Сефевий"). Ашхабад, 1981, с. 142; Павлова И. К. Хроника времен Сефевидов (Сочинение Мухаммад-Масума Исфahanи "Хуласат ас-сияр"). М., 1993, с. 120.

<sup>4</sup> Ali Akbar Viloyati. Tarix-i ravobat-i xonji-yi Iron dar abdi shoh Abbos avval Safaviy. Tehron, 1995, 298-bet; O'sha muallif. Tarixi ravobat-i xonji-yi Iron dar abdi shoh Ismoil Safaviy. Tehron, 1996, 411-bet; Abbosquli G'affari Fard. Ravobat-i Safaviya va Uzbagon. Tehron, 1997, 373-bet.

<sup>5</sup> Valiyeva D. V. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro va Xivaning tashqi iqtisodiy aloqalariga doir. "Sharqshunoslik". Toshkent, 1997, 8-son, 162-169-betlar; Юлдашев М. Ю. К истории торговых и политических связей Средней Азии с Россией в XVI - XVII века. Ташкент, 1964, с. 123; Абдуллаев Ю. Н. Астрабад и русско-иранские отношения (вт. пол. XIX - начало XX в.). Ташкент, 1975, с. 132; Мухоминова Р. Г. Стольный град Хивы. ОНУ. Ташкент, 1997, № 7-8, с. 28-36; Burton A. The Bukharans a Dynastic, Diplomatic and Commercial History. 1500-1702, Great Britain, 1997, p. 438.

A. Xoroshxin, G. A. Pugachenkova, A. M. Matveyev, A. A. Madayev, E. Mamedova, N. G. G'oyibov I. G. Nizomutdinov, X. G. Ko'ro'g'li, L. M. Yepifanova, G. Eshchanova, A. Jumayevning tadqiqotlari Xiva-Eron o'zaro munosabatlarining ikki davlat etnomadaniy hayotida aks etishi va mintaqadagi etnodemografik, etnointegrasiya jarayonlarining o'zaro ta'sir holatlari haqida tushuicha beruvchi ilmiy adabiyotlar qatorida tahlil qilindi.<sup>1</sup>

O'rta asrlarda Xorazmni g'arbiy va shimoliy yo'nalishdagi karvon yo'llari va ularning yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlar A. V. Pankov, N. L. Korjnevskiy, P. P. Bushev, O'. Mavlonovlarning tadqiqotlarida<sup>2</sup> ham mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanildi.

Xiva xonlarining qoraqalpoqlar bilan munosabatlarini yoritish masalasiga akademik Sobir Kamolov ulkan hissa qo'shgan. U 1953-yilda "Xiva xonligidagi qoraqalpoqlar Rossiyaga qo'shib olinishidan oldin (1800–1873)" mavzusida nomzodlik va 1969-yilda "Qoraqalpoqlar XVIII–XIX asrlarda" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgandi. Keyingi yillarda olimning "Qoraqalpoqlarning XIX asrda Xiva xonlariga qarshi xalq ozodlik harakatlari", "Xorazm vohasi xalqlarining do'stligi haqida", "XVIII asrdagi qoraqalpoq-rus munosabatlari" kabi risola va maqolalari nashrdan chiqdi.

Xiva xonligi bilan qoraqalpoqlar yerlaridagi xalqlarning ikki tomonlama munosabatlari haqidagi ayrim ma'lumotlar B. A. Koshanov, M. Seytnazarov, S. Saymanov<sup>3</sup> kabi olimlarning ilmiy asarlari, monografiyalari va maqolalaridan joy olgan.

<sup>1</sup> Xoroshxin A. Народы Средней Азии. Материалы для статистики Туркестанского края. СПб., 1874, вып. III, с. 321–322; Xoroshxin A. Хивинское ханство. Турк. сб. Ташкент, 1883, т. 116, с. 473–179; Pugachenkova G. A. Архитектура Средней Азии и Ирана в связях и взаимодействиях. "ОНУ", Ташкент, 1972, № 10, с. 33–36; Матвеев А. М. Из истории выходцев из Ирана в Среднюю Азию во второй половине XIX – начале XX в. Иран. Сб. статей. М., 1973, с. 195–214; Мамедова Э. О некоторых приемах художественного оформления хивинских рукописей XIX века. ОНУ. Ташкент, 1974, № 3, с. 49–53; Гаибов Н. Г. Из истории культурных взаимосвязей узбекского и азербайджанского народов. ОНУ. Ташкент, 1979, № 5, с. 23–33; Низамутдинов И. Г. Очерки истории культурных связей Средней Азии и Индии (XVI–XX вв.). Ташкент, 1981, с. 55; Короглы Х. Г. Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана. М., 1983, с. 3–5; Елифанова Л. М. Извлечение из Тарих-и Рашиди. Материалы по истории и истории науки и культуры народов Средней Азии. Под ред. П. Г. Булгакова и У. И. Каримова. Ташкент, 1991, с. 338; Джумаев А. Музыкальные традиции Хивы XVIII – начала XX века. "ОНУ", Ташкент, 1997, № 7–8, с. 71–81.

<sup>2</sup> Панков А. В. К истории торговых Средней Азии с Россией XVI–XVII вв. Ташкент, 1927, с. 195; Корженевский Н. Л. Посольство Михаила Тихонова в Персию и путь его через Хиву и Кара-Кумы в Хорасан (1613–1615). Известия АН УзССР. Ташкент, 1951, № 6, с. 69–72; Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent, "Akademiya", 2008, 432-bet.

<sup>3</sup> Koshanov B. A., Seytnazarov M. S. Право на вторжения (неизвестные страницы истории Каракалпаки и Хорезма в 1919–1920 гг.). Нукус, 1993, с. 84; Сейтнazarov M. S. История национально-освободительного движения в Каракалпакистане (1917–1920 гг.). Нукус, 1999, с. 28; Сайманов С. С. История города Кунграда (XVIII – первая половина XIX вв.). Нукус, 2001, с. 23.



Xiva xonligi tarixini o'rganish va targ'ib qilishda san'atshunos olimlarning xizmatlari borligini ham e'tirof qilish kerak. Jumladan, I. I. Notkin,<sup>1</sup> L. Y. Mankovskaya,<sup>2</sup> V. A. Bulatova<sup>3</sup> kabi san'atshunoslar Xiva shahri arxitektura yodgorliklarini o'rganish asosida bir qator rangli alboblarni nashr qildirdilar.

Xiva xonligi va Xiva shahri tarixi chet el tarixshunosligida ham katta o'rin egallaydi.<sup>4</sup> Akademik E. V. Rtveladzening<sup>5</sup> tadqiqotlariga qaraganda, ushbu mavzuga ozmi-ko'pmi e'tibor bergan g'arb olimlari orasida J. Xenvey,<sup>6</sup> G. Gens,<sup>7</sup> R. Shekspir,<sup>8</sup> A. Vamberi,<sup>9</sup> Mishel,<sup>10</sup> F. Barnabi,<sup>11</sup> J. Abbot,<sup>12</sup> X. Mozer,<sup>13</sup> E. Zaxau,<sup>14</sup> F. Shvars,<sup>15</sup> R. Gink i K. Kombas,<sup>16</sup> Y. Goldshteyn,<sup>17</sup> K. Pander,<sup>18</sup> A. Mak-Gaxan,<sup>19</sup> M. Olvort,<sup>20</sup> S. Bekker,<sup>21</sup> J. Uiler<sup>22</sup> kabi mutaxassislar bor. Ularning rang-barang alboblari va qiziqarli kitoblari dunyodagi ko'pgina mamlakatlar o'quvchi-

<sup>1</sup> Bulatova V. A., Notkin I. I. Xivaning arxitektura yodgorliklari. Yo'l ko'rsatkich. Toshkent, O'znavnashr, 1963.

<sup>2</sup> Mankovskaya L. Y. Xiva Xorazm naqqoshligi xazinasi. Albom. Toshkent-Drezden, 1982, 264-bet.

<sup>3</sup> Маньковская Л. Ю., Булатова В. Памятники зодчества Хорезма. Ташкент, "Гафур Гулям", 1968.

<sup>4</sup> Махмудов М., Шерипов У. Хивинское ханство в зарубежной историографии. "Вестник" ККО АН РУз. Ўкук, 2006, № 2, с. 39-42.

<sup>5</sup> Ртвеладзе Э. В. К зарубежной историографии Хивы. "ОНУ", Ташкент, 1997, № 7-8, с. 112-113.

<sup>6</sup> Hunway J. An historical account of British trade over the Caspian Sea: With the authors journal from England through Russia; and Back through Russia, Germany and Holland 2 d ed., revised and corrected. Vol. I-II, London, 1754.

<sup>7</sup> Hilmersen Gr. Nachrichten uber Chiva, Buchara, Chokand und den nordwesten Theil des chinesischen Staaes, gesammelt von dem Presidenten der asiatischen Grenz-Commission in Orenburg, General-Major Gens, bearbeitet und mit Fmmerkungen versehen von Gr. Hilmersen. Neudruck der 1839. Osabruck, 1968 (Beitrage zur Kenntnis des Russischen Reiches und der angranzenden Lander Asens, 2).

<sup>8</sup> Schakesprer R. A. A personal narrative of a Journey from Heart to Ourenburg, in the Caspian, in 1840. Blacwood's Magazine. № 320. Vol. LI (1842).

<sup>9</sup> Vambery A. Travets in Centraj Asia being accjunt of a journey from Teheran across the turkoman desert on yhe on the eastern of the Caspian to Khiva, Bokhara ayn Samarkand performed in the Year 1863. London, 1864 (Repr. New York, 1970). Вамбери Арминий. Путешествие по Средней Азии из Тегерана в Хиву, Бухару и Самарканд. М., 1867.

<sup>10</sup> Michell. A narrative of the Russian military tpedition to Khiva; conducted be prince Alexander Bekovich Cherkasski in 1717. London, India Office. 1873.

<sup>11</sup> Barnaby F. A ride to Khiva: Travers and adventures in Central Asia. 4 th ed. London-Paris-New York, 1976.

<sup>12</sup> Abbot J. Narrative of a Jorney hrom Heart to Khiva, Moscow and St. Peterburg during the Lfte Russian invasion of Khiva: With some account of yhe court of Khiva and the Kingdom of Khaurizm. 3 it el. Vol. I-II, London, 1884.

<sup>13</sup> Moser H. A travels l'Asie Centrale. Impresions de voyage. Paris, 1885.

<sup>14</sup> Sahnau E. Zur Geschichte und Chronologie von Khwarizm. Theil I-II, Wien, 1873.

<sup>15</sup> Sewarz F. Turkestan, die Wiege der indo-germaischen Volker. Nach funfzehnjahrigen Aufenthalt in Turkestan dargestellt. Freiburg im Breisgau, 1900.

<sup>16</sup> Ging and Combas K. The pears of of UzbekisanL Buxara, Samarkand and Khiva. Budapest, 1974.

<sup>17</sup> Goldenstein Y. Samarkand, Buxara, Chakrisiabz, Khiva. Paris, 1995.

<sup>18</sup> Pander K. Sowietischer Orient. Kunst und kultur, Geschechte und Gege-nwart der Volker Mittelfsiens. Kohn, 1982.

<sup>19</sup> Мак-Гхан Январий Алозий. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. М., 1875.

<sup>20</sup> Holdeworth M. Turkistan in the nineteenth century: A brief history of the Khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. London, 1959.

<sup>21</sup> Becker S. Russias protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. Cambridge. MA: Harvard University, 1968.

<sup>22</sup> Wheeler G. E. The modern history of Soviet Central Asia. London - New Ybrk, 1964.

lari-da Xorazm vohasi tarixi haqidagi dastlabki tasavvurlarni shaklanti-  
rishga yordam berdi.

Chor Rossiyasi qaramligi davrida Xiva xonligida yashagan turk-  
manlar va qoraqalpoq xalqlari tarixini chuqur o'rgangan taniqli tadqiqot-  
chi Y. E. Bregel<sup>1</sup> keyingi yillarda, yuqorida ta'kidlanganidek, AQSH-  
dagi Blumington universiteti qoshidagi Ichki Osiyo instituti direktori la-  
vozimida ishladi. Shu davrda uning sa'y-harakatlari bilan Munis va  
Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" (1988)<sup>2</sup> nomli asari hamda "Musulmon  
Markaziy Osiyosi"<sup>3</sup> nomli fundamental bibliografik ma'lumotnoma va  
bir qator maqolalar nashr qilindi<sup>4</sup>.

Mustaqillik sharoitida o'zbek tarixchilari chorizm va sho'rolar dav-  
ridagi tushuncha hamda tasavvurlarni qayta tahlil etib chiqdilar. O'zbe-  
kiston istiqloli ta'minlangan bir davrda xalqimiz tarixini yoritishdagi ay-  
rim xato va kamchiliklarni tuzatishga imkoniyat yaratildi. Xiva xonligi  
tarixi hamda madaniyatiga doir dissertatsiyalar va boshqa tadqiqotlar  
amalga oshirildi. Ular qatorida M. Matniyozov, M. Matkarimov, A. Ab-  
durasulov, O. Qo'shjonov, N. Polvonov, K. Xudoyberganov monogra-  
fiyalari, M. Abdurahmonov, E. Axundjonov, G. Ismoilova, M. Madami-  
nov, M. Mamajonov, O. Masaliyeva, M. Jumaniyozova, O. Mutalov, S.  
Saburova, N. Polvonov, M. Qayumov, F. Ernazarov, N. Allayeva, M.  
Matyaqubova, Y. Rahmonova, S. Matkarimovalarning dissertatsiyalari  
va avtoreferatlarini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda "O'zbekistonning yangi tarixi"  
nashrining "Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" (Tosh-  
kent, "Sharq", 2000) nomli birinchi kitobida, O'zbekiston Respublikasi  
FA Tarix instituti tomonidan "Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy  
boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari"<sup>5</sup> nomli kitob-  
ning yozilishi katta ahamiyatga ega.

Mavzuni yoritishda O. Qo'shjonov va N. Polvonovning "Xorazm-  
dagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar"<sup>6</sup> nomli monografiyasi

<sup>1</sup> Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. М., "Наука", 1963; Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю. Брегеля. М., "Наука", 1967.

<sup>2</sup> Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Edited by Yuri Bregel. T. J. Brill. Leiden - New York-Kobenhavn-Koln, 1988.

<sup>3</sup> Bregel Y. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Part I-III. Bloomington, Indiana, 1995.

<sup>4</sup> Bregel Y. The sarts in the Khanate of Khiva. Jom of Asian History, 1978, Vol. 12.

<sup>5</sup> Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990-yillar). Toshkent, "Sharq", 2000.

<sup>6</sup> Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. Toshkent, 2007, 387-bet.

muhim rol o'ynadi. Unda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragidagi Xorazm vohasidagi ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar arxiv hujjatlari, qo'lyozma asarlar, xotiralar va boshqa manbalar asosida yoritilgan. Asarning muhim jihati shundaki, unda tarixshunoslik va manbashunoslik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ayrim mualliflarning asarlarida yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklar tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Tanlangan mavzuning o'rganilish darajasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Xiva xonligi tarixini tashkil topgandan to tugatilgungacha bo'lgan davri, undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shu sababli, o'ta murakkab bo'lsa-da, xonlik tarixining siyosiy qirralarini yaxlitlikda, yangi aniqlangan manbalar asosida chuqurroq o'rganish va xolisona yoritish zarurati yana-da ortmoqda.

Mazkur holatdan kelib chiqqan holda nashr qilingan hujjatlar to'plamlari,<sup>1</sup> xorazmlik solnomanavislarning O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidan (№№ 51, 364/II, 821/II, 821/III, 1552/VI, 1223, 1807, 2056, 5973, 7474, 7572, 7626, 7668, 9985, 11110 va b.), O'zR Markaziy davlat arxivi (MDA)dagi bir qator fondlarda saqlanayotgan hujjatlardan foydalanishga to'g'ri keldi. Xususan, O'zR MDA-dagi "Turkiston general-gubernatori devonxonasi" nomli 1-jamg'armada saqlanayotgan 31655 ta nomdagi hujjatlar jamlamasida 1867–1918-yillar oralig'ida o'lkada ro'y bergan voqealar haqida noyob ma'lumotlar mavjud. Ular orasida Xiva xonligi hayotiga oid hujjatlar ham ko'p bo'lib, Turkiston general-gubernatori huzuridagi "Diplomatik amaldor" nomli 2-jamg'armada saqlanayotgan 1015 to'plam tarix sahifalarini yana-da kengroq to'ldirishga imkon beradi.

Xiva xonlari davlat hujjatlarining bir qismi "Xiva xoni devonxonasi" nomli 125-jamg'armada saqlanmoqda.<sup>2</sup> Unda 1873-yil 12-avgustda Gandimiyonda imzolangan sulh shartnomasiga binoan Rossiyaga qaram davlatga aylanib qolgan xonlikdagi boshqaruv tizimi, chegara masalalari, tovon to'lash uchun mablag' to'plash jarayoni, rus savdogarlariga imtiyozlar berish, qullikni tugatish, bosqinchilik va kasalliklar tarqalishining oldini olish, Amudaryo o'zanini o'rganish va neft zaxiralarini iz-

<sup>1</sup> Иванов П. П. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением: Новые источники для истории народов Средней Азии. Л., 1940; Xiva xonlari arxivi. Akad. M. Yo'ldoshev tahriri ostida. 2-jild. Toshkent, O'zdamnashr, 1960; История ХНХР (1920–1924 гг.). Сб. докум. Ташкент, "Узбекистан", 1976; Каталог казий-ских документов Хивинского ханства. Киото, 2001, с. 657.

<sup>2</sup> Центральный Государственный исторический архив. Путеводитель. Ташкент, 1948, с. 30.

lash maqsadidagi ilmiy izlanishlar kabi masalalarga oid hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xonlik hayotiga oid ayrim hujjatlar Xorazm viloyat davlat arxivi, Xiva shahar-tuman davlat arxivi, "Ichanqal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi arxivi, O'zbekiston davlat Milliy kutubxonasi, Xorazm viloyati axborot-resurs markazi kutubxonasida saqlanmoqda.

Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan uslubiy, ilmiy-nazariy ko'rsatmalar tashkil qiladi Ayniqsa, Yurtboshimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlaridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, tarixchilarga fundamental asarlar yozish uchun berilgan yangi metodologik ko'rsatmalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ostonasidagi murakkab vaziyatda I. A. Karimov: "O'tmish hayotimizni faqat qora rangga bo'yash – bu qayta xatoga yo'l qo'yish demakdir. Tariximizni baholaganda, xalqimiz, jamiyatimiz uchun mehnati singgan insonlarga adolat, haqiqat ko'zi bilan qarashimiz kerak, albatta",<sup>1</sup> – deya uqtirgandi.

Qo'lyozmani tayyorlash jarayonida tarix fanining davriylik, uzviylik, haqqoniylik, haqchillik, mantiqiy qiyoslash, taqqoslash, statistik tahlil, umumlashtirish kabi muhim tadqiqot usullaridan ham foydalanishga harakat qilindi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. 308 – 309-betlar.

## II BOB. XIVA XONLIGIGA ASOS SOLINISHI VA DAVLATNI MUSTAHKAMLASH UCHUN KURASH (XVI – XIX asrning 60-yillari)

### 2.1. Xorazmda o'zbek xonligining tashkil topishi. Xiva shahrining poytaxt etib tanlanishi

Mo'g'ullar davrida bo'lib tashlangan, Temuriylar davrida goh Samarqand, goho Xurosonga bo'ysungan Xorazm ahli ko'chmanchi o'zbeklar (1505) va Eron qizilboshlari (1510) bosqiniga duch kelib, Muhammad Shaybonixon vafotidan so'ng tez orada ozodlik uchun kurashini boshladi.

Xorazm vohasi va uning atroflaridagi hududlarda eronlik bosqinchilarga qarshi ozodlik harakatlari 1511-yil bahorida boshlandi. Vazir shahri ulamolari madad so'rab, Mang'ishloqdagi ko'chmanchi o'zbeklarning yetakchilaridan biri, marhum Berke sulton o'g'li Elbarsga murojaat qildilar. O'zbeklarning shaharga yaqinlashib kelayotgandan xabar topgan aholi kechasi qizilboshlarni qira boshladilar. G'alaba haqida Abulg'ozii shunday yozadi: "Ulug' to'y qilib, o'zbek va sart barchasi yig'ilib, ittifoq bilan tarix to'qqiz yuz o'n birda va qo'y yilinda Elbarsni xon ko'tardilar".<sup>1</sup> Vazirga qaram Yangishaharga Bilbars, Tirsakka esa yana bir o'zbek hokim etib tayinlandi. Elbars va Bilbars Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybonning vorisi Arabshoh avlodlaridan bo'lganligi bois ularning xonlik sulolasi shu nomni oldi.<sup>2</sup>

Xorazm xonligiga asos solingan tarixiy sana haqida taniqli olimlar xilma-xil fikrlarini bildirganlar. Xususan, akademik V. V. Bartold "Xorazm xonligiga asos solinishi, aftidan 1511-yilga to'g'ri keladi",<sup>3</sup> – deb yozgandi. Akademik Y. G'ulomov esa "Elbarsxonning Xorazmshoh qi-

<sup>1</sup> Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent, "Cho'lpon", 1992, 121-bet.

<sup>2</sup> Ushbu sulolaning nasabi: Chingizxon → Jo'ji → Berke → Shaybon → Bahodir → Jo'ji Buqa → Badaqul → Mengu Temur → Fulod → Arabshoh → Hoji Tuli → Temur shayx → Yodgor → Amnak → Berke → Xorazmda: Elbars (1), Bilbars (2) → Sulton hoji (3) → Hasanquli ibn Abu-lak (4) → Buchg'a (5) → Sulton (6) → Avanes ibn Amnak (7) → Kalxon (8) → Oqatay (9) → Do'st Muhammad (10) → Hojimaxon (11) → Arab Muhammad (12) → Isfandiyor (13) → Abulg'ozii (14) → Anusha (15) → Xudoydod (16) → Arang Muhammad (17) → Arang Muhammad I (18) → Musoxon (19) → Shohniyoz (20) → Sherg'ozii (21) → Elbarsxon (22) → Nuralixon (23) → Abulg'ozii II (24) → G'oyibxon (25) → Qorabayr (26) → Temurg'ozii (27) → Shohg'ozii (28) → Abulg'ozii III (29) → Nurali (30) → Jahongir (31) → Abulaziz (32) → Ortiqg'ozii (33) → Abdulloh (34) → Yodgor (35) → Po'latg'ozii (36) → Abulg'ozii IV (37) → Abulg'ozii V (38). Манба: Абдал ал-Кадир ибн Мухаммад Амин. Мажма ал-ансаб вал-ашжар. Введение, перевод с арабского-персидского тюркского текста, комментарии указатели Ш. Вахидова, А. Муминова, Б. Аминова. Алма-Ата, Dayk-Press, 2005, с. 190; Yana qaralsin: Dinastiya Arabshaxidov. WWW: Hrono.info; Eshmurodov M. Xorazm tarixchilari: O'tamish Hoji, Abulg'ozii, Munis. Toshkent, 2010, 9-bet.

<sup>3</sup> Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа. Сочинение. Т. II. Ч. I, М., "Наука", 1963, с. 596.

lib tayinlanishiga Shayboniyxon o'limidan keyin muvaffaq bo'lindi va bu voqea 1511 yoki 1512-yilda sodir bo'lgan deb qaralishi lozim",<sup>1</sup> – deb ta'kidlaganadi.


O'zbek xonligi tashkil etilib, oradan uch oy o'tgach, Elbars Urganchni egallash maqsadida qo'shin tortib keldi. Shahardan yarim farsax masofada bo'lgan jangda uning qo'li ustun kelib, hokim Subxonquli Arab boshliq qizilboshlar va ularning ittifoqchilari yengildi. Urganch egalangach, Dashtda qolgan Yodgorxon o'g'lonlariga chopar jo'natiladi. Oradan sal vaqt o'tib, Abulakxonning bir o'g'li va Amnakxonning olti o'g'li eldoshlari bilan birga Xorazmga keldilar. Qisqa muddatda Xi-va, Hazorasp, Katdagi qizilboshlar haydaldi. Kelajakda Elbars tarafdolari Xurosonning Mehnadin va Durun hududlari hamda turkmanlarning Abulxon (Balxon) va Mang'ishloq hududlariga tez-tez bosqinchilik yurishlari qilib turdilar. Shunday qilib, Elbarsxon davrida davlatning siyosiy geografiyasi shakllanib, Xorazm xonligi janubda Xuroson, shimolda Orol, g'arbda Kaspiy, sharqda Buxoro xonliklari bilan chegaradosh bo'ldi.

Xorazm vohasiga joylasha boshlagan ko'chmanchi o'zbek urug'-qabilalari vakillari turk-mo'g'ul an'analariga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etib, xonlikning ijtimoiy-siyosiy holatiga katta ta'sir ko'rsata boshlashdi. Bu davrda o'z hududlarini kengaytirish va daromadliroq mulklarni egallashga intilgan o'zbek sultonlari o'rtasidagi o'zaro kurashni avj oldirishga turki bo'lgan udel-mulk tizimining salbiy jihatlari yaqqol qo'zga ko'rina boshladi. Akademik Y. G'ulomov to'g'ri ta'kidlaganidek, boshqaruvning udel tizimi birlashishga yordam berish o'rniga Xorazmdek hosildor mamlakat xo'jaligini tushkinlikka olib kelgan edi.<sup>2</sup>

1516-yilda Elbarsxonning vafotidan keyin farzandlari o'rtasida taxt va mansab uchun kurash boshlandi. Bu davrda Yodgorxonning nabiralari orasida Berkening o'g'li Sultonhojidan yoshi ulug'i yo'q edi. Shu bois uni Vazirga keltirib, xon qilib ko'tardilar. Yangi xonning qo'shini oz sonli bo'lib, atrofdagi dushmanlariga qaqshatqich zarba bera olmadi. Uning vafotidan keyin esa taxtga Abulakxon o'g'li Hasanquli ko'tarildi. Endilikda yangi xon Vazirda emas, balki Urganchda o'tirardi. Shu davrga qadar Urganchda ark bo'lmagani bois uni qurish vazifasi Esh Sulton ismli amaldorga topshirildi.

<sup>1</sup> G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi... Toshkent, O'zFAN, 1959, 184-bet.

<sup>2</sup> Гужмюв Я. История орошения Хорезма ... с. 190–191.





Oradan biroz vaqt o'tgach, barcha o'zbek sultonlari Urganchga hujum uyushtirib, qamal qildilar. "Urganch ulug' shahar,— deb yozgandi Abulg'ozni. — Tez-o'q qahatlik bo'la qoldi. Bir eshakning kallasi qirq-ellik tanga bo'ldi, topilmadi".<sup>1</sup> O'ta og'ir muhtojlikni boshidan kechirgan Urganch aholisi 4 oy davomidagi qamaldan so'ng, taslim bo'ldi. Shahar olingach, Hasanquli va uning katta o'g'li Bilol Sulton o'ldirildi. Qolgan o'g'illari onasi bilan Buxoroga ko'chirildi.<sup>2</sup>

Urganchda So'fiyon xon deb e'lon qilindi.<sup>3</sup> Vazir, Yangishahar, Tirsak, Xuroson, Durun, Mang'ishloq turkmanlarining ko'pgina ovullarini boshqarish Sultong'ozni boshliq Berke sulton nabiralariga topshirildi. Amudaryoga yaqin Xiva, Hazoras, Kat, Bo'ldumsoz, Ingichka, Kopetog' yon bag'ridagi Bog'obod, Nisoy, Obivard, Chahordeh, Mahna, Chacha aholisi hamda daryo irmoqlari bo'yida o'tirgan Balxon va Dehiston-dagi turkmanlarni boshqarish Amnakxonning to'rt o'g'liga bo'lib berildi. Xon topshirig'i bilan barcha amaldorlar soliq yig'ishi va poytaxtga yuborib turishi lozim edi.

Xorazmda vatan tutgan o'zbeklar hukmdorlari bilan turkmanlar orasidagi munosabatlar asta-sekin keskinlashib bordi. Ayniqsa, ersari, adaqli, xizir, ali eli, tevachi kabi turkman urug'lari oqsoqollari elati gardaniga yuklangan soliqlardan norozi edilar. Sababi soliq to'plash uchun yuborilayotgan amaldorlarning soni 40 dan oshib, ularning xarxashasi haddan tashqari ko'payib ketgandi.

Soliq yig'uvchilarning o'ldirilgani haqidagi xabar So'fiyonning turkmanlar ustiga qo'shin tortishiga turtki bo'ldi. Ersari elatiga yetib kelgan So'fiyon qo'shinlari aholining katta-yu kichigini qira boshladi. O'ldirilgan soliq yig'uvchi 40 o'zbek xuni uchun turkmanlarga 40 ming qo'y o'lpon to'lash majburiyati yuklandi.<sup>4</sup>

1522-yilda So'fiyonxon vafot qilgach, Urganchdagi xon taxtiga Buchg'a ibn Amnakni keltirib o'tqazdilar. Uning davrida Xurosondagi Kuchon va Isfaron hududlariga yurish qilganligi sababli Eron shohi Tahmosp Buchg'axon bilan yaqin qarindosh tutinish uchun uning akasi So'fiyonning Oysha beka ismli bo'yi yetgan qiziga uylandi. Bu holat esa

<sup>1</sup> Abulg'ozni Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent, "Cho'lpon", 1992, 125-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010, 79-bet.

<sup>3</sup> Фирдавс ал-Ихбалъ. Сочинение Муниса и Агахи. МИТТ. Т. II, с. 324–325; Бартольд В. В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVII века. ИТОРГО, т. IV. Научные результаты Аральской экспедиции, снаряженной Турк. Отд. Русск. Геог. общ-ва. Вып. II, Ташкент, 1902, с. 91–92; Сочинение. Т. III, М., "Наука", 1965, с. 15–94.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 79–80-betlar.

Eron va Xorazm o'rtasidagi munosabatlarning biroz yaxshilanishiga ta'sir qildi.<sup>1</sup>

Buchg'axon 1526-yilda vafot etgach, Urganch taxti Avanish ibn Amnakxon qo'liga o'tdi. Urganchga kelgan Durun hokimi Muhammadg'ozining Avanishxon katta o'g'li Dinmuhammad tomonidan o'ldirilganligi va Amnakxonning o'g'illari hamda Elbarsxonning avlodlari o'rtasidagi qonli to'qnashuvga sabab bo'ldi. Avanish Vazir yaqinidagi Qumkand degan joyda Sultong'ozining tarafdorlarini yengdi va Elbarsxon avlodidan bo'lgan 10 kishini qatl qildirdi.<sup>2</sup>

Qarindoshlari bilan Buxoroga ketgan Sultong'ozining katta o'g'li Umarg'ozni ukasi Sherg'ozni bilan birga Ubaydullaxon saroyida tarbiyalana boshladi. Ular biroz ulg'aygach, otalari mulkiga da'vogarlik qildilar. Vaziyatdan foydalangan Ubaydullaxon Toshkentdan Baroqxon, Samarqanddan Juvanmardxon, Hisordan Hamza Mahdiy sulton nabiralari lashkarlarini Buxoroga to'pladi. 1538-yilda Buxoro qo'shinlari kelayotganidan xabar topgan hamda Xiva va Hazoraspda o'tirgan Amnakxonning o'g'illari Avanishxonning oldiga qochib bordilar, o'z navbatida, xon Urganchni tark etib, Ustyurt tomon jo'nadi. Orqasidan yetib kelgan qo'shin Avanishxonni Bayot qiri etagida asirga oldi. Ubaydullaxon uni Umarg'oziga berdi va u o'ch olish niyatida Avanishxonni o'ldirdi.<sup>3</sup>

Xorazmni egllagan Ubaydullaxon uni boshqarishni o'g'li Abdulazizga topshirdi. Yangi hukmdor bilan birga to'rt qismga ajratilgan o'zbek urug'larini boshqarish uchun Hisor, Samarqand, Toshkent to'ralari va Buxoro amaldorlari qoldirildi. Ubaydullaxon o'zi bilan Oqotoyning bir qism xotin bola-chaqalarini ham olib ketdi. Ammo ulardan biri – 18 yashar Hojimuhammad (Hojimxon) Xorazmda yashirinib qoldi.

Kelgusida Hojimxon Durun hokimi Dinmuhammad bilan maslahatni o'rta qo'yib, Urganchga yurish rejasini tuzdi. Ikki ming kishilik lashkar Kurdush degan joyga kelganida unga xizireli, adoqli turkmanlaridan 1000 nafar otliq qo'shildi. Xiva shahari olingach, dorug'a va uning o'nga yaqin amaldorlari qatl qilindi. Hazorasp dorug'asi qochdi. Ushbu voqeadan xabar topgan Abdulaziz ham Urganchni tark etib, otasi oldiga – Buxoroga shoshildi.

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 80-bet; Фирдавс ал-Икбал. Сочинение Муниса и Агахи. МИТТ. Т. II, с. 325.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 81-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 81-bet.



Buxoro xoni Ubaydulla 40 ming lashkarlik katta qo'shinni yana Xorazmga jo'natdi. Buxoroliklar Hazorasni egalladi degan xabarni eshitgan Dinmuhammad o'zining 3 ming kishilik qo'shini bilan jangga kirishni niyat qildi. "Buxoro qo'shinlari kunduzi dam oladi va kechalari yuradi"<sup>1</sup> degan ma'lumot asosida Shikast ko'li va Gardanxost yaqinidagi yo'lning ikki yoqasida pistirma qo'ygan Dinmuhammad va Yusuf sultonning lashkarlari buxoroliklar ustiga qo'qqisdan hujum qilib, g'alaba qozondilar. Asir olingan Buxoro amaldorlari Xorazmdan haydab ketilgan Oqotoy va Kolxon boshliq barcha o'zbek sultonlari hamda oila a'zolarini qaytarishga va'da berdilar. Ularni olib kelish vazifasi Hojimxonga topshirildi.<sup>2</sup>

Buxoroga borgan Hojimxonni Ubaydullaxon yaxshi qabul qildi, otasi va qarindoshlarini olib ketishga ruxsat berdi.<sup>3</sup> Undan keyin Hojimxon Samarqanddan Jumanmardxon va Hisordan Kolxon va Oqotoyni olib, Urganchga qaytdi. 1547-yili Urganchda xon taxtiga ko'tarilgan zamon tinch va obodonchilik davri bo'ldi. "Kolxon xon bo'ldi, bir pulga bir non bo'ldi tedilar"<sup>4</sup>,— deb yozgandi Abulg'oz, o'z navbatida, "Firdavs ul-iqbol"<sup>5</sup>da o'qiymiz: "Aning zamonida bilodi Xorazm obodon va el davlati farovon va barcha ne'mat bag'oyat arzon bo'ldi".<sup>5</sup>

Kolxon Oqotoyni Vazirga hokim qilib tayinladi. Xiva va Hazorasni boshqarish Buchg'ahonning o'g'illari Esh va Do'stga berildi. Ammo vaqt yetib ulg'aygan Amnakxonning nabiralari orasida birlik bo'lmadi. Ular bir-biriga xavf tug'dirib turdilar va ayrimlari Buxoroga qochib ketdilar.

Bu vaqtda Buxoroda So'fyonning Yunus ismli o'g'li ham bor edi. "Yunusxon aqlli va juvonmard va g'ayur, yorliqi qatti kishi erdi",<sup>6</sup>— deb yozgandi u haqda Abulg'oz. Yunusxon Mang'it hokimi Ismoilbiyga kuyov bo'lib, 1556-yilda qaynotamni ko'rib kelaman deb 40 yigiti bilan Xorazmga yo'l oldi. To'k qal'asiga<sup>7</sup> yaqin kelgan Yunusxon Urganch shahri devorlarini ko'rdi. Kun botgach, uning yigitlari shahar qal'asi de-

<sup>1</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 135-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 81-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 82-bet.

<sup>4</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 137-bet.

<sup>5</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 82-bet.

<sup>6</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 138-bet.

<sup>7</sup> To'k — Gurganjga eng yaqin qal'a va Amudaryo qirg'og'ida joylashgan aholi punkti. Qarang: Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент, Узгосиздат, 1959, с. 33, 131, 192; Бартольд В. В. Соч. Т. II. Ч. 1, с. 66; Гудкова А. В. Ток-кала. Ташкент, 1964.

vorlarini mash'ala ko'tarib qo'riqlayotgan soqchilardan bir nechtasini o'ldirib, shahar ichiga kirdilar.

Nochor ahvolga tushib qolgan shahar hokimi Mahmud sulton Vazirga qochib, Oqotoyxon huzuriga bordi. Oqotoyxon qo'shini Urganchga kelgach esa Najmiddin Kubro maqbarasi yaqinida qonli jang bo'ldi. Unda Oqotoyxon halok bo'ldi va jasadi Vazirga jo'natildi. Oqotoyning katta o'g'li Hojimaxon ukalari bilan askar yig'ib, Urganch yaqinida Amudaryodan kechib o'tdi. Bunday xabar topgan Yunusxon shaharni tashlab Buxoroga qochdi, uning o'g'li Qosim sulton esa o'ldirildi.<sup>1</sup>

Vaqt o'tib, So'fyonxon va Kolxonning barcha farzandlari dunyodan o'tdi hamda ulardan nasl qolmadi. Avanihxonning o'g'illari Xurosonda va Oqotoyxonning o'g'illari Xorazmda hukmdorlik qilardilar. Buchg'axonning Esh ismli o'g'li Xivani, Do'st – Hazoraspni, Buram esa Katni boshqardi. 1557-yilda Do'stni xon ko'tardilar, ammo uni Hojimaxon tan olmadi. Natijada Do'st va Esh sulton Xiva, Hazorasp, Kotdan qo'shin to'plab, Urganchga yurish boshladilar. Ammo Qumqal'a yaqinidagi Churnuk degan joyda bo'lgan 8 kunlik jangda Hojimaxonni yenga olmadilar.<sup>2</sup>

Xivaga qaytgan Esh sulton uyg'ur va naymanlarni quvdi va ularning yerlarini do'rmon urug'iga berdi. Yangi qo'shin bilan kelib, Urganch va To'k qal'asi orasidagi maydonda Hojimaxon bilan yana bir hafta urushdi. Ammo hech bir taraf g'olib kelolmadi. Shunda Esh sulton kechasi qo'shini bilan yashirin holda Urganchga bordi. Qal'adagi uyg'ur va naymanlardan boshqa aholiga tegmadi. Bir qism aholi Vazirga qochdi. Hojimaxon Ali Sultondan madad olib, Urganchni 4 oy qamal qildi va egalladi.

“Urganchda Esh sultonni o'lturub va Xevaqda Do'st sultonni o'lturub, oq kigizning bir kunjini Ali Sulton va uch kunjini inisi tutib, Hojimaxonni o'rtada o'lturtub, o'ttiz to'qqiz yoshina yetganda, yilqi yilinda, tarix to'qqiz yuz oltmish to'qquzda Urganch viloyatida xon ko'tardilar”.<sup>3</sup> Bu voqea haqida muarrix Munis yozgandi: “Hojimaxon ibn Oqatoyxon bag'oyat oqil va kardon, odil va musulmon podshoh erdi. Shijoat va shahomatda o'z ahronidin mumtoz, muruvvat va futuvatda o'z ajnosidin sa-

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 83-bet.

<sup>2</sup> Abulg'ozzi Bahodirxon. Shajarayi turk. 139-bet; Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 83-bet.

<sup>3</sup> Abulg'ozzi Bahodirxon. Shajarayi turk. 150-bet.

rafroz erdi. Umri o'ttuz yettiga yetganda, sana tuqquz yuz olmish yettida, Urganchda xonlik masnadig'a mutamakkin bo'ldi".<sup>1</sup>

1558-yilda Xorazmga Antoniy Jenkinson ismli ingliz savdogari keladi. U Buxoroga<sup>2</sup> borib qaytgach, qish fasli boshlanganligi sababli, Urganch va Vazir shaharlarida 4 oy davomida qolib ketadi. "Urganch qal'asi tekislikda joylashgan va loy devor bilan o'ralgan, – deb yozgandi u. – Uy-joylar ham loydan tiklangan, ammo tartibsiz qurilganday ko'rinadi. Keyingi yetti yil ichida, o'zaro nizolar natijasida, qal'a to'rt marta qo'ldan qo'lga o'tgan, shu sababli bu yerda savdogarlar kam. Shaharda usti bostirilgan bitta uzun ko'cha bor va u bozor vazifasini ham o'taydi".<sup>3</sup> Jenkinson Amudaryoning o'zani o'zgarib borayotgani sababli, Vazir va Urganch shaharlarining yaqin kelajakda mushkul ahvolda qolishini to'g'ri bashorat qilgandi.

Abulg'ozu yozgandi: "Biz dunyoga kelmasdan o'ttiz yil ilgari Amu suvi, Xost kinorasining yuqorisini Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, To'k qal'asini borib, Sir tengizina quygan ekandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti. Ra'iyat Urganch cho'l ham bo'lsa o'lturub, xon boshliq sipoh xalqi yozda Amu suvining yoqasinda munosib yerlarda ekin ekib o'lturub, ekkanini olg'andin so'ng Urganch borurlar erkandur".<sup>4</sup>

1572–1573-yillarda Amudaryo o'zanining keskin o'zgarishi natijasida vohta atrofidagi ko'pgina shahar va qishloq aholisi daryoga yaqinroq joylarga ko'chishga majbur bo'ldi. Natijada Gurlan yaqinida Vazir qishlog'i va Xiva bilan Amudaryo oralig'ida Yangi Urganch shahriga asos solindi.

1573, 1593, 1595-yillarda Xorazmga katta qo'shin bilan xuruj qilgan Buxoro xoni Abdullaxon 1598-yilda dunyodan o'tdi. Bu haqda xabar topgan Hojimxon, shoh Abbosdan ruxsat olib, Bastomdan sakkiz kun deganda Urganchga yetib keldi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o'ziga olib, Xiva bilan Katni Arab Muhammadxon-ga, Hazorasni esa Isfandiyoq sultonga berdi. Ikki yildan keyin Hojim-

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 83-bet (Ko'rinib turganidek, Abulg'ozu va Munisning ma'lumolarida biroz farq bor).

<sup>2</sup> "Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida" (Toshkent, "Sharq", 2000) nomli monografiya mualliflari A. Jenkinson Buxoroda 1558-yilning apreldan 1559-yilning 2-sentabrigacha bo'lgani hamda unga Richard va Robert Jonson ismli agentlar hamrohlik qilganligi haqida yozadilar (28-bet). Ushbu ingliz savdogarlari josuslik ma'lumotlarini ham to'plashga harakat qilgan edilar.

<sup>3</sup> Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558–1560 гг. В кн. Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с английского Л. Готье. Л., 1932, с. 169.

<sup>4</sup> Abulg'ozu Bahodirxon. Shajarayi turk. 167-bet.

xon Urganch va Vazir qal'alarini boshqarishni Turkiyadan kelgan o'g'liga topshirdi. O'zi esa Xivada kichik o'g'li Arab Muhammadxon oldida turdi.

Hojimxon (1522–1602) o'zining 42 yillik hukmronligi davrida goh Urganch, goh Xivada yashadi.<sup>1</sup> Uning davrida Xorazmda o'rnatilgan osoyishtalik bois qishloq xo'jaligi va irrigatsiya-qurilish ishlariga e'tibor kuchaydi. Urganch va Kot hokimi Ali Sulton tashabbusi bilan Yangiariq va Toshli Yormish ariqlari qazildi.

Tarixiy manbalarda Hoji Muhammadxon nomi bilan Xiva shahrining Xorazm xonligi poytaxti qilib belgilanganligi qayd qilinadi.<sup>2</sup> Bu davrda xon va uning amaldorlari oilasi uchun ichimlik suvi bilan ta'minlangan, shu bilan birga, osoyishta qarorgoh kerak edi. Vohadagi boshqa shaharlarga qaraganda qulayroq deb Xiva shahri tanlangandi.

XVII asr muarrixii Mahmud bin Vali o'zining "Bahr ul-asror" asarida: "Xorazm beshinchi iqlimdagi katta mamlakatdir. Obu-havosi salqin. Qadimgi fors podsholari davridan to bundan yigirma yil muqaddam bo'lgan vaqtgacha uning poytaxti Urganch bo'lgan. Hozir esa undan Jayxun daryosining yiroqlashishi sababli mamlakat poytaxti unga tobe bo'lmish Xivaga ko'chirilgan. Xiva – katta shahar, iqlimi toza"<sup>3</sup>,– deb yozgandi.

Xiva shahrining xonlik markaziga aylangan sanasi haqida turlicha fikr va mulohazalarni asoslashga intiladilar. Mazkur masalaga birinchilar qatorida e'tibor qaratgan olimlardan biri akademik Y. G'ulomov hisoblanadi. U 1941-yilda nashr qildirgan maqolasida Munis Xorazmiyning Do'stxon "Poytaxt shahar Xivada birinchi bo'lib taxtga o'tirgan kishi"<sup>4</sup>, degan fikrlariga tayangan holda "1556-yilda Do'stxon Bo'chg'axon o'g'li Xiva shahrini o'zining poytaxti qildi"<sup>5</sup>,– deb yozgandi. Ushbu

<sup>1</sup> Xudoyberganov K. Xiva xonlari tarixidan. 102-bet.

<sup>2</sup> Bu borada boshqa fikrlar ham mavjud. Xususan, tadqiqotchii O. N. Mutalov "Xonlik, dastlab, Ko'hna Urganchda tashkil etilib, taxminan 1557-yillarda Do'stxon Bo'chg'axon o'g'li poytaxtni Xivaga ko'chirdi", deb yozadi. Mutalov O. N. Xiva xonligi Olloquixon davrida (1825–1842). T.f.n. dis. ...avtoref. Toshkent, 2003, 13-bet). O'z navbatida, xivalik tarixchilar K. Xudoyberganov va M. Madaminov Xiva poytaxt sifatida 1561-yilda e'lon qilingan, degan fikrni ilgari surganlar. Internetdagi "Xronos" saytida "Butun XVI asr davomida Urganch poytaxt bo'lib turdi. Xiva esa ilk bor 1557–1558-yillarda 1 yil davomida xon qarorgohi bo'ldi. Faqat Arab Muham-madxonning 1602–1621-yillardagi xonlik davrida Xiva poytaxt sifatida tanildi",– degan so'zlar bor.

<sup>3</sup> Магомуд бин Вали. Море тайн относительно доблестей блгагородных. География. Перевод Б. Ахмедова. Ташкент, "Фан", 1977, с. 43; Ahmedov B. A. Tarixdan saboqlar. Tashkent, "O'qituvchi", 1994, 332-bet; A'zamova G. A. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishi va rivojlanishiga oid ba'zi ma'lumotlar (XVI asrning birinchi yarmii). "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", Toshkent, 1997, 7–8-sonlar, 85-bet.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 83-bet; Munis. Firdavs al-ikbol. Materialy po istorii kazaxskix xanstv XVI–XIX vv. Alma-Ata, 1969, с. 445.

<sup>5</sup> Фудимова Я. Памятники г. Хивы. "Труды" Узбекстанского филиала АН СССР. Серия I: История, археология. Вып. III, Ташкент, 1941, с. 4.

xulosaning shakllanishiga, balki Abulg'ozī Bahodirxonning "Bo'chg'a-xonning o'g'lonlari Esh, Do'st va Buram Hevaq, Hazoras va Katda bo'ldi. Do'stni xon ko'tardilar. Faqir va nihol kishi erdi. ...Esh sultonning xotiri uchun akasi Do'stni xon qildilar",<sup>1</sup> – degan so'zlari ham ta'sir o'tkazgan bo'lsa, ajabmas.

Xiva shahridagi yodgorliklar tarixini chuqur o'rgangan tadqiqotchi K. Xudoyberganov ham Xiva shahrining poytaxt sifatida tanlangan vaqti muarrir Munis va akademik Y. G'ulomov kabi, 1556-yil deb belgilash lozimligini isbotlashga harakat qildi. Uning fikricha, Xiva shahri Do'st-xon Bo'g'chaxon o'g'li davrida poytaxt qilib tanlangan va Arab Muhammadxon davridan boshlab, Xiva shahri markaz bo'lgan davlat–Xiva xonligi nomini olgan.<sup>2</sup>

Keyinchalik Y. G'ulomov o'zining 17 yil oldin belgilagan sanasidan farqli o'laroq, "Arab Muhammadxon davrida markazni Xiva shahriga ko'chirganlar, shu davrdan boshlab xonlik Xiva xonligi nomini olgan",<sup>3</sup> – degan boshqa bir fikrni ilgari suradi. Arab Muhammadxon Xiva xonligi taxtida 1602–1621-yillarda o'tirganligini hisobga olsak, Y. G'ulomov belgilagan xronologik sanalar orasida salkam 50 yillik farq borligi ayon bo'ladi.

Akademik Y. G'. G'ulomovning keyingi fikrlariga yaqinroq sanalarni yoqlagan tarixchi G. A. Agzamova: "Xivaning Xorazmni poytaxtiga aylanishi 1611–1612-yillarga to'g'ri kelib, bu davrda davlatni boshqargan Arab Muhammadxon hukmronligi bilan xarakterlanadi. XIX asr muarriri Munis: "Arab Muhammadxon otasidan so'ng poytaxt shahar Xivada hukmron bo'ldi",<sup>4</sup> – deb qayd qilib o'tadi.

Akademik B. Ahmedov o'rta asr tarixchilari Muhammad Tohir va Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga tayangan holda "Xiva XVII asr boshlarida, taxminin 1610–1612-yillarda Xorazmning poytaxtiga aylangan",<sup>5</sup> – deb yozgandi.

XVII asrda yashagan yana bir tarixchi – Muhammad Tohir o'zining "Ajoyib at-taboqat" asarida "Xorazm shaharlaridan biri Xivaq bo'-

<sup>1</sup> Abulg'ozī. Shajarayi turk. 139-bet.

<sup>2</sup> Худойберганоў К. Роль мемориала Пахлавана Махмуда в изучении истории хивинских ханов (XVI – начала XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Нукус, 2004, с. 22.

<sup>3</sup> G'ulomov Y. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi... 207-bet.

<sup>4</sup> A'zamova G. A. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishi va rivojlanishiga oid ba'zi ma'lumotlar (asrning birinchi yarmi). "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", Toshkent, 1997, 7–8-sonlar, 85-bet; Munis. Firдавс ал-икбол. Материалы по истории казахских ханств XVI–XIX вв. Алма-Ата, 1969, с. 448.

<sup>5</sup> Ahmedov B. A. Tarixdan saboqlar. 332-bet.

lib, u yerda shayx Najmiddin Kubro tug'ilgan. Hozirgi zamonda Xiva poytaxt shahardir",<sup>1</sup> – deb yozib o'tgan.

Tarixchi A. Abdurasulov xonlik poytaxtining Xivaga ko'chirilgan davridan boshlab, to feodal davlat tugagunga qadar taxtga o'tirgan xonlar shajarasidagi birinchi hukmdorn Hoji Muhammad Oqotoy xon va uning boshqaruv davrini 1557–1603-yillar deb ko'rsatadi.<sup>2</sup> Ko'rinib turibdiki, "O'zbekiston tarixi" kitoblarining ko'p nashrlaridan o'rin olgan Xiva shahrining 1598-yildan boshlab, xonlik poytaxti ekanligi haqidagi sanani aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishga katta zaruriyat sezilmoqda.

Xorazm vohasidagi xalq ozodlik harakati kuchaygan bir sharoitda vujudga kelgan xonlikning mustahkamlanishi murakkab bir siyosiy vaziyatga to'g'ri kelgan. Yangi davlatni boshqarishga bosh bo'lgan arboblardan ularning avlodlari orasidagi doimiy nizolar kuchaygan bir vaqtda, Movarounnahrda eng kuchli saltanat shaklida tan olingan Buxoro xonligi bilan munosabatlar o'ta keskin bir vaziyatlarni vujudga keltirgan. Natijada ikki o'rtadagi harbiy to'qnashuvlar minglab odamlarning taqdiriga halokatli ta'sir ko'rsatgan.

Xorazmga ko'chib kelgan va soni ortib borayotgan o'zbek urug'lari orasidagi ziddiyatlar mahalliy aholi (sartlar) va turkmanlarning o'zaro munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Amudaryo irmoqlariga yaqin yerlarni o'zlashtirgan mahalliy o'troq aholi dehqonchilik bilan shug'ullanib, bog'-u rog'lar, bug'doyzorlar barpo etgan bir vaqtda, asosan, chorvachilik bilan mashg'ul ko'chmanchilarning hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari yangi bir etnik muhitni shakllantira boshladi.

Xiva xonligining dastlabki salkam bir asr davomidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti negizida boshqaruv tajribasi to'plandi. Unga asoslangan holda Xorazm vohasi va uning atrofidagi hududlarda markazlashgan boshqaruv usullarining kuchayishi va davlatchilik asoslarini mustahkamlash uchun sharoit ham yetila boshladi. Ushbu holat, birinchi navbatda, yirik davlat arboblarning siyosiy maydonga kirib kelganligida ko'rinadi.

---

D'sha joyda.

Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy etnografik ocherklar. 18-bet.



## 2.2. Arab Muhammadxon va uning avlodlari davrida xonlikning mustahkamlanishi hamda siyosiy inqiroz oqibatlari

1602-yilda Xiva xonligi taxtiga Arab Muhammadxon o'tirdi. "Aning ayomi julusidan olti oy o'tgandin so'ng, O'rusdan lashkar kelib, quyosh saraton burjiga tahvil qilgan kuni Urganchga kirdi va raoyodin ming kishini shahid qilib, yetti kun taroj etib, og'ir molni o'tga yoqib qaytdi",<sup>1</sup> – deb yozgandi Munis Xorazmiy.

Urganch fojiasidan xabarni olgan Arab Muhammadxon lashkarlari bilan yetib keldi va 2 kun urushdi. Xon qo'shinlari dushmanni ta'qib etib, To'k qal'asi atroflariga quvib chiqardi. Yuzga yaqin bosqinchilar bu yerda yog'ochdan istehkom qurib, baliq ovlab, tirikchilik qilib turdilar. Ularni qamal qilgan Arab Muhammadxon 15 kun deganda tor-mor keltirdi.<sup>2</sup> Urganch va Mizdahqon oralig'idagi unumdor yerlarni ko'rgan xon, qozongan zafari sharafiga To'k qal'asi yaqinida katta kanal qazirdi.<sup>3</sup>

Muarrix Abulg'ozining yozishicha, 1603-yilda shimoliy Xorazmga qolmiqlar hujum qildi. Ular Xojako'li va Shayx Jalil tog'ining orasidan o'tib, to To'k qal'asigacha daryoning ikki tarafida o'tirgan elni bosdi, o'z navbatida, Arab Muhammadxon qo'shini qolmiqlarni Aburichi degan joygacha quvib borib, asirlar va mollarni olib qaytdi.<sup>4</sup> Yana 10–12 yildan keyin qalmiqlar Xorazmga ikkinchi marta bostirib keldilar. Ularga qarshi yuborilgan xon askarlari bosqinchilarga yeta olmasdan orqaga qaytdilar.

Arab Muhamadxon hukmronligining dastlabki yillarida toj-u taxt uchun kurash davom etdi. Nayman urug'i vakillari xon o'rniga Husrov sulton ismli Elbarsxon avlodiga mansub amaldorni qo'yishni rejalashtirdilar. Movarounnahrda Xivaga keltirilgan Husrovni taxtga ko'tarish haqidagi maslahatda qatnashgan ikki kishi sheriklarini sotib qo'ydi. Natijada Arab Muhammadxon Husrov sultonni tutib olib, o'ldirishga hukm qildi. Bu ishni Husrov sultonning inisi Bobo mirzo amalga oshirdi.

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 87-bet; Rossiya arxivlaridagi manbalarda "Ustyurt orqali ruslarning harakatlari haqidagi ishonchli ma'lumotlar XV asrga oiddir. 1605-yilda 1000 ga yaqin O'rol kazaklari Ustyurt orqali o'tib, Ko'hna Urganchgacha yetib kelganlar va shu yerda xivaliklar tomonidan batamom qirib tashlangan", – degan ma'lumot bor (Из доклада полковника генерального штаба Белинского военному министру об экономическом и торговом развитии Средней Азии. ЦГВИА, ф. 400, оп. 2, л. 38, л. 10. WWW: Kungrad.com.

<sup>2</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 158–159-betlar.

<sup>3</sup> Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 50-bet; Eshmurodov M. Xorazm tarixchilari: O'tamish hoji, Abulg'oz, Munis. 29-bet.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 88-bet; Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 159-bet; Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 29-bet.

Oradan ikki yil o'tib, uyg'ur urug'i oqsoqoli Ponash mirzo fatvosi bilan Samarqanddan Hasanqulixon avlodidan bo'lgan Solih sulton degan kishini yashirin ravishda Urganchga olib keldilar. Isyonidan xabar topgan Arab Muhammadxon tezda Xivadan kelib, xalqni maslahatga chorladi. Urganchliklar uni yoqladilar. Qo'lga olingan Solih sulton o'ldirildi. Xon isyonchilarni jazolash yoki avf etishni fuqaroning o'ziga havola qildi.<sup>1</sup>

Arab Muhammadxon Xiva shahri va atrofidagi yerlar Polvonyop arig'idan suv bilan ta'minlanganligi bois, o'ziga saroy va boshqa mustahkam imoratlar qurishni davom ettirdi. 1616-yilda Arabxon madrasasi barpo qilindi.<sup>2</sup> Maydoni 43,0x43,0 m. bo'lgan va, dastlab, bir qavatli qilib qurilgan ushbu madrasaning, keyinchalik, ikkinchi qavatini ham tiklandi. Shaharda hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari kengaya boradi.

Arab Muhammadxonning Isfandiyoixon, Habash, Elbars, Abulg'oz, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg'on sulton ismli yetti nafar o'g'li bor edi. Taxtga o'tirganiga 14 yil bo'lganda o'g'illari – 16 yoshli Habash va 14 yoshli Elbars sulton bilan yov bo'lib qoldi. Shunga qaramay, ular otasi Urganchga ketgan vaqtda qo'shin to'plab, Xurosonni talab qaytdilar. Arab Muhammadxon Vazir qal'asini o'g'illariga berganini e'lon qildi, o'z navbatida, Elbars 4 ming navkari bilan Xivaga kelib, otasini ko'rib ketdi. Oradan 5 yil o'tgach, Elbars sulton Obivardga yurish qilishni rejalashtirdi va otasidan yordam olish uchun Xivaga keldi. Ammo bu vaqtda xon Urganchga ketgandi. Elbars navkarlari xonni tutib, Xivaga olib keldilar. Elbars otasini bir uyga qamab, oldiga soqchi qo'ydi. O'ttiz yildan buyon yig'ilib kelinayotgan xon xazinasi va beklarning mollarini tortib oldi. So'ngra o'margan narsalarini olib, Vazirga otlandi, ammo uning quvonchi uzoq davom etmadi.

Elbars Xivada zo'ra vonlik qilayotgan daqiqalarda Isfandiyo sulton Hazoraspeda, Habash, Abulg'oz va Sharif Muhammad sultonlar Urganchda lashkar to'plash bilan ovora edilar. Oqsoqollar aka-ukalarning qon to'kishlariga fatvo bermadilar, chunki shu bahona bilan Elbars otasining jonini uzishi mumkin edi. Elbars Xivani tark etgandan keyin Arab Muhammadxon Urganchga keldi. Bu yerdagi o'g'illari bilan Elbars sulton ustiga yurish qildi. Natijada uning uy-joyi va eli qirg'in qilindi, o'zi esa 5–6 kishisi bilan qir-adirlarga chiqib ketdi.

O'g'illari Elbars va Habash sultonning noo'rin ishlari Arab Muhammadxonga tinchlik bermasdi. Xon lashkar to'plash va Vazirga yu-

<sup>1</sup> Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi turk. 162-bet; Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 88-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 88-bet.



rish haqida farmon berdi. Bu haqda xabar topgan Elbars va Habash ham kuch to'plab, Xivaga yurish boshladilar. Toshli Yarmish arig'i soqasi yaqinida har ikki tomon o'rtasida janglar boshlandi. Habash sulton asir tushgan otasi Arab Muhammadxonning ko'zini o'yish to'g'risida farmon berdi va keksa xonni Xivaga keltirib, qamab qo'ydilar.<sup>1</sup> Yengilgan Isfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar Hazorasp qal'asiga yashirindilar. Abulg'ozni avval Kot qal'asiga qochdi, keyin esa Buxoro xoni Imomquli huzuriga jo'nab ketdi.<sup>2</sup>

Habash va Elbars sultonlarning kuchlari Hazorasp qal'asini 40 kun qamal qilib turdi. Kuch bilan qal'ani bo'ysundirishga ko'zlari yetmagan, muzokara boshladilar. Natijada Isfandiyor sultonga Makkaga ketishga ruxsat berildi. Sharif Muhammad sultonga Kot shahri topshirildi. Arab Muhammadxonning kichik o'g'illari – Xorazmshoh sulton 12 yoshda va Afg'on sulton 10 yoshda bo'lganligi sababli Xivada onalari qaramog'ida qoldirildi. Habash sulton Urganch va Vazirni, Elbars sulton esa Xiva va Hazoraspni boshqara boshladilar.<sup>3</sup>

O'g'illari yurt bo'lishayotganini ko'rish nasib qilmagan Arab Muhammadxonni uch zaifasi va ikki kenja farzandlari bilan Qumqal'ada tutqunlikda ushlab turishardi. Bir yildan keyin Elbars sulton akasi Habashga aytmay otasi va kichik inilarini Xivaga olib keldi. Shu yerda otasi Arab Muhammadxon, ukasi Xorazmshoh sulton, akasi Isfandiyorning 3 va 1,5 yashar o'g'illarini o'ldirtirdi. Kichik inisi Afg'onni akam o'ldirsin, deb Habash sulton oldiga yubordi. Ammo bu norasida bolaning nima aybi bor, deya Habash sulton uni Russiyaga jo'natib yubordi.<sup>4</sup> O'zga yurtida Afg'on sulton 30 yil umr ko'rdi va nasl qoldirmasdan dunyodan o'tib ketdi.<sup>5</sup>

Isfandiyor Makkaga bormadi va Isfahonda shoh Abbos I (1587–1629) huzurida biroz turgach, ruxsat olib, yurtiga qaytishga harakat qildi. U Durun shahri va Abulxon (Balxon) tog'lariga kelgan vaqtida 300 ga yaqin lashkar to'pladi. Unga turkmanlarning taka, sariq, yavmut urug'laridan yana 80 ga yaqin yigitlar kelib qo'shildilar.<sup>6</sup> Tez orada Habash sulton To'k qal'asi yaqinida suv bo'yida turibdi, degan ma'lumot

<sup>1</sup> Abulg'ozni Bahodirxon. Shajarayi turk. 164-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 165-bet.

<sup>3</sup> Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. 218-bet.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 88-bet.

<sup>5</sup> Abulg'ozni Bahodirxon. Shajarayi turk. 165-bet.

<sup>6</sup> Chovdur, yimrali, qoradoshlar, ko'klan, taka, ali eli, axal, ota urug'i, shix, maxtum, xizir eli, ig'dirtuyachi, ag'ar va boshqalar. Turkman urug'lari haqida qarang: Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. Xiva, 2008. 14–22-bet.

olindi. Isfandiyorxon yarim kechada inisi uyiga bostirib borganda, Habash yo‘q edi. Shu kechasi u bir navkarining uyida tunagan bo‘lib, voqeadan xabar topgach, qochib, Elbars sulton oldiga keldi. Og‘a-inilar kuch to‘plab, Isfandiyor ustiga yurdilar. Ular kelguncha Elbars sultonning qaynotasi, baqirg‘onlik Sayyid ota avlodidan bo‘lgan Nazarxo‘ja ismli amaldor juda ko‘p odamlarni to‘plab, Isfandiyor sultonga qarshi ko‘tardi.<sup>1</sup>

Isfandiyor sulton Nazarxo‘jani Mang‘ishloqqacha quvib bordi. Qaytib kelgach, Urganch yaqinida 23 kun davomida Habash va Elbars bilan jang qildi. Elbars qo‘lga olinib, qatl etildi. Habash esa Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar yerlariga qochdi. U yerda bir vaqtlar o‘zi iltifot ko‘rsatgan mang‘it mirzolaridan Shonak ismli amaldor bor edi. Undan madad va iltifot kutgan Habash g‘aflatda qolib, aldandi. Shonak o‘z homiysi va navkarlarini tutib, Isfandiyorga topshirdi. U Habashni o‘ldirdi.<sup>2</sup>

Oradan ikki oy o‘tgach, Isfandiyor sulton nayman elini qirdi. O‘zbeklar uch bo‘lakka bo‘linib, biri – mang‘it, biri – qozoqlar yurti va yana biri – Movarounnahrqa ko‘chib ketdilar. Uch yildan keyin Amudaryoning Orolga quyadigan yerlariga 3 ming uylik o‘zbeklar qaytib keldi. Buxoroda turgan yana 3 ming uylik o‘zbeklar Kotga ko‘chib kelganlarida, Isfandiyor daryodan o‘tib, ularning barchasini qilichdan o‘tkazdi. Inilariga o‘xshab qon to‘kib, minglagan jasadlarni pillapoya qilib, taxtga chiqqan Isfandiyorxon 17 yil hukmronlik qildi.<sup>3</sup>

1644-yilda Orol o‘zbeklari Abulg‘ozini xon qilib ko‘tardilar.<sup>4</sup> Ammo Xorazmning barcha hududlarini bir vaqtda birlashtirish imkoni bo‘lmadi. Chunki Isfandiyordan qolgan o‘g‘illari Yushan va Ashraf sultonlarga berilgan yerlar Buxoro xoni Nodir Muhammad ta‘sirida edi. Shu bois Abulg‘ozi bir necha bor Xiva ustiga yurib, bo‘ysunmagan odamlarni qirdi. Xiva qa‘lasi yaqinida Buxoro xonniing nevarasi Qosim sulton qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Abulg‘ozi lashkarlari jasorat ko‘rsatib, zafar qozondilar. Buxoroliklarning Xiva ostonasidagi mag‘lubiyatidan xabar topgan Nodir Muhammad 1644-yilda Xorazmga Yoqub Tavsat ismli amaldorni qo‘shin bilan yubordi, ammo u ham yengildi. Shu orada

<sup>1</sup> Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. 165–166-betlar.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 89-bet.

<sup>3</sup> Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajarayi turk. 167-bet; Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 89-bet.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 90-bet.

Buxoro beklari Nodir Muhammadni taxtdan ag'darib, o'rniga o'g'li Abdulazizni ko'tardilar.<sup>1</sup>

1644-yilda Abulg'ozu Xivaga kelib, xon taxtiga rasman chiqdi. Xon barcha turkmanlarning gunohini o'tgani va ularning o'z yerlariga qaytib kelishlari mumkinligi haqida xabar tarqatdi. Ammo uning qarorgohiga 2 mingga yaqin turkmanlar yig'ilgach, ularni qirib tashlash va o'g'il-qizlarini asir olib, Xivaga jo'natishni buyurdi.

Xorazm vohasidagi turkmanlarni bo'ysundirgach, Abulg'ozu 1646-yilda Tajan vohasidagi turkmanlar ustiga yurish qildi. Ularni ham jazolab, ko'plarini o'lja olib qaytdi. Keyinchalik Tajandan qochgan va Xivadan borgan turkmanlar Qizil Arvotning janubi-sharqiy tarafidagi Bomiburma degan joyda to'planganini eshitgan Abulg'ozu yana qo'shin to'pladi. Turkmanlar o'z bola-chaqalarini Qoraqusti degan yerga jo'natib, o'zlari toshdan qal'a qurib, Bomiburmada jang qilishga tayyor turdilar. Turkmanlar harchand urinmasinlar, bu to'qnashuvda ham xon qo'shinlarining qo'li baland keldi.<sup>2</sup>

Kelgusi yili janubiy Xorazmdagi yirik qal'a hisoblangan Kotni qolmiqlarning qo'shut urug'idan bo'lgan Durdi Toyshi odamlari talab ketdi. Ularning izidan qo'shin bilan ta'qib qilgan Abulg'ozu 15 kun deganda Bukruk bosh mavzesida talonchilar orqasidan yetdi. Yarim kunlik jang-ujadaldan keyin qolmiqlar qochib ketdilar. Biroz dam olgach, xon qo'shinlari yana bir hafta davomida qolmiqlarni ta'qib qilishni davom ettirdi. Natijada qolmiqlar ko'plab ot va tuyalari, bosqinchilik bilan talagan mol-mulklaridan ayrilib, faqat bir qismi jon saqlashga muvaffaq bo'ldilar, xolos.<sup>3</sup>

Xivaga qaytgan Abulg'ozu Atrek daryosi bo'yida yashayotgan turkmanlarning bayraj urug'i ustiga yurishni rejalashtirdi. Abulg'ozu odamlari bayrajlar eliga savdo ishlari bilan ketayotgan Avnash ismli taka turkmaning karvoniga duch keldilar. Olingan ma'lumotlar asosida xon bayrajlar ustiga yurish qildi. Abulg'ozuning shu janggi haqida Urganchjiy shunday yozgandi: "Andag' urush bo'ldikim, hargiz mundag' bo'lmay erdi. Nogoh xoni jannat makonning bir quli Odiy bayramni miltiq bilan uzub yiqitdi. Andin so'ng o'ttiz yigit ko'tarila ot soldilar. Taqi turkmanlarni o'lturub, o'g'lon-ushoqini o'lja va asir qilib, xonga olib keldilar. Xon ham bu yigitlarga in'omlar berdi. Taqi bir necha kundin

<sup>1</sup> Abulg'ozu Bahodirxon. Shajarayi turk. 180-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 184-bet.

<sup>3</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs uliqbol. 91-bet.

so'ng fath va nusrat bilan qaytib, Xevaqqa tushdilar".<sup>1</sup> Keyingi yili Abulg'ozni turkmanlarning imrayli (emireli) va sariq urug'larini bo'ysundirdi.

Xonlikning shimoliy va sharqiy hududlari xavfsizligini ta'minlash ham Abulg'ozining e'tiborida turardi. 1655-yilda qalmiqlarning turg'avut urug'idan Mergan To'yshi, O'qchi va Tapa Tag'ul ismli yetakchilari Hazorasping bir qancha qishloqlarini talagandan keyin, Sadvar va Darg'anota aholisining mol-mulkini talon-taroj etdi. Bu haqdagi xabarni eshitgan Abulg'ozni qalmiqlarni ta'qib qilishga qaror qildi. *Katta berib*, qochishni davom ettirayotgan qalmiqlarning asosiy kuchlari Sanginrabot degan joyga yashirindilar. To'qnashuvga yuragi betlamagan qalmiqlar xonga odam yuborib, "Buxoroga boramiz, deb, adashib, sizning yurtingizga kelib qolibmiz, bizni kechiring", deya yalindilar. Shundan so'ng talagan mol-hollarini oldiga solib, qilichlarini bo'yniga osib kelgan qalmiqlar xonning oyog'ini o'pdilar.<sup>2</sup>

Keyingi yillarda Abulg'ozni Buxoroga olti marta yurish qildi, Qorako'lni 2 marta, Karmana va Buxoroni bir marta oldi. Buxoro hukmdori Abdulazizxon bilan to'qnashgan so'nggi jangda zafar qozonib, katta o'ljalar bilan yurtiga qaytdi.<sup>3</sup>

Akademik B. Ahmedov yozgandi: "Abulg'ozni hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzur-halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi".<sup>4</sup> Darhaqiqat, Abulg'ozni butun umrini taxt uchun kurash va jang-u jadalarga bag'ishlagan fotih desa, mubolag'a bo'lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli inson edi. Dastavval, u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tiborni qaratadi. Tez orada turkmanlarning nufuzli amaldorlarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi, ularning mol-mulki, yer-suvi tortib olindi. Ayrim bo'ysunmagan turkmanlar Axal-Taka va Mang'ishloq hududlariga qochishga majbur bo'ldilar. Xonlikni boshqarishda o'zbek amaldorlarining mavqeyi ortib bordi.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Abulg'ozni Bahodirxon. Shajarayi turk. 183-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 89-bet.

<sup>3</sup> O'sha mahba.

<sup>4</sup> Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. 219-bet.

<sup>5</sup> "Va o'zbekdin uch yuz oltmish kishi amal berdi. Olorning o'ttuz ikkisiga o'z nidin o'run berdi. Andoqkim, ikki shayxulislom, ikki qozi, bir rais. Sayid ato avlodidin bir mutavalli, bir naqib, to'rt toliq, to'rt inoq, ikki arbob, to'rt tay, bir parvonachi, ikki aqo, ikki arbob, to'rt ig'atoy inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi bu ikkovi o'runsiz xon huzurida ayoq ustida turadilar". Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent, "O'qituvchi", 2010, 52-bet.

Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi qabilalarni o'troqlashtirish tadbirlari ham Abulg'ozining ichki siyosatida muhim o'rin egalladi. Ular to'rtta to'pa (guruh)ga bo'linib, Buxoro bilan chegar bo'lgan Doyaxotun (Darg'onota yaqinida)dan tortib, to Orolgacha bo'lgan yerlarga joylashtirildi.<sup>1</sup> Xiva atrofiga joylashtirilgan qipchoq va qo'ng'iroq o'zbeklariga alohida yerlar ajratilib, ularning o'troqlashuv joyi rayoni sal kam ikki asr davom etdi. Shu orada Orolbo'yi va Quyi Amu daryo hududlariga joylashgan qoraqalpoqlar ham o'zbek urug'lari bilan aralashgan holda qon-qardoshlik rishtalarini shakllantirdilar.

O'zbeklarning Xorazmga ko'chib kelishi va o'troq hayotga o'tish jarayonida dehqonchilik sezilarli darajada rivojlana boshladi. Aholi sonining oshishi va oziq-ovqatga bo'lgan zarurat ekin maydonlari uchun yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi nahr (kanal) va ariqlar qazish, qishloq (kent) va shaharlar qurish ishlarini mislsiz kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda, tabiatning injiqlarini va o'zgarib turishini hisobga olishga ham to'g'ri keldi. Xususan, Amu daryo o'zanining o'zgarishi natijasida O'zboy, Daryolik, Qo'nadaryo havzasidagi Urganch, Vazir, Devkeskan, Aqcha kelin, Shohsanam kalyon qal'alar bilan bir qatorda, kishloq va ovullar aholisi ichimlik, shuningdek, dehqonchilik uchun zarur bo'lgan suv tanqisligini seza boshladilar.

Xon topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog'iga ko'chirildi. Abulg'oz 1646-yilda Urganch-arna arig'ini qazirdi va uning yaqinida asos solingan qal'ani Yangi Urganch deb nom berdi. Bu yerga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi sal oldinroq – otasi davrida 1616-yilda ko'chirib keltirilgan Biroz o'tgach, G'ozibod kanali ham qazilib, uning yaqinida chegara iqtisodiy tehkomi sifatida qal'a tiklandi.

Bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abulg'oz tarixchi va tibbiy olim sifatida o'zidan bebaho meros qoldirdi. Taxminan 1657-yilda Abulg'oz tabobatga oid "Manafi' ul-inson" ("Insonga foydali narsalar haqida nomli asar yozdi. Kitob 4 qism va 21 bobdan iborat bo'lib, uning muallifi: "Illatga iloj qilmoqni mo'tabar kitoblardan jam qilib, ul illatlarni t

<sup>1</sup> "Va o'zbekni to'rt guruh qilib, to'rt to'pa otadi. Andoqkim, uyg'ur, naymon bir to'pa, do'rmon va yuz va boshqa jamoasi uyg'urg'a qo'shuldi. Va payg'ambar avlodi shayx va bo'rloq bila naymong'a qo'shuldi. Qo'ng'iroq va qo'ng'iroq bir to'pa. Jaloyir va alieli qiyotga qo'shuldi. Nukuz, manqit bir to'pa. Kenagas nukuzga va xo'jaelilikim, inshoo'ning zikrin ayturman, manqitg'a qo'shuldi. Qangli, qipchoq bir to'pa. Alorg'a o'n to'rt urug' qo'shulib, o'n to'rt urug' ot ko'tardi. Va barcha o'zbekka Darg'ondin tengizg'acha Amu suvining ikki tarafin va har nahrlarikim, A'la din munshaab bo'lubdur, ularning atrofing taqsim qilib berdi". Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 91-bet.

yon etib, so'ngra chorasini bayon qildim. Shoyadkim, dardlaridan xolos bo'lg'aylar",<sup>1</sup> – deb yozgandi.

1658–1661-yillarda Abulg'uzi "Shajarayi tarokima" ("Turkmanlar shajarasi") nomli bir kitob, 1663–1664-yillarda "Shajarayi turk va mo'g'ul" ("Turklar va mo'g'ullar shajarasi") nomli yana bir tarixiy asarni yozdi. "Shajarayi turk"da Abulg'uzi o'zining ulug' hukmdorlar avlodidan ekanligi va Xorazmning xon unvonidagi haqiqiy hukmdori ekanligini isbotlashga harakat qilib, o'z ismiga Chingiziy, al-Xorazmiy kabi ta'alluslarni qo'shib yozishga intilgandi.

Abulg'uzi hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab, asosiy e'tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko'rsatishicha, Abulg'uzixon ma'muriy islohot o'tkazib, o'zbeklar va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma'lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlab olishi Abulg'uziga ichki va tashqi siyosatni keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi.

XVII–XVIII asrlarda ko'chmanchilarning o'troqlashish jarayoni Orol bo'yidagi o'zbeklar va qoraqalpoq qabilalari orasida ham kuchaydi. Ularning ommaviy o'troqlashuvi va ularning dehqonchilik hayotiga o'ta borishi bilan Xorazmda sug'oriladigan ekin maydonlarini o'zlashtirish, yangi ariqlar chiqarish, yangi shahar va qishloqlar bunyod etish zaruriyatini tug'dirdi.

1646-yilda Yangi Urganch shahrining mustahkamlanishi Abulg'uzixonning muhim bunyodkorlik ishlaridan biri edi. Tez orada bu shahar xonlikning yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylandi. Shu bilan bir qatorda, ilgari Gurlanga qo'chirib keltirilgan Vazir shahri aholisi ham Amudaryo yaqinida dehqonchilik ishlarini davom ettirmoqda edi.

1663-yilda taxtga chiqqan Anusha Muhammadxon xonlikning mavqeyi va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi.<sup>2</sup> U Buxoro, Samarqand, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Uchinchi marta Mashhadga borganida imom Ali ar-Rizo maqbarasini ziyorat qildi. Shahar hokimi taxtiga o'tirganligi munosabati bilan shoh laqabini oldi. Xonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga nisbatan munosabat yaxshi tomonga o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi va uning atroflariga ko'chib kelishiga ruxsat berdi.

<sup>1</sup> Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. Urganch, 2004, 148-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 92-bet.



Anushaxon davrida sug'orish inshootlari qurilishi kengaydi. Kot aholisi suv kamayganligi sababli so'l qirg'oqqa ko'chirildi va ular uchun qal'a barpo etildi. Bu yerga suv keltirish uchun Yarmish arig'i qazildi va uning oxiri Oqqo'lga yetkazildi. 1681-yilda Amudaryoning eski o'zanlaridan biri bo'lgan Vadoq o'rnida katta kanal qazildi. Yangi Urganch va Yangi Kot o'rtasidan o'tgan ushbu suv yo'li o'zani Manoqqacha yetkazildi. Arnaga "Purfayz" deb nom berildi va u keyinchalik Shohobod deb atala boshlandi.<sup>1</sup>

1687-yilda saroy a'yonlari uyushtirgan fitnaning qurboni bo'lgan Anushaxon o'rniga taxtga 15 yoshlik o'g'li Xudoydod o'tqazildi. Yangi xonning hukmronlik davri uzoq bo'lmadi. Siyosatda bilimdon va xalqqa adolatli hukmdor sifatida obro' ortira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon shahid etdi.

Arangxon (1688–1695) davrida Xivada amaldor Muhammad Rizo Xo'jamberdiyning mavqeyi katta bo'lib, uning mablag'i evaziga madrasa bino qilindi. Ammo xonning noto'g'ri siyosati oqibatida yurtida ichki nizolar kuchayib, aholining hayoti og'irlashib bordi. 1695-yilda Amir Sayyid inoqning o'g'li Odina Muhammad boshliq qo'ng'iroq o'zbeklari xonga bo'ysunmay qo'ydilar. Ular o'zbeklarning mang'it, qang'li, qipchoq, xo'jaeli urug'laridan to'plagan askar va Darg'onota turkmanlari yordamida Xivani egalladilar.

Arangxon otdan yiqilib o'lgach, biroz muddat turkmanlar ta'siri kuchaydi. Oradan biroz o'tgach, Odina Muhammad otaliq va Jiyanbiy mirob yordamida taxtga Hojimaxon naslidan bo'lgan Jo'jixonni o'tqazildi. Yangi xonning uch yillik hukmronligi davrida el osoyishta bo'lsa-da, keyingi 15 yilda Xiva taxtida 10 ga yaqin hukmdorlar almashdi. Valixon (1698–1699), Shoh Niyozxon (1699–1702), Shohbaxtxon (1702–1703), Sayyid Alixon (1703–1705), Musoxon (1705–1706), Yodgorxon (1706–1713) va hokazo.<sup>2</sup> Siyosiy barqarorlikning yo'qligi va xalq ahvolining og'irlashib borayotganligi noroziliklarni haddan tashqari kuchaytirib yubordi.

XVIII asr ikkinchi yarmida kuchaygan siyosiy inqiroz, xonlik taxtida qo'g'irchoq hukmdorlarning tez-tez almashib turishi ("xon bo'lish o'yini"), shuningdek, Xorazmda tarqalgan qahatchilik va yuqumli kasalliklar, turkman yavmutlarining bosqini xalqni og'ir ahvolga solgandi. Hatto "dehqonlarda sotish uchun g'alla va boshqa xo'jalik mahsulotlari,

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 96 – 97-betlar.

shahar xalqida pul, hunarmandlarda qayta ishlash uchun xomashyo, savdogarlarda sotish uchun mollar qolmagan, dahshatli ochlik oqibatida ommaviy ravishda yosh bolalarni sotish hollari avj olgandi”.<sup>1</sup>

Arab Muhammadxon va uning vorislari davrida Xiva xonligida nisbatan siyosiy barqarorlik o'rnatilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratilgan, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Abulg'ozixon va uning vorisi Anushaxon davrida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatdan chiqib ketgan o'zbek urug'larini qaytarish va ularning mavqeyini ko'tarish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu islohot nafaqat qabilalar o'rtasidagi kurashlarga barham berish, balki ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning o'troqlashish jarayonini kuchaytirish maqsadini ham ko'zda tutgan edi.<sup>2</sup>

XVI asr boshlarida tashkil topgan Xiva xonligidagi beqaror siyosiy vaziyat, mansab va taxt talashuvlar, soliqlar va ortiqcha majburiyatlarining ko'pligi inqiroz holatlarining yana-da chuqurlashishiga sabab bo'lgandi. Natijada XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib xonlikning siyosiy birligi susaydi, uning tashqi va ichki munosabatlari mushkul bir holatga tushdi. Kuchli siyosiy arboblarning yo'qligi, iqtisodiy jihatdan mustahkam tayanchlarning susayishi mamlakatning qaramligi va harbiy jihatdan o'jizlanishiga sabab bo'ldi. Vujudga kelgan vaziyat qattiqqo'l va uzoqni ko'ra biladigan qobiliyatli davlat arboblari siyosiy kurash maydoniga chiqishlarini talab qilardi.

### 2.3. Xiva xonligining tashqi siyosiy aloqalari boshlanishi

XVI boshlarida Eron qizilboshlarining Xorazmni egallashi bilan murakkab vaziyat paydo bo'ldi. Voha va uning atrofidagi aholining ozodlik kurashi, ularga o'zbek urug'larining bergan katta yordami natijasida qizilboshlarning hukmronligiga chek qo'yildi. Shu bilan bir qatorda, Xorazmda yangi tashkil etilgan markazlashgan va yagona hukumatning yo'qligi xonlikni o'ziga bo'ysundirishni maqsad qilib qo'ygan Buxoro hukmdorlarining manfaatlariga mos kelardi. Ubaydullaxon (1533–1539) va Abdullaxon II (1557–1598)ning Xorazmga uyushtirgan yurishlari, xususan, ular tomonidan ko'plab o'zbek urug'lari vakillarining olib keti-

<sup>1</sup> Otajonov M. Xiva xonligiga doir materiallar. 26-bet.

<sup>2</sup> Сайжиев А. Ф. Хорезм в начале XVI – первой половине XIX в. 258 – 259 с.



lishi, aholi boshiga solingan katta miqdordagi soliqlar siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1573-yilda Hojimaxon Xurosonga yurish boshladi. Bundan xabar topgan Buxoro hukmdori Abdullaxon katta qo'shin bilan Xorazmni bosib olishni rejalashtirdi. Yov kelayotganini eshitib Po'lat va Temur sultonlar Kubatog' (Mang'it yaqinida)dan tortib, Toshsoqa qirlarigacha bo'lgan yerlardagi o'zbek va sartlarni Xivaga to'pladilar. Vazir xalqi ham kelib, Xiva qal'asiga qamaldi. Buxoro qo'shinlarining boshi Yangiariqqa yetgan vaqtda Abdullaxon Qulonji degan joyga kelib to'xtadi. O'n kundan keyin "Hojimaxon Xurosondan qo'shin bilan kelayotir" degan xabar tasdiqlandi. Ushbu vaziyatda Abdullaxon Xivaga chopar jo'natib, Po'lat va Temur sultonlarga sulh taklif qildi. Ikki o'rtada bir-birovga daxl qilmaslik haqida kelishilganidan so'ng, Buxoro qo'shinlari orqaga qaytdi.<sup>1</sup>

Keyingi yillarda ham Xiva shahri Buxoro bilan munosabatlarda muhim rol o'ynadi. 1595-yilda Buxoro hukmdori Abdullaxon ikkinchi bor Xorazmga yurish qilgan vaqtda Hazorasp hokimi Muhammad sulton a'yonlarini olib, Xivaga qochdi. Bu yerga to'plangan o'zbeklarning yetakchilari bir-biriga ishonmasdan Pahlavon Mahmud maqbarasiga borib, Qur'oni Karimni o'rta qo'yib, ont ichsalar-da, birlasholmadilar. Natijada Temur sulton va Po'lat sultonning o'g'illari 2 ming uylik qavmi bilan Vazirga yo'l oldilar. Ertasiga Buxoroning 3 ming kishilik qo'shinlari xivaliklar izidan yurib, Olmaotishgan qal'asi yaqinida quvib yetdi. Xivaliklar aravalarni bir joyga to'plab, mudofaa jangini boshladilar.

Juda ko'p moli va odamlaridan ajralgan xivaliklarning bir qismi Vazirga qochib borishga majbur bo'ldilar. Ularning izidan kelgan Abdullaxon qo'shinlari Vazir qal'asini bir oy davomida qamal qilib turdi. Qal'ani olishga ko'zi yetmagan Abdullaxon sulh taklif qildi. Qaytish vaqtida Urganchdagi davlatmand amaldorlarning mol-mulki tortib olindi va kishi boshiga 30 tangadan o'lpon solindi. Pul topa bilmay o'g'il-qizini sotganlar ko'p bo'ldi,<sup>2</sup> deb yozgandi Abulg'ozini.

Buxoroliklar bosqini vaqtida 3 ming kishilik askar bilan Xurosonning Durun degan joyida turgan Hojimaxon o'z o'g'illari va qarindoshlari bilan Qazvinga borib, shoh Abbas huzuriga qo'ndi. Shoh Hojimaxonni yaxshi qabul qildi va unga iltifot ko'rsatdi. Buxoro hukmdori Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min boshliq lashkarlar Xurosonning barcha ha-

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 87-bet.

<sup>2</sup> Abulg'ozini Bahodirxon. Shajarayi turk. 154-bet.

dudlarini egalladi va Asfaroyin degan joyda qizilboshlar qamalda qoldi, degan xabarni olgan shoh Abbos katta qo'shin bilan Bastomga ketdi.<sup>1</sup>

Shu vaqtda Hojimaxon Urganchda buxorolik sipohlardan 40 va Xivada 60 kishigina qolganligini eshitib, tezda Astrobodga yo'l oldi. Quran tog'iga yetganida, unga taka va yavmut turkmanlaridan 50–60 kishi qo'shildi. O'rta quduq degan joyda ularga yana shuncha ersari turkmanlari qo'shildi. Qo'shining soni ortgan Hojimaxon o'g'illari Arab Muhammadxon va Muhammadquli bilan Urganchga, Po'lat sulton o'g'li Bobo sulton esa Xivaga qarab ketdilar.

Urganchga kelgan Hojimaxon shahar hokimi Sari sulton va uning navkarlarini o'ldirtirdi. Bu vaqtda Xiva devorlarini buzib, qal'aga kirgan Bobo sulton lashkarlari esa Berdi Manglishbiy ismli arbob va unga qarashli 100 dan ortiq navkarlarni o'ldirdilar. Shundan keyin yordam bergan turkmanlarning aksariyatiga sovg'a-salomlar ulashib, eliga qaytardilar. Bobo sulton Hazoraspga va inisi Hamza sulton Xonqaga yo'l oldilar.

Xorazmdagi ahvoldan xabar topgan Buxoro xoni Abdullaxon Xo'jamquli qo'shbegiga Hazoraspga borishni buyurdi. Kutilmaganda yovning qal'a oldida paydo bo'lganidan hayratga tushgan Bobo sulton 15 navkari, 3 nafar ersari turkmani va qal'adagi sartlar bilan mudofaaga kirishdi. Hazoraspga yetib kelgan Abdullaxon qal'ani 4 oy qamal qilib, nihoyat, oldi va Bobo sultonni o'ldirtirdi.<sup>2</sup>

Xiva xonlari avlodlari Buxoro hukmdorlari bilan ham qarindosh-urug'chilik munosabatlari ham raqobatlar davom etardi. Buxoro xoni Abdulazizning inisi Subhonquli Abulg'ozining ukasi Sharif Muhammadning kuyovi edi. Balx hokimi bo'lgan Subhonquli Abulg'oziga odam jo'natib, akasiga qarshi urushga da'vat qildi. Abdullaxon davrida qarindosh-urug'larning qoni ko'p marta to'kilganganini eshitgan Abulg'ozini Buxoroga yurish boshladi. Ko'kardik degan joyga yetganda, xon Bekquli inoqni Qorako'l ustiga yubordi. O'zi esa 30–40 qishloqni egal-lagach, Buxoro darvozalari oldida paydo bo'ldi. Shu orada Bekquli ham Qorako'lni egallab, katta o'lja bilan kelib, xonning asosiy lashkarlariga qo'shildi. Xivaga qaytgach, xon lashkarlariga alohida iltifot ko'rsatdi.<sup>3</sup> Shu yili Abulg'ozining o'zi Qorako'lga ikkinchi borish qildi. Kelgusi yi-

<sup>1</sup>Ushbu va O'g'ahiy. Firdavs ul-iqbol. 87-bet.

<sup>2</sup>O'g'ahiy. Firdavs ul-iqbol. 87-bet.

<sup>3</sup>Ushbu va O'g'ahiy. Firdavs ul-iqbol. 87-bet.

li Chorjo'y ham shu tariqa bo'ysundirildi va aholisining bir qismi bandi qilib, olib ketildi.<sup>1</sup>

1657-yilda Abulg'ozni qo'shinlari Qorako'lga yurish qilib, Yoychin va Narzam degan joylarni egallab, Karmanaga yo'l oldi. Zarafshon daryosidan o'tgan xivaliklar shahar aholisining mol-xolini o'lja oldilar va Abulg'ozni buyrug'i bilan 15 ming kishilik qo'shin orqaga qayta boshladi. Ularni ta'qib qilgan Buxoro qo'shinlari bilan xivaliklar o'rtasida yetti marta to'qnashuv ro'y berdi. Xivaliklarning qutulishi mushkul bo'lib qolganda Anushaxon Abdulazizning qo'shiniga shiddat bilan hamla qildi. Qo'qqusdan boshlangan ushbu hujum natijasida buxoroliklar qo'shini parokanda bo'ldi. Ular chekinib, o'zlarini daryoga tashlay boshladilar. Abdulazizning o'zi ham daryodan o'tib, zo'rg'a jon saqlab qoldi.<sup>2</sup>

Karmana safarida Anushaxon 14 yoshlik yigit bo'lib, otasining behad hurmatiga sazovor bo'ldi. "Taqi barcha xalqni yig'ib aytdilar kim, o'g'limizning avval safari erdi, oyoqi va yo'li muborak bo'ldi. Abdulazizxon tek ulug' podshohni bosduq va taqi urush kunida qilgan ishlariga tahsinlar qilib, ulug' to'y berdilar. Taqi tug' berib, lashkar qo'shib Hazoraspn berdilar",<sup>3</sup> – deb yozgandi shu davrdagi voqealarning guvohi bo'lgan Mahmud Urganjiy.

1663-yilda Abulg'ozni Vardanzi degan joyga yurish qilib, yana bir bor Buxoroga otlandi. Shaharning Namozgoh darvozasi oldida turgan Abulg'ozni Buxoroga kirmaslikka qaror qildi. Chunki bu vaqtda Abdulaziz Samarqandda bo'lib, shaharda oddiy xalqdan boshqa qo'shin yo'q edi. Shu bois "xonning o'zi yo'q vaqtda bir necha xotin-xalaj turgan shaharni oldi" degan andishadan qochib, Abulg'ozni ulkan o'ljalari to'plagan qo'shinni Xivaga qaytarishga farmon berdi. "Agar tangri bersa Abdulazizxon qal'aning ichinda tursa, aning qo'lidan olg'aymen", degan Abulg'ozining orzu-niyatlari ro'yobga chiqmadi.

Xiva xonligiga asos solingan dastlabki davrda Eron davlati bilan munosabatlar biroz vaqtgacha cheklanib qolgandi. Xiva xoni Bo'chg'a (1522–1526) davrida Eron shohi Tahmosp I ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qildi. Arab Muhammad davrida taxt uchun kurashlar kuchaygan bir vaqtda uning o'g'illari Isfandiyor va Abulg'ozni madad so'rab, Isfaxonga – shoh Abbos (1587–1629) huzuriga borgandilar.

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 92-bet.

<sup>2</sup> Abulg'ozni Bahodirxon. Shajarayi turk. 187-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 188-bet.

1648-yilda shoh Abbos II (1642–1666) saroyiga elchi yuborgan Abulg'ozixon turkman boshliqlariga qarshi kurashda Eron betarafligini ta'minlash bilan birga, ikki davlat o'rtasida savdo va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga erishgandi.<sup>1</sup> Hatto, bu aloqalar ikki xonadon o'rtasidagi nikoh aloqalari bilan mustahkamlandi. Shoh Tahmospning Xiva xoni jiyani Oysha begimga uylanishi munosabati bilan Abulg'oziga yuborgan shohona hadyalarining ichida kumush bilan ishlov berilgan to'qqizta xanjar, zarboftdan tikilgan hashamatli chodir (to'shagi bilan), to'qqiz ot (egari va yugani bilan), ming bo'lak kumush ipak borligini qayd qilingan.<sup>2</sup>

Xiva xonlari Eron bilan aloqalarni saqlab qolish, savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lganlar. Tahlil qilingan ma'lumotlar orqali XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron davlatida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda uch bosqichni, ya'ni tashkil topish, rivojlanish hamda ziddiyatlar va inqirozlar davrini kuzatish mumkin. Bu davrda ikki davlat taraqqiyotidagi o'xshash jihatlar ham, mintaqadagi umumiy vaziyat va uning ta'sir kuchi hamda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmun-mohiyati haqida tushuncha beradi.<sup>3</sup>

“Shajarayi turk”da keltirilgan ma'lumotlar XVII asrda Xorazmni Kaspiy dengizi orqali Eron, Turkiya bilan bog'lagan yo'l haqida ma'lum darajada tasavvur beradi. Jumladan, mamlakatdagi notinchliklar tufayli Turkiyaga ketgan Xiva xoni Hojimaxning katta o'g'li o'z yurtiga qaytishda Shirvon – Kaspiy dengizi – Mang'ishloq – Xiva orqali o'tgan yo'ldan foydalanganligi tasvirlangan.<sup>4</sup> Albatta, quruqlik va suv orqali o'tgan bu karvon yo'llari xalqlarning o'zaro iqtisodiy aloqalari, ularning madaniy yangiliklar bilan almashinuvi hamda davlatlar o'rtasidagi diplomatik kelishuvlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

Taraqqiyotning ayrim bosqichlarida siyosiy vaziyat murakkablashib, to'qnashuvlarga ham olib kelgan. 1681-yilda Xiva xoni Anushaxon lashkarlari Xurosonga yurish qilib, Mashhad atrofidan 5 mingdan ortiq aholini haydab qaytdi. Asirlar yordamida Amudaryoning qo'milib qolgan Vadoq irmog'i asosida Shohobod kanali qazildi va uning yaqinidagi Yangi Urganch, Kotqal'a, Shohobod qal'alarida qurilish ishlari amalga oshirildi.

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Очерк истории туркменского народа... с. 59.

<sup>2</sup> Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarayi turk. 128-bet.

<sup>3</sup> Allayeva N. XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. 45-bet.

<sup>4</sup> Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarayi turk. 158-bet.

1721-yilda Xiva xoni Sherg'ozini Mashhadga yurish qildi va shahardagi imoratlarni vayron etib, 5 ming erkak va xotinlarni asir qilib qaytdi.<sup>1</sup> Taqdir taqozosi bilan xon Xivada madrasa qurilishi ishiga jalb qilingan eronlik asirlar isyoni vaqtida o'ldirildi. "Va Sherg'ozixon qo'y yili oftob Jaddiy burjida erdi, qullari shahid qildi. Tarixi vafoti "dod az g'ulomon" dur (1726–1727). Bag'oyat odil va fozil podshoh erdi. Ilm va she'r aning zamonida rivoj topti",<sup>2</sup> deb yozgandi muarrih Munis.

XVIII asrning 20–30-yillarida ikki davlatning chegaradosh hududlarida tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan bo'lsa-da, fors manbalarida keltirilgan ma'lumotlar Nodirshoh bilan Xiva xoni Sherg'ozini o'rtasida diplomatik aloqalar bo'lganligini ko'rsatadi.<sup>3</sup> Keyinchalik Nodirshoh Afsharning O'rta Osiyoga keng miqyosli fotihlik yurishlari ikki tomonlama munosabatlarning buzilishiga olib keldi. Xiva xonligi eronliklarga Osiyoda qattiq qarshilik ko'rsatgan davlat bo'ldi. 1739-yil 28-oktabrda Xonqada 20 amaldori bilan birga qatl qilingan Elbarsxon II dan keyin ham, hokimiyatga intilgan mahalliy mang'it boshliqlari Eron shohi bilan hamkorlik qilishga majbur bo'lishgandi.

Eron tarixchisi va voqealarning bevosita ishtirokchisi Muhammad Kozimning (XVIII asr) ma'lumotlari Xorazm aholisi tarkibida vujudga kelgan eroniylar guruhi haqida tasavvur beradi. Xususan, o'z vaqtida Xiva hukmdorlari tomonidan asirga olinib, Xorazmning besh shahrida yashab kelayotgan barcha iroq va xurosonliklarni aniqlash hamda ozod qilish yuzasidan Nodirshohning 1745-yilda bergan buyrug'iga ko'ra, 5 – 6 mingga yaqin oila borligi aniqlangan. Shunda ular orasidan mahalliy aholi bilan bo'lgan nikohdan tug'ilgan kishilarni ajratib olishga qaror qilingan. Natijada otasi o'zbek bo'lgan, o'z uy-joylariga ega 2000 dan ortiq kishilar aniqlanib, ular iltimosiga ko'ra, Xorazmda yashab qolishga ruxsat berilgan.<sup>4</sup>

Rus zobiti Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining barbod bo'lganligi to'g'risidagi xabarni Isfaxonga yetkazib kelgan maxsus Xiva choparining Eron hukumati tomonidan 72 chervon bilan taqdirlanishi, shoh Sulton Husaynning Xiva xoniga 2000 tuman pul taqdim qilganligiga doir ma'lumotlar,<sup>5</sup> xonlik hududiga ko'plab Eron pullari-

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 99-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 101-bet.

<sup>3</sup> Muxammad Kazim. Name-yi alamara-yi Nadiri... T. I. s. 85; Firdavs al-Ikbal. Sochinenie Munisa i Agaxi. MITT. T. II, c. 333.

<sup>4</sup> Muxammad Kazim. Name-yi alamara-yi Nadiri... T. III, c. 92.

<sup>5</sup> Аннанепесов М. Укрепление русско-туркменских взаимоотношений. с. 37.

ning kirib kelishini ta'minlagan qo'shimcha omillar haqida tasavvur beradi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib markaziy hokimiyatning zaifligi, o'zaro taxt uchun kurashlar, urug'lararo ziddiyatlar va ularning oqibatida tashqi ta'sirlar, ya'ni Xorazmda turkman, Eronda afg'on janjarilarining harakati nafaqat ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga, balki mamlakat tashqi siyosatiga ham putur yetkazgandi. Eronda avj olgan ichki kurash va xalq g'alayonlari Nodirshohni Xiva xoni va mahalliy amaldorlar bilan kelishib siyosat yuritishiga majbur qilgandi.

Munis "Firdavs ul-iqbol" asarida Xiva xoni Abulg'ozixon II (1742–1746)ning Yorim devon avlodidan bo'lgan Muhammad Amin mehtar orqali Nodirshohdan turkmanlarning yavmut va chovdur qabilalari isyonini (1745) bostirishda olgan yordami haqida ma'lumot berilgan.<sup>1</sup> Bu davrda iqtisodiy aloqalarning siyosatdan ustun bo'lgan o'ziga xos qonuniyatlari har qanday holatda ham an'anaviy savdo aloqalari batamom to'xtab qolmaganligini ko'rsatdi.<sup>2</sup>

Xiva xoni G'olibxon (1746–1756)ning qo'shni davlatlarga nisbatan olib borgan siyosati Xivada savdo-sotiqning inqiroziga olib keldi.<sup>3</sup> Xonlikda bo'lgan rus savdogari D. Rukavkin, hatto xonlik tangalari Xiva xonlari nomi bilan emas, Buxoro xonlarining nomi bilan zarb etilishini qayd etib o'tgan.<sup>4</sup> Bu esa davlat mustaqilligining susayganligidan darak berardi.

Xiva xonligi tarixida Rossiya bilan munosabatlar alohida o'rin egallaydi. Moskva atrofida markazlashgan davlat sifatida mustahkamlana boshlagan Rossiya turkiy davlatlar hisoblangan Qozon, Astraxan va Qrim xonliklarini bo'ysundirgach, Sibir xonligiga tajovuz qila boshlagandi. Mazkur jarayonlarni zimdan kuzatib turgan ingliz arboblari Osiyodagi o'z mustamlakalarini saqlash maqsadida chora-tadbirlar belgiladilar. Jumladan, ular Eron va Hindiston bilan azaliy aloqalari mavjud O'rta Osiyoda tashkil topgan yangi xonliklar davlat arboblari o'z ta'sir doirasiga tortishni rejalashtirgandilar, natijada savdogarlar va sayyohlar niqobi ostida o'lkaga josuslar yuborildi.

1688-yilda Buxoro qo'shinlari Xorazm vohasini egalladilar. Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z noibi Jo'jixon o'g'li Shoh Niyozni o'tqazdi.

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 104-bet.

<sup>2</sup> Alalayeva N. XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. 15-bet.

<sup>3</sup> Везеловский Н.И. Очерк историко-географических съездений о Хивинском ханстве... с. 235.

<sup>4</sup> Бетгер Е. К. Самарский купец Данила Рукавкин и его караван в Хиву в 1753 г. Известия АН Туркменской ССР. 1952, № 6, отдельный оттиск, с. 8–11.



Buxoroga qaramlikdan qutulish yo'llarini izlagan vassal hukmdor esa rus podshosi Petr I oldiga Do'st Bahodir ismli elchisini yuborib, undan madad so'radi. 1700-yil 30-iyunda<sup>1</sup> rus podshosidan ishonch yorlig'ini olgan Shoh Niyoz o'zini xon deb e'lon qildi. Ammo uning davri-davroni uzoq cho'zilmadi. Shoh Niyoz 1702-yilda vafot qilindi.

Yangi xon – Arab Muhammad o'z nomiga yorliq olib kelish uchun Do'st Bahodirni yana Petr I oldiga jo'natdi. Rus podshosi yangi xon nomiga yorliq berish bilan bir qatorda, unga sovg'a tariqasida 1000 ta oltin tanga, 40 ta suvsar terisi va 3 ta miltiq yubordi.<sup>2</sup>

1713-yilda Astraxanga kelgan mang'ishloqlik turkman savdogari Xo'ja Nafas O'zboyda oltin zaxiralari bor, degan ma'lumotni berdi.<sup>3</sup> 1714-yilda Xiva xoni Hojimuhammad Bahodirxoning taxtga o'tirganligi haqidagi xabarni Moskvaga olib kelgan elchi Ashurbek va Sibir gubernatori Matvey Gagarin ham O'rta Osiyoda oltin zaxiralari borligi haqidagi taxminlarni tasdiqladilar.<sup>4</sup>

Petrning 1714-yil 29-maydagi buyrug'i bilan Xiva xonligi hududiga kapitan A. B. Cherkasskiy qo'mondonligida harbiy ekspeditsiya jo'natildi.<sup>5</sup> Podshoning topshirig'ida qisman shunday so'zlar bor edi: "Ehtiyotkorlik bilan daryoning (Amudaryo) oqimi hamda to'g'onlarni ko'rib chiqish, imkoni bo'lsa, daryo suvini ilgarigi oqimiga yo'naltirish, Orol dengizi tomon oqayotgan irmoqlarni berkitish lozim. Amudaryo orqali savdogarlarni Hindistonga kemalar suzish mumkin bo'lgan joygacha yuborish kerak".<sup>6</sup> Ekspeditsiyaga berilayotgan topshiriq ustiga Petr yana shunday so'zlarni yozgandi: "Senatdagi janoblarga mazkur ishni zudlik bilan amalga oshirish zarur bo'lganligi uchun jo'natish lozim".<sup>7</sup>

1714-yil 7-noyabrda Astraxandan Guryevga qarab yo'lga chiqqan qo'shin tarkibida 10 ofitser va 1744 nafar piyoda askar, 27 ta kemaga

<sup>1</sup> Попов А. Сношение России с Хивой и Бухарою при Петре Великом. СПб., 1893. Турк. сб. Ташкент, т. 77, с. 388; Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград, 1915, с. 42; G'ulomov X. Rossiya va Xiva, elchilik missiyalari. "Tafakkur", Toshkent, 2006, 1-son, 113-bet; Шарипов У. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, М., Компани "Спутник", 2007, с. 63.

<sup>2</sup> Веселовский Н. И. Прием в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII-XVIII столетие. С. 25.

<sup>3</sup> Шепелев А. Очерки военных и дипломатических сношений России со Средней Азией. СПб., 1870, с. 28.

<sup>4</sup> Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград, 1915, с. 45-47.

<sup>5</sup> Макшеев А. И. Исторический обзор Туркистана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890, с. 66.

<sup>6</sup> Из доклада правительственной экспедиции по исследованию направления Среднеазиатской железной дороги от 24 ноября 1878 года. ЦГВИА, ф. ВУА, оп. 1, д. 117, лл. 9-13. WWW: Kungrad.com.

<sup>7</sup> ЦГВИА, ф. ВУА, оп. 1, д. 117, лл. 9-13. WWW: Kungrad.com.

joylashtirilgan 100 dengizchi, 19 to'p va 33 to'pchi bor edi.<sup>1</sup> Ob-havoning noqulayligi sababli 3 dekabrda rus qo'shinlari orqaga qaytib ketdi. Ammo to'plangan ma'lumotlarga juda qiziqqan Petr I izlanishlarni davom ettirish lozimligi haqida ko'rsatma berdi. Natijada 1715-yil 25-aprelda A. B. Cherkasskiy kemalarga ortilgan askarlari va qurol-aslahasi bilan Mang'ishloq yarim oroliga keldi.

1716-yil 27-yanvardagi podshoning topshirig'i bilan Kaspiyga yuborilgan dengiz ofitseri Kojin A. B. Cherkasskiy to'plagan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va dengiz qirg'og'i xaritasini chizishga kirishdi. Shu yili 31-martda Peterburgga chaqirib olingan A. B. Cherkasskiy podshoning Rigadagi qarorgohida o'ziga topshirilgan ishning natijalari haqida axborot berdi. Mamnun bo'lgan Petr A. B. Cherkasskiyga gvardiya kapitani unvonini berdi va Senatga zarur mablag'larni ajratish, 4 ming piyoda, 1500 o'rol va 500 greben kazaklari, 100 nafar dragun otiqlarini uning ixtiyoriga berishni buyurdi.<sup>2</sup>

1716-yil 20-sentabrda Astraxandan kemada yo'lga chiqqan A. B. Cherkasskiy 9-oktabrda Tun Qarag'an (Mang'ishloq) ko'rfaziga yetib keladi. Xiva xoni Sherg'oziga sovg'a salomlar yo'llagach, Cherkasskiy polkovnik Xrushchevga Avliyo Petr nomiga qal'a qurishni topshirdi. Krasnovodskka suzib borgach esa, Bextir Liman ko'rfazi yaqinida shahzoda Aleksey nomidagi istehkomga asos soldi. Keyinchalik O'zboyning Kaspiyga quygan eski o'zani yaqinida uchinchi qal'a qurilishi boshlandi.

Quruqlik orqali dekabr oyida Astraxanga qaytgach, A. B. Cherkasskiy Xiva xoni Sherg'ozini rus elchilarini ushlab qolgani va qo'shin to'playotganligi haqida ma'lumotlarni oladi. Endi u Guryev orqali Xivaga yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Knazning harakatlaridan norozi bo'lgan poruchik Kojin uning ekspeditsiyasida ishtirok etishdan bosh tortadi. Ushbu kelishmovchilik haqida xabar topgan Petr Cherkasskiyga

<sup>1</sup> Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi bir necha bosqichdan iborat ekanligiga e'tibor bermagan muallifning asarlarida ruslar armiyasi soni haqida bir-birini inkor qiluvchi ma'lumotlar uchraydi. Rus tarixchisi, professor N. I. Veselovskiyning asarida ko'rsatilgan 1716-yildagi yurish vaqtida qo'shinga 6655 askar ajratilgan edi. Xiva xonligi manbalarida, xususa, muarrixlar Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asarida ruslar soni 30 mingdan ortiq deb ko'rsatilgan (Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/I, 32-a varaq). Petmning yo'riqnomasida Bekovich Cherkasskiyga 4000 askardan iborat muntazam qo'shin va kemalar ajratishdan tashqari O'rol kazaklaridan 1500, o'tliqchilaridan 500 va o'tliqlaridan 100 kishi ajratish haqida ko'rsatma berilgan (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachilik sharoitida davrida. 31-bet). A. Maksheyev Astraxandan chiqqan knyaz' Bekovich 1900 kishilik askar va 30 ta kema bilan Guryev qal'asi tomon yurish boshlaganligini ko'rsatadi (Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана... с. 66).

<sup>2</sup> Yana bir ma'lumotga qaraganda ekspeditsiya tarkibida 2200 kishi bo'lgan (Из доклада полковника генеральского штаба Белинского военному министру об экономическом и торговом развитии Средней Азии). ЦГВИА, ф. 400, оп. 1, д. 38, л. 10. WWW: Kungrad.com.

<sup>3</sup> Шарипов У. Русско-хивинские отношения при Петре Великом. В сб. Проблемы гуманитарных наук. Т. 3, с.



qo‘l ostidagi ishonchli odamlaridan birini, maxfiy topshiriq bilan Turkiya va Eron orqali Xitoy va Buxoroga yuborish hamda oltin qum bor joylarni aniqlashni buyuradi.

Ustyurtdagi Emba daryosiga yetgan vaqtda olingan ushbu topshiriqni bajarish mas‘uliyati kazak arbobi Mirza Tavakkalov zimmasiga yuklanadi, o‘z navbatida, Tavakkalov Ozarbayjondagi Shemaxa qal‘asi orqali Isfaxonga, undan o‘tib, Astrabodga borgan vaqtda Safaqlixon ismli noib qo‘liga asirlikka tushib qoladi. Erondagi rus elchisi Volinskiy tomonidan ozod qilingan M. Tavakkalov Cherkasskiy ekspeditsiyasining fojiali taqdiri haqida eshitgach, Rosiyaga qaytib ketadi.

Ruslar yurish boshlagan vaqtda Xivada qozoq xoni Sultong‘ozi avlodidan bo‘lgan Sherg‘ozi Jontoxon o‘g‘li (1714–1726) hukmronlik qilardi. Muarrih Munisning guvohlik berishicha, u Buxoroda tug‘ilgan va madrasada o‘qib, bilimlarni chuqur egallagandi.<sup>1</sup> Ruslar yaqinlashayotganidan xabardor bo‘lgan xon 24 mingga yaqin askar to‘pladi.

1717-yilda 11 ta to‘p va 1877 askar bilan Xivaga qarab yurish boshlagan ruslarning Qayrag‘och daryosiga baliq ovlashga yuborilgan 60 ga yaqin kazaklari xivaliklar tomonidan asir olinadi. Ruslarning kuchi ko‘pligidan xabardor bo‘lgan Xiva xoni Bekovich-Cherkasskiyga amaldor Eshimxo‘jani yuborib, uning ruxsatisiz ish qilinganligi, asir olingan kazaklarni qaytarib yuborishga tayyor ekanligi, agar u, haqiqatdan ham, elchi sifatida kelgan bo‘lsa, hamrohlari bilan birga, do‘stona ravishda kutib olishini ma‘lum qiladi.<sup>2</sup> O‘z navbatida, Xivaga kelgan astraxanlik dvoryan Kreytov ikkinchi marta xonga ruslarning bosqinchilik niyatlari yo‘qligini rasman bildiradi.

Sherg‘ozixon bu gal ham rus elchilarini qaytarib yubormadi. Shu orada uning qo‘shinlari ikki kun davomida ruslar bilan urush qildilar va yengilib qaytdilar. Vaziyatni hisobga olgan xon hiyla ishlatishga qaror qildi. U sarbozlarining harakatidan bexabarligi va sulh muzokaralari olib borishga tayyor ekanligini bildirdi. Muzokaralar, dastlab, Porsungul arig‘i bo‘yidagi Cherkasskiy qarorgohida o‘tkazilgach, xon ruslarni mehmonga taklif qildi. Ishonch yorliqini topshirish uchun ofitserlari va 700 nafar soqchilari bilan kelgan Davlat Girey<sup>3</sup> ismi bilan atala boshlangan

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 97-bet.

<sup>2</sup> Дело 1714–1718 гг. об отправлении лейб-гвардии Преображенского полка капитана-поручика князя Александра Бековича Черкасского на Каспийское море и в Хиву. Документы и материалы Военно-ученого архива Главного штаба. Т. 1. СПб., 1871. Турк. сб. Т. 33, Ташкент, с. 257.

<sup>3</sup> "Firdavs-ul iqbol"da "Davlat Girey va Andrey gubernot o‘ttiz ming o‘rus bilan Shayx Jalil tog‘ikim, oltun va kumush ma‘danidur, aning orzusi, balki Xorazm fathining tamannosi bilan Orol hududiga nuzul qildi. Xon qo‘ng‘irot Qulmuhammad otaliq va nayman amir Avaz inoqni junudi nma‘dud bila mudofaaga nomzad etti. Alas

Cherkasskiyga sharqona takalluf va hurmat-e'tibor ko'rsatildi, sovg'a-salomlar berildi.

Xon o'z yaqinlari bilan Xivaga, Bekovich-Cherkasskiy esa lageriga qaytdi. Ular ikkinchi bor – Xivadan 108 chaqirim masofadagi Porsu qal'asida uchrashganlarida xon ruslarni oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta'minlash muammosini hal qilish bahonasida poytaxt Xivadan tashqari xonlikdagi boshqa shaharlarga tarqatish rejasini taklif qiladi. Xonning taklifi bilan A. B. Cherkasskiy o'z qo'shinlarini 5 qismga bo'ldi va o'zi-ga soqchi sifatida 200 nafar askar qoldirdi, xolos. Natijada kichik qismlarga ajratilgan rus armiyasini qilichdan o'tkazish boshlandi. Birinchilar qatorida 1717-yil 29-avgustda A. B. Cherkasskiyning o'zi qatl qilindi.<sup>1</sup> Uning boshi tanasidan uzilib, Buxoro xoni Abulfayzga jo'natildi, ammo u "sovg'ani" qabul qilmay, Xivaga qaytarib yubordi.

Ekspeditsiya halokati haqidagi xabar chet el safarida bo'lgan Petriga biroz kechikib yetkazildi. U 1717-yil 10-oktabrga Peterburgga qaytib keldi va To'p Qarag'an (Mang'ishloqda) hamda Krasnovodskdagi istehkomlarni mustahkamlashni buyurdi. Ammo imperatorning topshirig'i qo'shinlarga biroz kechikib yetkazilganligi sababli, harbiylar kasalliklar xuruji va turkmanlar orqali kelayotgan noxush xabarlar ta'siri hamda o'z jonlarini saqlab qolish maqsadida 1718-yil bahorida Astraxanga qaytib ketdilar.

Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi halokati Rossiya va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum vaqtgacha murakkab holda saqlanib turishiga sabab bo'ldi. Xon esa vaziyatni biroz yumshatish va savdo-sotiq aloqalarini tiklash maqsadida 1720-yilda Avaz Muhammad ismli elchisini Peterburgga jo'natdi. Ammo shuhrat pillapoyasi cho'qqisiga chiqqan Petr Xiva xonining diplomatik harakatini qo'llab-quvvatlamadi. Hibsiga olingan elchi esa tutqunlikda 1721-yilda vafot qildi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Davlat Girey bila guruh oshtiy qilib, ziyofat bahonasi bila a'don millati bayzoni mehmonxonai asfal as-sofilinga etkazdilar" degan so'zlarni o'qish mumkin (Munis va Ogahiy. Firdavs ul-igbol, 99-bet).

<sup>2</sup> Безгин И. Г. Князь Бековича-Черкасского экспедиция в Хиву. СПб., 1841; Голосов Д. Поход в Хиву 1717 г. апреля под начальством лейб-гвардии Преображенского полка, капитана, князя Александра Бековича Черкасского. Военный сборник. Т. XXI. СПб., 1861, с. 303–364; Дело 1714–1718 гг. об отправлении лейб-гвардии Преображенского полка капитана-поручика князя Александра Бековича Черкасского на Каспийское море и в Хиву. Документы и материалы Военно-ученого архива Главного штаба. Т. 1. СПб., 1871, с. 197–506; Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве. СПб., 1877; Иллерицкий В. Экспедиция князя Черкасского в Хиву (1716–1717 гг.). Исторический журнал, 1940, № 7; Безгин И. Г. Князь Бековича Черкасского экспедиция в Хиву и посольство поручика Кожина и Мурзы Тевкелева в Индию в к Великим моголам (1714–1717 гг.). СПб., 1891.

<sup>3</sup> Gulomov X. Rossiya va Xiva elchilik missiyalari. "Tafakkur", Toshkent, 2006, 1-son, 113-bet.

1739-yil kuzida Xiva xoni Elbarsxon ikkinchi 40 kishidan iborat elchilarni Rossiyaga jo'natdi. Ularning boshlig'i—amaldor Ortiq Bahodir, savdogar Ollaberdi va hattot Niyozboylar shu yili 15-sentabrda Astraxanga yetib keldilar. Bu yerda biroz muddat turib qolgan elchilarga ruxsat berilgach, xivaliklar Moskva orqali 1740-yil 23-iyunda Sankt-Peterburgga yetib bordilar. Bir haftadan keyin xivaliklarni qabul qilgan kansler Osterman josusliklik mazmunidagi ma'lumotlarni olishga intildi. Xususan, u Xiva xoni zarur bo'lsa qancha askar to'plashi mumkinligi (300 ming), Xorazmdan Buxoroga yo'l qancha vaqtni oladi (tuyada 10 kun va otda 2 kun) kabi savollarni berdi. 3 avgustda xivaliklarni qabul qilgan imperatritsa Anna Ivanovna savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirishdan har ikki taraf manfaatdor ekanligini aytdi.

Xiva elchilari vataniga qaytayotgan vaqtda Elbarsxon o'ldirilganligi va Xorazmni Nodirshoh bosib olganligi haqidagi xabarlar Astraxanga yetib kelgandi. Ortiq Bahodir va uning hamrohlariga biroz vaqt Astraxanda qolishga ruxsat beriladi.<sup>1</sup> Oradan sal kam bir yil o'tgach, 1741-yil 18-mayda xivaliklar holidan xabar olish maslahatchi Petr Qurbatovga topshiriladi. Xiva elchisi Ortiq Bahodirxon qilich, qalqon va boshqa qurollar hamda qalmiq va tatarlardan xotin-qizlarni olib ketishga ruxsat so'raydi. Ushbu iltimoslarga rad javob beriladi hamda Rossiyadan boshpana so'ragan xivaliklarga Astraxanda emas, balki Samarada yashashlari mumkinligi aytiladi.

Arxivda saqlanib qolgan hujjatlardan shu narsa ma'lumki, yurtiga ketishga ruxsat berilsa-da, Ortiq Bahodirxon Astraxanda 1757-yilgacha qolib ketgan. Xiva xonligi taxtiga Nuralixon o'tirgandan keyin yurtiga qaytgan Ortiq Bahodirxonga 7 ming kishilik qo'shinga qo'mondonlik qilish vazifasi topshirilgan. Bu haqdagi xabarni 1762-yilda Astraxanga kelgan Ortiqning ukasi Ollashukur yetkazgandi.<sup>2</sup>

Nodirshoh bosqinidan biroz oldinroq Xivani xaritaga tushirgan rus injeneri Nazimovning<sup>3</sup> hisoblariga qaraganda, shahar o'lchami 1000x400 metr bo'lib, u 40 gektar maydonni egallagandi. Bosqinchilar vahshiyliги natijasida shahar aholisi soni keskin kamayib, ko'plab obidalariga shikast yetkazilgandi.

1740-yilda qozoqlar sultoni Abulxayr iltimosiga binoan Orenburg gubernatori V. Tatishchevning topshirig'i bilan Xivaga Dmitriy Glad-

<sup>1</sup> Веселовский Н. И. Приём в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII—XVIII столетие. С. 3, 6, 9, 10.

<sup>2</sup> Там же. С. 13.

<sup>3</sup> Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy etnografik ocherklar. 21-bet.

shev va Ivan Muravin boshchiligida hamda tarjimonlar Nazarov va Usmon Arslonovlar kuzatuvida ekspeditsiya yuborildi. Ular Orol dengizi qirg'ochlarida geografik va harbiy-topografik tekshirish ishlari olib bordilar. Sirdaryo havzasi ham tekshirilib, bu yerda harbiy istehkom qurish uchun qulay joy tanlandi. Xuddi o'sha vaqtda, tijorat bahonasi bilan Xivaga Gok va Tomson ismli inglizlar ham kelishgandi.<sup>1</sup>

Shu orada chor ma'murlari Xivada ta'siri kuchli bo'lgan qozoq xoni Abulxayrxon orqali xonlikni Rossiya ta'sir doirasiga tortish borasidagi harakatlarini davom ettirdilar. 1742-yilning yanvarida Quyi Amudaryo havzasida Abulxayrxon bilan uchrashgan D. Gladishev "Rossiya imperiyasiga sodiqlik qasamyodi" matnini Xiva xoni Nuralixonga imzolatishda yordam berishni so'radi. Ammo bu harakatlar samarasiz tugadi, chunki Nuralixon taxtni 3 oygina egallab turoidi, xolos. Nodirshohning roziligi bilan Xiva taxtiga sobiq xon – Elbarsning o'g'li Abulg'ozii II o'tqazildi va u noib sifatida xonlikni 5,5 yil boshqardi. Uning davrida ham Eron bilan munosabatlar keskin bir vaziyatda qolaverdi.

1743-yilda Abulg'ozii tomonidan jo'natilgan elchi Olloberdi Peterburgga savdo-sotiq aloqalarini tiklash taklifini yetkazdi. 1745-yilda xonning vakili Hojimuhammad Oxun Mulla Tursunov Astraxanga yuqoridagi taklif bilan bordi. Ammo Xivaning mustaqil siyosat yuritishga shubha bilan qaragan rus amaldorlari aloqalarni tiklashga shoshilmadilar.<sup>2</sup>

1793-yil 20-aprelda xivalik Iskandar Ollaberganov va Rahimboy Do'stmurodovlar general-poruchik Peutling nomiga yozilgan maktub bilan Orenburgga keldilar. Unda hukmdor Avazboy inoq o'z tog'asi – Muhammad Fozilbiyning ko'zi ko'rmay qolgani va uni davolash uchun tajribali vrachni yuborish so'ralgan edi.<sup>3</sup> O'z navbatida, Peutling xivaliklarning iltimosini Peterburgga, imperatritsa Yekaterina II ga yetkazdi. Natijada Xivaga yuborish rejalashtirilgan harbiy vrach – mayor Blankennagelga tilmoch sifatida chegara sudi tarjimoni Xolmagorov, 1 ta sartarosh va 8 nafar kazaklar ajratildi.<sup>4</sup>

1793-yil 5-oktabrda Xivaga yetib kelgan Blankennagel traxoma kasalidan ko'zlari ojizlanib, ularga suv yig'ilib qolgan 80 yoshlik Fozilbiyini davolay olmadi.<sup>5</sup> Natijada vrachga ishonchsizlik bildirib, uni jo-

<sup>1</sup> Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана ... С. 144.

<sup>2</sup> G'ulomov X. Rossiya va Xiva elchilik missiyalari. "Tafakkur", Toshkent, 2006, 1-son, 114-bet.

<sup>3</sup> Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. Ч. 2. М., 1822, с. 37.

<sup>4</sup> Путевые заметки майора Бланкеннагеля о Хиве. Поездка сего из Оренбурга в Хиву 1793–1794 гг. Комментар. проф. В. В. Григорьева. ВИРГО. Ч. 22. Под ред. В. П. Безбородова. СПб., 1858, с. 107.

<sup>5</sup> Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. СПб., 1877, с. 239.

sus sifatida Xivada 4 oy davomida ushlab qoldilar. Oradan biroz vaqt o'tgandan keyin, 1794-yil 12-martda Blankennagel xivalik elchi Avaz Muhammad bilan birga Orenburgga qaytdi.<sup>1</sup>

Blankennagelning kuzatuvlari O'rta Osiyoga g'araz niyatlar bilan qarayotgan rus harbiylari va uni obyektiv o'rganishga intilayotgan olimlar diqqatini tortdi. Ushbu ma'lumotlar taniqli sharqshunos V. V. Gri-goryevning sharhi bilan nashr qilindi.<sup>2</sup>

Xulosa sifatida shuni qayd qilish lozimki, XVI–XVIII asrlarda Xo-razm vohasi va uning atrofidagi hududlarda mustaqil davlat sifatida shakllana boshlagan Xiva xonligi Rossiya hamda qo'shni davlatlardan Buxoro va Eron bilan siyosiy, diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatdi. Bu hududlardagi etnik va etnomadaniy jarayonlar natijasida xonlikdagi ijtimoiy munosabatlar ham o'zgardi. Shu bilan bir qatorda, ikki tomonlama aloqalarda doimiy ravishda ijobiy holatlar qayd etilmasdan, ba'zi hollarda siyosiy keskinliklar, hatto qurolli to'qnashuvlar va bosqinlar ham bo'lib turgaligini tan olish kerak. Mazkur vaziyat davlatlararo munosabatlar va aloqalarning uzoq yillar davomida keskin bir sharoitda qolib ketganligi, har ikki tomon manfaatlariga katta zarar yetkazganligini ko'rsatdi.

<sup>1</sup> Путевые заметки майора Бланкеннагеля о Хиве. С. 87.

<sup>2</sup> Там же. С. 86 – 116.

### III BOB. XIVA XONLIGI QO'NG'IROTLAR SULOLASINING XIX ASRDAGI HUKMRONLIGI DAVRIDA

#### 3.1. Xiva xonligida Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi boshlanishi davridagi siyosiy va iqtisodiy yuksalish

XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib shakllangan obyektiv shart-sharoitlar siyosiy-ma'muriy boshqaruvda o'zbeklarning qo'ng'irot sulolasi vakillarining mustahkam o'rin egallashlari uchun real imkoniyatlarni yaratdi. 1763-yilda siyosiy minbarga inoq Muhammad Amin ibn Eshmuhammadbiy (1729–1790) ko'tarildi<sup>1</sup> va keyingi yillarda uning avlodlari Xiva xonligi taxtida o'tirdilar.

1770-yilda Muhammad Amin Buxoro xoni Doniyolbiy oldiga yavmut turkmanlariga qarshi kurashda yordam so'rab bordi. Uning bilan Buxoroga borgan 60 mahramlar orasida Avaz mirob, Shohpo'latbek, Abdukarimbek, Shohniyozbek, Muhammad Rizobek, Bobobek, Rahimberdibek, Ollaberdi udaychi, Boynazarbiy kabi amaldorlar, Abdurahmonboy, Eshqobilboy, Niyozmuhammadboy kabi boylar bor edi.<sup>2</sup> Xorazmliklar madadga sipohlarni ololmasdan qaytdilar. "...Muhammad Amin inoq Buxorodan kelib, Xorazmni fath qilib, mulk obod va fuqaro osuda hol bo'ldi",<sup>3</sup> deb yozgandi muarrix Munis.

Tez orada Muhammad Amin inoq Jahongirxonni taxtdan tushirdi va uning o'rniga Bulakayni o'tqazdi. Qisqa muddatda yavmutlar zo'raonligiga chek qo'yildi, ocharchilik asoratlari tugatildi va arzonchilik boshlandi. Yirik yer egalari va dehqonchilik kentlaridagi oqsoqollar hamda boylardan madad olgan Muhammad Amin butun davlatni boshqarishni o'z qo'lga oldi.

Munis Xorazmiy "Firdavs ul-iqbol"da Muhammad Amin inoq davrida ro'y bergan voqealar haqida batafsil hikoya qilgan. Xususan, uning vafotiga bag'ishlangan bobda o'qiyimiz: "Arbobi fatonat va as'hoibi daroyatning zamoiri zibasoirig'a ma'lum va huvaydo bo'lsunkim, Muham-

<sup>1</sup> Xonning amri bilan Muhammad Aminbek Xo'jaquli inoqni xon ko'rinishida tutib, o'ldirdi. Va Ibrohim inoqni Muhammad inoq qatliga etkurdi. Bu voqea Qo'y yili sana ming yuz yetmish beshda shavvol al-mukarrm g'urrasikim (1762) juma erdi va Hamal avoxirida iydi Fitr namozidan so'ng vuqu topti. Hamul kuni juma namozidin burun Muhammad Amin bekni inoqniyat mansabida nasb qilib, tashrifi g'ronmoayn amorat bila qomati qobilyatini o'ziga qildilar. Va Muhammad Amin inoqni dag'i Ibrohim inoq'a qoimmaqom etdilar. Muhammadamin inoq ul firdavsda 32 yoshda erdi. Og'ozi davlat va ibtidoi amovati ul kundandir. Vaziri a'zam Muhammad Amin mehtarkim, sahbi devon va nizom al-mulk erdi..." (Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 126-bet).

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 132-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 137-bet.



madamin inoq bag'oyat donishmand va kordon va maishatdo'st va komron erdi. Aql-u qiyosat durrar bila orasta, hush-u farosat hulali bila piy-rosta erdi. Adolatin siyosatg'a va lutfin qahrg'a munzam qilib erdi. Haybat va savlati ul g'oyatda erdikim, har kim ko'rsa, a'zosig'a larza tushar erdi. ...Ulamovu fuzaloning tavqiru ta'zimida mubolag'a ko'rguzur erdi. Arkoni davlat va a'yoni hazratning tabjilu takrimida ijthodin kamolg'a yetkurur erdi. Shariati g'arro va millati bayzo a'lomning irtifoig'a kamo-yanbag'i jahdu kushish qilib, madoris va xavoniq aqlining holotidin tafahhus qilur erdi. Va hamisha umaroi izom bila ko'runushi oliyda o'lturub, bovujudikim quvvati donish va savobi tadbirda abnoyi zamondin mumtoz erdi".<sup>1</sup>

1790-yil 16-aprelda Muhammad Amin inoq vafotidan so'ng, o'g'li Muhammad Avaz inoq ham bir qator xonlarni (Oqimxon, Abdulazizxon, Abdullaxon, Ortiq G'ozixon, Yodgorxon, Po'lat G'ozixon, Abdulfayzxon, Abulg'ozu IV va V) taxtga ko'targan bo'lsa-da, asosan, xonlikdagi davlat hokimiyatini o'z qo'lida ushlab turdi.<sup>2</sup> Boshqaruvni qo'lga olgan vaqtda 40 yoshida bo'lgan Muhammad Avaz inoq 14 yil qattiqqo'llik bilan ish olib bordi.

1804-yilda Muhammad Avaz inoqning o'g'li Eltuzar Muhammad Bahodirxon o'zbeklarning qo'ng'irot urug'idan birinchi bo'lib, rasmiy ravishda xon deb e'lon qilindi.<sup>3</sup> Xivadagi madrasalardan birida ta'lim olgan va harbiy ishlarga ko'proq e'tibor bergan xon Xo'jayli va Qo'ng'irot biylari bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Orol hokimi To'ramurod so'fining Buxoroga borib, amir Haydardan yordam so'rashi natijasida 1806-yil iyunida Xorazmga yurish boshlandi. Buxoro qo'shinlari Kot (Shabboz) yaqinidagi jangda xivaliklarga shikast yetkazdilar. Amudaryoning so'l qirg'og'iga o'tishga uringan Eltuzarxon qayiq (kema – sheva) ag'darilishi natijasida suvga cho'kib, halok bo'ladi. Xon bu vaqtda 37 yoshda edi.<sup>4</sup>

Buxoro amirligi bilan urushdagi mag'lubiyat Xiva xonligining harbiy-siyosiy mavqeyini pasaytirib yubordi. Ayrim amaldorlar markaziy hokimiyatni tan olmay qo'ydilar. 1806-yilda soliqlarning ko'pligidan

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 159-160-bet.

<sup>2</sup> Matniyozov M. Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni va roli (XIX asr – XX asr boshlari). 2-nashri, Urganch, 2004, 23-bet.

<sup>3</sup> **Sulola nasabi:** Avazbiy inoq → Eltuzarxon → Muhammad Rahimxon I → Olloqulixon → Rahimqulixon → Muhammad Aminxon → Sayyid Abdullaxon ibn Qutlug' Murodxon → Qutlug' Murodxon ibn Ibodullohbek → Sayyid Muhammadxon ibn Muhammad Rahimxon I → Sayyid Muhammad Rahimxon II → Sayyid Asfandiyorxon → Sayyid Abdullaxon.

<sup>4</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 231-bet.



norozni bo'lgan Beshqal'a (Chimboy, Qipchoq, Mang'it, Xo'jayli, Qo'ng'iroq) aholisi qo'zg'olon ko'tardi. O'zini xonlikdan mustaqil deb e'lon qilgan qozoq-qoraqalpoqlarning Xivaga qarab yo'lga chiqqan qo'shinlari qurolsizlantirildi. Xiroj deb nomlangan mahsulot bilan olinadigan soliq o'rniga solg'ut (sheva so'zi) deb atalgan pul solig'i joriy qilinishi aholi noroziligini biroz bo'lsa-da, pasaytirish imkonini berdi. Ushbu vaziyatdan foydalangan Muhammad Rahimxon to'rt oy taxtda o'tirgan Abulg'ozni V chetlatib, davlatni boshqarishni o'z qo'lga oldi.<sup>1</sup>

Munis Xorazmiyning yozishicha, Muhammad Rahimxon I boshqaruvni qo'lga olganidan keyin uning qarindoshi Muhammad Rizobek bo'ysunishdan bosh tortadi. U o'ziga tegishli odamlari bilan Qo'ng'iroqdagi hovlisiga boradi. So'ngra Qipchoq qal'asini bosib olib, qal'a hokimi Oллоhberdini o'ldiradi. U Orol hokimi To'ramurod so'fidan xonga qarshi kurashda yordam so'raydi.

Xon Qipchoqqa, avval, Qutluq Murod inoqni yuboradi, keyin o'zi ham unga qo'shilib, qal'ani qamal qiladilar. Muhammad Rizobekka Muhammad Niyozbek va Niyoz otaliqlar madad beradilar. Bu vaqtda Orollik o'zbeklar yetakchilaridan Suyunbek va O'roz Alibek ham yordamga kelgandilar. Natijada Muhammad Rahimxon noiloj Xivaga qaytadi.<sup>2</sup>

Muhammad Rizobek Qipchoq qal'asidan so'ng, Gurlanga ham hujum qiladi. Bu yerda ham unga katta mulkdorlar yordam beradilar. Ular Buxorodan madad olgach, Qiyotni bosib olib, Xivaga yaqinlashadilar. Muhammad Rizobek xon bilan sulh tuzish bahonasida Xivaga kirib, uning tarafdorlari bilan birga o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo uning bu niyatidan xon xabardor bo'lib, poytaxtga kelgan Muhammad Rizobekni tarafdorlari bilan tutib olib, qatl va zindonband etadi.<sup>3</sup>

1807–1810-yillarda, Muhammad Rahimxon I o'z hukumatini turkmanlar, qoraqalpoq va Orol bo'yi o'zbeklari orasida mustahkamlash uchun harakat qilib, urush va muhorabalar olib bordi. 1807-yil sentabrnoyabrda Qutlimurod inoq boshliq Xiva navkarlari Janadaryo (Yangidaryo) bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga tajovuz qildilar.<sup>4</sup>

1809-yil iyunidan Xiva navkarlari Qo'rg'iroqga yurish boshladilar. Yarim yildan ortiq davom etgan mazkur harakatlar natijasida markaziy hukumatga muxolifat bo'lgan o'zbek, turkman, qoraqalpoqlarning yerla-

<sup>1</sup> Yo'ldoshev M. Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. 86-bet.

<sup>2</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 73–74-betlar.

<sup>3</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 258-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba. 259-bet

ri bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ularning qarshiligiga batamom barham berib bo'lmadi.<sup>1</sup> Shu bois 1810-yil iyunida Muhammad Rahimxon Qo'ng'irotda yangi qo'shin yubordi. Chunki, bu yerda 18 yildan buyon mustaqil Orol bekligi mavjud edi.

1811-yil boshida xon Aydo'stbiy, Kechenekbiy, O'rinbiy yordamida Yangidaryo atrofida yashayotgan qoraqalpoqlarni bo'ysundirdi.<sup>2</sup> Natijada o'lpon va soliqlar masalasida bitim tuzildi. "Muhammad Rahimxon butun nizolarni yo'qotish maqsadida, – deb yozgandi A. L. Kun, – qoraqalpoq oqsoqollari bilan shunday qarorga keldi: 1. Qoraqalpoqlar qancha yer ishlatishiga qaramasdan, har yili xonga 20 ming kichik tillo to'lab turadilar. 2. Ular xonga 2 ming askar yuboradilar. 3. Umumiy ishlarga har yili 6 ming odam beradilar. 4. Qo'ng'irotliklar va nukusliklar 2 ming tillodan, xo'jayliliklar 500 kichik tilla solg'ut to'laydilar".<sup>3</sup>

Soliq tizimini tartibga solishga jiddiy e'tibor bergan Muhammad Rahimxon davlat xazinasini to'ldirish yo'llarini izladi. Endilikda soliqning miqdori mulkdorlarga qarashli ekin maydoni hamda olingan hosilining hajmiga qarab belgilanadigan bo'ldi. Soliq to'plash ishi mahalliy hokimlar qo'lidan markaziy hukumat tasarrufiga o'tkazildi. Davlat soliqlarini yig'ish vazifasi qushbegi va mehtarga, zakot to'plash esa devonbegiga topshirildi. Fuqarolardan solg'ut usuli bilan xazinaga olinadigan daromad va xarajatlar maxsus daftarlarda qayd etilib, xonning nazorati ostiga olindi.

Xonlikning chegara shaharlarida, karvon va kemalar qatnaydigan yo'llarda maxsus bojxona mahkamalari joriy etildi. Xonlikda ziroat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning jonlanishi davlat xazinasini daromadining o'sishiga imkon yaratdi. Xivaga kelgan rus elchisi N. Muravyev xon xazinasining bir yillik daromadi 4 mln. so'mdan oshib ketganligi haqida ma'lumot bergandi.

Xon, dastavval, mamlakatdagi tarqoqlikka chek qo'yish, davlat hokimiyatini markazlashtirish va mustahkamlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisobladi. Qobiliyatiga qarab odamlarga lavozim topshiradigan xon davlat ahamiyatiga molik tadbirlarni amalga oshirish uchun o'z atrofiga ishonchli, nufuzli, ishbilarmon amaldorlar, dindorlar va har-

<sup>1</sup> U davrdagi voqealar haqida Y. G'ulomov shunday yozadi: "XIX asr boshlarida Xiva xoni Qo'ng'irotni qamal qilib, qo'ng'irotliklarning hamma ekinlarini payxon qilgan va ularning ahvoli og'ir ekanligini ko'rsatib taslim bo'lishni taklif qilgan. Bunga qamaldagilar lo'nda javob qaytarganlar: "Uch oy – qovunim, uch oy – sovunim (sut-qatig'im), uch oy – qovog'im, uch oy – chabog'im (balig'im)". G'ulomov Y. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi... 67-68-betlar.

<sup>2</sup> Kamalov S. Qoraqalpaqlardan xaliq bolip qaliplesio'i ham onin mamleketliginin tariyxinan. Nukus. 2001, 27-bet.

<sup>3</sup> Кун А. Л. Заметки о податях в Хивинском ханстве. Туркестанские ведомости. Ташкент, 1873, № 83, с. 52.

biylarni to'pladi. Xiva xonligi tobeligiga o'tgan turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning badavlat hamda nufuzli arboblarni o'ziga yaqinlashtirib, ularga yer mulk va yuqori lavozimlar in'om etdi. Musulmon dindorlarining el-yurt orasidagi obro'-e'tiborini hisobga olib, o'zini ularga yaqin tutish maqsadida payg'ambar avlodlaridan hisoblangan sayyidlar qiziga uylandi. Saroyda yirik din arboblariga joy va amal berdi, mol-mulk in'om etdi, ko'plarini soliq va to'lovlardan ozod qildi.

Davlatni boshqarish ishlarini isloh qilish bilan jiddiy shug'ullangan Muhammad Rahimxon Abulg'azi Bahodirxon davrida joriy etilgan tartibni o'zgartirdi. Xiva xonligining ma'muriy markazlari sifatida Xiva, Hazorasp, Xonqa, Gurlan, Anbarmanoq, Shabboz, Mang'it, Qipchoq, Qilich Niyozboy, Xo'jayli, Xitoy, Toshhovuz, Yangi Urganch, Ilonli, G'ozovot belgilandi. Keyinchalik ular qatoriga Qo'ng'iroq va Chimboy ham qo'shildi. Endi kent oqsoqollari va inoqlari o'rniga hokimlar hamda masjid qavmlari imomlari boshqaruvi joriy etildi.<sup>1</sup> Shu bilan bir qatorda, ayrim joylarda urug'lar vakillaridan tayinlangan noiblar o'z qavmlarini boshqarishni davom qildirdilar. Holbuki, Xiva xonligida urug'chilik munosabatlari o'lkadagi boshqa feodal davlatlarga qaraganda ancha kuchli bo'lgandi.<sup>2</sup>

Xiva xonligida mehtar, qushbegi va devonbegi lavozimlari eng yuqori hisoblanardi. Ularning nazorati ostida mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy, harbiy mudofaa, diniy ishlar bilan shug'ullanuvchi markaziy boshqaruv idoralari ta'sis etildi. "Muhammad Rahimxon o'z hokimiyatini adolat niqobi ostiga yashirib, uni mustahkamlash uchun Oliy kengash ta'sis etdi. Bu kengashga turli da'vo va jinoyat ishlarni ko'rish hamda qaror chiqarish huquqini berdi, to'g'rirog'i amr qildi",<sup>3</sup> deb yozgandi N. Muravyev.

Xonning o'zi raislik qilgan Oliy kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ma'muriy va sud organi vazifasini bajarar hamda unda eng nufuzli amaldorlar qatnashardilar. Ular orasida devonbegi, qushbegi, mehtardan tashqari naqib, shayxulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r, to'shakchi, oqo-og'o va boshqa amaldorlar bor edi.<sup>4</sup> Kengash qatnashchilari haftaning juma

<sup>1</sup> Иванов П. П. Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии. Л., 1940, с. 21.

<sup>2</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 74-bet.

<sup>3</sup> Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и в Хиву. М., 1822, ч. 2, с. 61.

<sup>4</sup> Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyo davlatlarida boshqaruv tarixidan. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006, 64-80-betlar.

kunlari ko‘rinishxonada to‘planardilar. Ularga osh (palov) tortilgandan keyin, maslahat kengashi quyuq ziyofat tarzida, ba‘zan kech tundan erta tonggacha davom etardi.<sup>1</sup>

Muhammad Rahimxon Ko‘hna Arkda zarbxona uchun bino qurdir-di va o‘z nomidan tilla hamda kumush tangalar chiqara boshladi. Yangi pullar xonlikda oldi-sotdi munosabatlarini yaxshiladi va soliq to‘lovlari-ni tartibga solishda muhim rol o‘ynadi. Davlat xizmatida bo‘lgan saroy a‘yonlari va viloyat amaldorlari uchun lavozimiga qarab maosh belgi-landi. Shu bilan hukmdorlarning daromad taqsimotida mavjud o‘zbo-shimchaliklariga chek qo‘yildi. Davlat arboblari orasida o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i vaqillari mavqeyi yana-da oshirilib, ularning soni ortib bordi. Yusuf Mehtar og‘a o‘zbeklar vakili sifatida xon saroyida bosh va-zir lavozimiga tayinlandi.<sup>2</sup>

Muhammad Rahimxon kuchli qo‘shin tuzishga va uning yordami-da xonlik hududlarini kengaytirishga intildi. Muhammad Yusuf Bayo-niyning guvohlik berishicha, muntazam otliq qo‘shinlar 13 mingdan zi-yod bo‘lib, ularda o‘zbek, turkman va qoraqalpoqlar asosiy o‘rinni egal-lardi. Navkarlarga harbiy xizmatlari uchun yer ajratib berilgan va ular soliqlardan ozod etilgandi. 1818–1819-yillarda Xiva xonligi qo‘shinlari Axal-Taka hududi va Xurosonga harbiy yurishlar uyushtirdilar.

1819-yil 6-oktabrda Kavkazdan elchi sifatida kelgan kapitan N. Muravyevni xon qabul qilmasdan, “josus bo‘lsa kerak” degan shubha bi-lan Ilgaldi qishlog‘ida 47 kun davomida kutib turishga majbur qildi.<sup>3</sup> 20 noyabrda xon N. Muravyevni Xivaga taklif qildi va muzokaralar vaqtida savdo karvonlari xavfsizligini ta‘minlash, chegaralar haqida kelishib olishga intildi. Xon bilan suhbatda keyin N. Muravyev o‘z daftarida: “Muhammad Rahimxon butunlay yangi davlat barpo qildi, deyish mum-kin. Endilikda bu davlat O‘rta Osiyodagi eng kuchli xonliklar jumlasiga kiradi”,<sup>4</sup> – deb yozgandi.

1820–1824-yillarda Muhammad Rahimxon yangi kuchlarni to‘p-lab, Buxoroga bir necha bor yurishlar qildi, Qoqishtuvon qal‘asi va Og‘ar qo‘rg‘onini bosib oldi,<sup>5</sup> Buxoro amirligiga qaram Mari va Tajan vohasi turkmanlarining chovdur, go‘klan, taka, sariq va yavmut urug‘lari

<sup>1</sup> Игнатъев Н. П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. СПб., 1897, с. 152.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 260-bet.

<sup>3</sup> Rus tarixchisi I. N. Zaxarinning ta‘kidlashicha, Muhammad Rahimxon N. N. Muravyevning elchi va bojmon niqobi ostidagi harbiy ekanligini ancha keyin bilgan va uning boshini tanasidan judo qilmaganligiga afsuslangan ekan.

<sup>4</sup> Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и в Хиву. М., 1822, ч. 2, с. 44.

<sup>5</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 474–475-betlar.

Xiva xonligi tassarufiga o'tdi. Xonning farmoni bilan Axal-Taka turkmanlarining bir qismi Ko'hna Urganch va Ilonli qal'alari atrofiga ko'chirildi. Xiva qo'shinlarida navkarlik xizmatlarini o'tash sharti bilan turkmanlarga yer ajratib berildi va soliqlar miqdori nisbatan kamroq qilib belgilandi.

1825-yil 7-mayda Muhammad Rahimxon 50 yoshida vafot qildi. Uning o'rniga taxtga ko'tarilgan 30 yoshli o'g'li Olloqulixon (1825–1842) xonlikning hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlash ishlarini davom ettirdi. Yangi xon otasiga o'xshab, Mari vohasiga 3 marta, Buxoro amirligiga qarshi 7 marta katta harbiy yurishlar uyushtirdi, natijada Xurosondagi Jamshid qabilalarining 1200 oilasini Qilich Niyozboy arna bo'yiga ko'chirib keltirdi.

1826-yilda Olloqulixonning inisi, Hazorasp hokimi Rahimquli boshchiligida Shimoliy Xurosonga yuborilgan Xiva qo'shinlari 123 kun safarda bo'ldi.<sup>1</sup> Oqdarbandni bosib olgandan so'ng, xon askarlari Muzduron yaqinida joylashgan Malikobodga keldilar. Shu kuni "Qorasuv kanori va Kanafs histori ustidan o'tib, peshin chog'i Kanakush qala'asin... ihota qilib, hamul soat ul qal'a ahlin mol va ashyosi bila tasarrufg'a kirguzdi".<sup>2</sup> Xivaliklar Oqdarband qal'asidan 100 dan ortiq oilani Ko'shko'pirdagi Zeyyopi yaqiniga ko'chirdilar. Natijada bu yerda Oqdarband qishlog'iga asos solinadi.<sup>3</sup>

1839–1840-yillarda ro'y berayotgan qaltis siyosiy vaziyatni e'tiborga olgan Olloqulixon Xurosonga yurish qilib, 20 ming eronliklarni bandi qilib qaytdi va ular yordamida Xiva shahrining mudofaasini kuchaytirishga harakat qildi. Natijada 1842-yilda xon buyrug'i bilan Muhammad Yoqub mehtar va Otamurod Matrizo qushbegi boshchiligida Xivaning Shahriston qismida uzunligi 6614 va balandligi 4 metrli yangi mudofaa devori tiklandi.<sup>4</sup> Qurilish ishlari 30 kun davom etgan devorni

<sup>1</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 79-bet.

<sup>2</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 255<sup>a</sup>, 259<sup>b</sup>, 260<sup>a</sup>-varaqalar.

<sup>3</sup> M. Matniyozov o'zining "Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rm va roli" risolasida Oqdarband qishlog'iga aholi Xiva xoni Madaminxon-ning 1855-yilda urushda o'ldirilganligi sababli Eron shohi tomonidan xun to'lovi sababli ko'chirilib keltirilgan degan ma'lumotni beradi (Urganch, 2001, 59). Shu bilan bir qatorda risolada eronlik jasur yigitlarni Xivaga keltirib, ulardan chegara posbonlari sifatida foydalanganlar, degan xulosa ham mavjud. Mualliflar X. Rahmatullayev, X. Matnazarov, Sh. Quryozovning "Oqdarband" (Urganch, "Xorazm", 1993) risolasida Xorazmda vatan tutgan eronliklarning hayoti va faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlar bor.

<sup>4</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 305<sup>a</sup> varaq tarixchi olim A. Abdurasulov devorning uzunligini 6250 metr va uni xashar usulida tiklashga xonlikdagi aholining 200 ming nafari safarbar etilgan deb yozadi (Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy-etnografik ocherklar. 16-bet).



Muhammadrizo Ogahiy "Hisori xush bino"<sup>1</sup> deb baholab, tarix bitgandi. Edilikda xonning Rafanik va Nurullaboy degan joydagi bog'lari ham shahar tarkibiga kirdi. Shu davrlardan boshlab, Xiva shahri hududi Dishon va Ichon qal'a (mudofaa devorlari uzunligi 2100 m.) degan nom bilan ajratiladigan bo'ldi.<sup>2</sup>

Xivaning Dishon qal'a devori barpo etilishi natijasida shahar mahallalari soni sezilarli darajada oshdi. Natijada Ichon qal'adagi 33 mahalla qatoriga Dishon qal'adagi 44 ta mahalla qo'shildi. Mahalla nomlari kasbi-koriga qarab, bir-biridan ajralib turadigan hamda shu yerda yashagan katta amaldorlar nomi bilan bog'lab aytiladigan bo'ldi. Natijada xivaliklar bir-birini Chitkarlar, Alakchilar, Kulollar, Miskarlar, G'azzollar, Otamurod qushbegi, Yoqub Mehtar, Yusuf Yasovulboshi mahallasidan deb atay boshladilar. Shahar ko'chalari soni 109 taga, masjidlar va qorixonalar soni esa 120 taga yetdi.<sup>3</sup>

Xiva shahri kengayib borganligiga qaramasdan, hali aholi soni ko'paydi, deb aytish mumkin emasdi. "Xivadagi erkag-u ayollar soni 4000 dan ortiq emas. Ular, asosan, amaldorlar, dindorlar va savdogarlar, hunarmandlardan iborat edi. Shaharliklar orasida sartlar, forslar va o'zbeklar ko'pchilikni tashkil qilardi. Shahar atrofida hosildor dalalar, bog' va mustahkam imoratlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati xon va uning amaldorlariga tegishli",<sup>4</sup> – deb yozgandi G. I. Danilyevskiy.

1842-yildagi Xiva shahri va undagi ayrim yangiliklar rus sayyohi T. F. Bazinerning maqolalarida o'z aksini topgan. Qipchoq cho'llari orqali Xivaga kelgan mazkur olim shaharning 100 yil oldin rus ofitseri Nazimov tomonidan qog'ozga tushirgan xaritasi kabi yangi chizmalarini yaratdi.<sup>5</sup>

1842-yil dekabrda Olloqulixon vafot qildi va taxtga chiqqan inisi Rahimquli inoq (1842–1846) bu vaqtda Hazorasda hokim edi. U ajdod-

<sup>1</sup> "Hamul yil 1258/1842 hazrati sobihqironning ra'yi xitroyi bu amrg'a muqtazo bo'ldikim, Xivaq qal'asining atrofni aylana bir hisori vasi' va devori rafi' bino va barpo qildurg'ay, tokim yurt ziyinati va fuqaro ammiyati muzoaf va mutazoid bo'lg'ay. Chun bu royi muhtasnanani vazo-ratpanoh... Muhammad Ya'qub mehtar... Otamurod qushbegiga iltifoti tamom bila e'lon qilg'ach, dasturi mazkurayn bila atrofni javonibdin korguzor va ustodi shirinkor va bunnoyi jalo-datshiorlarni jam' qilib, rajab oyining 8 ida, dushanba kuni [1842-yil 15-avgust] qal'a ta'mini umuriga sa'yi tamom bila shuru' qildilar. 30 kun muddatida hisore bino qildilar" (Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, – 334<sup>b</sup>, 335<sup>a</sup>-varaqalar).

<sup>2</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 334<sup>b</sup>-335<sup>a</sup> -varaqalar. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 159–166-betlar.

<sup>3</sup> Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy-etnografik ocherklar. 16-bet.

<sup>4</sup> Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО. Кн. 5. СПб., 1851, с. 114; Рахмонов А. Историческая топография. "Хива – город тысячи куполов" гўлламида. Ташкент, "Шарк", 1997, с. 57.

<sup>5</sup> Базинер Т. Ф. Путешествие через киргизские степи в Хиву в 1842–1843 гг. "Туркестанские ведомости". 1873, № 31, с. 4; Савельев П. Путешествие г. Базинера через киргизскую степь в Хиву. ЗИРГО. Вып. 4. СПб., 1849, с. 157–171.

lari olib borgan bosqinchilik siyosatini davom ettirib, jiyani Muhammad Amin boshchiligida Buxoroga qarashli bo'lgan Mari vohasiga katta qo'shin yubordi. Bundan xabar topgan amir Nasrullo Xivaga elchilar jo'natib, ular izidan o'zi katta qo'shin bilan Xorazmga yurish qildi. Buxoroliklar Hazorasq qal'asini qamal qilganligini eshitgan Rahimquli darhol Mariga chopar yuborib, Muhammad Amin qo'shinlarini zudlik bilan orqaga qaytarishni buyurdi. O'zi esa qisqa muddatda qo'shin to'plab, Hazoraspga keldi. Bu yerda bo'lgan shiddatli jangda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Nasrullaxon qochdi va uning qolgan askarlari qirib tashlandi. Ushbu jangda shoir Ogahiy ham qatnashib, qo'liga qurol olib, dushmanga qarshi kurashgan edi.<sup>1</sup>

Buxoroliklar Hazorasqni qamal qilgan vaqtda turkmanlarning saqar urug'i jangarilari Ko'hna Urganch atrofilagi yerlarni talagan edilar. Rahimquli Ko'hna Urganchga keldi va turkmanlardan 10 ming tillo soliq to'plashni buyurdi hamda pulni yig'dirib oldi.<sup>2</sup>

1846-yilda Rahimqulixon 28 yoshida vafot etdi va taxtga jiyani Muhammad Amin inoq (1846–1855) ko'tarildi. Yangi xon o'z amaldorlari tarkibida deyarlik katta o'zgarishlar qilmadi, faqat devonbegi Erniyoz o'rniga Bekniyozni mahramni etib tayinladi. Bu davrda xon saroyida Rahmatullo Yasovulboshi, Matniyoz devonbegi kabi yosh va sadoqatli amaldorlar бор эди.

Muhammad Aminxon davrida Marv va Seraxs qal'alari atrofidagi taka, sariq va yavmut qabilalarining qo'zg'olonlari kuchaydi. Qo'zg'olonchilar xon yuborgan soliq yig'uvchi amaldorlarni qatl qildilar. Natijada xon bir necha bor qo'shin tortib, turkmanlar ovullarini vayron qildi. 1854-yildagi shiddatli janglardan so'ng, Marv qal'asi yakson qilindi.<sup>3</sup>

1855-yil fevralda Axal-Taka turkmanlari ustiga yurish vaqtida Saraxs degan joyda Muhammad Aminxon halok bo'ladi va uning jasadi Xivaga keltirilib dafn qilinadi.<sup>4</sup> Xonning halokati haqida yangi ma'lumotlar ham bor. Jumladan, professor M. Matniyozovning ta'kidlashicha, xon Seraxs yaqinidagi jangda shaxsan qatnashadi va o'q tegib, ot-dan yiqiladi. Qurbon kal ismli taka turkman xonga nayza urmoqchi bo'lganida, Abdulla mahram o'zini hukmdori ustiga tashlab, xonni o'limdan saqlab qoladi. Xonni himoya qilgan Rahmonberdi qozi va Muso To'ralar

<sup>1</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 83-bet.

<sup>2</sup> Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/III, 397<sup>a</sup>-vara; Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 83-bet.

<sup>3</sup> Matniyozov M. Xorazm tarixi. Urganch, "Xorazm", 2004, 106-bet.


<sup>4</sup> Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. 25-bet.



ham shahid bo'ladilar. Muhammad Aminxonning boshi tanasidan judo qilinib, Tehronga – Eron shohi Nasriddinga yuboriladi.

Xiva xonligi taxtiga Yaqub Mehtar, Mir Ahmad Jamshid kabi amaldorlar yordamida ko'tarilgan yangi xon Qutlug' Murod inoqning o'g'li Sayyid Abdullaxon (1855)ni saroy amaldorlaridan katta bir guruhi tan olmay, hokimiyatni o'zlari boshqarishga intildilar. Ustasiga Marv va Seraxs turkmanlari yana bosh ko'tardilar va xon juda ko'p harakatlar bilan ularni tinchitishga erishdi. 1855-yil 1-aprelda Abdullaxon zafar quchib, Xivaga qaytib keldi.

Saroydagi fitnachilar xonga qarshi g'alamis ishlarini davom ettirdilar. Ularning da'vati bilan Yangiyop, Muzqum va Izmixshir atrofidagi yavmut turkmanlari G'ozovot va Ilonli atroflaridagi qishloqlarni taladilar. Bu yerlarni boshqarayotgan va soliq to'playotgan xon amaldorlari o'ldirildi.<sup>1</sup>



### **Kalta (Ko'k) minor va Ota darvoza**

Abdullaxon Xivadagi fitnani fosh qilib, boshliqlarini qatl qildirdi.<sup>2</sup> Shundan so'ng katta qo'shin bilan isyonchilar ustiga yurish boshladi va ularga qaqshatqich zarba berdi. Biroq avgust oyining oxirida Yakkaterak mavzesida yavmut otliqlaridan bir guruhi kechasi xon qarorgohi va qo'-

<sup>1</sup> O'sha manba.

<sup>2</sup> Tangriquli to'ra, Abulaziz, Kalot hokimi Ja'farqulixon qo'lga tushirilib, qatl qilindi. Qarang: Munirov Q. Xorazmda tarixnavsilik. 87-bet.

shinlariga hujum qildilar. Kutilmaganda boshlangan jangda Abdullaxon va uning eng yaqin amaldorlari – Mir Muhammadxon, Niyoz Muhammad yasovulboshi, Abdujabbor devonbegi va boshqalar fojiali halok bo'ldilar.<sup>1</sup>

1855-yil 3-sentabrda taxtga ko'tarilgan yangi xon – 18 yashar Qutlug'murod Abudullaxonning inisi edi. Xon turkmanlar bilan bo'lgan urushda halok bo'lgan amaldorlar o'rniga yangilarini tayinladi. Vazir Muhammad Yaqub Mehtar, Bobo qushbegi va boshqa saroy a'yonlari tavsiyasi bilan Muhammad Niyoz devonbegi, Eshniyoz yasovulboshi, Bog'ibek ibn Rahimberdi beklarbegi va uning inisi Eltuzar inoq yangi lavozimlarga qo'yildi. Saroydagi o'zgarishlar ayrim shuhratparast amaldorlarning isyoniga turtki berdi. "O'z shaxsiy manafaatini ko'zlagan Muhammad Niyozbiy taxtni egallash uchun oxirgi pastlikkacha yetib bordi. Xalq ahvoli bilan hech qanday hisoblashmay, ularni talon-toroj qilishga rozi bo'ldi va bu ishga boshchilik qilmoqchi edi".<sup>2</sup> Fitna oqibatida Qutlug'murodxon 1856-yil 12-fevralda o'ldirildi.<sup>3</sup>

Taxtga Muhammad Rahimxonning 33 yashar o'g'li Sayyid Muhammad to'ra o'tqazildi. Tashqi siyosat sohasida yangi xon Buxoro bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni yaxshilashga harakat qildi. Natijada Buxoro bozorlaridan mahsulotlar sotib olish yo'lga qo'yildi.<sup>4</sup>

Xon muholifat kuchlar qo'zg'olonlari va amaldorlar noroziliklarni bartaraf etish jarayonida obodonlashtirish va qurilish ishlariga ham e'tibor berdi. 1860–1863-yillarda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi bo'z yerlarga suv chiqarilib, yangi serhosil ekin maydonlari o'zlashtirildi. Soliq tizimi biroz takomillashtirilib, to'plangan mablag'lar xarajati ustidan nazorat kuchaytirildi. Xonlikdagi mehtarning soliq daftarini Mahmud devon va qushbeganing soliq daftarini Muhammad Yoqub devon yuritardi. Bu davrda Xivadagi Sirchaliyop yoqasida hashamatli madrasa qurildi. Xon saroyiga taniqli shoirlar, tarixchilar, bastakorlar, tarjimonlar yig'ildi. Arab va fors tillarida yozilgan noyob asarlar mahalliy o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Shoir Ogahiy Sayyid Muhammadxon hukmronligi davriga bag'ishlab "Gulshan ud-davla" nomli tarixiy asar yozdi.

<sup>1</sup> O'sha manba.

<sup>2</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavsilik. 87-bet.

<sup>3</sup> Ogahiy. Jomi' ul-voqioti sultoniy. 302<sup>b</sup>-varaq.

<sup>4</sup> Ogahiy. Gulshani davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 7572, 159<sup>b</sup>-160<sup>a</sup>-varaq; Muhammadrizo Emriyozbek o'g'li Ogahiy. Shohidu-l-qbol. Toshkent, "Muharrir", 2009, 99-bet; 107-bet.

1863-yil mayida Sayyid Muhammadxon haj safaridan qaytgan bir guruh darvesh-qalandarlar qatorida xufiyona Xivaga kelgan venger turkshunos olimi Arminius Vamberini qabul qildi.

Sayyid Muhammadxon 8 yilu 8 oy taxtda o'tirgandan keyin, 1864-yilda 43 yoshida vafot qildi. Uning o'rnini amakisi – Amir ul-umaro unvoni bilan eng yuqori mansablardan birini egallab turgan Sayyid Mahmud to'ra egallashni niyat qilgandi. Ammo Hasanmurod qushbegi, Rahmatullo yasovulboshi kabi arboblarning qat'iyatliligi bilan 1864-yil 22-sentabrda taxtga Bobojon to'ra o'tqazildi.<sup>1</sup> Rasman taxtga o'tirgandan keyingina otasi jasadini dafn qilgan xon 20 yoshda bo'lib, tarixda Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon Soniy va Feruz taxallusi bilan iz qoldirgan shaxs edi.<sup>2</sup> “Xon poytaxtga kelgan mahalda, hozir bo'lganlar bamdod namozidan chiqqan xonni qutlamoq uchun har kun ertalab saroyga yig'ilishlari lozim edi. Mehtar va qushbegi kun bo'yi mahkamalarida hozir bo'lib, o'z taxti idoralaridan kelgan kishilarni qabul qiladilar. Xon tomonidan beriladigan barcha farmoyishlar darhol shu yerda tasdiqlatilar-di”,<sup>3</sup> deyiladi arxiv hujjatlarning birida.

Xonlikdagi kuchli arboblar qatorida Muhammad Murod, Muhammad Niyoz, Xudoyor, Hasanboy devonbegilar, Muhammad Nazar va Muhammad Yusuf qushbegilar, Mahmud va Yaqubxo'ja mehtarlar, Polvon mirzaboshi bor edi. Devonbegilar orasida Muhammad Murod (Matmurod) nufuzli o'rinda bo'lib, u 1864-yilda vafot qilgan Xudoynazar devonbegi o'rniga tayinlangandi.<sup>4</sup>

Muhammad Rahimxon Soniy davlat boshqaruvining dastlabki davrida turkmanlarning yavmut urug'i bilan munosabatlar biroz keskinlashdi. 1866-yilda Amudaryo toshqini ro'y berib, Qipchoq qal'asining janub tarafidan Qongli degan joygacha bo'lgan yerlarni suv bosdi. Suvni bog'lashga muvaffaq bo'lgan Muhammad Yusuf qushbegi degishga qarshi to'plangan olomonni uylariga tarqatib, Xivaga qaytish taraddudida turgan vaqtda yavmutlar Qipchoq aholisini talash maqsadida bosqin uyush-tirdilar. Ular, dastlab, Hidoyat eshon arig'ini qazayotgan bir guruh odamlarni asir olib ketdilar. Shu orada yavmutlar Xiva atroflariga ham hujum boshladilar.

<sup>1</sup> Bayoniy M. Y. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. Tashkent, "Kamalak", 1991, 189-bet.

<sup>2</sup> Ogahiy. Shohidi-ul-iqbol. 39-bet; Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Shoh va shoir taqdiri. Tashkent, G'afur G'ulom..., 1991, 126-bet.

<sup>3</sup> Архив Института Востоковедения АН РФ, ф. 32, оп 1, дело 2, л. 80. WWW: Kungrad.com.

<sup>4</sup> Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. 48-bet.

Xon buyrug'i bilan Matmurod devonbegi to'plagan katta qo'shin yavmutlar bilan Oqyop qishlog'i yaqinida jang qildi. Xon qo'shinlari g'alaba qozonib, qo'lga tushgan 114 asirni Xivaga olib keldilar. Polvon, Bog'cha, Ota va Qibla darvozalar oldiga zanjirband qilib qo'yilgan yavmut asirlari bir necha kundan keyin Ark maydonida qatl qilindi.<sup>1</sup>

Oradan 27 kun o'tgach, Jonmuhammad va Qilich ismli sardorlar boshliq mingdan ortiqroq turkmanlar yana Xivaga yurish boshladilar. Ular shaharga hujum qilmasdan, rabot yaqinidagi kentlarni talab, orqaga qayta boshladilar. Yov qo'rqib qaytdi, degan soxta fikr bilan yavmutlarning orqasidan ot solgan xon lashkarlari juda katta talafot berdilar. Bir necha kundan keyin xon buyrug'i bilan Oqsaroy mavzesiga yuborilgan Xudoybergan Sori lashkarlari turkmanlardan 10 nafarining kesilgan boshi va yana shuncha asir olib, juda ko'p o'lja bilan qaytib keldi.<sup>2</sup>

Yavmutlar bilan bir muddatga sulh tuzilgach, asirlar va talangan mol-hol qaytarilgan bo'lsa-da, barqaror tinchlikni saqlab turish amri mahol edi. Yavmutlarning bosqinchilik harakatiga endilikda chovdir, qoradoshli, go'klan, ota turkmanlar ham qo'shila boshlashdi. Ular bilan G'ozovot yaqinidagi Changli va Muzgumon degan mavzellarida bo'lgan 3 oylik to'qnashuvlardan keyin yarash sulhi tuzildi.<sup>3</sup>

1868-yilda Mang'ishloq yarim orolida yashayotgan qozoqlar Kaspiy dengizida baliqchi ovlab yurgan ruslardan bir nechtasini asir qilib, Xivadagi qul bozorida sotdilar. Biroz vaqt o'tgach, xonlikdagi rus asirlarining soni 21 nafarga yetdi. Kaufman elchisi Benil Gavharmurod Xiva xoni Muhammad Rahimxonga asirlarni bo'shatish haqidagi talabnomani taqdim qildi.<sup>4</sup> Ammo xon taklifni qabul qilmasdan, elchiga qo'shib kenagas Ernazar otaliqni yubordi. Xonning elchisi Qazaliga borib kelgach, ruslar bilan murosa qilish maqsadga muvofiqligi haqida maslahat berdi. Ammo uning fikriga quloq tutmadilar.

1869-yil 22-sentabrda fon-Kaufman topshirig'i bilan Xivaga qozoqlarning Chumag'ay urug'i to'rasi Bushoy elchi sifatida keldi. U olib kelgan maktubda qisman quyidagi so'zlar bor edi: "Avvaldin to oxir Rusiya tavoyifi va Xorazmiya xaloyiqi bir-biri birla oshno va muvoso bo'lub, borish-u kelish qilur erdilar. Oralarida hech vajah ila muxolafat va muzohamat asari yo'q erdi. Ushbu ayyomda alarning doirai itoatidag'i

<sup>1</sup> Bayoniy M. Y. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. Tashkent, "Kamalak", 1991, 197-bet.

<sup>2</sup> Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX в. М., 1961, с. 221; Кўшхонов О., Дурдиева Г. Хива хонлиги туркманлари. 31-бет.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 9596. 490<sup>b</sup>-491<sup>a</sup> varaqalar.

<sup>4</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1994, 38-bet.

qozoqlar o'rusg'a chapovul va tatovul ilkin uzotib, bir jamoa o'rusni asir etib, xizmatlarig'a olib bormishdurlar. Ushbu ish oshnolig' rasmidin yiroq ko'runadir. Emdi agar mehribon bo'lub, qadimg'i oshnolig' qavoidi binosin mustahkam qilmoq uchun qozoqiya ulusin o'rus xalqining dast-burd va urushdin man' etib, xizmatlarig'a borg'on o'ruslarni asirlik qaydidin ozod va inoyati podsho honalaridin shod qilib, murojaat ruxsatin berib, Bushoy to'raga qo'shub yiborsalar, do'stlig' va ittihadmandlik shevasidin yiroq bo'lmag'ay".<sup>1</sup>

Kaufmanning maktubida: "Mening buyuk davlatimning baquvvat qo'llari gunohkorlarni qidirib topadi va ularni qattiq jazolaydi... Bu talab ijrosining kechiktirilishi bizning tinch qo'shnicilik munosabatimizga uzoq muddatga putur yetkazadi. Urush uchun oxirgi vaqtlarda ko'plab bahonalar yig'ilib qolgan",<sup>2</sup> degan so'zlar ham bor edi.

Muhammad Rahimxon vaziyatning murakkablashib borayotganligini tushunsa-da, Matmurod devonbegi va boshqa arboblar bilan maslahatlashgach, "bizni qo'rqdi deb xulosa chiqaradilar" degan andishaga borib, rus asirlarini bo'shatish haqida farmon bermadi.<sup>3</sup> Shu bilan bir qatorda, Bushoy Xivada 4 oy ushlab qolindi. Xivaliklarning rad javobini elchi fon-Kaufmanga yetkazdi.<sup>4</sup>

O'lkaga kirib kelayotgan chor Rossiyasi qo'shinlari qo'mondonlari Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi bilan sulh tuzishga erishgach, Xiva xonligini bo'ysundirishga harakat qildilar. 1869-yilda polkovnik Stoletoy qo'mondonligi ostidagi Kavkaz qo'shinlari Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ida Tosh Arvat, Mixaylovsk va Mulla Qora degan joylarda harbiy istehkomlar qura boshladilar. Shu yili 5-noyabrda Krasnovodsk harbiy istehkomiga asos solindi. Xiva xonligi markaziga olib boradigan karvon yo'llari, quduqlar, istehkomlarni jiddiy o'rganish ishlari davom ettirildi. 1870–1871-yillarda rus zobitlari – M. D. Skobelev, V. P. Markozov, Stoletoy Sariqamishgacha bo'lgan yo'llarni, 1872-yilda polkovnik N. P. Lomakin otradi Mang'ishloq yarim orolini zimdan tekshirib chiqdilar.<sup>5</sup>

1871-yilda ruslarning bir qism qo'shinlari Kaspiy dengizi tomondan Xiva xonligining Shohqadam degan joyga kelganligi haqida xabar

<sup>1</sup> Ogahiy. Shohid-ul-iqbol. 236-bet.

<sup>2</sup> O'zR MDA. H-125-jamg', 2-ro'yxat, 313-jild, 4–5-varaqlar.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajayi xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. Toshkent, "Kamalak", 1991, 203-bet.

<sup>4</sup> Ogahiy. Shohid-ul-iqbol. 236-bet.

<sup>5</sup> Ziyoyev H. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XIX asr boshlari). 311–313-betlar.

olindi. Natijada xon inisi Otajon to‘rani 6 ming kishilik qo‘shinga bosh qilib, Ko‘hna Urganch tomonga yubordi. Bu yerga kelgach, Otajon to‘ra Muhammad Rahimboy ismli amaldorga o‘zbek va turkmanlardan 450 kishi ajratib, ruslardan xabar olish uchun Kaspiy tomonga yubordi. Ammo izlangan rus qo‘shinlaridan nom-nishon topilmadi. Kandirli qudug‘i tarafga yuborilgan chovdir turkman otliqlari ham ruslarni yo‘liqtirmay orqaga qaytdilar.<sup>1</sup>

Safar chog‘ida Otajon to‘ra bilan qushbegi Muhammad Rahim hamda yasovulboshi Rahmatullo orasida nizo chiqdi. Ustasiga o‘zini xon taxtiga loyiq deb hisoblagan Otajon to‘ra noo‘rin xatti-harakatlar qila boshladi. “Xon hazratlarining ulug‘ birodari Sayyid Ahmad to‘rakim, oni Otajon to‘ra der edilar, bag‘oyat bahodiru choloq (chaqqon) va zardastu benihoyat tezu xashmginu (g‘azabli) tundxo‘y (o‘jar) kishi erdi”,<sup>2</sup> – deb yozgandi u haqida Bayoniy.

1872-yil sentabrda Xivadan Atrek tomonga ketayotgan savdo karvoni polkovnik V. P. Markozov qo‘mondonligi ostida Mang‘ishloqdan chiqib, Nebittog‘ tomonga ketayotgan ruslar otradi tomonidan talandi. Yana bir rus otradi Xivaga boradigan yo‘llarni tekshirish maqsadida Jamol quduq degan joyga kelgan vaqtda 600 navkarlik Xiva qo‘shinlariga duch keldi. Ikki o‘rtadagi to‘qnashuv vaqtida ruslar 150 tuyani qo‘lga kiritdilar.<sup>3</sup>

Xonlikga tahdidlar kuchayib borayotganiga qaramasdan, Xivada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot davom etardi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida Amudaryo sohillarida bir qator yangi yerlar o‘zlashtirildi, bog‘-rog‘lar yaratildi. Shohobod, Polvon yop, Qilich Niyozboy, Lavzon kanallari kengaytirildi, Sho‘raxon va Bo‘zyop kanallari qayta tiklandi.<sup>4</sup>


<sup>1</sup> Qo‘shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. 34-bet.

<sup>2</sup> Bayoniy M. Y. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to‘plamida, 205-bet.

<sup>3</sup> Ziyoyev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–IX asr boshlari). 312-bet.

<sup>4</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 102-bet.





### Muhammad Rahimxon II madrasasi (1872)

Muhammad Rahimxon tadbirkorlik, savdo-tijorat hamda hunarmandchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Xiva shahrida hunarmandlarning 700 dan ortiq do'konlari ochildi. Ularda Buxoro, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Rossiyadan keltirilgan noyob mahsulotlar sotilardi.<sup>1</sup>

1871-yil kuzida Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan Ark maydonida katta madrasa qurilishi boshlandi. Ogahiyning ma'lumotlariga qaraganda, 76 hujrali madrasa 1872-yil 15-sentabrda ochildi.<sup>2</sup> Madrasaga kelgan xon mullalarga xonalar ajratdi va yashash uchun sharoitlar yaratdi.

1872-yilda Pahlavon Mahmud maqbarasi hovlisida yozgi machit va ayvon qad ko'tartirdi. Kelgusida xonning yaqin amaldorlari Matmurud va Matniyoz devonbegilar, Yusuf va Qadam yasovulboshilar, Matpanaboy, Qozikalon Salim Oxun, Do'st A'lam va boshqalar ham o'z mablag'lari hisobidan chiroyli madrasalar qurdirdilar.<sup>3</sup> Xorazmda o'zbek davlatchiligining asoslari o'rnatilib, xonlik boshqaruvchi joriy etilgach, hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi, savdo-sotiq munosabatlari kengayishi natijasida shahar va qishloqlar qiyofasi o'zgarib bordi. Urbanizasiya jarayonlari minglab ko'chmanchi chorvadorlarni o'troq dehqon va hunarmandlarga aylantirdi hamda ularni yirik qishloq va shaharlar hayotiga bog'lab qo'ydi. Vo'ha va uning atrofidagi shaharlardagi odamlar turmushida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Endilikda ular o'ziga

<sup>1</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 144–148-betlar.

<sup>2</sup> Бартольд В. В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу хивинского историка. Кауфманский сборник. СПб., 1910, с. 19; WWW: Kungrad.com.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI, № 9596, 494<sup>b</sup>-varaq. Yana mufassal qarang: Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 159–166-betlar; Ernazarov F. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. nom. ...diss. avtoref. Toshkent, 2005, 26-bet.



xos mustahkam imoratlar, qal'a va istehkomlar barpo eta boshladilar. Natijada Xiva, Yangi Urganch, Shohobod, Hazoras p kabi shaharlarda xom va pishgan g'ishtdan hashamatli saroy va qasrlar, masjid va madrasalar barpo etildi. Osoyishta davrdan darak beruvchi bunday me'moriy yodgorliklarning Xiva xonligi hududida ko'plab tiklanishi saltanat qudrati oshib borayotganligi va kuchli davlat arboblari yetishib chiqqanligidan darak beruvchi holat edi. Ular mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash hamda yuz berishi mumkin bo'lgan g'alayonlarning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rdilar.

Yavmut sardorlari va qoraqalpoq biylari bilan tinchlik muzokaralari olib borildi. Ular yer va suv bilan ta'minlandi, soliq to'lovlari miqdori kamaytirildi. Adolatli siyosat tufayli mamlakatda osoyishtalik qaror topdi. Ammo bularning bari kuchayib kelayotgan xavf-xatarning oldida hech narsa emasdi, chunki rus ma'murlarining asir va qullarni ozod qilish haqidagi talablariga rad javob berildi. Shu bilan birgalikda, xon va uning yaqin birodarlari orasidagi mavjud bo'lgan nizolar davlatni boshqarish va uni xavf-hatardan muhofaza qilish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilinsa, qo'ng'irot sulolasining talantli davlat arboblari sa'y-harakatlari bilan Xiva xonligi XIX asrning oxirgi choragigacha bo'lgan yillarda o'lkadagi kuchli davlatlardan biriga aylandi. Uning ichki va tashqi boshqaruv organlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, madaniy taraqqiyotidagi yo'nalishlar aniq belgilab olindi. Natijada xon va uning amaldorlari har xil tajovuzlarga qarshi javob beradigan mustaqil siyosat yur-gizishga qodir davlat arboblarga aylandilar. Buxoro amirligi bilan tuzilgan sulh shartnomalari va olib borilgan muzokaralar natijasida ikki o'rtadagi urushlarga chek qo'yildi. Doimiy ziddiyat va raqobatlar oxir-oqibatda Xiva xonligi taqdirini ular ko'zlagandek hal qilinishiga imkon bermadi.

### **3.2. Qo'ng'irotlar sulolasining qo'shni mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari. Qoraqalpoqlar qo'zg'olonlari**

Xiva xonligida XIX asr boshida hokimiyatni qo'lga olgan qo'ng'irotlar urug'idan chiqqan hukmdorlar qo'shni mamlakatlar bilan faol elchilik, savdo-sotiq munosabatlarini olib bordilar. Xivaning bu yo'nalishdagi tarixi qisman o'rganilgan bo'lsa-da, mahalliy muarrixlar tomonidan bitilgan solnomalardagi tafsilotlar ilmiy muomalaga kamroq kiritilgan. Xiva xonligining xal-

qaro munosabatlari tarixini Y. E. Bregel,<sup>1</sup> Q. Munirov,<sup>2</sup> O. Sodiqov,<sup>3</sup> T. Ne'matov,<sup>4</sup> S. Kamolov,<sup>5</sup> H. Z. Ziyoyev,<sup>6</sup> X. G'ulomov<sup>7</sup> va boshqalar o'r-ganganlar.<sup>8</sup>

XVII–XIX asrlar va XX asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon xonliklari, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlariga doir ma'lumotlar-ni ham ko'p uchratish mumkin.

Abulg'ozii, Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida XVII–XVIII asrdagi diplomatik munosabatlar tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar keltirilsa-da, Xivada qo'ng'iroq sulolasi hukmronlik qilgan davr-dan boshlab bo'lgan tarixiy voqealar, shuningdek, diplomatik munosa-batlar batafsil bayon etiladi. Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasida davom etib kelayotgan diplomatik aloqa 1806-yildan, ya'ni Eltuzarxon halokati-dan so'ng ma'lum vaqt uzilib qolgan edi.<sup>9</sup>

Buxoro va Xiva o'rtasida to'xtab qolgan elchilik munosabatlari 1811–1812-yillarda amir Haydar o'g'lining to'yi munosabati bilan Xo-razmga yuborilgan O'roqboy Jo'ra oqosi va Avaz Muhammad yasovul-boshi yordamida tiklandi. Buxoroliklar Xorazmga kelgan vaqtda Mu-hammad Rahimxon I janubiy Orol hududiga yurish qilgan bo'lib, Xiva-da emasdi. Kutlug' Murod inoq Yormuhammadbek orqali Buxoro ami-rining nomasini Muhammad Rahimxonga yetkazdi. Javob kelgach, el-chilarga qo'shib Hasanmurod otaliq va Qandum sardor Buxoroga yu-boriladi.<sup>10</sup>

<sup>1</sup> Bregel Y. E. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Indiana University. Part II. Descriptions and Travel; Written Sources for Central Asian History; Ethnography; Folklore; Folk Entertainments; Physical Anthropology. 1995; Брегель Ю. Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. М., "Наука", 1963; Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю. Брегеля. М., "Наука", 1967; Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Edited by Yuri Bregel. T. J. Brill. Leiden–New York–Kobenhavn–Köln, 1988; Уша муаллиф. The sarts in the Khanate of Khiva. Jom of Asian History, 1978, Vol. 12.

<sup>2</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 130–143-betlar.

<sup>3</sup> Садыков А. С. Экономические связи Хивы с Россией и Хива в конце XIX – начале XX века. М., "Наука", 1969; Его же: Россия и Хива в конце XIX начале XX века. Ташкент, "Фан", 1972.

<sup>4</sup> Ne'matov T. Xiva bilan Rossiya o'rtasida munosabatlar tarixiga doir ba'zi manbalar (XIX asrning 20–50-yillari). Tashkent, 1957, 138-bet;

<sup>5</sup> Камалов С. Каракалпаки в XVIII – 60-х годах XIX в. (К истории взаимоотношений с Россией и средне-азиатскими ханствами). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. Ташкент, "Фан", 1969, с. 56.

<sup>6</sup> Ziyoyev H. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent, "Sharq". 1998, 71–79, 293–313-betlar.

<sup>7</sup> Гулямов Х. Г. Средняя Азия и Россия: истоки формирования межгосударственных отношений (начало XVIII века). Ташкент, "Университет", 2005, с. 118.

<sup>8</sup> Попов А. Сношения России с Хивой и Бухарою при Петре Великом. СПб., 1853, с. 188; Шепелев А. Очерки военных и дипломатических сношений России со Средней Азией. СПб., 1870; Жуковский С. В. Сноше-ния России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград, 1915, с. 215.

<sup>9</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 130-bet.

<sup>10</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 384-bet.

Oradan vaqt o'tib, Buxorodan mang'it Yaqub qo'rchibegi va Kal yasovul Xivaga elchi bo'lib keladilar. Ular bilan birgalikda Buxoroga Xivadan Berdi inoq elchi bo'lib boradi va u taka turkmanlari masalasi bo'yicha amir bilan suhbatlashadi. So'ngra u bilan Xivaga Musoxo'ja o'roq Mir kuloliy elchi bo'lib keladi. Shu vaqtda Xivaga Sulton Temurxonning qo'pol harakatlaridan norozi bo'lgan mulla Eshimboy qozoqlar nomidan elchi bo'lib kelgandi.<sup>1</sup>

1812-yili Xiva xonligiga Mashhaddan shahzoda Vali, O'rta Juz hokimi Omonbiyning inisi Qobonboy ham Xorazmga elchi bo'lib kelgan edilar. Shu yili Shahzoda Vali huzuriga Mashxadga imronli Nodir sardor va Dashti Qipchoqqa, ya'ni O'rta Juzga, Ollohberdi xo'ja elchi qilib yuboriladi.<sup>2</sup>

"Firdavs ul-iqbol"da ko'rsatilishicha, 1814-yil mart oyi o'rtalarida Buxoro elchilari Hasanmurod otaliq va Boymuhammad jorchiboshi keldi. Ular bilan birga Buxoroga Berdi inoq yuborildi. "11-aprelda Berdi inoq amir Haydarning elchisi Podshohxo'ja sadr bila Buxorodin keldi. 12-mayda Kurdistondan elchilar kelib, olti ot va uch nafis po'tan qimmatbaho peshkash qilib chikdilar.<sup>3</sup> Muhammad Rahimxon bu davrda 17 kun mobaynida Anbarda qazuv ishlarini nazorat qilib turgandi.

Buxoro elchisi Podshohxo'jaga qo'shib Berdi inoq yuborildi. 1814-yil 28-mayda Xuroson elchilariga yurtiga qaytishga ruxsat berildi va ularga Badrxon bek va Muhammad Husaynbek, Sattorquli qo'shib yuborildi. 1814-yil 11-iyulda Buxorodan Berdi inoq bilan kelgan Alimuhammad chig'atoybegi amir Haydar tomonidan sovg'a sifatida yuborilgan to'p va shoyi matolarni yetkazdi.<sup>4</sup>

1814-yil 13-sentabrda Darigazga yuborilgan Xiva elchisi Sattorquli keldi. U bilan birga kelgan Eron elchilari – Yusufshayx, Murshidbek va Bog'irbekni xon qabul qildi va sarmo kiydirib, 29-sentabrda yurtiga qaytishga ruxsat berdi.<sup>5</sup>

1815-yil yanvarida Xivaga Mashhad hukmdori Vali Mirzon nomidan Kundo'g'di qozi va Ismoil qozi keldilar. Fevralda Buxoro elchisi Orifxo'jaga qo'shib Berdi inoq yuborildi. Nodir sardor esa Mashhadga yo'l oldi.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 384-bet; 395-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 386-bet; 394-bet; Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 130-bet.

<sup>3</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 410-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba. 410-bet.

<sup>5</sup> O'sha manba. 411-bet.

<sup>6</sup> O'sha manba. 413-bet.

1816-yil 3-iyulda Qandum sardor Buxoroga elchi kilib yuborildi. Ramazon oyining 10 da, shanba kuni (4-avgust) Buxoro elchisi Nurmuhammadbek Xivaga kelgan edi va unga 7-sentabrda qaytishiga ruxsat berildi.<sup>1</sup>

1817-yil bahorida Dashti Qipochqdan Olloho'ng'oz va Eron dan Najafalixonning qozisi Murodali elchi bo'lib keldilar.<sup>2</sup> Shu yili dekabrda Mahmudshoh afg'onning o'g'li shahzoda Komronning elchi va nomasi, Saraxs hokimi Hakimxonning elisi va Bunyodxon hazoraning ixlosnomasi keldi. 1818-yil 23-martda Xiva xoni elchisi Norbek Buxorodan amir elchisi Nurmuhammad mahram bilan birga keldi.<sup>3</sup> Nurmuhammad mahram 1819-yil may oyida yana Xivaga kelib, xonning ruxsati bilan 10-iyunda yurtiga yo'l oldi.<sup>4</sup>

Xorazm solnomalarida Xivaning O'rta Osiyo xonliklaridan tashqari, Eron va Rossiya bilan diplomatik munosabatlari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan. "Hamul kun namozi digarda Solihxo'ja eshon Murod sardordin elchi bo'lib keldi".<sup>5</sup> Bu vaqtda Xiva xoni qo'shinlari Xurosonga uchinchi marta yurish qilayotgan edilar.

1818-yil avgustida "Mullo Abdulnosir mingboshi degan kishi O'rusdin Xivaga elchi bo'lib kelmish erdi, hazrat s'hibqiron anga hamul oyining oltisida (7-sentabr) ruxsat berib qaytardi"<sup>6</sup>. 1819-yil 3-oktabrda Xivaga Oyimbek boshliq taka turkmanlar katxudolari, Rizqulixonning elchilari Mahdibek va Najafalixo'ja kelgandilar. Xon ularga qo'shib Xurosonga Avaz yuzboshi va Bekniyoz noibni yubordi.<sup>7</sup>

1819-yil 20-oktabrda Nikolay Nikolayevich (Muravyev) degan rus elchisi Gurjiston va Tiflis hokimi Aleksey Petrovichdan keldi. Xonning amri bilan Otchopar va Shixnazar shibirg'on elchining oldiga chiqib, Xo'ja mahramning hovlisiga tushurdi. 24-noyabrda xon rus elchisini qabul qildi va unga qo'shib, Yaqubboy va Eshnazar shibirg'onni yubordi.<sup>8</sup>

Sharqshunos Q. Munirov xorazmlik tarixnavislar asarlarini tahlil etarkan, ularning ma'lumotlarida elchilik va turli aloqalar maqsadida uchrashgan hukmdorlar vakillarining suhbat tafsilotlari, mavzulari yori-

<sup>1</sup> O'sha manba. 421-bet.

<sup>2</sup> Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. 424-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 431-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba. 433-bet.

<sup>5</sup> O'sha manba. 433-bet.

<sup>6</sup> O'sha manba. 439-bet.

<sup>7</sup> O'sha manba. 444-bet.

<sup>8</sup> O'sha joyda.

tilmaganini ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Ko'p hollarda faqat elchining ismi-shrifi va sanalar keltiriladi, xolos.

Oллоқulixon davrida buyuk davlatlarning nazariga tushgan Xivani bo'ysundirish uchun diplomatik harakatlar avj oldi. 1834-yilda Rossiya hukumati topshirig'i bilan, asosan, qazoqlar yashaydigan Mang'ishloq yarim orolidagi Qaydak degan joyda Novo-Aleksandrovska harbiy istehkomi qurildi. Rus qo'shinlarining O'rta Osiyoga harbiy yurishlarida tayanch vazifasini bajarishi ko'zlangan ushbu qal'aning qurilishi Xiva xonining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Biroq bu yerdagi suvning sifat-sizligi va tabiiy sharoitning og'irligi tufayli rus soldatlari orasida kasallik tarqaldi.

1839-yilda Xivaga kelgan 6 nafar ingliz josuslikda gumon qilinib, Oллоқulixon buyrug'i bilan qatl qilindi. Oradan sal vaqt o'tib, xon Hindistondan kelgan Buyuk Britaniya elchisi Jeyms Abbotni qabul qildi.<sup>2</sup> Elchiga xonni Angliya tomoniga og'dirish va Rossiyaga qarshi ittifoq tuzish vazifasi yuklatilgandi. Muhammad Yusuf Bayoniyning yozib qoldirishicha elchi xonga quyidagi mazmundagi maktubni topshirdi: "Ruslar... yana ellik yildan so'ng sizlarning viloyatlaringizni olur. Agar xohlasangizkim, viloyatingiz davom qo'lingizda turib, hech kishi anga mu'taariz bo'lmag'ay. Viloyatingizni xatlashib bizga bering. Xorazm ingliz yurti bo'ldi degan so'z ishtihor tobsun, andin so'ng bu xavfdin forig' bo'lursiz. Bizning bu so'zimiz hoshokim nafsoniyat yuzidan bo'lmag'ay, balki mahz do'stlikdurkim, g'arazimiz Rossiyaga Hind yo'lini masdud etmakdur. Bizdan sizga foyda yetar, aslo zarar yetmasdur, xatlashg'onda xohishingizcha shartnoma yoza bering, biz qabul etarmiz".<sup>3</sup>

Oллоқulixon maktub mazmunidan og'ir iztirobga tushdi. Ammo ko'pni ko'rgan xon o'z yaqin amaldorlari bilan maslahatlashgach, elchiga shunday javob qaytardi: "Ruslar hali bizga qarshi yurish boshlamadilar. Siz ko'rsatgan 50 yilda kim boru, kim oxiratga ketadi – buni hech kim bilmaydi. Ellik yildan keyin nima bo'lishini aniq bilmasdan turib, biz o'z mamlakatimizni hech kimga bermaymiz. Bizlar o'tgach, avlodlarimiz, nima qilsalar o'zlaril biladilar".<sup>4</sup>

Ingliz Abbotning xonni ogohlantirishiga asos bor edi. 1839-yil 14-noyabrda Orenburg va Orskdan 5325 kishilik harbiy qo'shin Xivaga qa-

<sup>1</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 131-bet.

<sup>2</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 352<sup>a</sup>-vara.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 302<sup>b</sup>-vara.

<sup>4</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Tashkent, "Sharq", 1998, 74-bet.

rab yo'lga chiqdi. Uning qo'mondoni Orenburg harbiy gubernatori V. A. Perovskiy qo'qqisidan zarba berib, xonlikni bo'ysundirishni maqsad qilib qo'ygandi. Ammo ruslar Ustyurtdagi qattiq sovuq havo va kasalliklar tarqalishi natijasida ikki oylik safarda 1054 askar, 10 ming tuya va 8 ming otini berib, Emba daryosidan orqaga qaytishga majbur bo'lganlar.<sup>1</sup>

Olloqulixon 1839–1840-yillardagi Perovskiy yurishiidan keyin ruslar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun turli davrlarda Xiva xonligi hududiga bandi qilib keltirilgan va qul sifatida sotilgan rus asirlarini to'plashni buyurdi. Natijada 1840-yil avgustida 416 rus asirlari kornet Aitov boshchiligida Orenburgga jo'natildi.<sup>2</sup>

1840-yilda ozod etilgan rus asirlari bilan birgalikda Rossiyaga elchi qilib yuborilgan Otajon Oxun 1841-yilda qaytib keldi. U bilan Xiva xonligiga Rossiyadan kapitan A. Nikiforov kelgan edi. "Bu yil rajab oyining 3-ida shanba kuni (21-avgust) urus poytaxti Peterburg podshohi imperator bin Nikolay Pavlovichning qo'shg'on elchisi... Andrich bin Nikifurusi (Nikiforov)ning hamrohligi bila kelib, ostonbuslug' sharafiga musharraf bo'ldilar. Urus podshohining do'stlig' va yaxshi jihatlik bobida yuborgan ahdomasin, tansuqot va peshkashlarin nazari anvor peshgohidin o'tkarib, altofi podshohona bila bahramand bo'ldilar..."<sup>3</sup>

Rossiya tashqi ishlar ministrligi tomonidan kapitan Nikiforovga berilgan yo'riqnomada: "Xiva xonini rus qo'shinlari tomonidan Sirdaryoning quyi qismini ishg'ol qilish masalasida betaraf turishga, Sirdaryoning shimolidagi yerlarni va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ini Rossiyaga tobe deb e'tirof etishga ko'ndirish"<sup>4</sup> lozimligi ko'rsatilgandi.

"Urus elchisikim... iltifoti podshohonadin ko'rinishi oliyga musharraf bo'lib, kelturgan tuhafoti behjatasar va tansuqoti g'ayri mukarrarni nazari saodatasar peshgohidin o'tkardi. Ul jumladin bir taxti ravon otlig' aroba erdi..."<sup>5</sup> – deb yozgandi Ogahiy. Elchi Olloqulixon oldiga rus tovarlariga bo'lgan bojxona to'lovlari biroz kamaytirish, rus asirlaridan bir qismini yurtiga qaytarish kabi talablarni qo'ydi. Xonlik hududida

<sup>1</sup> Professor Shodi Karimov rus qo'shinlari soni 51217 bo'lgani va ular Oqbuloq degan joyda 24 ming kishilik Xiva xonligi qo'shinlari bilan to'qnashganini va ikki o'rtadagi jang 42 kun davom etib, unda xivaliklardan 800 va ruslardan 5 nafari nobud bo'lganligi haqida yozgandi (Qarang: Karimov Sh. Kafasdagi kush orzusi. Toshkent, "Fan", 1991, 25-bet). Olingan manbasi ko'rsatilmagan ushbu ma'lumotlarning aniqligi shubhairoqdir.

<sup>2</sup> Махшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890, с. 164.

<sup>3</sup> Bayoniy, Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 302<sup>b</sup>-varaq.

<sup>4</sup> Галкин М. Н. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. СПб., 1869, с. 157.

<sup>5</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 360<sup>a</sup>-varaq.



1841-yil noyabr oyi o'rtalarigacha bo'lgan rus harbiy topograflari 3 ming chaqirim masofadagi yerlarni xaritaga tushirishga ulgurdilar.<sup>1</sup>

A. Nikiforov boshliq missiya o'z oldiga qo'ygan maqsadga to'la erisha olmadi. Ayniqsa, chegara masalasida Xiva xoni Olloquli uning fikriga qo'shilmadi.<sup>2</sup> 12-noyabrda yurtiga qaytayotgan A. Nikiforov bilan birga Vais Niyozboy boshchiligidagi 16 kishidan iborat Xiva elchilari Rossiyaga jo'natildi.<sup>3</sup> 1842-yil 1-avgustda yurtiga qaytgan Vays Niyozboy bilan Rossiyadan elchi sifatida yo'lga chiqqan G. I. Danilevskiy boshliq rus diplomatik missiyasi 19-oktabr kuni Xivaga yetib keldi.<sup>4</sup> Olloqulixon bu vaqtda Buxoroga yurish qilgan bo'lib, Xivaga 29-oktabr kuni qaytib keldi. Ertasi kuni biroz betob bo'lishiga qaramasdan xon rus elchilarini qabul qildi. Keyingi muzokaralar esa faqat 10 noyabrda davom ettirildi. Oradan 2 hafta o'tgach, Olloqulixon dunyodan o'tdi.

1842-yil 25-noyabrda taxtga chiqqan yangi xon – Rahimquli ruslar bilan muzokaralarni davom ettirdi. 1842-yil 27-dekabrda Rahimqulixon chor ma'murlari tomonidan qo'yilgan 9 moddadan iborat barcha shartlarni tasdiqlashga majbur bo'ldi. Endilikda Xiva xoni ruslarning savdotsotiq ishlariga yaqindan yordam berishi, savdogarlarni himoya qilishi va ulardan mahalliy tijoratchilar qatori boj olishi, xonlikda doimiy rus agenti bo'lishiga rozilik berishi lozim edi. Ruslar Xiva bojmonlari tomonidan Sirdaryo sohillarida yashovchi qozoqlardan soliq yig'ishni man etishni ham talab qilgandilar.<sup>5</sup>

Ruslar 1842-yil 31-dekabrda qadar xonlikning turli joylarda bo'lib, harbiy maqsadlar uchun ma'lumotlar to'pladilar. Natijada xonlik hududining topografik xaritasi, aholisining etnik tarkibi va joylashishi, gidrografik imkoniyatlari aks ettiradigan 2 jildik ma'lumotlar yig'ildi.<sup>6</sup> Ruslar elchisiga javoban Rahimqulixon Muhammad Amin yuzboshini 1843-yil 14-yanvarda Rossiyaga yubordi.<sup>7</sup>

1843-yil 21-dekabrda Rahimqulixon Qo'qon elchisi Qorabosh dod-xohga qo'shib Bobobek va Yaxshimurodbekni yubordi. Xiva xoni elchilari 1844-yil 7-mayda qaytib keladilar.<sup>8</sup> Buxoroga ketgan elchi Rahmon-

<sup>1</sup> Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Tashkent, "Sharq", 2000, 43-bet.

<sup>2</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 133-bet.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 302<sup>b</sup>-vara.

<sup>4</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 133-bet va keyingilari.

<sup>5</sup> Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/III, 386<sup>b</sup>-vara.

<sup>6</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 360<sup>a</sup>, 362<sup>b</sup>-varaqlar.

<sup>7</sup> O'sha manba. 386<sup>b</sup>-vara.

<sup>8</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 5364/II, 403<sup>a</sup>,<sup>b</sup>-vara.

berdi oxun amir Nasrulloh qo‘shib yuborgan elchi Fathulloh xo‘ja sudur bilan 1844-yil 3-avgustda Xivaga yetib keldi.

“Sha‘bon oyining salxida, juma kuni Erondan Muhammadshohning elchisi Shahsuvorxonga ruxsat berib, ramazon oyining 6 sida chahorshanba kuni esa (1844-yil 20-sentabr) Qo‘qon elchisi Qorabosh dodxohga qo‘shib, Yusufbek elchi sifatida Qo‘qonga jo‘natildi”.<sup>1</sup>

1845-yilda Buxorodan kelgan Qo‘chqorbek miroxurga qo‘shib Xivadan Rahmatulloh Qorako‘z elchi qilib yuborilgan edi. U bilan Buxoro amiriga quyidagi noma jo‘natilgandi: “Amir Nasrullohning muddaosi agar musolaha qilib borishmoq va kelishmoq bo‘lsa, bizning xohishimiz uldur va agar g‘arazi savosh va talosh bo‘lsa muhoraba maydoniga chiqsunkim, biz ham ul amrga muhayyo va omodadurmiz. Bu ikki ishning qaysisini ixtiyor qilsa, ul ishga bel bog‘lasunkim, ikkisi ham bizning maqsadimizdur”.<sup>2</sup>

Ogahiy o‘zining “Jomi’ ul-voqioti sultoniy” asarida Muhammad Aminxonning 1846-yil 2-martda Buxoroga Eshmurod rais bilan Olloberdi so‘fini, 23-martda Bikish xalifani elchi qilib yuborgani haqida yozadi.

1846-yil 12-aprelda ruslar Guryev shaharchasidan 700 soldat va ikki kema bilan kelib, Mang‘ishloq yarim orolida harbiy istehkom qurishga kirishadilar. Bu istehkom bitgandan keyin, unga Novopetrovsk nomi beriladi. Mang‘ishloq yarim orolining Tyuq-qaragan degan joyida qad ko‘targan bu qal‘a kemalar uchun bandargoh sifatida ham juda qulay hisoblangan. Hatto u yerda qo‘shinlar joylashtirilishi bilan bir qatorda aholi uchun turar joylar qurilishi ham rejalashtirilgandi.<sup>3</sup>

“Jumodil avval oyining 13 ida, juma kuni (1846-yil 9-may)... Abdulhalim... Xo‘qand viloyatidan kelgan elchiga saforat tarikasi bila hamroh bo‘lib, mazkur вилоятга bormish erdi”.<sup>4</sup> 1846-yil 3-oktabr Shukrilloh og‘a bilan Qilichboy Rossiyaga yuborildi. Ular 1847-yil 21-avgustda yurtiga qaytib keldilar.

1848-yil 13-aprelda Muhammad Aminxon Buxoro elchisi Zakariyoxo‘ja o‘roqni qabul qildi. 20-aprelda esa xon Qutbiddinxo‘ja shayx ul-islom va Shukrulloh oqani Turkiyaga yuboradi.<sup>5</sup> 1848-yil 7-mayda Muhammad Amin Qo‘qon elchisi Xolmurodbiyni qabul qiladi. 1848-yil 21-iyunda Xojash mahram va Otaniyoz mahram elchi etib Rossiyaga

<sup>1</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 134-bet.

<sup>2</sup> Ogahiy. Zubdat ut-tavrix. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. № 5364/III, 405<sup>a</sup>-varaq.

<sup>3</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 294-bet.

<sup>4</sup> Ogahiy. Jomi’ ul-voqeoti sultoniy. 31<sup>b</sup>-varaq.

<sup>5</sup> Ogahiy. Jomi’ ul-voqeoti sultoniy. 128<sup>b</sup> -varaq.

yuborilgan Ular 1850-yil 21-avgustda Xivaga qaytganlar.<sup>1</sup> 1852-yilning 2-yanvarida Shukrulloh oqa yana Rossiyaga elchilikka yuboriladi.<sup>2</sup>

1856-yil 17-mayda Fozilxo'ja shayx ul-islom Xorazm karvonlariga qo'shib, Rossiyaga elchi qilib yuborildi. Ogahiy elchining 1857-yil 16-mayda Xivaga qaytib kelganini ma'lum qiladi.<sup>3</sup> 1858-yil 1-iyunda Rossiyadan N. Anichkov, 12-sentabrda Buxorodan Mirzo Ubayd miroxur elchi sifatida Xorazmga keladilar.<sup>4</sup>

1864-yilda Muhammad Rahimxon II taxtga chiqqandan 9 kun o'tib, Buxoroga Muso mutavalli va Avaz Murodbiy larni yuborgan.<sup>5</sup> Shu yili 4-oktabrda Qo'qondan elchi kelib, rus lashkari tomonidan Turkiston qal'asi olingani haqidagi xabarini yetkazadi va xondan yordam so'raydi.<sup>6</sup> Ogahiyning ko'rsatishicha, Qo'qondan yordam so'rab kelgan elchilar shu yilning rajab oyigacha Xivada turganlar va shu oyining to'qqizida xondan ruxsat olib, Turkiyaga jo'naganlar. Ularga mablag' berilgan va xonlik hududidan chiqarib qo'yish uchun lashkar hamroh qilib yuborilgan. Echilarga yo'l xarajati uchun mablag' ajratilganini Q. Munirov ham ta'kidlaydi.<sup>7</sup>

1864-yil 21-noyabrda Buxorodan Shohxo'ja sadr Xivaga elchi bo'lib kelgan. U bilan birga Xiva elchilari Muso mutavalli va Avaz Murodbiy ham qaytib keldilar. Bunga javoban Buxoroga qiyot Bobobiy elchi qilib yuboriladi. U 1865-yil 22-aprelda Xivaga Buxoro elchisi Yahyo-xo'ja sadr bilan qaytgan.<sup>8</sup> Buxoro elchisi qaytayotgan vaqtda unga Muso mutavalli qo'shib yuboriladi.<sup>9</sup>

1865–1866-yillardagi voqealar jarayonini bayon qilgan Ogahiy Qo'qonga elchi bo'lib ketgan Do'st Niyoz mahram va uning safari sarguzashtlari haqida yozadi. Elchi 1865-yil 23-iyulda Xivaga qaytib kelgan va ruslar qo'mondonining sovg'alarini xonga topshirgan.<sup>10</sup>

Shu yili 2-noyabrda Buxoro elchisi Saidxoja o'roqqa Buxoroga qaytishiga izn berildi va unga "Alloma" laqabli Muxtor hoji qo'shib yu-

<sup>1</sup> O'sha manba. 134<sup>a</sup>,<sup>b</sup> -varaq.

<sup>2</sup> O'sha manba. 179<sup>a</sup> -varaq.

<sup>3</sup> O'sha manba. 189<sup>a</sup> -varaq.

<sup>4</sup> Ogahiy. Gulshani davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI № 7572, 108<sup>b</sup>-varaq.

<sup>5</sup> Ogahiy. Shohid ul-iqbol. Toshkent, "Muharrir", 2009, 46–49-betlar.

<sup>6</sup> O'sha joyda. 47-bet.

<sup>7</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 137-bet.

<sup>8</sup> Ogahiy. Shohid ul-iqbol. 50–59-betlar.

<sup>9</sup> O'sha manba. 59-bet.

<sup>10</sup> Ogahiy. Shohid ul-iqbol. 60–63-betlar.

borildi. Qaytayotganda unga qo'shib yuborilgan Sa'dullaxo'ja o'roq 1866-yil 20-aprelda Xivaga keldi.<sup>1</sup>

Buxoroga elchi qilib yuborilgan yana bir amaldor Avaz Niyoz mahram 7 oy qolib ketdi. Buning sababi – elchi Buxoroga yetib borgan-da, ruslar Toshkent tarafdin tajovuz qilayotgan bo'lib, amir Muzaffar ularga qarshi qo'shin bilan Sirdaryo tomonga ketgandi. Amir qaytgach, Xiva elchisiga yurtiga qaytishga ruxsat beriladi va u 1866-yil 25-avgustda Buxoro elchisi Sultonxoja o'roq bilan Xorazmga keladi.<sup>2</sup>

1866-yil rajab oyida Sultonxoja o'roqqa Buxoroga qaytishga ruxsat berildi va unga Fozilxo'ja shayx ul-islom qo'shib yuborildi.<sup>3</sup> Fozilxo'ja 1867-yil 26-martda Xivaga qaytdi va u bilan Buxoro elchisi Mansurxo'ja ham keldi.<sup>4</sup> Shundan so'ng, 1867–1872-yillarda Buxorodan Yahyo-xo'ja sudur, Sa'dullohxo'ja o'roq, Fozilxo'ja shayxulislom, Ibodullohxo'ja o'roq, Avliyoxo'ja sudur, Fozilxo'ja o'roq, Imomuddinxo'ja O'roq, Xivadan esa Buxoroga Ortiqbiy, Bobobiy, Muso mutavalli, Bobo inoq, Rahmatilloh qorako'z, Muhammad Niyoz devonbegi, Muhammad Yaqubxo'ja inoq, Qutluq Muhammad dorug'a, Qorabahodir Mirob, Murtazo biy, Qubodxonxo'ja elchi bo'lib borib keladilar.<sup>5</sup>

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xorazmda Abulg'oz, Munis, Ogahiy va Bayoniy tomonidan yozilgan tarixiy asarlarda, qaysi yili va qaysi kuni, kimlar Buxoro, Qo'qon xonliklaridan yoki Rossiya n va Xurosondan elchi unvonida kelganliklari va ularga kimlarni qo'shib elchi tariqasida u mamlakatlarga yuborganligi batafsil yozib qoldirilgan.

Diplomatik munosabatlar bilan bir qatorda savdo-sotiq aloqalari ham kengayib bordi. Xususan, Rossiyadan Xivaga keltirilayotgan mollar orasida temir, po'lat, mis, alumin kabi metallar va ulardan yasalgan turli uskunalar asosiy o'rinni egallagandi. O'z navbatida, xonlikdan oz bo'lsa-da, paxta, jun, gilam, quritilgan meva va boshqa mahsulotlar jo'natilgan.

XIX asr o'rtalariga kelib O'rta Osiyodan Rossiya bozorlariga har yili 4 mln. so'mlik mahsulotlar chiqarilgan va 3 mln. so'mlik mahsulotlar xonlik bozorlariga keltirilgan. Nijniy Novgorod, Qozon, Astraxan va

<sup>1</sup> O'sha manba. 97-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 99-bet.

<sup>3</sup> O'sha manba. 107-bet.

<sup>4</sup> O'sha manba. 109-bet.

<sup>5</sup> Ogahiy. Shohid ul-iqbol. 123, 125, 165, 166, 203, 204, 208, 209, 224, 232, 236, 247, 248, 249, 256, 268, 269, 270, 273, 274-betlar.

Orenburg shaharlari Xiva, Buxoro, Qo‘qon savdogarlari uchun juda serqatnov bo‘lib qolgandi.<sup>1</sup>

Xiva xonligining o‘rganilayotgan davrda qoraqalpoqlar bilan munosabatlarini yoritish ham juda muhim ahamiyatga ega. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda, 1742-yilda Peterburgdan qoraqalpoq “sultoniga” rus fuqaroligiga qabul qilish haqida yorliq yuborilgan. Ammo ruslarning harakatlari muvaffaqiyat qozonmadi.

Qoraqalpoqlar 1750-yilda jung‘orlar tomonidan tazyiq ko‘rib, janubi-g‘arb tomonga, Xiva xonligi chegaralari yaqiniga ko‘cha boshladilar. Sirdaryo bo‘ylaridagi qariyb 6 ming oilalik qoraqalpoqdan o‘n yil davomida birontasi ham qolmadi va ularning manzillarini qozoqlar egalashdi. Qoraqalpoqlarning bir qancha oilalari Buxoro xonligi hududiga, Zarafshon vodiysiga o‘tishdi. Ularning asosiy qismi g‘arbiga – Amudaryoning sharqiy qismidagi Yangidaryo tomon ko‘chdi. Bu hudud XVIII–XIX asrlarda Qoraqalpoq yerlari deb atalardi.

1846-yilda Sayyid Muhammadxon hukmronligi boshlanishidan oldin qoraqalpoqlar Qo‘ng‘irotni markaz etib mustaqil xonlik tashkil etgan va uning taxtiga Zarliqxon degan qozoq to‘rasini ko‘targan edilar.<sup>2</sup> Bu vaqtda turkmanlar isyonini bostirgan xon Qo‘ng‘irot xonligini tugatish choralarini ko‘ra boshladi. Biylarning sotqinligi natijasida Zarliqxon qo‘lga olinib, Xivaga jo‘natildi va uni dorga tortdilar.<sup>3</sup>

Qo‘ng‘irotidagi qoldauli urug‘idan chiqqan Ernazar Olako‘z (1806–1856) xalqning og‘irlashib borayotgan ahvolini ko‘rib, ularni 1855-yil noyabrida Xiva xoniga qarshi qo‘zg‘olonga da‘vat etadi.<sup>4</sup> Bundan xabar topgan xon Ernazarni Xivaga chaqirtiradi va kelganidan keyin dorga osishga buyruq beradi. Ammo Ernazar bir amallab qutulib, qochib ketadi va uning atrofiga barcha o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoqlar urug‘-qabilalari birlasha boshlaydi. To‘planganlarga mang‘it Soyipnazarbiy, qipchoq Aliushi Qutliboyev, muyten Qutlimurot, kenegas Ernazar Qobil o‘g‘li boshchilik qilardi.

Xiva xoni qo‘shinlari qo‘zg‘olonchilarga Xo‘jayli yonida bo‘lgan jangda qattiq zarba berdi. Bola Ernazar bilan Soyipnazarning xon tarafga

<sup>1</sup> Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотилетие. Петроград, 1915, с. 98 va keyingilari; Ne‘matov T. Xiva bilan Rossiya o‘rtasida munosabatlar tarixiga doir ba‘zi manbalar (XIX asrning 20–50-yillari). Tashkent, 1957, 138-bet; G‘afforov F. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar. XIX asrning birinchi yarmi va 60–70-yillar. Tarix fan. nom. diss... Toshkent, 1969, 226-bet.

<sup>2</sup> Kamalov S. Qaraqalpaqlardin xaliq bolip qaliplesio‘i ham onin mamleketliginin tariyxinan. Nukus, 2001, 4-bet.

<sup>3</sup> O‘sha joyda. 34-bet.

<sup>4</sup> Камалов С. Каракалпаки в XVIII – 60-х годах XIX в. Автореф. докт. дисс. Ташкент, 1969, с. 42; Kamalov S. Ernazar Alakoz – xaliq batiri. Nokis, “Qaraqalpaqstan”, 1993.

o'tib ketishi natijasida qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar. Natijada Ernazar Olako'z o'z qo'l ostidagi 700 ta xo'jaliqdagi odamlari bilan Qozoqdaryoning Orolga quyadigan joyidagi baland tepa ustida istehkom qurdi. Ernazar madad so'rab, chor Rossiyasining Sirdaryo chegarasidagi qo'shin qo'mondoni Ileykey Sulton va Ermuhammad Qosimovlarga xat bilan murojaat qildi<sup>1</sup>.

1856-yil 8-iyunda Mahmud Niyoz yasovulboshi Ernazar istehkomini katta kuch bilan qurshab oladi.<sup>2</sup> Shu o'rtada qotillar yordamida qo'zg'olon yetakchisini o'ldirish fikri paydo bo'ldi. Jeleke Cho'nqi dagan bir odamga biylik lavozimi va'da qilinadi va u yashirin holda qo'rg'onga kirib, 1856-yil 12-iyun kuni Ernazarni otadi.<sup>3</sup> Yarador bo'lgan Ernazar o'tovga kirib, shu yerda jon beradi. Xiva qo'shinlari qo'rg'onga bostirib kirgach, Ernazarning asir olingan og'asi Iskandar va katta o'g'li Xo'ja Xivada dorga osiladi. Sotqinlarga esa lavozimlar va sovg'a-salomlar ulashiladi. Xiva xoni zulmiga qarshi 8 oy davomida ko'rsatilgan qarshilikga barham berilib, eski tartib qayta tiklanadi.<sup>4</sup>

1856-yil iyulida Ko'hna Urganch va Ismamut ota ziyoratgohi yaqinida yashayotgan yavmutlar, Chimboydagi jamshid urug'i vakillarining xon hukumatiga qarshi qo'zg'olonlari avj olib ketdi. Yavmutlar harakatiga Otamurodxon, jamshidlarga esa Mahtumqulibek boshchilik qilardi. Xon qo'zg'olonchilar ustiga katta qo'shin yuborish bilan bir qatorda isyonchilar yerlariga suv bermaslik uchun arna va katta ariqlar – yoplarining soqalarini ko'mib tashlashni buyuradi. Ammo ushbu zo'ravonliklar aholining norozilik kayfiyatini pasaytira olmagi.

1858-yili Muhammad Panoh ismli arbob boshchiligida Qo'ng'irotda xalq qo'zg'oloni boshlandi. Muarrir Ogahiyning ma'lumotlariga qaraganda,<sup>5</sup> Muhammad Panoh o'zbeklarning balg'ali urug'idan chiqqan Olloberdibekning o'g'li bo'lib, Xiva yaqinidagi Katabog' qishlog'ida yashardi. Uning tog'asi To'ramurod so'fi ibn Sayyidnazar biy 1810-yilda Xiva xoni qo'shinlariga qarshi urushda halok bo'lgandi. Taqdirning taqozosi bilan yer-suvidan ajralgan Muhammad Panoh Qo'ng'irotda etib, u yerning hokimi Qutlug'murodni o'ldiraqi va o'zini hokim deb e'lon qiladi.<sup>6</sup>

<sup>1</sup> Камалов С. К. Каракалпакки в XVIII–XIX вв. Ташкент, “Фан”, 1969, с. 203.

<sup>2</sup> Там же, с. 42.

<sup>3</sup> Камалов С. Qaraqalpaqlarning xalqi bolip qaliplesio'i ham onin mamleketliginin tariyxinan, 36-bet.

<sup>4</sup> Ogahiy. Gulshani davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 7572, 194<sup>a</sup>-196<sup>a</sup>-varaqlar.

<sup>5</sup> Muhammad Panoh bilan bog'liq voqealarni Ogahiy mufassal bayon qilaqi. Qarang: Ogahiy. Gulshani davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 7572, 165<sup>b</sup>-167<sup>b</sup>-varaqlar.

<sup>6</sup> Туркестанский сборник. Ташкент, т. 33, с. 238–239.



1859-yil martda Muhammad Panoh yordam so‘rab, Orenburg gubernatoriga murojaat qiladi.<sup>1</sup> Natijada Orol dengizi va Amudaryo delta-sini o‘rganayotgan kapitan-leytenant A. I. Butakovga qo‘ng‘irotlilarga madad berish vazifasi topshiriladi. “Perovsk” kemasi va 2 ta barjada kelgan rus askarlari iyun oyida Qo‘ng‘irotni qamal qilib turgan xivaliklarning 10 ming kishilik qo‘shiniga zarba beradi. Ammo Muhammad Panohga bu kamlik qilgandek, ruslardan butun Xiva xonligini bo‘ysundirib berishni so‘raydi.<sup>2</sup> O‘z hukumatidan bunday ko‘rsatma olmaganligini aytgan ruslar Qo‘ng‘irotni tark etadilar.

Keyingi bosqichda Muhammad Panoh o‘zidan norozi bo‘lgan mulkdor biylarning mol-mulkini tortib oldi, oqsoqollarni o‘ldirib, qizlarini yavmutlarga berdi. Mahalliy aholining madadidan ajralib qolgan va yavmutlarning cheksiz zo‘ravonligiga imkon yaratgan qo‘zg‘olon boshlig‘iga suiqasd uyushtiriladi va u 1859-yil avgustda o‘ldiriladi.<sup>3</sup>

Qo‘zg‘olon ayovsizlik bilan bostirilganligiga qaramay, Sayyid Muhammadxon qoraqalpoqlar yerlarini boshqarish tizimini isloh qilishga va ularning qisman erkinligini tan olishga majbur bo‘lgandi. Ilgari biylar tomonidan boshqarilgan qoraqalpoq elatlari endi ulardan yuqoriroq lavozimlar hisoblangan – otaliq (Ernazar bola, Soribiy, Orazbiy, Momutbiy), beglarbegi (Soyipnazarbiy) va og‘abiyga (Erejep qipchoq) bo‘ysundirildi. Og‘abiy deyarlik yarim xon mavqeiga ega bo‘lib, uning ruxsatisiz biron bir amaldorning Xiva xoniga murojaat qilishiga huquqi yo‘q edi. O‘ng qirg‘oq qoraqalpoqlar yerlarida ushbu boshqaruv tartibi 1873-yilgacha, so‘l qirg‘oq hududlarda esa 1919-yilgacha saqlanib qoldi.<sup>4</sup> Qo‘z-golonlar bostirilganidan so‘ng, Xiva xoni amaldorlari Qoraqalpoq yerlaridagi hokimiyatni mustahkamlashga kirishdilar.

Qo‘ng‘irot bekligida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon tarixini o‘rganishga keyingi yillarda ham katta e‘tibor qaratildi. Jumladan, bu haqda akademik S. Kamolov,<sup>5</sup> dotsent S. Saymanov,<sup>6</sup> S. Sulaymanov<sup>1</sup> kabi qora-

<sup>1</sup> Ogahiy. Gulshani davla. Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. № 7572, 211<sup>b</sup>-212<sup>a</sup> -varaqlar.

<sup>2</sup> Kamalov S. Qoraqalpaqlarning xaliq bolip qaliplesio‘i ham onin mamleketliginin tariyxinan. 39-bet.

<sup>3</sup> Ogahiy "Gulshani davla" asarida (Qo‘lyozma. O‘zR FASHI. № 7572, 213<sup>b</sup>-215<sup>a</sup>-varaqlar) yozadi: "Muhammad Panoh sanai 1276 doxil bo‘lgandin so‘ng muharram oyining to‘rtida panjshanba kuni barcha itifoq bila Boboxo‘ja va Qulmon dorug‘a boshchiligida o‘ldirildi. Qulmon dorug‘a qal‘a zabtiga mutasaddi bo‘lib, ba‘zi umuri mulkiya saranjomiga iqdom ko‘rgizib, Qo‘ng‘irotida qoldi. Boboxo‘ja ba‘zi katxudolar bila Muhammad Panohning boshini olib, Xivaq jonibig‘a ozim bo‘ldi".

<sup>4</sup> Kamalov S. Qoraqalpaqlarning xaliq bolip qaliplesio‘i ham onin mamleketliginin tariyxinan. 5-bet.

<sup>5</sup> Камалов С. Каракалпакы в XVIII–XIX вв. Ташкент, "Фан", 1968, с. 328; Камалов С. 1858–1859-йыллардагы Қоңғиrot қозғолони хақида. "Амударья", Нукус, 1959, № 8; Камалов С. Новые данные о Кунградской восстании 1858–1859 гг. "Вестник" ККФ АН Уз. Нукус, 1965, № 1, с. 40–53

<sup>6</sup> Сайманов С. С. История города Кунграда (XVIII – первая половина XIX вв.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Нукус, 2001.

qalpoq tarixchilari olib borgan tadqiqotlari xalq harakatining obyektiv va subyektiv sabablarini xolisona tahlil qilish hamda yangi xulosalar chiqarishga imkon berdi. Shu bilan bir qatorda, kekxa avlod tarixchilari asarlarida biroz qarama-qarshi fikrlar ham uchraydi. Xususan, professor O. Sodiqov Muhammad Panohning ruslardan madad olish uchun Orenburg gubernatori Katelina murojaat qilgani<sup>2</sup> va akademik M. Yo'ldoshev qo'zg'olon boshlig'i 1857-yilda rus polkovnigi N. I. Ignatyev bilan uchrashgan vaqtida butun qo'zg'olonchilarni rus fuqarosi deb qarashni so'raganligi haqida yozadilar.<sup>3</sup> Ammo ushbu taxminlar biroz shubhaliroq tuyuladi. Holbuki, Xivaga qarab safarga otlangan fligel-adyutant N. P. Ignatyev 1858-yil 15-mayda Orenburgdan chiqib, Ustyurt orqali 28-iyunda Qo'ng'irotda kelgan. 3-iyulda Xivaga qarab yo'lga tushgandi.<sup>4</sup>

1858-yil 19-iyulda Xivaga yetib kelgan missiya a'zolari Sayyid Muhammadxon bilan muzokara olib boradilar.<sup>5</sup> Shu vaqtda Orol dengizi orqali Amudaryo deltasiga A. I. Butakov qo'mondonligidagi "Perovskiy" va "Obruchev" nomli 2 ta paroxodi ham kirgan edi.<sup>6</sup> Ammo Qo'ng'irotda hokimi rus kemalarini Amudaryoning yuqori qismiga o'tkazishdan bosh tortdi. Shu orada ruslarning noo'rin talablari va qo'zg'olon bo'layotgan Qo'ng'irotda shahri yaqiniga rus kemalarining kelishi xonga yoqmaganligi sababli muzokaralar natija bermadi. Buxoroda o'tkazgan muzokaralarida biroz yutuqqa erishgach, yurtiga qaytgan N. P. Ignatyev Xiva xonligini qurol kuchi bilan egallash taklifini hukumatga tavsiya etadi.

Xulosa shuki, Xiva xonligi hokimiyatiga bo'ysunish qoraqalpoqlar orasida ham yerga egalik munosabatlari va mulkchilik jarayonini kuchaytirdi, dehqonchilikning rivojlanishiga olib keldi, mahalliy amaldorlarning mavqei mustahkamlandi. Bir-biridan og'ir soliqlar aholining

<sup>1</sup> Сулейманов С. А. История Аральской и Амударьинской флотилий (1848–1920 гг.). Дисс. на соис. ... канд. ист. наук. Нукус, 2010, с. 59–63.

<sup>2</sup> Садыков А. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX–в начале XX вв. Ташкент, "Фан", 1965.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdvavnashr, 1959, 184-bet.

<sup>4</sup> Ogahiy. Gulshani davla. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 7572, 158<sup>a</sup>-varaqa.

<sup>5</sup> Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. Флигель-адъютанта Н. Игнатъева. СПб., 1897; Кливейн Е. Отрывок из путешествия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во время правления Сейид-Мухамедхана 1856–1865 гг. Этнографический сборник ИРГО. Кн. 5. СПб., 1871; Залесов Н. Письмо из Хивы. В сб. статей "О Средней Азии". Т. 1, Ташкент, 1900; Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boylıklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (Toshkent, "Sharq", 2000) monografiyasi mualliflari "N. P. Ignatyevning diplomatik missiyasiga 190 dan ortiq kishi hamrohlik qildi. Uning ixtiyoriga, hatto A. I. Butakov qo'mondonligi ostidagi Orol flotiliyasi berildi. Missiya Xiva va Buxoroda yetti oy davomida faoliyat olib bordi"; – deb yozadilar (9-bet).

<sup>6</sup> Бутаков А. И. Эпизод из современной истории Средней Азии (1869). Туркестанский сборник. Ташкент, т. 5, с. 199–233; Polkovnik N. P. Ignatyev 1858-yil iyunida admiral A. I. Butakov bilan Orol dengizining Ustyurt yaqinidagi Chernishev ko'rfazida uchrashgan va u bilan ayrim masalalarni kelishib olgandi.

kambag'al qismini yana-da qashshoqlashtirdi. Oradan 15 yil o'tgach, qoraqalpoqlarning Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlari Rossiya tasarrufiga o'tdi, so'l qirg'oq yerlari esa Xiva xonligi boshqaruvida qoldi.

### 3.3. Xiva xonligining chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinishi va yarim mustamlaka davlatga aylantirilishi

XIX asrning 70-yillariga kelib, chor Rossiyasi O'rta Osiyoning ak-sariyat qismini o'ziga bo'ysundirgan va Xiva xonligini istilo qilish rejasini tuzayotgan edi. Ushbu qaltis vaziyatni e'tiborga olgan Sayyid Muhammad Rahimxon II Hindiston vitse-qirolu Norsbruk huzuriga Amin-boy Muhammad o'g'lini elchi etib jo'natdi.<sup>1</sup> Kalkuttada ingliz amaldori bilan uchrashgan elchi ruslar tajovuziga qarshi madad berishni iltimos qildi. Ammo o'z mustamlakalarini himoya qilishni asosiy vazifa deb bilgan inglizlar xivaliklar iltimosini rad qildilar.<sup>2</sup>

Turkiston general-gubernatori K.P.fon-Kaufman 1872-yil 12-noyabrda imperator Aleksandr ikkinchiga yozgan maktubida Xivaga qarshi urush muqarrarligini bildiradi. 1872-yil 23-noyabrda Peterburgda harbiy ministr D. Milyutin raisligida kengash bo'lib, unda kelgusi yil bahorida Kavkaz, Orenburg va Turkiston harbiy okrugi birlashgan qo'shinlarining Xiva xonligiga qarshi yurish boshlashi haqida qaror qabul qilindi. Kengashda qatnashgan fon-Kaufman 1872-yil 3-dekabrda imperatorni rejalashtirilayotgan harbiy harakatning foydali tomonlari haqida xabardor qildi. 1872-yil 12-dekabrda imperator harbiy kengash qarorini tasdiqladi va ertasi kuni bu haqda harbiy ministr buyruq chiqardi.<sup>3</sup>

"Ammo Rossiya davlati mundan burun besh marotaba Xorazm ustiga askar yuborib, ularning ba'zilar Xorazm yo'lida tashnalikdin qirilib, ba'zilar Xorazmga borib urushib, qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg'onlari yo'q erdi. Bas, imperator a'zam bu bobda tamomi arkoni davlati bilan maslahat etib, ul tarafga bormoqqa qaysi yo'l yaxshirok ekanin bilmay, lojaram (chorasiz) Xorazm ustiga to'rt tarafdin askar yubormakni iltizom (lozim ko'rmoq) etdilar",<sup>4</sup> deb yozgandi muarrix Bayoniy.

Toshkent, Orenburg, Qazali, Mang'ishloq va Krasnovodsk tomondan Xivaga safarbar qilingan chor armiyasining umumiy soni 13 ming

<sup>1</sup> "Голос". СПб., 1873, № 18.

<sup>2</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent, "Sharq", 2000, 139-bet.

<sup>3</sup> Гродеков Н. И. Хивинский поход 1873 г. СПб., 1883. Приложение 1. с. 17. WWW: Kungrad.com.

<sup>4</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1994, 38-39-betlar.

kishidan iborat bo'lib, ularda 56 to'p, 4600 tuya, 20 ming ot bor edi.<sup>1</sup> Chor qo'shinlarining soni va harbiy imkoniyatlari haqidagi hujjatlarni o'rgangan polkovnik A. I. Maksheyev maxsus jadval ham tuzgandi.<sup>2</sup> Xivaga boradigan yo'ning Ustyurt, Qoraqum va Qizilqum orqali o'tgani hamda mashaqqatli bo'lganligi sababli chor qo'shinlaridan 7,5 ming askargina qo'zlangan manzilga yetib bora olgan, xolos.<sup>3</sup>

Chor qo'shinlarining Xivaga yurish boshlaganligi haqidagi xabarni olgan Muhammad Rahimxon barcha umaro va arkoni davlat arboblarni yig'ib, maslahat kengashi o'tkazadi. Unda ruslar bilan urushmaslik ma'qul degan taklif qo'llab-quvvatlanadi. Harakatdagi ruslar qo'shinlarini to'xtatish maqsadida xonlikdagi 21 nafar asirni olib yo'lga chiqqan Xo'jayli hokimi Murtazabiy fon-Kaufmanni Nurota yaqinida uchratdi. Ammo uzrning endi foydasi yo'qligini aytgan ruslar o'z harbiy harakatlari davom ettirdilar.<sup>4</sup>

Xavf-xatarni bartaraf qilish maqsadida chovdar, go'klan turkmanlari va o'zbeklardan tashkil etilgan qo'shinga bosh bo'lgan Matmurod devonbegi, Mahmud yasovulboshi va Yaqubboy qolmiq Buxoro tarafga, yavmut, imronli turkmanlari va o'zbeklardan iborat 6 ming kishilik qo'shin Eltuzar inoq va Bobo mehtar boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga yuborildi. Bundan tashqari, Amir to'ra va Muhammadrizo to'ra 2 ming lashkar bilan Hazoraspeda qoldirildi va Inoqbek Xo'jayliga borib turdilar.<sup>5</sup>

Rus qo'shinlarining Toshkent tarafidan kelayotgan qismiga qarshi jo'natilgan Matmurod devonbegi 4 ming navkari bilan Amudaryodan o'tib, Uch o'joq degan joyda dushman bilan yuzma-yuz jangga hozirlik ko'ra boshladi. Shu vaqtda xivaliklarga yordamga o'tlangan Jomli Sodiq-qul<sup>6</sup> ismli qozoq botiri boshliq 500 ga yaqin navkarlar ichimlik suvi yaxshi bo'lgan Odamqirilgan qudug'i yonida xordiq chiqarayotgan polkovnik N. I. Ivanov o'tradiga qo'qqidan hujum qildilar. Mardlik va jasorat ko'rsatishlariga qaramay, ruslarning qurol-aslahalari ustunligidan shi-

<sup>1</sup> Желябуцкий Е. Очерки завоевания Хивы. М., 1875, с. 24.

<sup>2</sup> Макшеев А. И. Исторический обзор Туркистана и наступательного движения в него русских. СПб., 1890, с. 314.

<sup>3</sup> Желябуцкий Е. Очерки завоевания Хивы. С. 24.

<sup>4</sup> Ваюний. Шажарайи Хоразмshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 448<sup>a</sup> -varaq.

<sup>5</sup> Osha manba. 449<sup>a</sup> -varaq.

<sup>6</sup> Polkovnik Kolokolov Sodiqni 1837-1847-yillarda qozoqlarning ruslarga qarshi ozo'lik harakatiga rahbarlik qilgan Kenesari Qasimovning o'g'li deb hisoblagan. Ekspeditsiya v Xivu v 1873 godu. SPb., 1873, s. 35; Sodiq Xelotada Matmurod devonbegi askarlariga qo'shilgan. Ammo ruslar ustun kelib chekingan Sodiq keyinchalik Xiva shahri mudofaasida qatnashgan. "Sankt-Peterburgskie vedomosti", 1874, № 115; Sultani Kenisari i Sadik. Podg. k izd. E. T. Smirnovim. Sankt-Peterburg, 1889.

kast topgan xivaliklar va qozoqlar biron berib, chekinishga majbur bo'ldilar.

Rus armiyasi Amudaryoga bir chaqirim joyga kelganda yana bir qo'qqisdan qilingan hujumga duch keldi. "Tamomi o'zbek va turkman ottilari kelib, Kaufmanning to'rt tarafidin ot qo'yub urush boshladilar, deb yozgandi Bayoniy. – Rusiyadan ko'p ot-teva va odam halok bo'ldi. Oxir, Rossiya askari yana navijod yarog'larning ionatlari bilan Xorazm lashkariga shikast berib, Jayxun kanoriga chiqdilar va Jayxunni mundog'vus'at bila oqib turganini ko'rib, hayron bo'ldilar".<sup>1</sup>

Matmurod devonbegi vaziyatni hisobga olgan holda, o'z qo'shinlarini orqaga qaytarish va payt poylab, ruslarga zarba berish imkoniyatlarini qidiradi.<sup>2</sup> Keyin u Xivaga kelib, xonga bo'layotgan voqealar haqida axborot berdi. Hazorasp katxudolari maslahati bilan Amir to'ra va Muhammadrizo ham Xivaga qaytib ketdilar. Ertasi, 22-may kuni, Hazorasp qal'asi ruslarga taslim bo'ldi va u yerda polkovnik N. I. Ivanov qo'mondonligidagi qo'shin qoldirilib, rus armiyasining asosiy qismi Xiva tomonga harakatini davom ettirdi va 28-may kuni shahar yaqinida to'xtadi. Bu vaqtda ruslarning shimoldan kelgan qismlari Ichanqal'a devorlari oldida turardilar.<sup>3</sup>

Ustyurt orqali va Mang'ishloqdan kelayotgan ruslar qo'shini 8 may kuni Qo'ng'irotdan 13 chaqirim masofadagi Azbergan bog'ida joylashdi. Bu haqda qo'ng'irotlik Xabniyozbiy, Sayyidbiy, Tojimurodbiy, Mansurbiylar maslahatlashib, xonga xabar yubordilar. Shu kuni Xivadan Qo'ng'irotga yasovul Momut boshchiligida 1500 kishilik qo'shin keldi. 12-may kuni ruslar Qo'ng'irotga bir necha marta to'p otib, shaharni deyarlik jangsiz qo'lga qiritdilar. Qal'ani tashlab qochgan biylar va 300 ga yaqin otliqlar Xo'jayli tomon yurish boshlagan rus otradlariga vaqti-vaqti bilan hamla qilib tursalar-da, sezilarli talafot yetkaza olmadilar.<sup>4</sup>

Ruslar Xo'jayliga yaqinlashgan vaqtda Eltuzar inoq buyrug'i bilan Abdulla mahram bir guruh imronli turkman otliqlariga bosh bo'lib, to'qayzorda bosqinchilarga zarba berdi. Natijada xivaliklar o'ntacha rus askarlarining boshlarini kesib, 13 ta oti va bir miqdor aslahalarini o'lja ol-

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 210-bet.

<sup>2</sup> Туркестанский сборник. Ташкент, т. 87, с. 188.

<sup>3</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 319-bet.

<sup>4</sup> O'sha joyda. 315-bet.



dilar. Ruslarga yordamga yuborilgan 25 otlıq kazaklar kechikib keldi va natijasiz orqasiga qaytdilar.<sup>1</sup>

Rus qo'shinlari biroz yo'l yurgach, xivaliklarning yana bir guruh lashkarlariga duch keldilar. Qurol-aslahasi qilich, qalqon, nayza, o'qyoydan iborat xivaliklar ruslarning multıq va to'plari zarbasiga bardosh bera olmadilar hamda Xo'jayliga chekindilar. Bu yerda Inoqbek qo'shinlarini saflab, jangga hozir bo'lib turardi. Ammo Xudoyor qushbegi olib kelgan xonning buyrug'iga binoan qo'shinlar Xivaga qayta boshladi. Shu vaqtda Maymanada turgan ruslarga yavmut va chavdor turkmanlari hujum boshladilar. Ular ruslarning bir nechta ot va tuyalarini olib, Mang'itga ravona bo'ldilar. Qaytib kelib, yana jangga kirgan vaqtlarida, ruslarning o'q jalasiga duch keldilar va tob bera olmay chekindilar.<sup>2</sup>

Ruslar xivalik vatanparvarlarning xavfli hujumlarini Mang'it qal'asi yaqinidagi janglarda (20-may), haqiqatdan ham, ko'rdilar. Mang'itda ro'y bergan fojia haqida shu vaqtda rotmistr unvonida bo'lgan M. Alixanov-Avarskiy ham guvohlik beradi.<sup>3</sup>

Ruslarning berahmlık harakatlari, keyinchalik, Xivada ham davom ettirildi. 21-may kuni general N. A. Verevkin podpolkovnik M. D. Skobelevga 200 nafar askar bilan Qarauz arig'ini yoqalab, Mang'itga qaytish va Kubatog' yaqinidagi turkmanlarning ovullarini vayron qilishni buyurdi. Ushbu tadbir qarshilik ko'rsatayotganlarni ogohlantirish maqsadida amalga oshirildi, degan yolg'on xabar ham tarqatildi. 22-may kuni ruslar Yangiyop yaqinida juda kuchli hujumga duch keldilar. Natijada ruslardan 6 askar o'ldirildi va 3 nafari yarador qilindi. Xivaliklar ham ancha ko'rgan bo'lsalar-da, ularda qarshilik ko'rsatishga ishonch borligini ko'rsatdilar. Yangiyopga kelgan general N. A. Verevkin mahalliy amaldorlardan biri – G'aniboyning hovlisidan boshpana izlagan 60 nafarga yaqin odamlarni qatl qildirdi.<sup>4</sup>

Xiva xonidan sulh tuzish haqida maktub olganligiga qaramasdan N. A. Verevkin oldinga yurishni davom ettirdi. 24 mayda Qilich Niyozboy kanali ustidan ko'prik qurib o'tgan chor qo'shinlari Kat va Qo'shko'pir orqali Xivaga qarab, tezkor harakat qildilar.

Polkovnik Saranchev va Lomakin qo'mondonligidagi askarlar 28-may kuni Xiva qal'asiga to'plardan o'q uza boshladilar. Faqat kechqu-

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 449<sup>a</sup> -varağ.

<sup>2</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 317-bet.

<sup>3</sup> Алиханов-Аварский М. Поход в Хиу (Кавказских отрядов) в 1873 г. СПб., 1899, с. 211– 213. WWW.Kungrad.com.

<sup>4</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1994, 45-bet.



runga yaqin fon-Kaufmandan buyruq olingandan so'ng, ruslar xohlash-masa-da, qo'mondon talabiga bo'ysundilar<sup>1</sup>. Shu kuni ruslarning 8 ta to'pidan Ichan qal'a va uning devorlariga 388 ta o'q otilgandi.<sup>2</sup>

1873-yil 29-may, ertalab Ichon qal'a yana rus to'plaridan o'qqa tutila boshlandi. Xivaliklar ham qal'a devorlari ustida turib, ruslarga qarata to'p va miltiqlardan javob berardilar. Qal'a himoyachilari qatorida tinch aholi ham nobud bo'ldi. Shu vaqtda Kaufman oldiga kelgan Matniyoz devonbegi ruslar yana shaharni bombardimon qila boshlaganligini aytdi. Chunki xivaliklar sulh taklif qilib, ruslar oldiga ketgan vaqtlarida bir necha kishi Urganch darvozasi tomondan o'q otib, dushmandan bir qismini nobud qilgandi, natijada polkovnik Saranchev qal'ani yana to'pga tutishni buyurgandi. Qal'a ichiga otilgan 92 ta granata 3 joyda yong'in chiqishiga sabab bo'ldi.

Shovot darvozasini egallab, qal'aga kirgan polkovnik M. D. Skobelev va graf Shuvalov qo'mondonligidagi Orenburg askarlari uchragan odamni otib, chopib, qira boshladilar. Ark tomon harakat qilayotgan ruslarga qarshi atrofda imoratlarining tomlaridan o'q uzilib turildi. Chorusiga kirgan ruslar ustiga o'ralar (to'sin) toyib, Shuvalov va yana 14 nafar askar shikastlandi.<sup>3</sup>

Amir to'ra buyrug'i bilan ochilgan Hazoras darvozasidan soat 14.00 da harbiy musiqa sadolari ostida Ichon qal'aga kirgan rus qo'shinlarini qo'mondon fon-Kaufman zafar bilan tabrikladi. Keyin u buyuk knyaz Nikolay Konstantinovich, shahzoda Yujin hamrohligida Arkka kirib, xon taxtiga o'tirdi. Ikki soatdan keyin general N. I. Golovachevga saroyini saqlash uchun 100 askarni tayinlash haqida ko'rsatma bergan qo'mondon Shovot darvozasidan chiqib, yaralangan general N. I. Verevkindan xabar olish uchun uning qarorgohiga ketdi.

N. I. Golovachev esa xon xazinasiga kirib, u yerdagi narsalarni nazoratdan o'tkazdi. U bilan birga bo'lgan sharqshunos A. L. Kun<sup>4</sup> bu yerdagi bor narsalarni ro'yxatga oldi va ular imperatorga yuborildi.<sup>5</sup> Na-

<sup>1</sup> Мак-Гахан. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. М., 1875, с. 165; WWW: Kungrad.com.

<sup>2</sup> Гродеков Н. И. Хивинский поход 1873 г. СПб 1883, с. 305; WWW: Kungrad.com.

<sup>3</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1994, 52-bet.

<sup>4</sup> Kun Aleksandr Lyudvigovich (1840, Ozarbayjon., Shemaxi sh. tug'. 1888, Vilnoda vafot etadi) 1873-yilda Xivada bo'lgan sharqshunos (Лунин Б. В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент, "Фан", 1965; Нурджанов К. Историк, этнограф, филолог. К 150-летию А. Л. Куна. "Хорезмская правда", Ургенч, 1990, 22 нояб.; Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. 173-bet).

<sup>5</sup> Ular orasida 300 ta sharq qo'lyozmalari, 18 dona qur'on nusxasi, 56 ta darslik kitoblari bor edi. Qo'lyozmalar orasida 140 jilddan iborat 129 ta tarixiy asarlar, 30 jild shoirlar devonlari, 40 ta fikr ilmiga oid kitoblari bo'lgan (Туркестанские ведомости. Ташкент, 1873, 18 дек.; Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. 221-bet; O'zbekiston-

tijada xalqimizning bebaho boyligi hisoblangan yodgorliklar hozirgacha Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi, Rossiya Milliy kutubxonasi va Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida (ф. 33, 116-папка) saqlanmoqda.<sup>1</sup>

Ark egallangan kuni kechasi Amir to'ra Kaufmanning ruxsati bilan haram saroyidagi ayollarni ko'chirib, o'z hovlisiga olib bordi. Otajon to'raning Gandimyon qishlog'idagi saroyida o'z yordamchilari bilan joylashgan fon-Kaufman Ishmixshirda turgan Muhammad Rahimxonga maktub yo'llab, sulh tuzish uchun oldiga kelishini buyurdi. Maktub bilan tanishgan xon Sori sardor bilan maslahatlashib, Xivaga qaytishga qaror qildi. Xonni Otajon to'ra va Amir to'ra kutib oldilar. So'ngra Gandimyon bog'idagi saroyda Kaufman xonni yuqori darajadagi iltifot bilan qabul qildi. Rus generali bundan 3 yil oldin yozgan maktubiga rad javob berilmaganda,<sup>2</sup> harbiy kuch bilan Xivaga kelmagan bo'lishini aytdi. Shu bilan bir qatorda, xonni lavozimidan tushirish va davlatidan benasib qilish niyati yo'qligini ham qo'shib qo'ydi.

Muhammad Rahimxon bundan keyin ham 2–3 marta Kaufman bilan uchrashdi. Bir safar u rus generali oldiga borganida, harbiy mashqni tomosha qildi. Qo'shinni oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta'minlash masalalarini muhokama qilish maqsadida Namozgoh mavzesida o'tkazilgan majlisda qatnashgan Kaufman xondan o'lpon tariqasida 2 mln. 200 ming manotni to'lashni talab qildi. Uning 300 ming manoti turkmanlar hisobidan to'lanishi lozim edi. U yana Erondan asir qilib keltirib, qul sifatida sotilgan odamlarni bo'shatish va yurtiga qaytarish muammosini ko'tardi.<sup>3</sup> Xonning bu talablarga rozi bo'lmasdan iloji yo'q edi.

Muhammad Rahimxonning 1873-yil 12-iyundagi buyrug'i bilan xonlik hududidagi barcha qullarga ozodlik e'lon qilindi. Ular Xiva yaqinidagi Kattabog' degan joyga to'planishlari va o'z yurtlariga ketishga hozirlik ko'rishlari lozim edi.

---

ning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 145-bet; Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi faxristi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010, 384-bet).

<sup>1</sup> Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boylklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990). Toshkent, "Sharq", 2000, 353-bet; Matyakubova M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fan. nom. ... diss. avtoref. Toshkent, 2008, 34-bet.

<sup>2</sup> General fon-Kaufman tomonidan Xiva xoniga yo'llangan maktubda shunday so'zlar bor edi: "Urush sizning xatti-harakatlaringiz natijasida yuzaga keldi. 6 yil davomida sizga tinchlik va do'stlik haqida qilingan takliflar be'e'tibor qoldi. Ollah inoyati bilan hozir ham siz bilan sulh va do'stlik to'g'risida shartnoma tuzishga tayyorman. Ammo oldinga qarab harakat qilishni to'xtatmayman. Agar xonlik va aholini bizning qo'shinlar tomonidan xonavayron qilishni oldini olishni istasangiz, barcha fuqarolarni o'z xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish uchun bo'shatang. Rus qo'shinlari dushmani yanchadi, ammo tinch aholiga ozor bermaydi". Тереньтев М. А. Россия и Англия в Средней Азии. СПб., 1875, с. 84–115; WWW: Kungrad.com.

<sup>3</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 330–331-betlar.

Manbalarda xonlikda qulchilik bo'lganligi, Xivada esa qul bozori mavjudligi haqida yozilsa-da, ularning soni to'g'risida aniq bir ma'lumotni uchratish qiyin. Ruslar bosqini vaqtida Xivaga kelgan amerikalik jurnalist Mak-Gaxan xonlikdagi eronliklar soni 30 ming kishi bo'lib, ularning 27 mingini qullar tashkil etganligini ko'rsatarkan, shunday yozadi: "Qullarning haqiqiy soni qancha ekanligi haqidagi ma'lumotlarni biz topa olmadik. Matmurod devonbegi bu haqda berilgan savolga 3-4 ming deb javob berdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, uning o'ziga qarashli 400 quli bor ekan".<sup>1</sup>

Bayoniy ruslar istilosi davrida Xiva xonligidagi Eron asirlari "Hammalari yigirma yetti mingga yetgan",<sup>2</sup> deb yozgandi. Komyob: "Xorazmda Rossiya istilosiga qadar taka turkmanlari Eronin o'g'irlab kelturib sotg'on tug'malari 58500 (ellik sakkiz ming besh yuz) nafar erkan. Shundan 22500 (yigirma ikki ming besh yuzi) Xorazmdan ketmakni ixtiyor qilmay, yerli va suvli bo'lib qolganlar",<sup>3</sup> degan ma'lumotni qoldirgan. Ushbu ma'lumotni biz taniqli me'mor A. Boltayevning esdalklarida ham ko'ramiz.<sup>4</sup>

Xiva xonligida qullik tugatilgani bilan eronliklarning ko'plari o'z yurtlariga yetib bora olmadilar. Chunki Ko'hna Urganch atrofida to'plangan qullar Qoraqum orqali Xurosonga yo'l olgan vaqtda ularga hujum qilgan yavmut qaroqchilari ko'plab odamlarni qirib tashladilar va mol-mulkini talon-taroj qildilar. Natijada qullarning ko'plari noilojlikdan orqaga qaytishga majbur bo'ldilar. Ammo ularning bir qismi yurtiga yetib borganligi haqida xushxabar ham kelgandi.

Ruslar Xiva xonligidagi turkmanlarning qo'shin berish va'dasi asosida imtiyozli sharoitda ekanligi va ular xonga soliq to'lash u yoqda tursin, hatto xonning o'zini ham nazorat ostida tutishlarini bilardilar. 1873-yil 19-iyun kuni turkmanlarni bo'ysundirish maqsadida general Kaufman ularga 300 ming manot tovon soldi. Yavmutlar belgilangan mablag'ni 15 kun muddatda to'lashlariga ishonch yo'qolgach, 7 iyulda ular ustiga jazo otradi jo'natildi. Yaqubboy devonbegi hamrohligida Xivadan 12 chaqirim uzoqlikdagi G'ozovotga kelgan general-mayor N. I. Golovachev qo'l ostida 8 ta rota askarlar, yana shuncha otliq kazak yuzliklari va 10 ta zambarak bor edi. Yavmutlar kelib, omonlik so'rar, degan fikr

<sup>1</sup> Мак Гахан. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. М., 1875, с. 228.

<sup>2</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. Tashkent, "Kamalak", 1991, 224-bet.

<sup>3</sup> Sayyid Homidjon to'ra Komyob. Tavorix ul-xavonin. 97-bet.

<sup>4</sup> Boltaev A. Xorazm tarixi. Qo'lyozma. O'zR FASEHI. № 9320, 81<sup>a</sup>,<sup>b</sup> -varaqalar.

bilan ruslar bir kun kutib turdilar. "Keyingi kuni Galavachof otlanib, — deb yozadi Bayoniy, — lashkari bilan kelib, yamut qabilalarining bir tarafidan doxil bo'lib, qozoq otlilari mutafarruq bo'lib, yamutlar xirmonlariga va kozalariga (chayla) va uylariga o't qo'ya berdilar. O't shu'lalari har tarafda osmonga bosh chekib, tutun tamomi atrofni qurshab olib, "Yavma ta'ti as-samoa bi duxoni mubin" (ul kuniki, osmon ravshan bir tutun keltirur)ning mavhumi oshkoro bo'ldi. Kazak otlilar ko'zga ko'ringanni otib, qarri bobolarni va ayolu atfolni tig' bilan chopib, sut ematurg'on o'g'lonlarni nayza bilan sanchib, o'tga otar erdilar va amvollarni taroj etardilar".<sup>1</sup> Bunday dahshatli manzarani chor qo'shinlari borgan turkmanlarning barcha ovul-qishloqlarida va yo'llarda ko'rish mumkin edi.<sup>2</sup>

Professor H. Ziyoyev turkmanlarning shiddatli hujumlari vaqtidagi holatni bayon qilgan jurnalist Mak Gaxanning quyidagi so'zlarini keltirgan: "Bu dadil mardonavor va ajoyib hujum bo'lib, agar rus askarlari jasorat ko'rsatmaganda, jangning oqibati ayanchli bo'lardi. Sarosimalik boshlanganida, bizning birortamiz omon qolmagan bo'lardik. Buning ham ustiga Xivada, keyin Xonqada boshlangan ko'tarilish Toshkentga, butun Turkistonga tarqalardi. O'sha onda O'rta Osiyoda Rossiya qaramligidagi barcha yerlar tarozi pallasida tebranib turganidek edi".<sup>3</sup>

Ilonli yaqinida og'ir janglar davom etayotganligi haqida ma'lumot olgan fon-Kaufman Xivada 200 askar va 2 ta zambarak qoldirib, 15 iyul kuni yordamga shoshildi. Madad yetib kelguncha Annamurod arig'i va Ko'kchuk degan joyga chekinishga ulgurgan turkmanlarni ta'qib qilgan ruslar yana яна qonli to'qnashuv bo'ldi. Jangda turkman otliqlaridan 500 nafari nobud qilinganligi, 3 ming arava, 5 mindan ortiq chorva-mollari o'lja olinganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.<sup>4</sup> Yavmut turkmanlarining bir qismi ta'qibdan qutulib ketish maqsadida bola-chaqa va molumkinining bir qismini tashlab, Qoraqumga chekindilar.

Yavmutlar qarshilik ko'rsatishni qisman davom ettirdilar. Natijada 19-iyulda Ilonliga yetib kelgan Kaufman turkman urug' boshliqlariga urushni to'xtatish va ikki hafta muddatda 418 ming 500 so'm miqdorida tovon to'lash zarurligi haqida ogohlantirish yubordi. 11 kun davom et-

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 226-bet.

<sup>2</sup> Мак Гахан. Военные действия на Оксусе и падение Хивы. С. 265–271.

<sup>3</sup> Ziyoyev H. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 310-бет.

<sup>4</sup> Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана наступательного движения в него русских. с. 325.

gan urush harakatlari 20 iyulda Bayram Shayli nomli yavmut qabilasi qarshilik ko'rsatishni to'xtatishi bilan yakunlandi.<sup>1</sup> Qisqa muddatda turkmanlardan 80 ming manot tovon yig'ib olindi hamda ularga yana 90 ming manotni bir yil muddatda to'plab berish majburiyati yuklatildi.<sup>2</sup>

Kaufman Xiva xonligida turgan vaqtda ayrim amaldorlarni jazolashga qaror qildi. Ruslar kelgan vaqtda ularga qarshi harbiy harakatlarga bosh bo'lgan Matmurod devonbegi va Rahmatulla yasovulboshi oldin Qazali, Orenburg, keyinchalik esa Kaluga shahriga surgun qilindi. Shu bilan bir qatorda, gubernator ayrim xon amaldorlarini o'z xizmatiga oldi va ularga ma'lum darajada imtiyozlar berdi. Xonning inisi Otajon to'raga rus ma'muriyati xodimi sifatida lavozim berildi. Matniyoz devonbegi Kaufmanga bo'layotgan voqealardan axborot berib turgani bois, unga Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Sho'roxon qishlog'i atrofidagi xonning yerlaridan 3095 tanob yer va 200 dehqon xo'jaliklari ajratib berildi.<sup>3</sup>

1873-yil 12-avgustda Rossiya va Xiva o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. "Gandimyon shartnomasi" nomi bilan tarixda iz qoldirgan va 18 moddadan iborat mazkur hujjat Xiva xonligini yarim mustamlaka va qaram (vassal) davlatga aylantirdi.<sup>4</sup> Shartnoma Xorazmning tabiiy va notabiiy boyliklari (paxta, pilla, jun, baliq, oltin zaxiralari, nozik san'at asarlari) talanishiga, mehnatkash ommani mahalliy boylar qatori rus amaldorlari tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga, zavod va fabrikalarning qurilishi natijasida vohadagi hunarmandchilik (miskarlik, zargarlik, temirchilik, ko'ncilik, kulolchilik, ipakchilik, bo'yoqchilik, etikdo'zlik, elakchilik, xarrotchilik, koshinchilik va h.) sohalarining inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Sudxo'rlar changaliga tushgan hunarmandlar va dehqonlar o'z mehnati evaziga yetishtiradigan moddiy boyliklardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'ldilar.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> General Gornovning "Xivadagi harbiy harakatlar haqida"gi Bosh shtabga yuborgan ma'lumotnomasi. ЦГВИА РФ., ф. 400, оп. 1, д. 63, лл. 4-11. WWW: Kungrad.com.

<sup>2</sup> Ziyoyev N. Turkistonda Rossiya tajovuzi... 331-bet.

<sup>3</sup> Шкапский О. Как хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях. М., 1900; Шкапский О. Амударьинские очерки. Ташкент, 1900, с. 130; Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdamnashr, 1959, 181-bet.

<sup>4</sup> Туркестанский сборник. Ташкент. т. 45, с. 167-168; Условия мира России с Хивой. Национальная политика в императорской России. Цивилизованные окраины. М., 1997, с. 367-371.

<sup>5</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 446<sup>a</sup>-465<sup>b</sup> -varaqlar; Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990), 216-bet.



Xiva xonligining chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishini ayrim vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan arboblardan juda og'ir hasrat bilan esga olardilar. Xususan, fojiali voqealarning guvohi bo'lgan Muhammad Yusuf Bayoniy oradan 30 yil o'tgach yozgandi: "Darig'kim, ahli Xorazm mard muboriz jamoa erdilar"! ...Agar tamomi Xorazm aholilari yakdilu yakjihati bo'lib ittifoq bila Rusiya askariga muqobil bo'lib, urush etsalar erdi, ehtimoli yo'q erdikim, Rusiya askari olarg'a zafar topa olg'aylar, mundin burun besh navbat kelib aslo zafar topa olg'on emasdurlar. Nechunkim, Xorazmning atrofida qumu dashtlar bordur va bir tarafida darvo bordurkim, mahkam sadrlarning o'rtasida voqedur. Oning pastu balandin bilmagan kishilarga fathi mahol erdi".<sup>1</sup> Alloma bir necha vatanfurushtlarning o'z maqsadlari yo'lida qilgan xoinliklari xorazmliklarning boshiga cheksiz kulfatlar keltirganligini qayd qilgan.

Ruslar ketganidan keyin o'z hukmronligini davom ettirgan Muhammad Rahimxon saroydagi mansablarga yangi amaldorlarni tayinladi. Surgun qilingan Matmurod devonbegi o'rniga Pahlavon mirzaboshi, Rahmatulla yasovulboshi o'rniga o'g'li – Bekjon eshik og'asi tayinlandi. O'z nufuzli o'rnini va mansabini saqlab qolgan Matniyoz devonbegiga katta imtiyozlar yaratildi. Uning rus ma'murlari bilan munosabati yaxshiligidan foydalanmoqchi bo'lgan xon 1875-yilda Matniyoz devonbegini Peterburgga jo'natdi. Rossiya poytaxtida Matniyoz devonbegi Davlat kansleri A. M. Gorchakov va harbiy ministr D. Milyutin bilan muzokaralar yuritgan vaqtida Xiva xonligi gardaniga yuklangan o'lponni (kontributsiya) biroz kamaytirish, surgun qilingan amaldorlarni yurtiga qaytarish kabi masalalar o'rtaga tashlandi.<sup>2</sup> Ammo xivaliklarning iltimoslari bajarilmasdan qoldi.

Xiva xoni atrofidagi amaldorlarning yangi avlodi ham o'tmishdoshlari kabi o'z faoliyatini turkmanlarning noroziligini bostirishdan boshladilar. Xonning buyrug'i bilan turkman sardorlaridan ko'plari tutib keltirildi va Xivada dorga osildi. Ustasiga chor va xon qo'shinlari zulmidan aziyat chekkan yavmut va chavdor turkmanlari ovullariga Oymongul, Shalmongul, Otagaldi, Xinot o'g'ri, Uroz quloq kabi qaroqchilarning to'dalari tajovuz qila boshladi.

1875-yilda Mahmud eshon boshliq chavdor turkmanlari ovullariga qozoqlarning 600 otliqlari hujum qildilar. Eshonni o'ldirib, mollarini

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 219-bet.

<sup>2</sup> Туркестанский сборник. Ташкент, т. 150, с. 149.



olib ketayotgan qozoqlar izidan Lavzon kanali bo'yida yetgan chavdor otlidlari bosqinchilardan 500 dan ortig'ini qirib tashladilar<sup>1</sup>.

1876-yilda Amudaryo bo'limi boshligi xondan Buxoro amiri talab etayotgan muammoni hal qilishni so'radi. Bunga sabab, Qulibek ismli yavmutning Chorjo'yga borib to'rt ming qo'y va bitta tojik bolasini olib qaytgani edi. Xon buyrug'i bilan Xudoyor qushbegi yavmutlar oldiga borib, to'rt ming qo'y uchun sakkiz ming tilla undirib oldi va tojik bolani topib keldi. U va tovon puli N. I. Ivanov orqali Buxoroga jo'natildi. Bunday holat 1880-yilda ham ro'y berib, Ustyurtdagi qozoqlarning 100 tacha tuyasini haydab kelgan yavmutlardan undirib olingan mablag' N. I. Ivanov orqali egalariga qaytarildi.<sup>2</sup>

Muhammad Rahimxonning xonlikni boshqarishdagi nufuzi oshib, rus hukumat doiralari u bilan biroz bo'lsa-da, hisoblashadigan bo'ldilar. Shu vaziyatdan foydalangan xon surgun qilingan ayrim amaldorlarni Xivaga qaytarishga harakat qildi. Xonning iltimosi bilan 1880-yilda rus imperatori Aleksandr II Kalugada ushlab turilgan Matmurod devonbegi va Rahmatulla yasovulboshini yurtiga qaytardi. Natijada ular o'z mansablariga qayta tiklanib, umrlarining oxirigacha izzat-hurmatda bo'ldilar.<sup>3</sup>

Surgundan qaytgan davlat arboblari o'z lavozimlariga qayta qo'yilgach, Komil Xorazmiy devonbegi lavozimidan bo'shatilib, mirzaboshi lavozimida va ijod bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Natijada u Xorazm maqomlarining notalarini yaratdi. Komil Xorazmiy 1898-yilla dunyodan o'tdi.

Muhammad Rahimxon saroyida nufuzli lavozimlardan biriga ko'tarilgan arboblardan birida Xonqadagi Sayyid Otoy xo'jalar avlodidan bo'lgan Ibrohimxo'ja ibn Sayyid Muhammadxo'ja alohida ajralib turardi. U ancha serharakat yigit bo'lib, chavdor turkmanlari sardori Xolmhammad eshonning shubhali harakatlarini nazorat qilish uchun yuborilgan vaqtda G'ozovot, Anbar, Qilichboy va Toshhovuzga borib, barcha ishlarni tahlil qilib qaytdi. Uning harakatlaridan mamnun bo'lgan xon Ibrohimxo'jaga mehtar va qushbegi yuritadigan hisob daftarlarining barini ishonib topshirdi.

Ustiga-ustak 1882-yilda Rossiyaga yo'l olgan xon o'z o'rniga vaqtincha inisi To'ramurod to'rani tayinlasa-da, jumlat mulkni (barcha

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 234-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda. 237-bet.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

mamlakat mulki) vazir Ibrohimxo'jaga topshirib ketdi. Safarda xonga Matmurod devonbegi, Yusuf va Muhammad mahramlar hamroh bo'ldilar<sup>1</sup>. Uch oydan ko'proq muddatda Qo'ng'irotdan ustidan o'tib, Rossiyaga borib kelgan xon va uning mulozimlariga Vaysbobo ismli karvonboshi benihoya katta xizmat ko'rsatdi. Uzoq safardan yaxshi kayfiyat bilan qaytgan xon Ibrohimxo'jani vaziri jumlat ul-mulk lavozimiga tayinladi. "Ammo Ibrohimxo'ja bag'oyat muddabir va ishbilarmon, tadbirkor kishi erdi, – deb yozgandi u haqda Bayoniy. – Viloyatga yaxshi nizomlar berdi. Xon hazratlari oning ra'yi bila burungi podshohlarga xizmat etib o'tgan qadim ul-xizmat davlathohlarining avlodlarin topib, ota-bobolarining o'rinlarinda barqaror etdi"<sup>2</sup>.

Natijada ko'pgina ko'zga ko'ringan, obro'li, ammo ruslar kelgandan keyin va saroydagi ba'zi fisq-u fasonlar natijasida lavozimlaridan benasib qilingan ayrim arboblardan o'z mansablariga qaytarildi. Shu asnoda Ibrohimxo'janing amakizodasi Sayyid Abdullaxo'ja Hazoraspgga hokim etib tayinlandi. Shu yili u o'tin va ko'mir tayyorlash uchun Qoraqumga borgan bir guruh xorazmlik fuqarolarini taka turkmanlar asirligidan qutqarib qaytdi. 1888-yilda amakisi Ibrohimxo'ja vafotidan so'ng, Sayyid Abdullaxo'ja bosh vazir lavozimiga tayinlandi, Uning o'rniga esa jiyani Islomxo'jani Hazoraspgga hokim qilib yubordilar.

Xulosa qilinsa, O'rta Osiyodagi siyosiy inqiroz va mavjud davlatlarning bir biri bilan kelishmasligi oqibatida, ular birin-ketin chor Rossiyasi tomonidan bo'ysundirilishi natijasida Xiva xonligi ham yarim qaram mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Iqtisodiy jihatdan ojiz va siyosiy jihatdan huquqlari cheklangan davlatning kelgusi taraqqiyoti deyarlik butunlay chor ma'murlarining nazorati ostiga olindi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon o'z davlatida o'zi huqumron bo'lmagan bir sharoitda Gandimyon sulh shartnomasining barcha bandlarini o'z vaqtida bajarishga harakat qildi. Hatto 2 mln. 200 ming manotlik o'lpon ham muddatidan ilgari to'lab, tugatildi.

1882-yilda Muhammad Rahimxon ilk bor Rossiyaga safar qildi va imperator Aleksandr III dan xonlikning iqtisodiyoti uchun zarur zavod va fabrikalar qurish, savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlashni so'radi. Vaziyatning o'zgarganligi va xonning itoatgo'yiligi bois yuqoridagi iltimoslarning ayrimlari qondirildi. Xiva va Rossiya o'rtasidagi sal kam

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. Qo'lyozma. O'zR FASHI. № 9596, 439<sup>a</sup>, 485<sup>a</sup> -varaqalar.

<sup>2</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 241-bet.

chorak asrlik iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar XX asrda amalga oshiriladigan tadbirlar uchun keng yo'l ochib, yangi imkoniyatlarni yaratdi.

## IV BOB. XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOT

### 4.1. Xiva xonligida iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar va ularning natijalari

Ruslar bosqini arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 130 590 kv. chaqirim bo'lib, o'ng qirg'oqdagi yerlar Amudaryo bo'limi ixtiyoriga tortib olingach, 54 698 kv. chaqirim maydon qolgandi, xolos. Xiva xonligining so'l qirg'oqda qolgan maydonining uzunligi 360 va kengligi 10–60 chaqirimni tashkil qilardi. O'zlashtirilgan yerlar 2005520 tabob bo'lib, u umumiy yer maydonining 35 % tashkil etardi.<sup>1</sup>

Xonligida muhim o'rin egallagan xalqlar orasida o'zbeklar, turkmanlar, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar, boshqird, eroniy urug'-qabilalarga mansub aholi bor edi. Ularning milliy tarkibi va soni haqidagi ma'lumotlar bir-biriga mos kelmas, ba'zi vaqtlarda strategik maqsadlarda yashirib ham turilardi. Aholi soni haqida bir vaqtlar Xivaga kelgan rus ofitserlari qoldirgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Xususan, 1819-yilda kapitan N. N. Muravyev xonlik aholisi 300 ming kishi,<sup>2</sup> 1842-yilda podpolkovnik G. I. Danilevskiy – 294 ming kishi,<sup>3</sup> 1843-yilda savdogar M. N. Ivanin – ko'chmanchilar bilan birga 650 ming kishi,<sup>4</sup> 1861-yilda sharqshunos V. V. Grigoryev – 300 mingdan oshmaydi va 1873-yilda polkovnik L. F. Kostenko – xonlikdagi xonadonlar 40 ming va aholi soni 700 ming kishi, agarda bunga qullar ham qo'shilsa, 800 mingdan oshiq,<sup>5</sup> deb yozgandilar.

Rossiya Maorif ministrligi nashri “Narodnoye prosveshyeniye” jurnalining 1873-yil 13-noyabrdagi sonida e'lon qilingan V. Vasilyevning maqolasida “Xiva xonligining aholisi 300 ming kishi va ular 60 ming xonadonda yashaydi. Xonlik tasarrufidagi qozoq va qoraqalpoqlar 160 ming kishidan iborat bo'lib, ular 32 ming o'tovda turadilar”<sup>6</sup>, deb ko'rsatilgandi. Polkovnik V. Labochevskiy aniqlagan ma'lumotlarda xonlikdagi turkmanlar soni 184 200 kishi bo'lib, ular aholining 28,5 fo-

<sup>1</sup> Гирифельд В. Военно-статистическое описание Хивинского ханства. Ч. 2. Ташкент, 1903, с. 142.

<sup>2</sup> Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Москва, 1823, ч. 2, с. 30.

<sup>3</sup> Данилевский Г. И. Описание Хивинского ханства. ЗИРГО. Кн. 5-я. СПб., 1851, с. 100.

<sup>4</sup> Иванин М.Н. Сведения о Хивинском ханстве. “Мануфактура и торговля”. СПб., 1843, с. 157.

<sup>5</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. 196-bet; 240-bet.

<sup>6</sup> Васильев В. Население Хивы. Турк. сб. Ташкент, т. 83, с. 49.

izini tashkil qilgan.<sup>1</sup> Yuqoridagi ma'lumotlarning aksariyati taxminan ekanligi va xonlikda aniq hisob-kitob yuritilmaganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Balkim, ayrim maqsadlarda aholining haqiqiy soni sir tutilgan bo'lsa ham, ajabmas.

Rus ma'muriyati 1897-yilda ilk bor imperiyadagi aholini ro'yxatga olish ishlarini amalga oshirdi. Shu jumladan, Turkiston o'lkasi bilan bir qatorda Buxoro amirligi va Xiva xonligida yashayotgan fuqarolar sonini aniqlashga harakat qilindi. Natijada Xiva xonligida 519 437 kishi yashaganligi va ularning 488 924 nafari (94,1 %) o'troq, 30 515 nafari (5,9 %) ko'chmanchilik bilan kun kechirayotganligi ma'lum bo'ldi.<sup>2</sup>

1910-yilda F. Pavlenkovning 4-marta qayta nashr qilingan "Ensiklopediya"sida Xiva xonligining aholisi 800 ming kishi atrofida, deb ko'rsatilgan.<sup>3</sup> Ammo harbiy-statistik nuqtayi nazardan xonlikni o'rganagan V. Labochevskiy aholi soni 600 ming kishini tashkil etishini yozadi.<sup>4</sup> Milliy tarkibi jihatidan xonlik aholisining 60 foizi o'zbeklar, 25 foizi turkmanlar, 15 foizi qozoq, qoraqalpoq, ruslar, tatarlar, arablar, forslar va boshqa xalqlar vakillaridan iborat edi.<sup>5</sup>

Xiva xonligining XX asr boshlarida egallab turgan maydoni va xo'jalik hayoti haqidagi ma'lumotlarni ham faqatgina yuqorida tilga olingan F. Pavlenkovning qomusida o'qish mumkin.<sup>6</sup> "Xiva Rossiyaga qaram xonlik hisoblanadi, – deyiladi unda. – U shimolda Orol dengizi, sharqda Amudaryo bilan chegaradosh. Maydoni 54 698 ming kv.km. bo'lib, uning 3/4 qismi ekin unmaydigan qum barxanlaridan, Amudaryoning so'l qirg'og'idagi qolgan qismi esa hosildor va gullab turgan vohadan iborat".<sup>7</sup> Yuqoridagi ma'lumotlarning ayrimlari aniq bo'lmasa-da, qomusni tayyorlagan rus olimlarining Xiva xonligi haqida tasavvurlari anchagina keng bo'lganligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Xiva xonligining maydoni 569 910 desyatini (1 desyatina 1,09 gektarga teng) tashkil etib, ekin ekilib turgan yerlar – 324 000 desyatina edi.<sup>8</sup> Yerlarning 86 ming tanobi (1 gektar 2,5 tanob), ya'ni 34400 gektari

<sup>1</sup> Лобачевский В. Военно-статистическое описание. Хивинский район. Ташкент, 1912, с. 66; Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924). Тошкент, "Академнашр", 2011, 21-бет.

<sup>2</sup> Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. 111–114-betlar.

<sup>3</sup> Энциклопедический словарь Ф. Павленкова. СПб., 1910, с. 2786.

<sup>4</sup> Лобачевский В. Военно-статистическое описание. Хивинский район, с. 102.

<sup>5</sup> Гиришфельд В. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ч. 2, с. 66; *Материалы по районированию Средней Азии. 2-я книга (Хорезм)*. Ташкент, 1926, с. 90.

<sup>6</sup> Энциклопедический словарь Ф. Павленкова. с. 2786.

<sup>7</sup> Там же.

<sup>8</sup> Гиришфельд В. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. С. 12.

xon va uning qarindosh-urug'lariga qarashli bo'lib, davlat yeri deb hisoblanardi.<sup>1</sup> Ekin maydonlarining 661 333 tanobini mulk deb nomlangan yerlar tashkil etar va unga xon amaldorlari, o'rta va kambag'al dehqonlarga qarashli yerlar kirardi.<sup>2</sup> Mulk yerlari "atoi mulk" va "yorliqlik mulk" deb yuritilar<sup>3</sup> hamda ular Bog'ot, Kat, Shovot, G'ozovot, Qo'shko'pir, Pitnak, Qo'ng'iro't beklklaridagi yerlarning asosiy qismini tashkil etardi.

XX asr boshida Xiva xonligida 120 madrasa, 79 ta masjid, 73 qabriston, 71 muqaddas joylar va boshqa o'nlagan diniy muassasalarga tegishli vaqf yerlari mavjud edi va ular "vaqfi hayri" deb atalgan. Xonlikdagi 281 ming tanob yer vaqf yerlariga ajratilgan bo'lib, ularning 26 ming tanobi 1853–1855-yillarda qurilgan Muhammad Amin madrasasiga, 33325 tanobi 1871–1872-yillarda barpo etilgan Muhammad Rahimxon madrasasiga ajratilgandi.<sup>4</sup> Yana bir "vaqfi avlodi" deb nomlangan yerlar sayyidlar, xo'jalar, a'zamlar, eshonlar, pirlar, mutavallilar, so'filar kabi din vakillariga meros sifatida ajratilgandi.

XX asr boshlarida Xiva xonligida yana turkmanlarning xon istibdodiga qarshi g'alayonlari avj oldi. 1902-yilda yavmutlar yo'ltosarlik harakatlarini boshlab yubordilar. Natijada xon Sayyid Abdulla to'raga taxtni boshqarishni topshirib, o'zi o'zbek va chovdur turkmanlaridan to'plangan lashkarlarga bosh bo'lib, Toshhovuzga borib, 14 kun turdi. Xonning topshirig'i bilan oldinroq Taxta tumanidagi yavmutlar ustiga yuborilgan Nurjon Botir isyonchi Safar Alining kallasini kesib keldi. Shundan so'ng, Taxtaga yuborilgan shahzoda Asfandiyorxon va Naqibxo'ja ismli amaldor yavmutlardan soliq yig'ib oldilar hamda ularning arzlarini tingladilar.

1903-yilda shahzoda Asfandiyorxon Mahmud Vafo karvonboshi va Said Islomxo'ja hamrohligida Peterburgga safar qildi. Shu yili Muhammad Rahimxonning inisi Otajon to'ra dunyodan o'tdi. U Kamron taxallusi bilan she'rler yozib turardi. Otajon to'radan Muhammad Amin, Sayyid G'oziy to'ra va Sayyid Asad to'ra ismli o'g'illar qoldi. 1907-yilda xonning kichik ukalari Ollayor to'ra 47 yoshida, 1909-yilda To'ramurod to'ra 54 yoshida vafot qildilar.

<sup>1</sup> Юлдашев М. И. К истории крестьян Хивы XIX века. Ташкент, 1966, с. 36.

<sup>2</sup> Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колонизальный период). Ташкент, Узгосиздат, 1959, с. 28.

<sup>3</sup> Садыков А. С. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. с. 12.

<sup>4</sup> O'zR. MDA. И-125-jang', 1-ro'yhat, 396-jild, 3-varaq; Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900–1924). 19-bet; Matkarimov M. Xorazm Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi. Urganch, 1993, 9-bet.





### Muhammad Rahim Bahodirxon (1844 –1910)

1908-yilda Muhammad Rahimxon payg'ambar yoshiga to'lgani munosabati bilan elga katta to'y berdi. Oradan ikki yil o'tib, 1910-yil 16-avgustda xon 66 yoshida dunyodan o'tdi.<sup>1</sup> Uning jasadi Sayyid Muhammad Mohiro'yi Jahon maqbarasiga dafn qilindi. Taxtda 47 yil 15 kun o'tirgan Muhammad Rahim Bahodirxon, shubhasiz, Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan yirik davlat arboblardan biri edi.

Muhammad Rahimxon o'zining uzoq yillar davomidagi xonlik davrida juda ko'p voqealarning guvohi bo'ldi. "Ma'lum bo'lsinkim, xon hazratlari bag'oyat mushfiq-fuqaro va bag'oyat xayrdo'st kishi erdilar",<sup>2</sup> – deb yozgandi Bayoniy. Uning davrida Xiva xonligi chor Rossiyasiga qaram davlatga aylandi. Xonlikning katta hududi tortib olindi va fuqarolari zimmasiga og'ir majburiyatlar yuklandi. Xonning qobiliyati va amalga oshirgan siyosati natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda sezilarli darajada ijobiy siljishlar bo'ldi.

1903-yilda aka-uka Kraflar Yangi Urganchda bank idorasini ochdilar. Keyinchalik ushbu bankning filiallari Xonqa, Mang'it va Gurlanda tashkil etildi. 1910-yilda Kraflar oilasi turkmanlar yog' zavodini sotib

<sup>1</sup> Muhammad Rahimxonning yurak zotiljami oqibatida vafot qilganligi haqida xabar bergan "Niva" gazetasi o'zining 1910-yildagi 45-sonida xonga Orenburg kazak qo'shinlari general-leytenati va 1902-yildan hazrat unvoni berilganligi haqida yozadi. U 20 yoshida voris sifatida taxtga ko'tarilgan bo'lsa, endilikda uning 37 yashar o'g'li Sayyid Asfandiyor to'ra podsho hazrati oliylari ruxsati bilanгина otasi taxtiga o'tirishi mumkinligi qayd qilinadi. Unga ham Orenburg kazak qo'shinlari general-mayori unvoni berilgandi.

<sup>2</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 252-bet.

olib, uni AQSH, Germaniya, Angliyadan keltirilgan asbob-uskunlar bilan qayta jihozladilar.<sup>1</sup>

1905-yilda viloyatdagi paxta zavodlarida 103 ta uskuna ishlab turardi. Keyingi 2 yil oralig'ida "Poznanskiy va sheriklari" manufakturasi agentlari Yangi Urganch, Toshhovuz, Mang'it, Xiva, Xonqa, Gurlanda paxta tozalash zavodlari qurdilar. Shu vaqtda "Shlossberg va og'a-inilari"ning paxta tozalash zavodi ham ish boshladi. Yusufboy Hayitboyev, aka-uka Matvafo va Matsapo Baqqolovlar, Rizayev, Madiyurov, Boboniyozboy, Matniyozboy kabi mahalliy puldorlar ham paxta tozalash zavodlari qurdilar.

1904-yilda Pitnak qal'asi yaqinida Boboniyozboy, Egamberdi noib va Mergan hojilar sherikchiligida ikki jiqli (tolani chigitdan ajratadigan maxsus asbob) paxta tozalash zavodi ishga tushirildi. Zavod yonida bug' bilan ishlaydigan un tortish tegirmoni ham qurildi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Mulla Matyozboy ismli pitnaklik ishbilarmon uch jiqli yana bir paxta tozalash zavodini ishga tushirdi. Zavoddagi 15 ot kuchiga ega dvigatel yordamida kuniga 100–120 kg. paxta tozalanib, 45–50 kg. tola olinardi. 1912–1918-yillarda Matyozboyning zavodidagi jarayonlarga Andrey ismli rus ishchisi boshchilik qilgandi.<sup>2</sup>

Xiva xonligida 36 ta paxta tozalash zavodidan tashqari, 11 ta g'isht, 8 ta beda urug'i tozalash, 4 ta charm ishlash, 4 ta yog'-sovun zavodlari ham bo'lgan. Paxta tozalash zavodlarida kerosin yoqilg'isi yordamida harakatlanuvchi dvigatellar o'rnatilgan bo'lib, ularning quvvati 15–45 ot kuchidan oshmasdi. Faqat bir necha yirik paxta tozalash zavodlarni elektr yordamida yoritish maqsadida kichik dinamli stansiyalar o'rnatilgan edi. Zavod va fabrikalarda yollanib ishlayotgan mehnatkashlarning ahvoli ham ayanchli edi. Ular kuniga 10–12 soat ishlar va juda oz miqdorda haq olardilar.

Qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish ishlariga ham e'tibor ortdi. Dehqonlarning mehnati sanoat ishchilariniki kabi juda og'ir bo'lib, asosiy ishlar qo'l kuchi, ho'kiz, ot, eshak va tuyalar yordamida bajarilardi. 1909-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, xonlikdagi jami ekin maydonlari – 226983 desyatinani tashkil qilgan bo'lib, shundan bug'doy ekiladigan maydonlar – 53579 desyatina (24,3 %), paxta – 34775 desyatina (15,8 %), arpa – 5959 desyatina (2,9 %), jo'xori – 31884 desyatina (14,3%), mosh – 5526 desyatina (2,8 %), tariq – 8470 desyatina (10,6

<sup>1</sup> Xudoyberganov M. Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi. Urganch, 2002, 12-bet.

<sup>2</sup> Qurbonboyev S. Pitnak tarixi. Urganch, "Xorazm", 2001, 20-bet.

%), qovun – 13099 desyatina (5,9 %), beda – 35277 desyatina (15,9 %) va boshqa ekinlar 9081 desyatina (3,9 %) maydonlarni egallagan.<sup>1</sup> Xorazm dehqonlari azaldan don ekinlari qatorida bug‘doy, arpa, ayniqsa, oq jo‘hori ekishga ko‘proq e‘tibor berardilar. Shu bilan bir qatorda, sabzavot va poliz ekinlari, chorva uchun o‘t, yem-xashaklarni ko‘proq yetishtirishga harakat qilingan.

Paxta xomashyosining bahosi bug‘doy va boshqa turdagi don ekinlari mahsulotlariga qaraganda deyarlik 2 marta yuqori bo‘lsa-da, xonlikdagi barcha sug‘oriladigan yer maydonlarining faqat 16,3 foizini paxta-zorlar egallab turardi, xolos. Ayrim tadqiqotchilarning arxiv hujjatlariga tayangan holda ko‘rsatishicha, 1900–1916-yillar orasida Xiva xonligida paxta yetishtirish 21 marta o‘sgan. 1916-yilda xonlikdagi 60 ming tanob yerga paxta ekilgan bo‘lib, undan 86400 pud xomashyo olingan va ho-sildorlik 11 sentnerni tashkil qilgan.<sup>2</sup>

Xonlikdan paxta xomashyosini chetga chiqarish miqdori ortib bordi. Agar 1887–1896-yillarda xonlikdan o‘rtacha 178 ming pud paxta to-lasi chiqarilgan bo‘lsa, 1906–1916-yillarda 767 ming pudga yetgan. 1904-yilda Rossiyaga sotilgan paxtadan xivaliklar 4 mln. so‘m daromad qilgandilar.<sup>3</sup> Mahalliy boylar orasida Y. Salimjonov, D. Nurov, J. Ibrohi-mov, A. Ollaberganov, E. Do‘shanov, V. Botirov, K. Yusupov, X. Avazjonov, Matvafo va Matsafo Baqqolovlar, Otaboyev, Madiyurov, Rizayev kabilar bor edi. Ular Rossiyaga paxta xomashyosidan tashqari, beda urug‘i, qorako‘l teri, chit, ipak, ko‘rpalar, choponlar, quritilgan qo-vun, mevalar hamda ko‘plab boshqa mollarni chiqarib turganlar.

Xonlikdagi savdo, tovar-pul munosabatlari kengayishida bank-kre-dit tarmoqlarining o‘rni mustahkamlana boshladi. 1909-yilda Yangi Ur-ganchda “Rus – Xitoy banki” bo‘limi, 1910-yilda “Rus – Osiyo banki” filiali, 1915-yilda Sibir va Moskva savdo banklari agentlari ishlay bosh-ladi. Banklar paxta xomashyosi va boshqa tayyor mahsulotlar sotib olish uchun mablag‘larini ayamasdan sarflardilar. Ba’zida banklar paxta va boshqa xomashyoni olish uchun kredit pullarni to‘lab qo‘yar, raqo-batchilarni sindirishning yangi usullarini tinmay joriy etardilar. Xonlik-dagi yirik banklarning xizmatidan Asfandiyorxon va uning yirik amal-dorlari, moliyaviy jihatdan kuchli zavod egalari va savdogarlar keng foydalanib turishardi.

<sup>1</sup> Лобачевский В. Хивинский район. Ташкент, 1912, с. 74.

<sup>2</sup> Худойберганов М. Хоразм пaxта тозалаш саноати тарихи. 14-бет.

<sup>3</sup> Садыков А. С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX – в начале XX века. С. 28.

XX asr boshlarida Xiva xonligidagi barcha qurilish va bunyodkorlik ishlariga Bosh vazir Sayyid Islomxo'ja boshchilik qildi. Katta bilim, tajriba va davlatni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan mazkur arbob xonlikning iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, ilg'or ilmfan va texnika yutuqlarini vohaga keltirish tarafdorlaridan biri edi. Natijada uning sa'y-harakatlari bilan qobiliyatli ustalar, muhandislar, quruvchilar Xivaga olib kelindi. 1912-yilda Xivada pochta-telegraf, kasalxona va xonning yozgi qabulxonasi binolari qurilishi boshlandi.



**Xivadagi pochta binosi (1912)**

Nurullaboy bog'ida xoriждан kelgan savdogarlar, ishbilarmonlar, rus ofitserlari, elchilari va boshqa nufuzli mehmonlarni qabul qilish, turli uchrashuvlar o'tkazish, ziyofatlar tashkil qilish uchun qurila boshlangan saroyda Oqmachit qishlog'ida yashovchi nemislar va rus quruvchilari ishladilar.

Ovro'pa uslubida qurilgan saroyni yoritish uchun kichkina elektr stansiyasi qurish zarurati ham paydo bo'ldi. Bu fikr bosh vazir Islomxo'jadan chiqqan edi. Saroy oshpazining Sizran shahrida Musa Yangurazov ismli elektr sohasini biladigan ukasi bo'lib, u Xivaga chaqirildi. Elektrostansiya uchun zarur asbob-uskunalarini olib kelish uchun Moskva va Peterburgga maxsus odamlar jo'natildi. "Pallaka" va "Vestingauz" kabi firmalari orqali Berlindan qandillar, elektr asbob-uskunalarini oldirildi. Nihoyat, 1912-yil dekabrda Xivada soatiga 40 kilovatt elektr chiqarish quvvatga ega bo'lgan dastlabki elektrostansiya ishlay boshladi.

1901-yilda Xiva xoni saroyida vrach V. Shumeyko xizmat qila boshladi. Chor ma'muriyati xonlik fuqarolari va bu yerda yashayotgan ruslarga tibbiy yordamni tashkil qilish maqsadida 15 ta feldsherlik ambulatoriyalari ochish, profilaktika va emlash ishlarini amalga oshirishni taklif qildilar. Ammo mazkur tashabbus qo'llab-quvvatlanmagach, ular, hech bo'lmaganda, 3 ta kasalxona va 2 ta feldsherlik ambulatoriyasini ochish hamda ularning faoliyatini ta'minlash uchun 15 ming so'm ajratishni so'radilar. Xon ma'muriyatidan yana rad javobi olindi.<sup>1</sup> Shu bilan bir qatorda, 1909-yilda Yangi Urganchda xon mablag'iga feldsherlik punkti ochildi. Endilikda xonlikga keladigan vrachlar shu yerda bemorlarni qabul qiladigan bo'ldilar.

1910-yil 17-avgustda taxtga Muhammad Rahimxonning to'rtinchi o'g'li Sayyid Asfandiyor to'ra ko'tarildi.<sup>2</sup> "Muhammad Rahimxon o'g'li Asfandiyorxonni o'ziga valiahd qilib tayinlashining boisi ham, – deb yozadi G. Ismoilova, – o'g'lining o'tkir fahmi va she'riyatga kuchli ixlosi borligida edi. "Farrux" taxallusi bilan badiiy jihatdan pishiq she'rlar yoza boshlagan Asfandiyorga Muhammad Rahimxon boshqa o'g'illariga nisbatan ko'proq mehr va umid bilan qarardi".<sup>3</sup> Hukmdordan iltifot ko'rgan Muhammad Yusuf Bayoniy ham Asfandiyorxon haqida: "Ul hazrat ulamoni ko'p do'st tutar erdilar va she'riyati g'arroning irtivojiga sa'y etar erdilar va bag'oyat raiyatparvar va shavkatgustar va odil-u bozil kishi erdilar",<sup>4</sup> – degan ulug' so'zlarni yozgandi. Yangi xon akalari Asqar to'ra, Mehdiyor to'ra, Sayyid Abdulla to'ra, ukalari Ubaydulla to'ra va Muhammad Yusuf to'ralarga ham imtiyozli sharoitlar yaratdi.

Asfandiyorxonning dastlabki ishlaridan biri – Xiva qal'asining orqa tarafidagi yerlarni obodonlashtirish bo'ldi. Yangi Xiva deb nom olgan bu joydagi Urganch darvozasi buzilib, o'rniga kirish-chiqish uchun qulay 2 yo'lakli yangi darvozani qurish Otajon devonga buyurildi. Darvozaga yaqin joyda pochta-telegraf binosini qurish ishlarini ham boshlab yuborildi.

Xiva xonligida iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish zarur ekanligini amaldorlardan dastlab bosh vazir Sayyid Isломxo'ja angladi. Uning taklif qilgan rejası Asfandiyorxonning 1910-yil 10-sentabrda


<sup>1</sup> O'zR. MDA. H-125-jamg', 2-ro'yxat, 47-jild, 142-varaq.

<sup>2</sup> O'zR. MDA. H-125-jamg', 1-ro'yxat, 609-jild, 37-varaq.

<sup>3</sup> O'zR. MDA. H-125-jamg', 1-ro'yxat, 609-jild, 59-61-varaqlar. Muhammad Rahimxon Feruz. Elga shohu, ishqqa qul. Nashrga tayyorlovchi G. Ismoilova. Toshkent, G'afar G'ulom..., 1995, 4-bet; Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar. 26-bet.

<sup>4</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. 259-bet.

e'lon qilingan farmonida o'z aksini topdi. Unda xalqni ayrim soliq va majburiyatlardan ozod qilish, shariat qonunlarini qaror toptirish va adolatli siyosat yuritish, ommaga qadimdan og'ir yuk bo'lib kelayotgan tartib tizginlarni tugatish, qishloq xo'jaligi va savdo-sotiqning rivoj topishi uchun butun imkoniyatlarini ishga solish kabi va'dalar berilgandi. Hujjat oxirida: "Bizning farmonimizda bayon qilingan samimiy istaklarmizning barchasini aniq va to'g'ri amalga oshirishni va uni xalqimiz hayotiga tatbiq qilishni Sayyid Islomxo'jaga topshiraman", deyilgandi. Demak, Bosh vazir taklif qilgan islohotlarni amalga oshirilishining barcha mas'uliyatlari uning o'ziga yuklatilgandi.



**Xivadagi Qo'sha darvoza (1912)**

1911-yilda Asfandiyorxon Peterburgga safarga otlandi. Xonga hamroh bo'lganlar orasida vaziri Akbar Sayyid Islomxo'ja, Husayn Muhammad devonbegi, Muhammad Vafu karvonboshi va Tolibxo'ja ismli amaldor bor edi. Xivaliklar 18 kun deganda Rossiya poytaxtiga yetib bordilar. Imperator qabulida bo'lgan vaqtda Asfandiyorxon Xivada shahzoda Aleksey nomiga kasalxonada qurishga ruxsat so'radi.<sup>1</sup> Ushbu taklif ma'qullangandan keyin, Islomxo'ja Peterburg harbiy meditsina akademiyasi professori V. N. Sirotinindan qurilishi rejalashtirilayotgan kasalxonada ishlashga loyiq tajribali vrachni tanlashda yordam berishni iltimos qildi.

Asfandiyorxon o'z hamrohlari bilan 11 kun davomida Peterburg atrofidagi go'zal joylarni tomosha qilgach, Moskva orqali yurtiga qayt-

<sup>1</sup> O'zR MDA. II-2-jang', 1-ro'yxat, 305-jild, 233-varaq.



dilar. Moskvada Islomxo'ja Soldatenkov nomidagi shahar kasalxonasi bosh vrachi F. A. Getye bilan uchrashdi va uning tavsiyasi bilan arxitektor A. P. Roopdan Xivada quriladigan kasalxona binosi loyihasini tayyorlab berishni so'radi. Kasalxonadagi teri-tanosil, ko'z va yuqumli kasalliklar, jarrohlik va davolash bo'limlarida 50 o'rin rejalashtirilgan bo'lib, ularni qurishga 250 ming so'm ajratildi.<sup>1</sup> Xivadagi pochta binosi qarshisida barpo etila boshlagan kasalxona qurilishi Rahimbergan devonga topshirildi va u 1912-yilda qad rostladi.



### **Xiva kasalxonasi katta vrachi Aleksey Fedorovich Ansimov**

1913-yil 10-fevralda Asfandiyorxon o'z amaldorlari bilan Romanovlar sulolasining Rossiyada 300 yillik hukmronligiga bag'ishlangan ixtoranalarda qatnashish uchun Moskvaga borib, 1913-yil 12-martda qaytib keldi.<sup>2</sup> Shu yilning may oyida professor Sirotinin Xiva kasalxonasi vrachi lavozimiga Saratov guberniyasida ishlayotgan qobiliyatli jarroh va ko'z kasalliklarini yaxshi biladigan shifokor Aleksey Fedorovich Ansimov nomzodini taklif qildi.<sup>3</sup>

1913-yil 4-iyulda Xivaga kelgan A. F. Ansimovga ishonch bildirildi va u zarur jihozlarni olib kelish uchun Moskvaga jo'natildi. Yo'l-yo'la-kay, 1913-yil 15-iyulda A. F. Ansimov Toshkentda Turkiston ge-

<sup>1</sup> O'zR MDA. II-2-jamg'., 1-ro'yxat, 305-jild, 252-varaq.

<sup>2</sup> O'zR. MDA. II-2-jamg'., 1-ro'yxat, 305-jild, 56-varaq.

<sup>3</sup> O'sha manba. 5-7, 233-varaqlar.

neral-gubernatori vazifasini bajaruvchi Flug qabulida bo'ldi va Xiva kasalxonasida 1-sentabrdan ishga tushishiga ruxsat oldi.<sup>1</sup>



### Xivadagi kasalxonaning ochilishi marosimi (1913)

Kasalxonadagi ikkinchi vrach lavozimiga Namangandagi Pop qishloq vrachlik punktida ishlayotgan Gulsum Jaffarovna Asfandiyorova taklif etildi.<sup>2</sup> 1908-yilda Peterburg ayollar meditsina institutini tugatgan ushbu yosh vrachning otasi – polkovnik Sulton Jafar Asfandiyorov Turkiston general-gubernatori devonxonasi tarjimoni sifatida ko'p marta Xivada bo'lgan, ayrim vaqtlarda xonlarning Rossiyaga safarlari chog'ida hamrohlik qilgandi.<sup>3</sup>

1913-yil 23-sentabrda Xivadagi kasalxona ishga tushirildi. Shu munosabat bilan Asfandiyorxon Turkiston general-gubernatori nomiga quyidagi telegrammani jo'natdi: “Siz hazrati oliylariga shuni ma'lum qilamanki, men tomondan Xivada martabasi oliy taxt vorisi, buyuk knaz Aleksey Nikolayevich nomiga qurilgan kasalxona shu yilning 23 sentabrda, general-mayor S. Seyl, ulamolar va amaldorlar ishtirokida, meditsina xizmati ko'rsatish uchun ochildi”. Xivadagi kasalxonaning ochili-

<sup>1</sup> O'zR. MDA. II-2-jamg'., 1-ro'yxat, 305-ro'yxat, 259-varaq.

<sup>2</sup> Mahmudov M. Sayyid Islomxo'ja nomi berilsa. “Xorazm haqiqati”, Urganch, 1993, 30-iyun; Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. Urganch, 2004, 139-bet.

<sup>3</sup> Sail Jafar Asfandiyorovning 1898-yil 18-oktabrda yozgan tarjimaiy holida Kichik Juz sultoni Abulhayr avlodidan ekanligi va deyarlik 30 yil davomida tarjimon sifatida Turkistonda ishlayotganligi, 1874-yilda uylanganligi va 8 nafar farzandi botligi haqida ma'lumot beradi. To'plagan biroz mablag'i oilasini ta'minlab turish va bolalarini tarbiya qilish uchun sarflanganligi, Toshkent yaqinidan sotib olgan yer maydoni qo'lidan ketganligi sababli nafaqada yashash og'irligi haqida yozadi. Xiva Ichanqal'a qo'riqxonasida S. Asfandiyorovning 1888-yilda Muhammad Rahimxon Feruz va bir guruh amaldorlar bilan tushgan surati saqlanadi.

shu marosimida qatnashgan Bayoniy yozgandi: "Ushbu yil zulqa'da oyida dorushshifo, ya'ni duxturxonaning binosi itmomga yetdi. Xon hazratlari onda yaxshi to'y berib, tamomi ulamo va tamomi to'ralar, beklar va tamom-u amaldoru oqsoqollar va tamomi elni da'vat etdilar va Rusiya duxturlaridan ikki duxturni talab etib kelturmish erdilar".<sup>1</sup>

Xiva kasalxonasining dovrug'i tez orada butun Quyi Amudaryo havzasida yashayotgan xalqlar orasiga keng tarqaldi. "Xiva kabi xonlikning shahar-qishloqlari aholisi ham kasalxonaga tibbiy yordam so'rab, o'z istagi bilan murojaat qiladilar",<sup>2</sup> deb yozgandi bosh vrach A. F. Ansimov o'zining 1914-yil 22-fevralda Amudaryo bo'limi boshlig'i nomiga yozgan maktubida. 1913-yil oktabrida kasalxona va uning qoshidagi ambulatoriya 1577 erkak va 1162 ayolni, noyabrda – 2222 erkak va 1976 ayolni, dekabrda – 2358 erkak va 1609 ayolni qabul qildi.<sup>3</sup> Qisman pullik xizmat joriy etilgach, 1914-yil yanvarida 1596 erkak va 1128 ayol qabul qilindi, ya'ni murojaat etuvchilar soni oldingi oyga nisbatan 1238 nafarga kamayib ketdi.<sup>4</sup> Bunday holatning sabablari qatorida A. F. Ansimov kasalxona aptekasidagi zarur dori-darmonlarning yetishmasligi va ularning narxi qimmat ekanligini ko'rsatgan. Vaziyatni yaxshilash uchun Urganch va Xivada dorixonalar ochish taklif etilgandi.

Ammo A. F. Ansimov keyinchalik o'zining ushbu tashabbusidan aziyat chekkanligi tarixiy hujjatlarda ko'rinib turibdi.<sup>5</sup> Chunki Petro-Aleksandrovskdagi farmatsevt Matvey Bersudskiy aptekasining Yangi Urganchda ochilgan filialida tibbiy dori-darmonlar o'rninga ko'proq aroq-vino mahsulotlari sotilishi mahalliy aholi va bu yerda ishlayotgan ruslarning salomatligiga zararli ta'sir ko'rsata boshlagandi.

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. 102-bet.

<sup>2</sup> O'zR MDA. II-2-jamg'., 1-ro'yxat, 309-jild, 15-varaq.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

<sup>4</sup> O'zR MDA. II-2-jamg'., 1-ro'yxat, 309-jild, 15-varaq.

<sup>5</sup> УзР МДА. II-2-жамг., 1-руйхат, 309-жилд, 46-47-варақлар.



### Xudaybergan Devonov (1878 – 1938)

1916-yilda xonlikda vujudga kelgan qaltis siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat tufayli Xiva kasalxonasi faoliyati cheklanib qoldi. Vrachlardan A. F. Ansimov Rossiyaga va G. J. Asfandiyorovaga Toshkentga ketib qoldilar.

XX asr boshlarida Xiva o'lkadagi kino san'ati markaziga aylandi. Uning asoschisi bo'lgan Xudoybergan Devonov 1907-yilda bosh vazir Islomxo'ja boshliq xivaliklar bilan birga Peterburgga sayohat qilgandi.<sup>1</sup> Safar chog'ida u Islomxo'jadan ruxsat olib, bir necha muddat Rossiyada qolib, kino ishlash sirlarini o'rgandi. 1908-yilda X. Devonov "Pate" kinoapparati, fotoapparat, teleskop, grammafoni kabi asboblarini Xivaga olib keladi va Vilgelem Penner ismli nemis yordamida O'rta Osiyoda ilk bor kino san'atiga asos soladi.<sup>2</sup>

Ko'rinib turibdiki, qisman bo'lsa-da yuksalish pallasiga kirgan Xiva xonligi dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan chetda qolib ketmadi. Rossiya va boshqa mamlakatlarga safar qilgan arboblardan jahonda ro'y berayotgan voqealar bilan bevosita tanishdilar, mamlakatda islohotlar amalga oshirish zarurligini yaqqol sezdilar. Ammo murakkab vaziyatda ularning taklif va tashabbuslari yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmadi.

<sup>1</sup> Садыков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. С. 98.

<sup>2</sup> Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz: shoh va shoir qismati. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1991, 105-bet.

## 4.2. Xiva xonligida siyosiy munosabatlarning keskinlashishi va ularning oqibatlari

XX asr boshlarida Xiva xonligida ham islohotchilik g'oyalari tez yoyila boshladi. Xivalik savdogarlar va badavlat kishilar Rossiya, Turkiya va Ovro'paning ayrim davlatlarida bo'lib, u yerdagi ilg'or fan, madaniyat yutuqlari hamda davlat boshqaruvi uslublari bilan tanishdilar. Natijada Xiva xonligida konstitutsion monarxiya o'rnatish va davlatni parlamentar usulda boshqarish g'oyalari ilgari surildi. Shu bilan bir qatorda, maorif sohasini isloh qilish va ta'lim-tarbiya ishlarini ilg'or mamlakatlar tajribasi asosida qayta tashkil etish fikrlari keng targ'ib qilina boshlandi. Ushbu progressiv harakat tarixda jadidchilik nomi bilan iz qoldirdi.<sup>1</sup>

Xivada rivojlana boshlagan jadidchilik harakatining o'ng oqimi sav-do-sanoat kapitali va mahalliy boylardan yiriklarini o'ziga birlashtirgan edi. Ularning yetakchisi bo'lgan bosh vazir Islomxo'ja ibn Ibrohimxo'ja kuyovi bo'lgan Asfandiyorxonning mutlaq hokimiyatini saqlab qolgan holda, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish yo'li bilan kapitalistik munosabatlarni rivojlantirishga keng yo'l ochishga intilardi.<sup>2</sup>

Xiva jadidlarining so'l oqimiga o'rta va mayda burjuaziya, hunarmandlar hamda mehnatkashlarning turli tabaqa vakillari birlashgan bo'lib, ularning yetakchisi – qozikalon Boboovxon Salimov edi. Uning tarafdorlari orasida devonbegi Husainbek Matmurodov, Xudoybergan Devonov, Avaz O'tar o'g'li, Polyozhoji Yusupov, Otajon Safoyev, Mulla Bekchon Rahmonov, Otajon Abdalov, Jumaniyoz Sultonmurodov kabi taraqqiyparvar insonlar bor edi.

Xiva jadidlarining aksariyati ma'rifatparvar g'oyalar bilan sug'orilgan dunyoqarashga ega va ko'pgina tillarni biladigan ziyolilar bo'lgan. 1908-yilda Xivaga kelgan professor A. N. Samoylovich devonbegi Husaynbek haqida: "U kishi "rus tilini bilganlar, rus va musulmon gazetalariga a'zo bo'lganlar",<sup>3</sup> deb guvohlik bergan. 1909-yil sentabr-oktabr

<sup>1</sup> Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Mas'ul muhar. D. A. Alimova. Toshkent, "Universitet", 1999, 3–118-betlar.

<sup>2</sup> Tarixiy adabiyotlarda "Yosh xivaliklar"ning o'ng oqimi rahbari Islomxo'jaga yangi tuzum va mamlakatni rivojlantirish tarafdori sifatida baho beriladi. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. Urganch. 2004, 5-bet.

<sup>3</sup> Сальков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. с. 130; Самойлович А. Н. Краткий отчет о поездке в Ташкент и Бухару и в Хивинское ханство в 1908 году. "Известия" Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношении. № 9, СПб., 1909, с. 21–22.

oylarida Xivada bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vaziri Minorskiy: "Islomxo'ja ruschani yetarli darajada tushunadi hamda Kavkaz, Qrim, Konstantinopolda nashr etiladigan gazetalardagi musulmon adabiyotiga oid ma'lumotlarni diqqat bilan kuzatib boradi", deb yozgandi. Jadidchilik harakati yetakchilaridan yana biri Polyozhoji Yusupov ham arab, fors va rus tillarida bemalol gaplasha olgan.<sup>1</sup> U Rossiya va Turkistonda chop etiladigan "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Taraqqi" kabi gazetalarni doimiy ravishda o'qib borardi. Jadidchilik harakatining yana bir namoyandasi Boboovun Salimov o'zbek, arab, fors, rus va boshqa tillarni bilarkan hamda dunyoviy bilimlarni egallagan din arbobi edi.<sup>2</sup>

So'l qanot vakillarini qo'llab-quvvatlagan progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari vakillari 1904-yilda "Jamiyati xayriya" nomli tashkilot tuzdilar va yangi uslubdagi maktablar ochishda jadidlarga moddiy yordam bera boshladilar.<sup>3</sup> Shu yili 10-noyabr kuni Xiva shahrida ochilgan jadid maktabiga Qozondagi yangi usuldagi "Muhammadiya" madrasasini tugatgan Husain Qo'shayev o'qituvchi etib tayinlandi.

1906–1911-yillarda jadidlar Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Gurlan va Shovotda yangi uslubdagi maktablar ochdilar. Ularda o'qituvchilik qilgan ma'rifatparvarlar orasida Yusuf Ahmedov, Muhammadsharif Xudoyberganov ismli jadidlar bor edi. Jadid maktablari uchun Boboovun Salimov Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olayotgan Mulla Bekchon Rahmonov bilan hamkorlikda "Alifbo" va "O'qish kitobi"ni yozdilar.<sup>4</sup>

1910-yili jahondagi siyosiy jarayonlardan yaxshi xabardor bo'lgan Islomxo'ja xonlikda siyosiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish rejasini taklif qildi. Undagi ko'zlangan tadbirlar orasida quyidagi muammolarni yechish vazifa qilib belgilandi.

1) xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash;

2) dehqonlardan soliq olishni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni 3 tabaqaga ajratish;

3) zakot, boj, xiroj kabi soliqlarni tartibga solish;

4) aholidan savdo-sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish;

5) yerlarni sug'orish ishlarini tartibga solish;

<sup>1</sup> Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. 6-bet.

<sup>2</sup> Matkarimov M. Xorazm Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi. 26–28-betlar.

<sup>3</sup> Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. Urganch, 2004, 5-bet.

<sup>4</sup> Yo'ldoshev J., Hasanov S. Jadid tarixshunosligi asoslari "Xalq ta'limi", Toshkent, 2004, 11–12-sonlar, 27-bet.



6) yo'llar, temir ko'priklar qurish va pochta-telegraf xizmatini tashkil qilish;

7) shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif etish;

8) barcha vaqf yerlarini markazlashtirish va daromadlarini maorif ishlariga sarflash;

9) barcha maktablarda yangicha o'qitish usuliga o'tish, maktablar dasturiga rus tili, geografiya, tarix fanlarini majburiy qilib kiritish;

10) xon xazinasining hisobini yuritish, kirim-chiqim daftrlarini olib borish.<sup>1</sup>



### Bosh vazir Sayyid Islomxo'ja (1872–1913)

1912-yilda Islomxo'janing 30 ming so'mlik xarajatlari evaziga Xivada ikki qavatli Yevropa uslubidagi bino qurildi va unga rus-tuzem maktabi joylashtirildi. Maktabda tahsil olgan 100 dan ortiq bolalarga Rossiyadan taklif etilgan ikki o'qituvchi saboq berdi. Maktabda jadidchilik g'oyalari asosida dunyoviy bilimlar berilishi bilan bir qatorda ta'lim olayotgan o'quvchilarga kitob, qog'oz, qalam va boshqa o'quv qurollari bepul tarqatildirdi.<sup>2</sup>

Xolis niyat bilan taklif etilgan ushbu tadbirlar qaltis bir vaqtga to'g'ri keldi. Muhammad Rahimxonning vafoti va Asfandiyorxonning

<sup>1</sup> O'zR MDA. И-125-jang', 1-ro'yxat, b09-jild, 3-5-variantlar, Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. 40-41-betlar.

<sup>2</sup> "Туркестанские ведомости". Ташкент, 1913, 19-dekabr.

taxtga o'tirishi natijasida jadidlar harakatiga nisbatan tazyiqlar kuchaydi. Yangi xon davlatni mustaqil boshqarishga salohiyatsiz kishi edi. Xon taraqqiyparvar, yurt obodonchiligi yo'lida jon kuydirayotgan amaldorlarni davlat ishlaridan chetlatish, hatto ularga jismonan zarar yetkazishga harakat qildi. Xonning bunday siyosati qurbonlaridan biri – qaynotasi va mehtari Islomxo'ja edi.

Bosh vazir Asfandiyorxonga xazinadagi pullarni behuda sarflamaslik, cheksiz maishat va ichkilikbozlikka berilib ketmaslik haqida maslahatlar berib turardi, chunki mamlakat rivojiga va islohotlarni amalga oshirishga juda katta miqdorda mablag'lar zarur edi. Vazir maslahatlari esa xonga yoqmasdi. Atrofidagi bir guruh g'alamislar gapiga kirgan xon Islomxo'jani o'ldirish to'g'risidagi fikrlarga qo'shildi. Natijada 1913-yil 9-avgust kuni kechqurun davlat ishlaridan charchab, faytonda uyiga qaytayotgan Islomxo'ja yollangan qotil tomonidan o'ldirildi.<sup>1</sup> Qaynotasining o'limidan keyin xon jadidlar harakatining boshqa a'zolarini ham ta'qib qilishni boshladi. Oqibatda Xivadagi ma'rifatparvar jadidlari xon tuzumiga qarshi siyosiy kurashga otlandilar.

1914-yil avgustidan boshlab jadidlar ijtimoiy harakat sifatida "Yosh xivaliklar" nomi bilan yuritila boshlandi.<sup>2</sup> Siyosiy partiya sifatida shakllana boshlagan ushbu harakatning g'oyaviy va tashkiliy jihatdan mustahkamlanishida Polyozhoji Yusupov, Husainbek Matmurodov, Nazar Sholikorov, Jumaniyoz Sul-tonmurodov, Mulla Bekchon Rahmonov, Bobo-xun Salimov, Jumaniyoz Hoji Boboniyozov, Otajon Sapayev, Boboxon Yoqubov, Hakimboy Muhammedov, Muhammadyor Abdullayev, Xudoybergan Devonov kabi faollarning xizmatlari katta bo'ldi.<sup>3</sup> Ular ijtimoiy-siyosiy hayotda keskin o'zgarishlar qilishning obyektiv zarurligini tushunib yetgan, bilimli, ongli, jasoratli kishilar edi. Xivalik jadidlarning ayrimlari Moskva, Petrograd, Qozon, Anqara, Tehron va boshqa shaharlarda bo'lib, jahon fani va madaniyati bilan bevosita tanisha boshladilar. Jumladan, Polvonniyoz hoji Yusupov keyinchalik Istanbul, Misr va Shomga qilgan safari tasurrotlarini yozib qoldirgandi.

<sup>1</sup> Ниязметов М. Заговор. "Хорезмская правда", Ургенч, 1993, 28 февр.; Sobirov O. Islomxo'janing o'limi. "Xiva" jurn. Urganch, 1993, 2-3-son, 30-bet; Бабаджанов Б. Кто убил Исламходжи. "Хорезмская правда". Ургенч, 1993, 9, 15 июня; Бабаджанов Б. Убийство сыновей Исламходжи. "Хорезмская правда", Ургенч, 1993, 9 июля; Ro'zimboy Hasan. Sayyid Islomxo'janing qotili. "Manzara", Urganch, 1995, 4-son; Mahmudov M. Xorazm tarixidan lavhalar. Urganch, 1998, 46-bet.

<sup>2</sup> Сальков А. С. Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. С. 130; Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi. 47-bet.

<sup>3</sup> O'zR MDA. H-125-jamg'., 1-ro'yxat, 609-jild, 7-8-varaqlar.

XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy munosabatlar keskinlashishi yaqqol holatda namoyon bo'ldi. Aholining qashshoqlashishi, xon amaldorlari va katta yer egalariining zulmi, adolatsizlikning kuchayishi natijasida ayrim hududlarda norozilik harakatlari avj oldi. Ayniqsa, turkmanlar yashaydigan kamhosil hududlarda aholining turmushi murakkablashib bordi. 1912-yil boshida turkmanlardan yer solig'i yig'ish vaqtida vujudga kelgan norozilikni qurol bilan bostirish yuzasidan Turkiston general-gubernatoridan ruxsat olindi.<sup>1</sup>

1913-yilda Xiva xonligi axolisi dahshatli ocharchilikni ham o'z boshidan kechirdi. Qurg'oqchilik bilan bir qatorda sug'orish inshootlarining qarovsiz qolganligi va ishdan chiqqanligi ko'plagan yerlarning ekilmasdan qolishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, kambag'al dehqonlar Tajan va Murg'ob vohasida paxta ekiladigan hududlardagi ijaraga olgan yerlarini eka olmadilar.

1915-yilning mart-aprel oylarida Toshhovuz, Taxta, Xo'jayli, Ko'hna Urganch tumanlarida turkmanlarning qo'zg'olonlari avj oldi. Qo'zg'olonchilar mahalliy boylar va zamindorlarga qarshi kurashibgina qolmay, balki rus ishbilarmonlari mol-mulklarini ham talon-taroj qildilar. "Lavzon" aksionerlik jamiyatiga qarashli savdo-sanoat shirkati va "Nobel" firmasi binolari vayron qilindi hamda omborlari talandi. G'ozovot qal'asi yaqinida bo'lgan jangda turkmanlar Ollabergan noib va Muhammad yasovulboshi qo'l ostidagi 1500 kishilik xon qo'shinlariga zarba berdilar.

1916-yil 3-fevral kuni chor ma'murlariga yuborilgan axborotda qo'zg'olonchilar soni 10 mingdan oshganligi va ularning yarmida o'q otish qurollari bor, deyilgandi. Qo'zg'olon rahbarlariga chopar yuborilib, xon bilan adolatli muzokara olib borish taklif etildi. Asfandiyorxon esa Xivaga kelgan qo'zg'olon boshliqlaridan 6 kishini qatl qildirdi.<sup>2</sup> Xonning razil harakati va Petro-Aleksandrovsdkdan chiqqan ruslarning Xivaga yaqinlashib kelayotganidan xavfsiragan qo'zg'olonchilar o'z shahar va qishloqlariga qaytib ketdilar.

Junayidxon qo'shinlari turkman ovullaridan tashqari, o'zbeklar yashaydigan hududlarga ham kirib kela boshladi. Ular 1916-yilning 3-11-fevralida Qo'shko'pir, Toshhovuz, Shovot, Gurlan, Xonqa tumanlariga bostirib kirib, qarshilik ko'rsatgan shahar va qishloqlar aholisini qattiq jazoladi. Bosqinchilik bilan ulkan o'lpon yiqqan Junayidxon sarbozlari

<sup>1</sup> O'zR MDA. II-1-jang', 31-ro'yxat, 1104-jild, 165-varaq.

<sup>2</sup> O'zR MDA. II-307-jang', 1-ro'yxat, 565-jild, 35-varaq.

Xiva shahrini ham egalladilar.<sup>1</sup> Shahar axolisi mulki shafqatsiz talandi va ulardan o'lon undirib olindi. Asfandiyorxonning yaqin maslahatchilaridan Matfavo Baqqolov, Abdullaboy Mehtar, Qodirbergan Mahram qatl etildi. Xon esa Junayidga 18 ming rubl tavon to'lab, o'z hayotini saqlab qoldi.<sup>2</sup>

Junayidxon Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik V. P. Kolosovskiyga xon atrofidagi amaldorlarni o'zgartirishni taklif qildi. Qoniqarli javob ololmagach, rus otryadlariga hujum qilishni buyurdi. Ammo rus askarlari turkmanlar hujumiga bardosh berdilar. Ruslarga qo'shimcha yordam kelayotganligini eshitgan Junayidxon 14-fevralda Xivani tashlab chiqishga majbur bo'ldi.

Xiva xonligida ro'y berayotgan voqealar Turkiston general-gubernatorligi amaldorlarini qattiq bezovta qilganligi bois, Sirdaryo viloyati gubernatori general-leytenant A. S. Galkin boshchiligidagi jazo otradi safarbar etildi. Hujjatlarda turkmanlarni ta'qib qilish haqida buyruq bergan A. S. Galkin Junayidxon qo'shinlarining Eronga o'tib ketishga imkon yaratganligi qayd etiladi.<sup>3</sup> Xonlik aholisiga, birinchi navbatda, turkmanlar oilalariga 4 mln. 554 ming so'm miqdorida harbiy o'lon solindi.<sup>4</sup> Shunday qilib, qo'z'olon vahshiylarcha bostirildi.

1916-yil o'rtalarida Xiva xonligi mehnatkashlari chorizmning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'lkada ko'tarilgan xalq qurolli harakatiga qo'shildilar. Shu yili 25-iyunda podsho Nikolay ikkinchining front yaqinidagi ishlarni bajarish uchun Turkistondan chorak million yerlik aholini safarbar qilish to'g'risidagi farmoni ezilgan aholining sabr kosa-sini to'ldirib yuborgandi.

Xiva xonligi nomiga mustaqil davlat bo'lsa-da, u hamma tarafdin Rossiyaga qaram davlat edi. Xonlik hududida yashayotgan 3000 ga yaqin O'rol kazaklari xo'jaliklari hisobidan front orti ishlariga 426 kishi safarbar etilishi buyurilgandi. Natijada Qipchoq, Mang'it, Xo'jayli, Ko'hna Urganch, Shumanoy bekliklarida bosqinchi guruhlarining harakatlari xavfli tus oldi. Oktabr-noyabr oylarida Qipchoqdagi Chig'aboy, Lavzonli Muhammad Nazar va Toji Murodbiylarning uylariga o't qo'yildi va mol-mulki talon-taroj etildi.

<sup>1</sup> O'zR MDA. II-461-jamg', 1-ro'yxat, 1781-jild, 23-varaq.

<sup>2</sup> Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. 77-bet.

<sup>3</sup> O'zR MDA. II-907-jamg', 1-ro'yxat, 527-jild, 51-varaq.

<sup>4</sup> O'zR MDA. II-907-jamg', 1-ro'yxat, 564-jild, 100, 116, 161-varaqlar.

Umumxalq noroziligi kuchayib borayotgan bir sharoitda 1916-yil dekabrda Xivada maxsus harbiy komissarlik tashkil etildi. Unga xonlikda bo'layotgan voqealardan rus hukumatini doimiy xabardor qilib turish, xonlikning barcha mansabdor shaxslari faoliyatini yaqindan kuzatib borish, xonlik hududida osoyishtalikni ta'minlash vazifalari yuklandi. Komissarlik xon hokimiyatini mustahkamlash va ruslarning mavqeyini saqlashni ta'minlashi lozim edi. Ammo taqdirning taqozosi bilan voqealar butunlay kutilmagan tarzda ro'y bera boshladi.

1917-yil fevrali oxirida jadidlar harakati davomchisi bo'lgan yosh xivaliklar rus podshosi Nikolay ikkinchi taxtdan ag'darilganligi haqidagi xabarni zo'r hayajon bilan kutib oldilar. Bu vaqtda Asfandiyorxon Buxoro amiri Sayyid Olimxon bilan Yaltada dam olayotgan bo'lib, ular zudlik bilan yurtiga qaytdilar. 1917-yil 4-aprelda Xiva ko'chalarida ko'p ming kishilik namoyishlar bo'lib, unda qatnashganlar "Yo'qolsin zo'rlik, shafqatsizlik, jabr, zulm!", "Yashasin ozodlik!" kabi shiorlarni o'rtaga tashladilar. Xivadagi rus harbiy garnizoni askarlari ham namoyishchilarga qo'shilib, xonga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga chaqirgan bo'lsalar-da, "Yosh xivaliklar" o'z maqsadlariga tinch yo'l bilan erishishga umid bog'lardilar.

1917-yil 5-aprelda jadidlar vakili sifatida Asfandiyorxon oldiga borgan Polvonniyozhoji Yusupov va Nazir Sholikorov yosh xivaliklar talablarini bayon qildilar.<sup>1</sup> Qaltis vaziyatni hisobga olgan xon hurriyat haqidagi manifestga imzo chekishga majbur bo'ldi.<sup>2</sup> Qozikalon Xudoybergan Oxun, Hikmatulla Oxun, Ibrohim Oxunlar hujjatga o'z muhrlarini bosdilar. Xon mulozimlaridan Ibrohim xo'ja Yoqub xo'ja o'g'lini, Ro'zimuhammad mahram Muhammad Amin o'g'lini va Ota mahram Mamat mahram o'g'lini "Yosh xivaliklar" qo'lga garov sifatida topshirdi.<sup>3</sup>

Ko'hna Ark maydoniga to'planib turgan olomon manifestni xonning o'zi o'qisin, deya talab qildi. Odamlar oldiga chiqqan Asfandiyorxon hujjatning 2-3 qatorini o'qigach, ko'ziga yosh to'lib, tomog'i bo'g'ilib qoldi. Xon yonida turgan Nazir Sholikorov uning qo'lidagi manifestni sharta tortib olib, oxirigacha o'qib berdi: "Shu kundan boshlab Xiva xoni ag'darilib, yangi hukumat tuzildi", - deganda xon yerga qara-

<sup>1</sup> Boltayev A. Xiva tarixiga oid hujjatlar. O'zR FASHI, qo'lyozma № 9320.

<sup>2</sup> O'zR MDA, H-126-jang', 1-ro'yxat, 609-jild, 8-varaq.

<sup>3</sup> O'zR MDA, H-126-jang', 1-ro'yxat, 609-jild, 15-varaq.

di. Asfandiyor va uning amaldorlari juda noxush ahvolda Ko'hna Ark ichkarisiga kirib ketishdi. Xalq asta-sekin tarqaldi.<sup>1</sup>

“Idorayi Mashrutiya”ga boshliq etib Boboovun Salimov va Nozir-lar kengashi raisligiga Husainbek Matmurodov saylandi. Xivada yangi davlat muassasalarida ishlay boshlagan yosh xivaliklar hokimiyatni o'z-boshimchalik bilan boshqarishga chek qo'yish, xonga, shahzodalar, beklar va vazirlarga qarashli ortiqcha pullar, mol-mulklarni musodara qilish, xon tomonidan tortib olingan yerlarni dehqonlarga qaytarib berish, yirik zamindorlarning yerlaridan kambag'allarning turmush tarzini yaxshilashda foydalanish, unumsiz yerlarini sug'orish uchun ariqlar qazish, vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarni shariat hukmiga ko'ra, faqat xalq maorifiga sarflash, bolalarga bepul ta'lim berish uchun hamma joylarda maktablar, kasalxonalar ochish, majburiy mehnatni bekor qilish, yo'llar va ko'priklarni tuzatishga kirishish kabi tadbirlarni rejalashtirgan edilar.<sup>2</sup>

Yosh xivaliklar, dastlab, mamlakatning daromad daftarini qo'lga oldilar. Tez orada fuqarolarning xon tomonidan tortib olingan mol-mulklarini musodara etish taklif qilindi. Dehqonlarga yer berish, vaqf, maktab, maorif bo'yicha demokratik tadbirlar amalga oshirila boshlandi. “Idorayi mashrutiya”da turkmanlar vakillari bo'lishi masalasi muhokama etildi.

Xon atrofiga to'plangan yirik boylar, din arboblari, mahalliy amaldorlar mamlakatning demokratik tarzda rivojlanishidan manfaatdor emasdilar. 1917-yil mayda Ko'hna Ark yaqinida Xivadagi rus ma'muriyati vakili general X. Mirbadalov topshirig'i bilan Yusuf Oxun, Jalol Oxun, Davlat Oxun, Tavdiy afandi, Mulla Ramazon kabi din peshvolari maxsus namoyish uyushtirib, unda “Yosh xivaliklar”ni “Dindan qaytganlar” deb e'lon qildilar. Olomon Oliy Majlisni tarqatib, xon hokimiyatini qayta tiklashni talab qildi. Natijada Oliy Majlisning 17 nafar a'zosi qamoqqa olindi va ularning ayrimlari qatl qilindi. Oliy Majlis hay'atiga kiritilgan yangi a'zolar orasida dindorlar va katta yer egalari bor edi. Uning raisi lavozimiga Ortiq Oxun, Nozirlar kengashi raisi lavozimiga Isoq Xo'ja va unga yordamchi etib Davlat Oxun tayinlandi.

1917-yil 23-mayda “Idorayi mashrutiya” tarqatib yuborildi va uning a'zolaridan ko'plari hibsga olindi. Yosh xivaliklar yetakchilari Polvonni-yoz Yusupov va Nazir Sholikorov “dinsizlik”da ayblanib, qo-

<sup>1</sup> Matniyozov M. Xorazm tarixi. 2-jild. Urganch, “Xorazm”, 1997, 14–15-betlar.

<sup>2</sup> Sodiqov A. Xivada xalq revolyutsiyasining g'alabasi. Toshkent, “Fan”, 1967, 49-bet.



zikalon sudiga berildi. Sudda Nazir Sholikorov: "Men Rusiya fuqarosi-man. Meni xon qozisi emas, balki Rusiya sudyasi sud qilishi mumkin", deya pasportini ko'rsatib, ruxsat berishlarini ham kutib turmay, chiqib ketdi. P. Yusupov esa Xiva harbiy garnizonida xizmat qiluvchi bir rus askari yordamida suddan qutulib qoldi. Shundan keyin ta'qib etilayotgan P. Yusupov va N. Sholikorov Toshkentga, J. Sul-tonmurodov Petro-Aleksandrovskka, ayrim yosh xivaliklar Chorjo'y va Mari shaharlariga qochib ketdilar. Endilikda kurashni davom ettirgan "Yosh xivaliklar" Turkiston sho'rolar hukumati va uning Amudaryo bo'limi boshliqlaridan harbiy yordam so'rashni lozim topdilar.

1917-yil oktabrida Rossiyada hokimiyatning bolsheviklar qo'liga o'tishi Xiva xonligida joylashgan rus soldatlari orasida inqilobiy harakatlarni kuchaytirib yubordi. Ularga Petro-Aleksandrovsk va Chorjo'y shaharlaridan kelayotgan xabarlar katta ta'sir o'tkazardi. Askarlar orasida o'z boshliqlari buyruqlariga bo'ysunmaslik, xizmatdan bo'yin tovlash va qochish holatlari ko'paya bordi. Xiva garnizoni boshlig'i polkovnik M. I. Zaysev Orenburg kazaklari atamani A. I. Dutov, Junayidxon va xon bilan til birlashtirib, inqilobiy chiqishlarni qurol kuchi bilan bostirish, sho'rolarga xayrixoh bo'lgan barcha odamlarni ta'qib ostiga olish, qamoqda yotgan 17 "Yosh xivaliklar"ni qatl qilish rejasini tuzayotgandi.<sup>1</sup> Xivadagi inqilobiy kayfiyatdagi rus qo'shinlarini zudlik bilan Petro-Aleksandrovskga jo'natishga qaror qilindi.

Asfandiyorxon va rus mustamlakachilari zulmiga qarshi chiqishlar xonlikning ko'pgina shahar va qishloqlarida ham ro'y bera boshladi. Mehnatkash xalq ommasi bilan hukmron tabaqalar, katta yer egalari, savdogarlar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib borardi. Xonlikda asta-sekinlik bilan keskin siyosiy vaziyat yetilayotgandi.

1918-yil yanvarida polkovnik I. M. Zaysev boshliq rus askarlari-ning Xivada jo'nab ketishi Asfandiyorxonning umidini so'ndirdi. Ruslarning ketishi bilan Junayidxon 1600 navkarlari bilan Xivani ishg'ol etdi va xonni o'ziga itoat qildirdi.<sup>2</sup> Mahalliy amaldorlar noroziligini e'tiborga olgan Junayidxon rasman xonni o'z taxtida qoldirsa-da, amalda davlatni boshqarish jilovini o'z qo'liga olgandi.<sup>3</sup> Vujudga kelgan qo'sh hokimiyatchilik sharoitida Xivada harbiy-feodal diktatura o'rnatildi.

<sup>1</sup> Мухаммадбердиев К. Б. История Хорезмской революции. Ташкент, "Фан", 1986, с. 44.

<sup>2</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве (1919–1920 гг.). Нукус, "Билим", 1997, с. 6.

<sup>3</sup> Погорельский И. В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики (1917–1924 гг.). Л., ЛГУ, 1984, с. 76.

1918-yil 12-mayda Toshkentda yosh xivaliklar partiyasining Markaziy inqilobiy qo‘mitasi tuzildi. Ko‘mitaga Polvonniyoz Yusupov (rais), Bobojon Yaqubov (o‘rinbosar), Otajon Sapayev (kotib), Muhiddin Umarov (g‘azinachi), Nazir Sholikorov va boshqalar a‘zo bo‘lib kirdilar.<sup>1</sup> Xuddi shunday qo‘mita Petro-Aleksandrovska ham tuzilgan bo‘lib, unga Jumaniyoz Sultonmurodov rahbar etib saylandi. Yosh xivaliklar harakati rahbarlarining Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasiga taqdim qilgan harakat dasturida xon istibdodidan qutulish uchun qurollangan askarlar yuborish, yosh xivaliklarni qurollantirish, ozod qilingan Xivani esa Turkiston respublikasi tarkibiga qo‘shish kabi takliflar bor edi.

Junayidxon buyrug‘i bilan 1918-yil mayida yosh xivaliklarning ko‘zga ko‘ringan rahbarlaridan 24 nafari Xivadagi bozor maydonida otib tashlandi.<sup>2</sup> Ular orasida Husayinbek Matmurotov, Is‘hoqxo‘ja Ibrohimxo‘jayev, Abdusalomxo‘ja Islomxo‘jayev, Hoji Avazberdi Eshonovlar bor edi. Butun vo‘ha shahar va qishloqlarida demokratik kayfiyatdagi yosh xivaliklar va Amudaryoning o‘ng sohilida o‘rnatilgan sho‘rolarga xayrixoh bo‘lgan fuqarolar ta‘qib etila boshlandi. Ushbu holat ham yangi diktatorni qoniqtirmadi.

Junayidxon nafaqat Xiva xonini bo‘ysundirish, balki barcha sho‘rolar hukumatiga qarshi bo‘lgan kuchlar yordamiga tayangan holda, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida o‘rnatilgan sho‘rolar hukumatini yo‘q qilishga mahkam bel bog‘lagandi. Shu maqsadda u xonlik aholisidan askarlikka yaroqli dehqonlarni ot-aravasi, oziq-ovqati va yem-xashagi bilan o‘z navkarlari qatoriga qo‘sha boshladi. Natijada u otliq askarlari sonini 4 mingga va piyodalari sonini 6000 nafarga yetkazdi.<sup>3</sup>

1918-yil sentabr oyining o‘rtalarida Junayidxon o‘zining Xiva xonligi hududidagi asosiy dushmanlari bo‘lgan turkman sardorlari Qo‘shmadxon, G‘ulomali va Shomurod baxshilarni yengib, Amudaryo bo‘limi hududiga bir necha bor hujum uyushtirdi. Amudaryo bo‘limi rahbarlari qizil gvardiya qismlarini tuzish bilan birga, Turkiston Respublikasidan harbiy yordam so‘radilar. Natijada N. A. Shaydakov boshchiligida 100 kishilik qizil askarlar otradi Chorjo‘ydan Petro-Aleksandrovska “Verniy” poroxodida jo‘natildi. 1918 yil 20-sentabrda Petro-Aleksandrovska

<sup>1</sup> Polyozhoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. Urganch, “Xorazm”, 2000, 162-bet.

<sup>2</sup> O‘zR MDA. P-2786-jamg‘., 1-ro‘yxat, 31-jild, 110-varaq.

<sup>3</sup> Погорельский И. В. История Хивинской революции... с. 85.

ka yetib kelgan otradda 2 ta pulemyot va 2 ta to'p bor ham edi.<sup>1</sup> N. A. Shaydakov tez orada Amudaryo bo'limi harbiy komissari qilib tayinlandi.

1918-yil 19-sentabrda Turkiston Respublikasining Xiva va Amudaryo bo'limi ishlari bo'yicha favqulodda vakili qilib eser, shtabs-kapitan V. P. Konoplev tayinlandi. U ham shu oyning oxirida 120 kishilik otryad bilan Petro-Aleksandrovsikka keldi va shahar Soveti hamda harbiy rahbarlikni qo'liga oldi. V. P. Konoplev Ural kazaklari atamani Filchevga har birida 100 tadan otlilik bo'lgan 3 ta otrad tuzishni buyurdi.

Shu orada Junayidxon Asfandiyorning taqdirini hal qiladi. Unga xonning Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlaridan qo'shin bilan yordam berishni so'rab yozgan soxta maktubi yuboriladi. Ushbu maktub hiyla tariqasida Toshkentda Nazir Sholikorov va Polyozhoji Yusupov tomonidan tayyorlangan bo'lib, u yosh xivaliklar muxlisi Yusup Devonov orqali Badirkentda o'tirgan Junayidxonga yetkaziladi. Bu haqda tarixchi Komiljon Abdullayev quyidagilarni yozgandi: "Yusup Devonov Junayidxon oldiga borishdan sal oldinroq, uning yoniga Xon eshon kirgan bo'lib, ikkovlari suhbatlashib o'tirgan ekanlar. Xon eshon Junayidga Asfandiyorni yomonlab: "Siz Asfandiyorning so'ziga ko'p ishonavermang, uning so'zi bilan ishi boshqa" deb turganida. uyga Yusup Devonov ikki xatni olib kiradi. Junayidxon xatlarni maslahatchisi Xon eshonga uzatadi. U xatlarni o'qib bo'lgach, Junayidga qarab: "Mana, aytmadimmi! Siz dushman degan yosh xivaliklar, aksincha, bizga yaxshilik qilganlar. Agar bizga qarshi yuboriladigan 10 ming kishilik rus askarlari kelsa, holumiz mushkullashgan bo'lar edi",<sup>2</sup> – deydi.

Bu noxush xabardan jahli chiqqan Junayidxon Asfandiyorni o'ldirish uchun o'g'li Eshim boshchiligida bir guruh turkmanlarni Xivaga yuboradi. Ular orasida Vakil og'a degan yigit bo'lib, uning otasi Durdi Vakil turkman urug' boshliqlaridan biri sifatida 1916-yilda ruslar tomonidan otib tashlangandi. Vakil og'a otasininng o'limida Asfandiyorxonning aybi bor degan maqsadda xonni qatl qilish va undan o'ch olishni o'ziga topshirishni so'raydi.

Nurullaboy saroyi hovuzi oldida o'tirgan xon turkmanlar bilan so'rashgan vaqtda Vakil og'a salomga chap qo'lini uzatadi. "Vakil og'a sen nima uchun chap qo'ling bilan ko'rishding?" deb aytishi bilan Vakil og'a o'ng qo'lidagi katta pichoqni chiqarib. Asfandiyorxonning qorniga

<sup>1</sup> Погорельский И. В. История Хивинской революции... с. 83.

<sup>2</sup> Abdullayev K. Yosh xivaliklar. "Xiva" jurn., Urganch, 1993, 2-3-sonlar, 12-bet.

tiqadi. Xon to'pponchasini olishga uringan bo'lsa-da, ulgurmagan edi".<sup>1</sup> Mazkur fojiali voqea 1918-yil 30-oktabrda ro'y bergandi.

1918-yil 3-noyabrda taxtga Sayyid Abdulla to'ra o'tkaziladi. Asfandiyorning katta akasi bo'lgan ushbu shaxs hunarmandchilik bilan kun kechirar va davlat ishlaridan ancha yiroq edi. Natijada u Junayidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xon sifatida iz qoldirdi. Barcha yuqori lavozimlarga esa Junayidxon yaqinlari tayinlandi.<sup>2</sup>

Junayidxon Amudaryo bo'limida bo'layotgan voqealardan to'la xabardor bo'lib turardi. 1918-yil 24-noyabrda uning qo'shinlari Petro-Aleksandrovskni qamal qildi. Turkmanlarning 7 marta hujumini qaytargan va 11 kun davomida qarshilik ko'rsatgan shahar himoyachilari 3-dekabrda qarshi hujumga o'tib, Junayidxon navkarlarini Shabboz tomon chekinishga majbur qildilar. Natijada Petro-Aleksandrovskka qilingan hujum chog'ida turkmanlardan 1700 ga yaqini qirib tashlandi.<sup>3</sup> Petro-Aleksandrovsk qamali vaqtida Jumaniyoz Sultonmurodov rahbarligidagi "Yosh xivaliklar"dan Ahmadjon Ibragimov, Ismoil Vaisov, Vafo Polvoniyozov shahar himoyachilari qatorida bo'lgandilar.<sup>4</sup>

Junayidxon Petro-Aleksandrovskni qamal qilish bilan bir vaqtda Nukusga ham askar yuborib, uni qurshovga olgan edi. Amudaryo bo'limiga Zakaspiy fronti va Chorjo'y shaharlaridan temiryo'lchilar va ko'ngillilardan S. Naumov boshchiligida 250 kishilik otryad yordamga keldi. Ular va Petro-Aleksandrovskda mavjud 3 ta rota soldatlari asosida Birinchi Xiva inqilobiy batalyoni tuzildi. Tez orada otliq askardan iborat polk shakllandi va unda 1598 askar bor edi.<sup>5</sup>

1919-yil bahorida Petro-Aleksandrovskga Junayidxon navkarlari hujum qilgani sababli Chorjo'ydan qizil gvardiya otryadi jo'natildi. Bosqinchilar tushgan poroxod 28-martda daryoning tor joylaridan biri -- Tuyamo'yin darasiga yaqinlashganda pistirmadan hujum qilindi. Kemaga jiddiy yetkazilgan va bir necha jangchi, jumladan, otryad komandiri S. Naumov yarador bo'lsa-da, askarlar Orolcha buva degan joyda to'p va multiqlardan otilgan o'qlar yomg'iri yordamida qirg'oqqa chiqishga mu-

<sup>1</sup> Asfandiyorxonning o'ldirilishi haqida boshqa fikrlar ham bor. Xususan, "Xiva xonlari tarixidan" nomli asarning muallifi K. Xudayberganov Ismomut ota qabristoni shayxi o'g'li Annagaldi tomonidan o'ldirilgan, deb yozadi (Urganch, "Xorazm", 2008, 172-bet).

<sup>2</sup> Rajabov Q. Buxoro va Xorazm Respublikalaridagi qurolli muxolafat kurashi. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. Toshkent, "Sharq", 1997, 261-bet; Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. 84-bet.

<sup>3</sup> Чепурнов Б. Поход Джунаидхана на Турткуль. В кн.: К десятилетию Бухарской и Хорезмской революции. Ташкент, Госиздат, 1930, с. 177.

<sup>4</sup> Досумов Я. М. Очерки истории Каракапакской АССР. Ташкент, Госиздат, 1962, с. 67.

<sup>5</sup> Погорьельский И. В. История Хивинской революции... с. 87.

vaffaq bo'ldilar. Ikki o'rtadagi ro'y bergan qonli to'qnashuvda Junayidxonning 500 ga yaqin navkarlari halok bo'ldi.<sup>1</sup>

Junayidxon askarlarining orqasidan ta'qib qilib, Pitnak qal'asi tomon yura boshlagan qizil askarlar duch kelgan odamlarni otib tashlay verdilar. Ulardan omonlik tilab, vaziyatni tushuntirish uchun sovg'a-salom ko'tarib, oldilariga peshvoz chiqqan Qutlimurod oqsoqol, Niyozmat xatib, Nizomiddin eshon, Madamin elakchi, Boboniyozboy boshliq qishloqning nufuzli odamlari ham otib tashlandi. Shu kuni qishloqda 70 dan ortiq be-gunoh odamlarning qoni to'kildi.<sup>2</sup>

1919-yil 1-aprelda Petro-Aleksandrovska "Yosh xivalik"larning inqilobiy qo'mitasi tarkibiga Jumaniyoz Sultonmurodov, Hakim Muhammedov, Bobojon Otajonov, Shayxuddin Hasanov, Zokir Bekchurin va boshqalar kiritildi. Revkom a'zolari o'zlari istagan tarzda Xiva aholisining inqilobiy kayfiyati haqidagi haqiqatdan yiroq ma'lumotlarni Toshkentga yuborib turdilar. Shu yilning bahorida Xiva xonligining Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Ko'hna va Yangi Urganch, Toshhovuz, Manoq, Ilonli, Mang'it, Qipchoq, Gurlan, Qilichboy, Shovot, G'ozovot, Xonqa, Beshariq, Hazorasp va Darg'an ota kabi yirik aholi punktlarida ham "Yosh xivaliklar"ning yashirin tashkilotlari tuzilgani haqida ma'lumotlar mavjud.<sup>3</sup>

Junayidxon yangi tuzilgan qizil askarlar qo'shimalari bilan yuzma-yuz to'qnashishdan qo'rqib, chekina boshladi. 1919-yil 9-aprelda Taxta qal'asida boshlangan muzokalar vaqtida Junayidxon bolsheviklardan xonlikning ichki ishlariga aralashmaslik va xonlik hududidan o'z qo'shinlarini olib ketishni talab qildi. Imzolangan shartnomaga binoan, xonlikdagi xalqlarini o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi hamda har ikkala tomon ham urush harakatlarini to'xtatishga kelishib oldilar. Mazkur shartnoma sho'rolar kuchlarining nafasini rostlab olish uchun bir niqob ekanligi tez orada ma'lum bo'ldi.<sup>4</sup>

1919-yil bahorida Xiva xonligida ro'y berayotgan voqealarga O'rol kazaklarining ta'siri kuchli bo'ldi. Zair poselkasi va To'rtko'l yaqinida yashagan hamda asosan baliqchilik bilan tirikchilik qilayotgan kazaklarning sho'ro ma'murlari tomonidan tazyiq ostiga olinishi natijasida ular-

<sup>1</sup> Непесов Г. Из истории Хорезмской революции. 1920–1924 гг. Ташкент, "Узбекистан", 1962, с. 64.

<sup>2</sup> Qurbonboyev S. Pitnak tarixi. 25–26-betlar; Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar. 64-bet.

<sup>3</sup> Каландаров Н. Х. Образование и деятельность Хорезмской компартии (1920–1924 гг.). С. 42.

<sup>4</sup> Непесов Г. Из истории Хорезмской революции. С. 125–126; Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. 85-bet.



ning ayrimlari norozilik harakatiga qo'shildilar. Qo'lida quroli bor kazaklar ataman M. Filchev qo'mondonigi ostidagi uchinchi Zair otradiga kelib qo'shila boshladilar. Petro-Aleksandrovskdan yuborilgan vakillar bilan muzokaralar natija bermagach, 1919-yil iyul oyi oxirlarida 222 kishidan iborat kazaklar otryadi Chimboyga jo'nab ketdi.

Kazaklar isyoni kunlarida Chimboy atroflarida Xon Maqsim laqabini olgan Ubaydulla Bahovutdinov (1887–1956)<sup>1</sup> va Qo'ng'iro't begi Bolabiy boshchiligidagi qoraqalpoqlar otradlari aholini himoya qilishni tashkil etdilar. Xon Maqsim va Bolabiy Eshonqal'a va Qo'ng'iro't axolisini qurollantirib, 2 ming kishilik o'z-o'zini himoya qilish otradlari tashkil qildilar.<sup>2</sup> Ammo sovet ma'murlari qoraqalpoqlarning ushbu harakatlarini kazaklar isyonini qo'llab-quvvatlash, deb baholadilar. Shu bois Turkiston ASSR Tashqi ishlar komissari Sa'dulla Tursunxo'jayev "Musulmonlarning kazaklar aksilinqilobiy isyoniga qo'shilishi – juda achiqarli va bizning Xivaga nisbatan olib borayotgan siyosatimizni o'zgartirishni talab qiladigan masaladir",<sup>3</sup> – deb tan olishga majbur bo'lgandi.

Kazaklarni qurolsizlantirish uchun Zamislyayev va Nikolayev boshchiligida yuborilgan 80 kishilik otrad 14 – 15-avgust kunlari Chimboy yaqinidagi Tozgara degan joyda bo'lgan janglarda tor-mor keltirildi. Mavjud vaziyatda qoraqalpoqlar yetakchilari bilan kelisha olgan M. Filchev Chimboy uyezdi hukumatini tuzdi. Unga kazaklar vakillaridan Shishenkov, Salnikov, Gutarev, Bajedomov, Shevelev, qoraqalpoq va o'zbeklardan Ibragim Odilov, Inoyat Niyozov, Seytnazar Pirnazarov, Xon Maqsim, Bolabiy kirdi. Junayidxon M. Filchevni Amudaryoning o'ng sohilidagi yagona qonuniy hukumat deb tan olishga shoshildi.<sup>4</sup>

Xorazm vohasidagi sho'rolarga qarshi kuchlarni birlashtirish harakatlari davom etdi. 1919-yil 30-sentabrda admiral Kolchak Omskdan Junayidxonga yozgan maktubida, polkovnik Xudyakov bilan birga 8 nafar ofitser va 130 nafar kazakni yordamga yuborganini bildirdi. Ustyurt orqali Eronga o'tib ketayotgan O'rol kazaklari atamani general Tolstov 1919-yil 2-oktabrda Guryevdan ataman M. Filchevga 120 nafar kazakni yordamga jo'natgani haqida xabar berdi.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Usenov E. Xan Maqsim. Tarixiy publitsistik qissa. Nukus, "Qaraqalpaqstan", 1997, 20-bet.

<sup>2</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? ... с. 2–13.

<sup>3</sup> Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане. Т 2, Ташкент, Госиздат, 1967, с. 487–488.

<sup>4</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? ... с. 14.

<sup>5</sup> Досумов Я. Каракалпакия в годы гражданской войны. Нукус, 1975, с. 104.



1919-yil avgustida Zakaspiy fronti vakili N. A. Shaydakov Xiva askarlar guruhining qo'mondoni qilib tayinlandi. U 17-avgustda Petro-Aleksandrovska qizil askarlar otryadi bilan yetib keldi. 1919-yil sentabrda Petro-Aleksandrovska harbiy holat e'lon qilinib, Inqilobiy qo'mitaga raislik vazifasi N. A. Shaydakovga yuklandi. 1919-yil 3-noyabrda "Yosh xivaliklar" va inqilobiy qo'mitaning qo'shma majlisi bo'lib, unda Turkkomissiyaning Xiva ishlari bo'yicha vakili ham qatnashdi. Majlis Junayidxon va uning tarafdorlariga qarshi barcha inqilobiy kuchlarni birlashtirish haqida qaror qabul qildi. Shu vaqtda Junayidxon ataman M. Filchev va Xon Maqsim otradlari yordamida Petro-Aleksandrovska yangi hujum rejasini tuzayotgandi.

1919-yil 20-oktabrda Turkfront harbiy inqilobiy kengashi Turkkomissiya vakili G. B. Skalovga "Xivada bo'layotgan voqealar yuzasidan mustaqil qaror qabul qilish va harakatlarga aralashish vakolati bor", degan mandat berdi. 1919-yil 1-noyabrda maxsus topshiriq bilan Toshkentga yuborilgan Petro-Aleksandrovska garnizoni siyosiy komissari Arkadiy Dinin Chorjo'ydan Turkiston Respublikasi Mudofaa Kengashi raisi F. L. Jelezovga telegraf orqali quyidagi axborotni jo'natadi: "Xivada inqilob boshlandi. Quyi Amudaryodagi yavmut va o'zbeklarning bir qismi ularni ezib kelayotgan Junayidxon hukumatiga qarshi bosh ko'tardi. Urganch va Xo'jayli oralig'ida janglar ketmoqda. Qo'zg'olonida bizning "Yosh xivaliklar" Revkomi amaliy ishtirok etmoqda. Qo'zg'olonchilarning vakillari To'rtko'lga kelib, qurol kuchi bilan yordam berishni so'ramoqdalar. Partiya va sovet tashkilotlari ushbu masalani o'zlari hal qila olmasdan Toshkent bilan muzokara yuritish uchun menga vakolat berdilar".<sup>1</sup>

1919-yil noyabr oyining boshlarida M. Filchev va Xon Maqsim otryadlari Nukus qal'asini xavf ostida qoldirdilar. Shaharni himoya qilish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rika boshlandi. 1919-yil 11-noyabrda Petro-Aleksandrovskdagi Xiva guruhi qo'mondoni N. A. Shaydakov 1-Xiva batalyoni (360 askar), otliqlar eskadroni (150 otliq askar), to'pchi va pulemyotchilar (125 nafar) va matroslar (40 nafar) bilan "Xivines" paroxodi va "Verniy" teploxodida Nukus qal'asiga harbiy yurish boshladi.<sup>2</sup> 19-20-noyabrda qizil askarlar Nukusga 15 chaqirim qolganda qirg'oqqa tushdilar va jangga kirishdilar. Filchev va Xon Maqsim otradlari

<sup>1</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? ... с. 9.

<sup>2</sup> Очерки истории Каракалпакской АССР. Ташкент, ЎзФАН, 1964, т. 2, с. 73; Шербаков Н. М. Таким было начало. Ташкент, "Ўзбекистан", 1964, с. 70.

qisman mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, chekinib asosiy kuchlarini saqlab qoldilar.

Toshkentdan Chorjo'yga kelgan Turkkommissiya vakili G. B. Skalov ixtiyoriga Xiva qo'shinlari guruhining bosh qo'mondoni qilib tayinlangan Turkfront shtabi operativ bo'limi raisi N. M. Sherbakov qo'mondonligidagi otrad ajratildi. 26-noyabrda Chorjo'ydan otda yo'lga chiqqan G. B. Skalov, bir haftadan, keyin Petro-Aleksandrovskga yetib keldi. Kazaklar oqsoqollari bilan bo'lgan muzokaralardan keyin G. B. Skalov ularning diniy marosimlari va Amudaryoda baliq ovlashlarini ta'qiqlovchi ko'rsatmalarni bekor qildi. To'rtko'l yaqinidagi kazaklar posyolkasida o'tkazilgan majlisda oqsoqollarni Filchev oldiga yuborish va qurolli qarshilik ko'rsatish harakatlarini to'xtatishga da'vat qildi. Ushbu tadbirlarning ta'siri natijasida kazaklarning sho'rolar hukumati bilan muzokaralariga yo'l ochildi.

1919-yil 11-dekabrda G. B. Skalov tashabbusi bilan Amudaryo inqilobiy qo'mitasi qayta tashkil etildi. Qo'mita raisi N. P. Soldatovning o'rinbosari etib Muhammadjon Boljonov, a'zolari qatoriga G. B. Skalov, Shayxuddin Hasanov, Aminjon Makayev, kotibi qilib Linde va I. M. Mitin saylandi. Yangi tarkibdagi Inqilobiy qo'mitaning birinchi majlisiga taklif etilgan N. A. Shaydakov, bolsheviklar va sovet tashkilotlari rahbarlari hamda "Yosh xivaliklar" vakillari mavjud siyosiy vaziyatni tahlil qilishga harakat qilib, bosqin rejalarini tuza boshladi.

Inqilobiy qo'mita N. A. Shaydakov qo'mondonligidagi Xiva askarlar guruhi deb atalgan harbiy kuchlarni qayta shakllantirib, unga "Amudaryo guruhi harbiy kuchlari" degan nomni berdi. Bu harbiy qism Chorjo'ydan tortib, to Orol dengizigacha bo'lgan hududni faqat qizil askarlar va bolsheviklar rahbarligida nazorat etishi kerak edi. Uning tarkibida ikki otrad: N. A. Shaydakov boshchiligidagi Shimoliy va V. Uryadov boshchiligidagi janubiy otradlar shakllandi. Amudaryo guruhi harbiy kuchlarining qo'mondoni qilib M. N. Sherbakov tayinlandi.

Bu davrga kelib, so'l qirg'oq Xorazm vohasida Junayidxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun xatti-harakatlari natijasiz bo'lib, aholiga mislsiz azob-uqubat keltirayotgan edi. Uning harbiy diktaturasi davrida har bir turkman otlig'idan 30-40 tilla va o'zbek qo'lidagi har bir tanob yerdan 5 tildan qo'shimcha yer solig'i undirila bosh-

landi. Ma'lum yoshga to'lgan har bir erkak sardor qo'shinida navkar si-fatida xizmat qilishga majbur edi.<sup>1</sup>

1919-il oxirlarida Xiva xonligidan Petro-Aleksandrovskka qochib kelganlar soni 20 ming kishiga yetdi. Bu yerda J. Sultonmurodov bosh-chiligidagi "Yosh xivaliklar" qo'mitasi harbiy otryadlar tuzib, Junayid-xon diktaturasini tugatishni va Xorazmda qizil askarlar yordamida yangi hukumat tuzishni maqsad qilib qo'ydi. Xiva xoni va Junayidxon bilan olib borilgan muzokaralar kutilgan natija bermagandan so'ng "Yosh xivaliklar" harakatining Petro-Aleksandrovsk, Toshkent va Chorjo'y qo'mitalari hokimiyatni faqat qurol kuchi bilan egallash zarur degan xu-losaga keldilar.

Shu bilan bir qatorda, "Yosh xivaliklar"ning kuchi va ularning xalq ommasi orasidagi ta'siriga ishonch past edi. Buni Turkiston qo'shinlari razvedka bo'limi boshlig'i Zarembaning 1919-yil 12-dekabrda quyida-gi axborotidan ko'rish mumkin: "Junayidxon zulmiga qarshi bundan ikki oy oldin Ko'hna Urganch yaqinida qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olon-chilarga yosh xivaliklar bilan aloqada bo'lgan Ko'chmamadxon boshchi-lik qiladi. "Yosh xivaliklar" partiyasi xonlikda o'z tarafdorlariga ega bo'lsa-da, ammo katta rol o'ynamaydi. Ehtimol, kurash eski tartiblarning tiklanishi va xonning boshqasi bilan almashtirilishi bilan tugaydi".<sup>2</sup>

Ko'hna Urganchdan tashqari, Junayidxonga qarshi o'zbek va turk-manlarining qo'zg'olonlari ilonli, Xo'jayli beklklarida ham kuchayib borayotgandi. Hatto, yosh xivaliklar tarafdorlari bo'lgan turkman urug'-aymoq boshliqlari Shomurod Baxshi va G'ulomali, Nurgaldixon, Mu-hammad Ali, Mulla Berkel navkarlari bilan Junayidxonga qarshi chiqdi-lar. Qo'ng'irotda Qutlimurodboy degan shaxs o'z mablag'i hisobidan 103 kishini qurollantirib, Junayidxonga qarshi kurash boshladi. Tez ora-da ularga Mang'it beki ham o'z qurolli otradi bilan kelib qo'shildi.

1919-yil 22-dekabrda Turkkomissiya va Turkfront vakili G. B. Skalov va Amudaryo bo'limi qo'shinlari harbiy qo'mondoni M. N. Sher-bakov Xiva xonligi chegarasidan o'tib, qo'zg'olon ko'targanlarga yor-dam berish haqida buyruq berdilar. Hujum yo'nalishi qilib Junayidxon-ning 2 mingga yaqin navkarlari turgan Xo'jayli shahri belgilandi. Qizil askarlarga qarata yozilgan murojaatnomada quyidagi so'zlar bor edi: "Xiva aholisi Junayidxonning qonli qo'lidan aziyat chekmoqda va unga

<sup>1</sup> История ХНСР. Сб. док. Ташкент, "Фан", 1976, с. 22.

<sup>2</sup> Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане. Т. 2. Алма-Ата, Казахстан, 1964, с. 491; Кошанов Б., Сейтгызаров М. Революция?... с. 18.

qarshi kurashishga o'zi ojizlik qilayotganligi sababli Rossiya sho'rolar hukumatidan yordam so'rashga majbur bo'lmoqda. Sho'rolar hukumati uchun barcha mehnatkashlarning millati va diniga qaramasdan, istak hamda ehtiyojlari bir xilda yaqin. Shu bois Xivadagi tinch aholining Junayidxonni o'z yerida tugatish haqidagi chaqirig'iga javob berishni lozim topdi. Xivaga qarshi urush boshlamasdan va buni istamasdan, Xivaning mustaqilligiga daxl qilmasdan hamda uni boshqarishning ichki ishlariga aralashmasdan, holbuki, Xiva xalqi o'ziga qanday hukumat kerakligini biladi va o'z xohishini o'zi erkin ko'rsatadi – biz Xiva xonligi yerlariga kiramiz. Qaroqchi Junayidxonni tugatishda biz bir qator turkman qabilalari bilan bir qatorda tinch o'troq aholidan madad topamiz. Butun Xivaga biz qilich emas, balki tinchlik keltirish uchun kelmoqdamiz”.<sup>1</sup> Murojaatda jangchilarga aholiga nisbatan zo'rvonlik qilmaslik va o'zlarini bosqinchi sifatida tutmaslik haqida ogohlantirish so'zlari bor edi.<sup>2</sup> Ammo bu chaqiriq va ogohlantirishlar yetarlicha ta'sirsiz qoldi.

1919-yil 23-dekabrda qizil askarlarning Xiva xonligiga harbiy yurishi boshlandi. Shu kuni Petro-Aleksandrovskdan chiqqan janubiy qo'shilmalar Amudaryodan o'tib, Xonqa bekligiga qarashli Qoramozi qishlog'iga kirib keldilar. 24-dekabr kuni rus qo'shinlari Yangi Urganchga kirdi va uni harbiy jihatdan mustahkamlash tadbirlari amalga oshira boshladi. 1920-yil 4-yanvarda N. M. Sherbakov buyrug'i bilan Urganchdan 150 ta aravaga ortilgan kerosin, mazut bochkalarda Petro-Aleksandrovsikka jo'natildi. 1920-yil 9-yanvarda janubiy otryad askarlari G'ozovotga qarab, yura boshladilar.

Xo'jaylini egallagan N. A. Shaydakov o'z qo'l ostidagi 140 qizil askarlarni qoldirib, Ko'hna Urganchga yurish boshladi. Unga turkman sardori Qo'shmamadxon 1000 yaqin otliqlari bilan kelib qo'shildi. Ko'hna Urganch egallangach, qo'mondonlikni M. R. Vanichkinga topshirgan N. A. Shaydakov oldin Nukusga, keyin esa Yangi Urganchga yo'l oldi. Shu orada M. R. Vanichkin otradi Porsu, Bozorqiyot, Toshhovuzni egalab, janubiy otryad bilan qo'shilish maqsadida Taxta shahriga qarab yurish boshladi. 23-yanvar kuni Taxta yaqinida qizil askarlarning shimoliy va janubiy qismlari qo'shildi. Endi ular Junayidxonning qarorgohi hisoblangan Badirkent qishlog'iga qarab yurish boshladilar. Ikki o'rtada bosh-

<sup>1</sup> Шербаков Н. М. Таких было начало. С. 91; Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция?... с. 19.

<sup>2</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? ... с. 19.

langan jangda qizil askarlarga biroz qarshilik ko'rsatgan Junayidxon Qoraqumga qochib ketdi.<sup>1</sup>

1920-yil 1-fevralda janubiy o'trad va unga qo'shilgan "Yosh xivalik"larning 400 yaqin askarlari Xiva shahriga kirib keldilar. Ertasi kuni Ko'hna Ark oldida uyushtirilgan 4 mingdan ortiq odam qatnashgan namoyishda Xiva xoni Sayyid Abdulla to'ra taxtdan voz kechganligi, Oliy Majlis chaqirilguncha hokimiyat Muvaqqat inqilobiy qo'mita qo'liga o'tishi haqida e'lon qildi. "Xiva xoni hokimiyatini ag'darilgan deb e'lon qilish bilan, – deb yozgandi G. B. Skalov Turkkomisiya raisi Sh. Z. Eliavaga yuborgan xatida, – biz Junayidxon qo'liga juda katta bahona bergan bo'lardik. Chunki u o'zini Xivani ozod qilish uchun kurashayotgan arbob deb jar solishi mumkin edi. Endilikda esa u oddiy bir bosqinchi "xon" sifatida qolmoqda".<sup>2</sup>

Sho'rolar hukumatining vakolatli arboblari Xiva xoni zo'ra vonlik bilan ag'darilgani va Xorazm vohasi qizil askarlar tomonidan qurolli harakatlar natijasida egallanganligi yashirishga qattiq uringanlar. Amudaryo inqilobiy qo'mitasi tomonidan 1920-yil 7-fevralda chiqarilgan "Xiva xonligi aholisiga!" nomli murojaatda quyidagi soxta iboralarni ko'rish mumkin: "Rossiya sho'rolar hukumati boshqa xalqlarni bosib olish va ular ustidan zo'ra vonlik o'tkazishni istamaydi. U qo'shni xalqlar bilan tinch-totuv yashashni xohlaydi. Biz siz bilan urushishni xohlamaymiz hamda kelajakda ham yaxshi qo'shni sifatida bir-birimizga do'stona yordam beramiz".<sup>3</sup>

Sho'rolar hukumati rahbarlari Xiva xonligining qurolli intervensiya oqibatida ag'darib tashlanganligi va Xorazmga inqilobning eksport qilinishini tan olmaslikka harakat qilganlar. Turkkomissiyaning tashqi aloqalar bo'limi boshlig'i G. I. Broydo: "Otryadlar Xivani Turkkomissiya va Revvoyensovet ruxsatisiz o'zboshimchalik bilan egallagan. Yo'l qo'yilgan buzg'unchiliklarni to'g'rilash uchun esa favqulodda vakolatli komissiya yuboriladi",<sup>4</sup> – degan xabarni qizil qilishni tavsiya etgandi.

Xiva xonligiga kirib kelgan qizil askarlar ogohlantirishlarga qaramasdan, bosqinchilik, zo'ra vonlik, talonchilikni, haddan tashqari, oshirib

<sup>1</sup> Junayidxon Afg'onistonga muhojirlikka ketga-da, to 1931-yilgacha sho'rolar hududlariga xuruj qilib turdi. U 1938-yilda Hirot yaqinidagi qishloqlardan birida 81 yoshida vafot etgan. Qarang: Rajabov Q. Buxoro va Xorazm Respublikalaridagi qurolli muxolifat kurashi. 319–320-betlar; O'sha muallif. Xorazmda istiqlol harakati va Junayidxon. "Jamiyat va boshqaruv", Toshkent, 2000, 1-son, 36–43-betlar.

<sup>2</sup> Шербаков Н. М. Таким было начало. С. 107.

<sup>3</sup> Иностранная военная интервенция и гражданская война в Средней Азии и Казахстане. Т. 2, с. 496.

<sup>4</sup> Кошанов Б., Сейтназаров М. Революция? ... с. 26.

yuborganlar. “Otradlar qo‘mondonlarining bevosita ishtiroki va ularning rahbarligi ostida, – deb yozgandi G. I. Broydo, – dahshatli talonchilik, uylar va butun bir posyolkalarni buzib tashlash, rasmiy ravishda Junayid zulmidan qutqargan odamlarga nisbatan ham zo‘ravonlik qilingan”.<sup>1</sup> “Biz bu yerda ko‘rgan narsalar shunchalar dahshatliki, bunaqasini hech qayerda ko‘rmaganmiz, – deb yozgandi Xivaga kelgan Turkfront Harbiy tribunali vakili I. R. Fonshteyn. – Oshkora harbiy talon-tarojliklar uyushtirilgan, qo‘lga tushgan narsalarni shtab rahbarlari o‘zlariga ko‘proq ulush olib qolib, qolganini taqsimlashgan. Xotinlarni olib ketishgan. Ularni asira sifatida saqlab, Petro-Aleksandrovsk va Xiva bozorlarida kimoshdi savdosiga sotishgan. Xiva saroylari yakson etilgan. Qizil Armiya askarlari oldidan chiqqan odamni otib tashlaybergan. Skalov bularning boshida turadi va jinoyatkorona loqaydligi uchun ayblidir”.<sup>2</sup> Favqulodda komissiya buyrug‘i bilan ikki kun muddatda Petro-Aleksandrovskdan 63 asir ayol ozod qilinadi.<sup>3</sup>

Xiva xoni Sayyid Abdulla taxtdan tushirilgach, boshqarish vazifasini o‘z zimmasiga olgan Muvaqqat Inqilobiy qo‘mita tarkibida “Yosh xivaliklar” yetakchisi Jumaniyoz Sultonmurodov, Boboovun Salimov, Jaloloxun, Ko‘chmamadxon va Mulla O‘roz Xojimamedovlar bor edi. Qo‘mita shu davrdagi siyosiy vaziyat va aholining milliy tarkibini hisobga olgan holda tuzilgandi. Qo‘mitaning buyrug‘i bilan sobiq xon amaldorlaridan bosh vazir, mehtar Sharipboy Baqqolov, yasovulboshi Toza Mahram hibsga olindi va tez orada otib tashlandi. Shu bilan bir qatorda, Muvaqqat hukumatni obro‘sizlantirish va uning ishiga xalaqit berishga intilishlar ko‘paydi. “Muvaqqat hukumat shtab va har qanday qizil armiyachi topshirig‘ini bajaradigan kichik buyruqchi edi, – deb noligandi J. Sultonmurodov. – Uni doimo qo‘rqitishar, a‘zolari esa qizil armiyachilarni joylashtirish, ular uchun arava topish va beda g‘amlash bilan ovora edi. Xivada haqiqiy hokimiyat ruslar vakillari qo‘lida qolmoqda”.<sup>4</sup> Ushbu holat Xivaga Turkkomissiya tomondan yuborilgan maxsus guruh kelgandan keyin ham davom etdi.

Shunday qilib, to‘rt asrdan ortiq vaqt mobaynida Xivada hukmronlik qilib turgan xon hukumatining ag‘darilishi va Junayidxon harbiy diktaturasining tugatilishi natijasida Xorazm vohasidagi mehnatkash aholi-

<sup>1</sup> Там же. С. 27.

<sup>2</sup> Karimov Sh. Qafasdagi qush orzusi. 59–60-betlar.

<sup>3</sup> Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар. 76-бет.

<sup>4</sup> Кошанов Б., Сейтиязаров М. Революция?... с. 28–29.



ning asriy orzu-umidlari qisman ushalsa-da, biroq bolsheviklar siyosiy kuch sifatida shakllanib kelayotgan “Yosh xivaliklar” partiyasi vakillari-ning o‘z yurtini mustaqil boshqarishiga imkon bermadilar. Bolsheviklar-ning butun dunyodagi inqilobiy harakatlarga turtki berish maqsadida olib borayotgan vaziyatni keskinlashtirish siyosati Xorazmda sho‘rolar tuzumining o‘rnatilishiga olib keldi.

## XULOSA

O'zbek davlatchiligining muhim qismlaridan biri va o'rta asrlardagi tayanchi Xiva xonligi hisoblanadi. Ajnabiylarning bosqinchiligiga qarshi kurash jarayonida shakllangan Xorazm vohasidagi ushbu davlat to'rt asrdan ko'proq vaqt davomida o'lkadagi barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Xiva xonligi Eron davlati, Buxoro xonligi, qozoq juzlari va Rossiya bilan tashqi diplomatiya hamda savdo-sotiq munosabatlarida sezilarli darajada yutuqlarga erishdi.

Manbalar, ilmiy adabiyot, arxiv hujjatlaridan foydalangan holda, Xiva xonligi tarixini XVI asrdan XX asrning boshlarigacha milliy istiqbol mafkurasi nuqtayi nazaridan o'rganish asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Buyuk Xorazmshohlar davlati tanazzulidan keyin mo'g'ullar tomonidan bo'lib tashlangan, Temur va temuriylar davlatining viloyat darajasidagi ma'muriy hududiga aylangan Xorazm XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi siyosiy sharoit va ozodlik kurashi jarayonida mustaqil davlat sifatida tiklandi.

- Xorazmda o'zbeklar boshqaruv tizimining o'rnatilishi jarayoni 140 yil davom etgan bo'lsa, xonlik markazi, ya'ni poytaxtini tanlash masalasi ham bir asrga yaqin davrni o'z ichiga oldi. Nihoyat, Hoji Muhammadxon (Hojimxon) va uning vorisi Arab Muhammadxon davrida Xiva shahri xonlik poytaxti sifatida qaror topdi. 1602-yildan boshlab mamlakatning markazi sifatida Xiva shahri rasmiylashtildi va Xorazmdagi davlatning nomi ham u bilan bog'lab yuritiladigan bo'ldi.

- XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi natijasida ichki nizo va tinimsiz urushlar davom etdi. Hatto hukmdorlarning ko'plari o'z farzandlari qo'lida shahid bo'ldilar. Urug'-qabilalar o'rtasidagi etnik qarama-qarshiliklar ularga bir xalq bo'lib jiplashishga imkon bermadi. Shu bilan bir qatorda, Xorazm vohasidagi o'troq va ko'chmanchi chorvador aholi o'rtasida azaldan saqlanib kelayotgan iqtisodiy va siyosiy muammolar, fuqarolarning tinchlik va osoyishtaligiga doimo raxna solib turardi.

- Xiva xonligining butun tarixi davlat boshqaruvini tashkil etishda urug'-aymoqchilik munosabatlariga tayanilganligidan dalolat beradi. Xorazm vohasini eroniy qizilboshlar bosqinidan ozod qilishga qaratilgan xalq harakati jarayonida yordamga o'tlangan o'zbeklar o'z urug'-qabila-

doshlariga Mang'ishloq va Ustyurt orqali vohaga kelishlari uchun sharoit yaratganlar. Yangi kelgan o'zbeklarni etnik xususiyatlariga qarab joylashtirish qariyb bir yarim asrdan keyin Abulg'oz Bahodirxon davrida amalga oshirilgan.

- XVII asrning o'rtalarida joriy etilgan ma'muriy-etnik tartiblar deyarlik xonlik tuzumi tugatilguncha saqlanib qolgan. Ya'ni, Xorazm hududida markazlashgan davlatning tashkil topishi, uning mustahkamlanishi, iqtisodiy va madaniy yuksalishi, xalqaro miqyosda mustahkam o'rin egallashida Arab Muhammadxon va uning avlodlari, ayniqsa, Abulg'oz Bahodirxonning xizmatlari katta bo'lgan.

- XVIII asr O'rta Osiyoda uchta mustaqil davlatning to'la shakllanishi bilan xarakterlanadi. Qo'qon xonligi yosh va mustaqil davlat sifatida qaror topib mustahkamlanayotgan bir paytda Buxoro va Xorazmda ijtimoiy-siyosiy parokandalik, iqtisodiy inqiroz, o'zaro urushlar, bosqinchilik va talonchilik avj oldi. Bu jarayon o'z-o'zidan hukmron sulolaning tanazzuli va yangi siyosiy kuchlarning siyosiy maydonga chiqishiga olib keldi.

- XVIII asr ikkinchi yarmidan amaliy hokimiyatni qo'lga olgan qo'ng'iroq urug'i boshliqlari o'zlarini 1804-yilda rasmiy xon deb e'lon qilgunlariga qadar salkam yarim asr vaqt o'tdi. Qo'ng'irotlardan bo'lgan Muhammad Rahimxon I (1806 – 1825), Olloqulixon (1825 – 1842) va Muhammad Aminxon (1846 – 1855) davrlarida Xiva xonligi nisbatan mustahkamlandi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaldi. Ikkinchi tomondan, diniy mutaassiblik, yakka hukmronlik boshqaruvi mamlakatni mahdudlik, inqiroz, tanazzul yoqasiga olib keldi. Qo'ng'irotlar sulolasi davri shu jihatlari bilan ham xarakterlanadi.

- Xiva xonligi Markaziy Osiyoda shakllangan davlat sifatida mazkur hududdagi barcha mamlakatlar bilan turli sohalarida aloqalar olib borgan. Xiva Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Eron va Rossiya bilan elchilik munosabatlari, savdo-sotiq aloqalari o'rnatilgan.

- Xiva xonlari voha atrofida yashagan ko'chmanchi o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va turkmanlarni bo'ysundirish uchun ko'p kuch sarflaganlar. Tadqiq qilingan davr doirasida xonlik hududlarida bo'lib o'tgan etnik va etnomadaniy jarayonlar ko'plab urug'-qabilalarning taqdiri bir davlat manfaatlarini doirasiga birlashtirilganligini ko'rsatadi.

- Chor Rossiyasi va Buyuk Britaniya siyosatchilarining nazariga tushgan O'rta Osiyo hududini egallash va mustamlakaga aylantirish uchun urinishlar kuchaygan bir sharoitda Buxoro, Qo'qon va Xiva

hukmdorlari bir-birlari bilan kelishmasdan, o'z saltanatlarini halokat yoqasiga keltirib qo'ydilar. Natijada ruslar istilosi vaqtida Qo'qon xonligi tugatildi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi yarim mustamlaka davlatlarga aylantirildi.

- Xiva xonligining chor qo'shinlari tomonidan nisbatan yengil va qisqa vaqtda istilo qilinishi bosqinchilarning kuch-qudratining ustunligidan tashqari, xonlikdagi o'zaro nizo va urushlar, taxt va toj talashlar, markaziy hokimiyatning zaifligi, tarqoqlik sabab bo'lgan.

- Yirik yer egaligi sharoitida xon va amaldorlar, din arboblari ulkan mulkga ega bo'lishi bilan bir qatorda qashshoq aholining soni oshib bordi. Mardikorlar, chorikorlar, bevatanlar deb nom olgan kambag'al dehqonlarni ekspluatatsiya qilish evaziga ayrim hukmron ijtimoiy guruhlarning boyligi haddan tashqari oshib ketdi. Muhtojlikka chiday olmagan qashshoq aholi ayrim vaqtlarda qo'zg'olonlar ko'tarishga majbur bo'ldi.

- XX asr boshlarida butun dunyoda ro'y bergan iqtisodiy inqirozlar va siyosiy keskinlik ta'sirida Xiva xonligida ham keskin vaziyatlar vujudga keldi. Buning ustasiga chor ma'murlarining xonlikning ichki va tashqi siyosatiga aralashishi, etnik va diniy negizdagi to'qnashuvlar, Junaidxon diktaturasi va bolsheviklarning zo'rovonligi natijasi-da Xiva xonligining tugatilishi uchun sharoitlar yetildi.

Xiva xonligi tarixini o'rganish va saboqlarini doimo esda tutish foydadan xoli emas. Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish tomon dadil harakat qilayotgan mustaqil davlatimizning rahbar xodimlarini tanlashda qarindosh-urug'chilik, mahalliy-chilikga yo'l qo'ymaslik bilan bir qatorda, barcha millat va elatlarning eng qobiliyatli, bilimli va tajribali vakillarini, ularning yuksak ma'naviyati, axloqi, Vatanga sadoqatiga qarab aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Istiqlol yaratgan bugungi imkoniyatlardan foydalangan holda, Xiva xonligidagi ozodlik harakatlari (Eron hukmdorlari Ismoil Safaviy va Nodirshoh Afshor bosqinlari, qalmiqlar va chor qo'shinlarining xurujlari, xon istibdodiga qarshi o'zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning qo'zg'olonlari) tarixi alohida mavzu sifatida tadqiq etilishiga loyiq muammo hisoblanadi.

Xiva xonligida tarjimonlik va tarixshunoslik maktabi shakllangan. Vatanimiz tarixchilari va manbashunos olimlari oldida Xorazm muarrixlari merosini yana-da chuqurroq o'rganib, ularni to'liq chop etishdek muhim vazifa turadi. Ular yoshlarimizning bilim doirasini kengaytirish

va boyitish, ajdodlar merosini va qadriyatlarni avaylab-asrash, ma'naviy dunyoqarashini qudratli kuchga aylantirish uchun muhim omil bo'lardi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asrida: "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi",<sup>1</sup> – deb yozadi.

Demak, istiqbolida butun mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixini yana-da kengroq va chuqurroq taqdiq qilish xalqimizning o'zligini teran anglash, milliy qadriyatlarini tiklash, ulug' ajdodlarimizning siymosi va ularning buyuk ishlarini tarix sahifalarida abadiy muhr-lash imkonini beradi. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlar xotirasiga sadoqat, Vatanga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni istiqbolida yurtimizning yuksak ravnaqi, mustaqilligini mustahkamlashga yana-da dadilroq safarbar etishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 97-bet.

## MANBA VA ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari

**Karimov I. A.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 31-bet.

**Karimov I. A.** Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. Asarlar. 6-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 375–386-betlar.

**Karimov I. A.** Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar. 7-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 1999, 410-bet.

**Karimov I. A.** Metin irodali insonlar yurtiga ehtirom. Asarlar. 8-jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2000, 241–256-betlar.

**Karimov I. A.** Ilm-ma'rifat ziyosi hech qachon so'nmaydi. Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Ma'rifat" gazetasi, Toshkent, 2006, 4-noyabr.

**Karimov I. A.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 174-bet.

**Karimov I. A.** O'zbekiston mustaqillikka ershish ostonasida. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 440-bet.

**Karimov I. A.** Xorazm – muqaddas zamin. To'plovchi K. Nurjonov. Urganch, "Xorazm", 1998, 61-bet.

### II. Manbalar

**Abul'ozir Bahodirxon.** Shajarayi turk. Toshkent, "Cho'lpon", 1992, 192-bet.

**Bayoniy Muhammad Yusuf.** Shajarayi Xorazmshohiy. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1994, 104-bet.

**Bayoniy.** Shajarayi Xorazmshohiy. "Meros" to'plamida. Toshkent, Abdulla Qodiriy..., 1992, 175–255-betlar.

**Munis va Ogahiy.** Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: Shodmon Vohidov, Ismoil Bekchanov, Ne'matjon Polvonov. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010, 520-bet.

**Muhammad Rizo Ogahiy.** Asarlar. 6 jildlik. Toshkent, G'afur G'ulom..., 1971–1977.

**Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy.** Shohid ul-iqbol. Toshkent, "Muharrir", 2009, 335-bet.

**Регесты казийских документов и ханских ярлыков Хивинского ханства XVII – начала XX в.** Рук. проекта – д.и.н. Э. Каримов. Ташкент, "Фан", 2007, 223 с.



**Sayyid Homidjon to'ra Komyob.** Tavorix ul-xavonin. Toshkent, "Akademiya", 2010, 116-bet.

**Условия мира России с Хивой.** Национальная политика в императорской России. Цивилизованные окраины. М., 1997, с. 367–371.

**Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy.** Firdavs ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchilar: Nusratulla Jumaxo'jayev, Saparboy Ro'zimboyev, Abdulla Ahmedov. Toshkent, "O'qituvchi", 2010, 384 bet.

### III. Adabiyotlar

**Абаза К. К.** Завоевание Туркестана. М., Кучково поле, 2008, 255 с.

**Abdurasulov A.** Xiva. Tarixiy-etnografik ocherklar. Toshkent, "O'zbekiston", 1997, 142 b.

**Алиханов-Аварский М.** Поход в Хиву в 1873 г. СПб., 1899, с. 211–213; WWW: Kungrad.com.

**Аминов А. М., Бабаходжаев А. Х.** Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. Ташкент, 1966.

**Ahmedov B. A.** Tarixdan saboqlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1994, 430 b.

**Бартольд В. В.** Событие перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч., т. 2, М., "Наука", 1964, с. 400–413.

**Брегель Ю. Э.** Хорезмские туркмены в XIX веке. М., "Наука", 1963, 236 с.

**Веселовский Н. И.** Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего. СПб., 1877, 364 с.

**Гиршфельд В., Галкин М. Н.** Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ч. 2, Ташкент, 1903, 66 с.

**Гулямов Я.** История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Отв. ред. акад. С. П. Толстов. Ташкент, УзФан, 1957, 313 с.

**Жуковский С. В.** Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Петроград, 1915, 215 с.

**Ziyouev N.** Turkiстонда Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent, "Sharq", 1998, 74 b.

**Иванов П. П.** Архив хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии. Л., 1940, 290 с.

**Иванов П. П.** Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX вв.). М., 1958.

**Yo'ldoshev M.** Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent, O'zdamnashr, 1959, 240 b.

**Камалов С. К.** Народно-освободительная борьба каракалпаков против хивинских ханов в XIX веке (коракалпоқ тилида). Нукус, ККГиз., 1955, 138 с.

**Кошанов Б., Сейтназаров М.** Революция? Вторжение? События в Хивинском ханстве (1919–1920 гг.). Нукус, “Билим”, 1997, 40 с.

**Лобачевский В.** Хивинский район. Ташкент, Штаб ТуркВО, 1912, 177 с.

**Мак-Гахан А. Я.** Военные действия на Оксусе и падение Хивы. М., 1875, 324 с.

**Munirov Q.** Xorazmda tarixnavislik (XVII – XX asr boshlari). Toshkent, G'afur G'ulom..., 2002, 190 b.

**Mustabid** tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990). Toshkent, “Sharq”, 2000.

**Polvonov N. T.** Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900–1924). Tashkent, “Akademnashr”, 2011, 120 b.

**Садыков А. С.** Россия и Хива в конце XIX начале XX века. Ташкент, “Фан”, 1972.

**Sodiqov A.** Xiva va Rossiya iqtisodiy munosabatlari (XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlari). Toshkent, “Fan”, 1968.

**Халфин Н. А.** Политика России в Средней Азии (1857–1868 гг.). М., “Наука”, 1960.

**Халфин Н. А.** Присоединение Средней Азии к России (60–90-е годы XIX в.). М., “Наука”, 1965.

**Xudayberganov K.** Xiva xonlari tarixidan. Urganch, “Xorazm”, 2008, 192 b.

**Erkinov A., Polvonov N., Aminov H.** Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 384 b.

**Qo'shjonov O., Polvonov N.** Xorazmdagi ijtimoiy jarayonlar va harakatlar. Toshkent, “Abu matbuot konsalt” MCHJ, 2007, 388 b.

**Qo'shjonov O., Durdiyeva G.** Xiva turkmanlari tarixi. Xiva, 2008, 136 b.

**G'ulomov Y. G'.** Xorazmning sug'orilish tarixi: qadimgi zamonlardan hozirgacha. Muharrir A. R. Muhammadjonov. Toshkent, O'zFAN, 1959, 324 b.

#### IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

**Абдурасулов А.** Социально-экономическая и культурная жизнь города Хивы в конце XIX – начале XX века. Автореф. ... дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 1988, 19 с.

**Allayeva N. A.** XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Tarix fan. nomz. ...diss. avtoref. Toshkent, 2007, 25 b.

**Жуманиёзова М. Т.** Этнический состав и особенности материальной культуры населения Хорезмского оазиса в конце XIX – начале XX вв. Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 1998, 28 с.

**Камалов С.** Каракалпаки в XVIII – 60-х годах XIX в. (К истории взаимоотношений с Россией и среднеазиатскими ханствами). Автореф. дисс. ...докт. ист. наук. Ташкент, 1969, 56 с.

**Каюмов М. У.** Общественно-политически процессы в Хивинском ханстве во второй половине XIX – в начале XX вв. Автореф. ...дисс. канд. ист. наук. Тошкент, 2005, 25 б.

**Кушчанов А.** Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX – начала XX вв. Дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 1966, 259 с.

**Мамажонов М.** Материалы по истории Хивинского ханства. Дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 1999, 195 с.

**Masaliyeva O.** XIX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi. Tarix fan. nomz. ... diss. Toshkent, 1999, 160 b.

**Маткаримова С. М.** Историография Хивинского ханства в период Кунградской династии (XIX – начало XX века). Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 2010, 31 с.

**Matyaqubova M.** XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fan. nomz. ... diss. avtoref. Toshkent, 2008, 34 b.

**Mutalov O.** Xiva xonligi Olloqulixon davrida. Tarix fan. nomz. diss. Toshkent, 2003, 150 b.

**Наврузов С.** Социально-экономическая и культурная жизнь в Хивинском ханстве в исторической, историко-географической литературе XIX–XX вв. Дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 1991, 196 с.

**Polvonov N. T.** Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900–1924). Tarix fan. nomz. ...diss. avtoref. Toshkent, 2005, 32 b.

**Рахманова Ю. М.** Общественно-политическая жизнь города Х-вы в XVI – начале XX веков: традиции и трансформации. Автореф. дисс. ...канд. ист. наук. Ташкент, 2009, 29 с.

**Saburova S.** XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tizimi. Tarix fan. nomz. diss. Toshkent, 2002, 180 b.

**Ernazarov F. N.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi madaniy hayot. Tarix fan. nomz. ...diss. avtoref. Toshkent, 2005, 26 b.

### Shartli qisqartmalar:

**Автореф. дисс... канд. истор. наук.** Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук.

**Вестник ИРГО** – Вестник Императорского русского географического общества.

**ВУА** – Военно-ученый архив.

**Дисс. ...канд. истор. наук** – диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук.

**ККО АН РУз.** – Каракалпакское отделение Академии наук Республики Узбекистан.

**КСИИМК** – Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях Института истории материальной культуры АН СССР.

**Л.** – Ленинград.

**М.** – Москва.

**ОНУ** – Общественные науки в Узбекистане (Ташкент).

**Tarix fan. dokt ...diss.** – tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yoqlangan dissertatsiya.

**Tarix fan. nom. ...diss.** – tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yoqlangan dissertatsiya.

**Tarix fan. nomz. diss. ...avtoref.** – tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yoqlangan dissertatsiya avtoreferati.

**ТВОРАО** – Труды Восточного Отдела Российского Археологического Общества.

**Турк. вед.** – Туркестанские ведомости.

**Турк. сб.** – Туркестанский сборник.

**ХАЭЭ** – Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция.

**ЦГВИА РФ** – Центральный Государственный Военно-исторический архив Российской Федерации.

**O‘zR FASHI.** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	3
<b>I BOB. XIVA XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA UNING MANBALARI</b>	5
<b>II BOB. XIVA XONLIGIGA ASOS SOLINISHI VA DAVLATNI MUSTAHKAMLASH UCHUN KURASH (XVI–XVIII ASRLAR)</b>	
2.1. Xorazmda o‘zbek xonligining tashkil topishi vaqtidagi siyosiy ahvol. Xiva shahrining poytaxt etib tanlanishi	16
2.2. Arab Muhammadxon va uning avlodlari davrida xonlikning mustahkamlanishi hamda siyosiy inqiroz oqibatlari	26
2.3. Xiva xonligining tashqi siyosiy aloqalari boshlanishi	35
<b>III BOB. XIVA XONLIGI QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASINING XIX ASRDAGI HUKMRONLIGI DAVRIDA</b>	
3.1. Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligi boshlanishi davridagi siyosiy va ijtisodiy yuksalish	49
3.2. Qo‘ng‘irotlar sulolasining irshni mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari. Qoraqalpoqlar qo‘zg‘olonlari	65
3.3. Xiva xonligining chor Rossiyasi tomonidan istilo iilinishi va yarim mustamlaka davlatga aylantirilishi	79
<b>IV BOB. XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY VA SIYOSIY HAYOTI</b>	
4.1. Xiva xonligida ijtisodiy-ijtimoiy islohotlar va ularning natijalari	92
4.2. Xiva xonligida siyosiy munosabatlarning keskinlashishi va ularning oqibatlari	105
<b>Xulosa</b>	126
<b>Manba va adabiyotlar</b>	130
<b>Shartli qisqartmalar</b>	139

URDU  
KIROATXONA

Madirim Mahmudov, Umarbek Sheripov

“XIVA XONLIGI TARIHI”  
(monografiya)



Muharrir Ro‘zimboy Yo‘ldoshev  
Kompyuter muhandisi Sherali Yo‘ldoshev  
Musahhih Tamara Turumova

UrDU noshirlik bo‘limi O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining 19.08.2009 №148 raqamli buyrug‘i bilan

qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Terishga berildi 3.06.2013.

Bosishga ruxsat etildi 11.06.2013.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.

Tayms garniturası. Adadı 80. Buyurtma № 15.

Hisob-nashriyot tabag‘i 6,5.

Shartli bosma tabag‘i 6.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.

UrDU noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Manzil: 220110. Urganch shahri,

H. Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon/faks: (8-362)-224-27-58.



ISBN 978-9943-4031-1-6



9 789943 403116